«Xayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari» fanining maksadi - ishlab chikarishda va favkulodda xolatlarda xavfsizlikni ta'minlash va yaxshi ish sharoitlarini yaratish uchun insonlarni nazariy va amaliy jixatidan tayyorlash xamda ekstremal vaziyatlarda kaday xarakat kilish va o'rgatishdan iboratdir.

XFX fanining dikkat markaziga ko'yilgan maksad bu insonning jamiyat tarakkiyotidagi roli. Mexnat muxofazasi insonni ishlab chikarishdagi axvoli, u bilan bo'flik masalalarni o'rganishni o'z oldiga maksad kilib ko'yadi.

Xayot faoliyat xavfsizligi – inson va uning salomatligi uchun xavfsiz mexnat sharoitini ta'minlashga karatilgan texnikaviy sanitar–gigienik va xukukiy tadbirlar majmuidir.

Xavfsizlik texnikasi-xavfli ishlab chikarish omillarning, ya'ni xavfsizlik koidalari buzilgandagi Baxtsiz xodisalar, shikastlanishlarni keltirib chikaradigan omillarning insonga ta'sir etishini oldini oladigan tashkiliy va texnikaviy tadbirlar majmuidir.

Ishlab chikarish sanitariyasi-zararli ishlab chikarish omillarining, ya'ni kasalliklar keltirib chikaradigan omillarning ishchilarga ta'sirini oldini oladigan tashkiliy, gigienik va sanitariya-texnikaviy tadbirlar va vositalar majmui.

Xayotiy faoliyat xavfsizligi tushunchasi. Xayotiy faoliyat xavfsizligi tushunchasi ko'p uchraydigan ta'riflar bilan belgilanadi. Faoliyat - insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit. Mexnat - faoliyatning yukori shakli. Faylasuflarning fikricha, insonning taerifi – xarakatdagi, mexnatdagi faoliyatidadir.

Mexnat va faoliyat shakllari turlicha bo'lib, ular xayotda uchraydigan akliy, manaviy, madaniy, ilmiy va boshka jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Faoliyat jarayoni modeli. Faoliyat jarayoni modeli ikki elementdan, ya'ni inson va muxit orasidagi to'fri va teskari munosabatlardan tuzilgan deb tasavvur kilish

mumkin. Teskari munosabatlar moddiy dunyoning karama-karshilik umumiy konunlaridan kelib chikadi. "Inson-muxit" sistemasi ikki maksadli bo'ladi:

- 1) anik bir natijaga erishish,
- 2) ko'ngilsiz xodisalarni chikarib tashlash (inson sofliriga va xayotiga ziyon, yonfinlar va falokatlar).

SHularning kelib chikishi va shunga o'xshash xodisalar okibatida kelib chikadigan natijaga xavf deb ataladi. SHuning bilan birgalikda «Xayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari» fani bir-biri bilan o'zaro bo'lik bo'lgan uchta asosiy vazifani echadi:

- xavflarni identifikatsiyalash, ya'ni xavflarning sonli tavsifi va kelib chikish nuktalarini ko'rsatgan xolda ularning kiyofasini bilish;
- foyda va xarajatni takkoshlash asosida xavflardan ximoyalanish;
- mumkin bo'lgan salbiy xavflarni (kolgan xavf-xatar konsepsiyasidan kelib chikkan xolda) bartaraf kilish. Kishilik jamiyatini rivojlanish tarixining eng dastlabki boskichlarida faoliyat sharoitlariga eetibor karatilgan, shu jumladan inson soflirini saklash masalalari xam ko'rilgan.

XFX masalalari bilan kadim zamonlardan beri ko'p ulu' allomalar shu'ullanib kelishgan. Masalan. Gippokrat eramizdan avvalgi 460-377 yillar, Aristotel eramizdan avvalgi 384-322 yillar, nemis tabibi, olimi va muxandisi Agrikola 1494-1555 yillar, Mexnat muxofazasidan risola yozgan italyan tabibi, Ramatssini (1633 - 1714) tozalik gigienasiga asos solgan M.V. Lomonosov (1711-1765) to' konlarida mexnat muxofazasi to'frisida monografiya yozgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sanoatda texnika rivojlanishi munosabati bilan, bir gurux olimlar xavfsizlik muammosi bilan shu'ullanganlar: Kirpichev V.L. (1855-1913), Press A.A. (1857-1930), Nikolskiy D.P. (1855 - 1918), Levitskiy V.A. (1867-1936), Skochinskiy A.A. (1874-1960), Kaplun (1897-1943) va boshkalar.

Ulug' o'zbek xakimi Abu Ali Ibn Sino (980-1087) o'z ishlari bilan bundan 1000 yil mukaddam gigiena faniga asos solgan. Texnosfera va xavfsizlik muammosining rivojlanishiga akademik Legasov V.A. o'z ilmiy ishlarini ba'ishlagan.

«Xayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari» ilmiy fan sifatida o'zining nazariyasi, metodologiyasi va metodlariga ega va bir vaktning o'zida kuyidagi: muxandislik psixologiyasi, odam fiziologiyasi, mexnat muxofazasi, ekologiya, ergonomika va boshka fanlarning yutuklariga suyanadi, «Xayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari» metodologik bazasining tizimli taxlildir.

XFX - o'z nazariya va metodologiya usullariga ega. SHunga karamay XFX – muxandislik, ruxiy xolat (psixologiya), inson fiziologiyasi, mexnat muxofazasi, ekologiya, ergonomika, iktisod va boshka fanlarning yutuklariga asoslangan. XFX ning metodologik asosi - bu tartibiy taxlildir. Texnika va sanoat yukori tarakkiy etgan xozirgi davrda XFX ning axamiyati yana xam oshib ketdi. Xavfsizlik masalalari yana xam keskinlashib ketdi. SHuning uchun mexnat xavfsizligini chukur o'rganish, bilish, tashvikot kilish va odamlarni xavf-xatardan ximoya kilish masalalari asosida tarbiya kilish kerak. Bu XFX ning vazifasi va maksadi. XFX -

jamiyatimizning mustaxkamlanishida xalkning xavfsizlik faoliyati darajasini ko'tarishda muxim ijtimoiy rol o'ynaydi. XFX fanini o'rganmay, odamlar umumiy inson xukuklarida aytilgan ...xayot, erkinlik, mexnat, shaxsiy daxlsizlikka erisha olmaydi... (Inson xukuklari deklaratsiyasi, 3-bandi).

Xavf –xayot faoliyati xavfsizligining markaziy tushunchasi bo'lib, u xodisa, jarayon va obyektlarning inson sofliriga to'fridan-to'fri yoki bilvosita ma'lum sharoitda kay darajada zarar yetkazish kobiliyati tushuniladi, ya'ni ko'ngilsiz okibatlariga olib keladi.

Taxlilning maksadiga ko'ra xavfni xarakterlovchi belgilarning sonini ko'payishi yoki kamayishi mumkin. XFX dagi xavfga berilgan yukoridagi taerif mavjud bo'lgan standart tushunchalarni (xavfli va zararli ishlab chikarish omillari) o'ziga tortuvchi xamda faoliyatning xamma turlarini xisobga oluvchi juda salmokli tushunchadir.

Xavf energiyaga ega bo'lgan kimyoviy yoki biologik aktiv kompo-nentlarni o'zida joylashtirgan xamma tizimlarni xamda inson xayot faoliyati sharoitiga javob bermaydigan tavsiflarni o'zida saklaydi.

Taksonomiya - bu murakkab xodisalar, tushunchalar, ob'ektlarni sinflashtirish va tizimlashtirish xakidagi fandir. Taksonomiya so'zi xavflarni konun bo'yicha joylashtirish degan maenoni beradi. Xavf ko'p belgilarga ega bo'lgan murakkab ierarxik tushunchadir. Faoliyat xavfsizligi soxasida ilmiy bilimlarni tashkil kilishda xavflarni taksonomiyalash muxim rol o'ynaydi va ularning tabiatini chukur bilishga undaydi.

Xozircha xavflarning yetarlicha to'lik, mukammal taksonomiyasi yaratilmagan. Bu o'kituvchi va olimlar oldida kelgusida juda katta ilmiy izlanishlar olib borishini ko'rsatadi.

Nomenklatura - ma'lum belgilariga ko'ra tizimlashtirilgan xavfli nom va so'zlar ro'yxatidir. Xozirgi kunda xavflarning nomenklaturasini umumiy xolda alfavit tartibida kuyidagicha keltiramiz: Ajal, alanga, alkogol, buzilish, vakuum, vulkan, vaxima, gaz, gerbitsid, daxshat, dard, dinamik zo'rikish, yemirilish, yom'ir, yon'rin, zaxar, zilzila, ifloslanish, ichkilik kasalligi, kamchilik, kuyish, loy, lat yemok, loykalanish, lazer nurlari, magnit maydoni, momakaldirak, meteoritlar, mikroorganizmlar, namlanish, pulesatsiya, pasayish, radiatsiya, rezonans, so'raymok, saklanish, sirpanish, tebranish, tok urishi, toymok, uzilish, urmok, ultratovush, xujum, xavf, charchash, shamol, shovkin, elektr toki, elektr maydoni, yaxmalak xamda yadro.

Anik ilmiy izlanishlar olib borilganda, xar bir aloxida obyektlar uchun (ishlab chikarish, sexlar, ish joylari, jarayonlar, kasblar va xokazo) xavflar nomenklaturasi tuziladi.

Kvantifikatsiya - murakkab tushunchalarning sifatini aniklashda sonli tavsiflarni joriy kilishdir. Amalda kvantifikatsiyaning sonli, balli va boshka usullari ko'llaniladi. Xavflarni baxolashning eng keng tarkalgan usuli- tavakkaldir.

Identifikatsiya- deganda xayot faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan oldini olish va tezkor tadbirlarni yaratishga zarur va yetarli bo'lgan sonli, vaktinchalik, fazoviy va boshqa tavsiflarni topish va aniklash jarayonini tushunamiz.

Xavf ko'ngilsiz voqeaga xar xil sabablar bilan aylanishi mumkin. Baxtsiz xodisalarning oldini olish asosida sababini kidirish yotadi.

Xavflar kuyidagicha sinflanadi:

1. Kelib chikish tabiatiga ko'ra xavflar: tabiiy, texnikaviy, antropogen (inson bilan bo'lik), ekologik va boshkalarga bo'linadi.

2. Maxsus standartlar bo'yicha: fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik.

3. Salbiy okibatlarining vakt bo'yicha kelib chikishiga ko'ra xavflar impulsli va kumulyativ (inson organizmida yiriluvchi) bo'ladi.

4. Olib keluvchi okibatiga ko'ra: tolikish, kasallanish, jaroxatlanish, xalokat, yon'in va o'lim xavflari.

5. Keltiruvchi zarariga ko'ra: ijtimoiy, texnik, ekologik.

6. Yakkalashi bo'yicha: litosfera, gidrosfera, atmosfera va kosmos bilan bo'lik bo'lgan xavflar.

7. Kelib chikish soxasiga ko'ra: turmushda, sportda, yo'l transportida, ishlab chikarishda, yuzaga keladigan xavflarga bo'linadi.

8. Tuzilishiga ko'ra xavflar oddiy va xosil kilingan (oddiylarning ta'sirida xosil kilingan) bo'ladi.

9. Insonga ta'sir kilish xarakteriga karab faol (aktiv) va sust (passiv) xavflar bo'ladi.

energiya xisobiga faollashadigan xavflar sust xavflarga kiradi, bularni insonning o'zi vujudga keltiradi. Bular: o'tkir (sanchiluvchi va kesuvchi) ko'z'almas jismlar, insonlar yuradigan yuzalarning notekisligi, kiyaliklar, balandliklar, bir-biriga tegayotgan tekisliklar orasidagi ishkalanish va boshkalar.

Xavflarning Baxtsiz xodisa yuz berishidan oldingi (aprior) va u yuz bergandan keyingi (aposterior) belgilari mavjuddir.

Xar kanday faoliyatning xavfliligini tasdiklashga insoniyat tajribasi asos bo'ladi.

Faoliyatning birorta turi yo'kki, u abadiy xavfsiz amalga oshsa. O'z navbatida kuyidagi xulosani ifodalashimiz mumkin: xar kanday faoliyat potensial xavflidir. Bu tasdiklanish aksiomatik xarakterga egadir. Berilgan aksioma fakat metodologik va evristik axamiyatga egadir.

Xavf-xatar xayotiy faoliyat xavfsizligining markaziy tushunchasi bo'lib, odam so'fligiga bevosita yoki boshka yo'llar bilan zarar etkazadigan, yani ko'ngilsiz xodisalar, okibat yaratuvchilar tushuniladi.

Ko'ngilsiz okibatlarga kuyidagilarni aytish mumkin: inson xayotiga va so'fliriga zarar yetkazish, yonginlar, buzilishlar (avariyalar), talofatlar (katastrofalar) va boshkalar. Bu ko'ngilsiz okibatlarni keltirib chikaruvchi xodisa, ta'sir va boshka jarayonlar xavflar deb ataladi. Xavflar yashirin (potensial) va real turlarga ajratiladi. Xavflar - yashirin (potensial) va xakikiy bo'ladi. Potensial (yashirin) xavflarni yuzaga keltiruvchi sharoit sabablar deyiladi. Identifikatsiya jarayonida anik

masalalarni yechish uchun muxim bo'lgan xavflar nomenklaturasi va ularning paydo bo'lish ehtimolligi, joyini yakkalesh, ko'zda tutilgan zarar va shunga o'xshash o'lchamlar aniklanadi.

Boshkacha kilib aytganda, sabablar vaziyatlar to'plamini xarakterlaydi, unga ko'ra xavflar paydo bo'ladi, u yoki bu kutilmagan okibatlarini va zararlarni keltirib chikaradi.

Zarar yoki kutilmagan okibatlarining shakllari xar xildir: xar xil o'irlikdagi jaroxatlar, zamonaviy usullar bilan aniklanadigan kasalliklar, atrof -muxitga keltiradigan zarar va boshkalar.

Xavf, sabablar va okibatlar - bular shunday voqealarning, ya'ni Baxtsiz xodisa, favkulodda xolat va yonginlarning asosiy ko'rsatkichlaridir.

Uchlik- "xavflar-sabablar-ko'ngilsiz okibatlar" - bu rivojlanishning logik jarayoni bo'lib, potensial xavfni mavjud bo'lgan zararga olib keladi. Koida bo'yicha bu jarayon bir necha sabablarni o'z ichiga oladi, ya'ni u ko'p sabablidir.

Xavf-sabab-okibat uchligi - bu yashirin xavflarni va zararlarni amalga oshiruvchi tarakkiyotning mantiqiy jarayonidir. Masalan: zaxar (xavfli) - dori tayyorlovchining xatosi (sabab) - zaxarlanish (ko'ngilsiz okibatlar). elektr toki - kiska ulanish - kuyib kolish. Arok - juda ko'p bo'lsa-o'lim.

Yashirin xavflar aksiomasi (o'z-o'zidan ma'lum xakikat).

Mutlok xavfsiz bo'lgan ish (faoliyat) bo'lishligi mumkin emas. Demak, xar kandy (faoliyat) bo'lmasin - unda yashirin xavf bo'ladi. Bu aksioma XFX da ro'yat katta metodologik ahamiyatga ega.

Xavfsizlikning umumiy nazariyasi strukturasida tamoyillar va usullar muxim ahamiyatga ega va o'rganilayotgan fan soxasi bilan bo'langanligi xakida to'la tushuncha beradi.

Tamoyillarning ahamiyati xakida fransuz filosof-materialisti Gelvetsiy (1715-1771) shunday yozgan: "Ayrim tamoyillarni bilish ayrim omillarni bilmaslikni engil to'ldiradi".

Xavfsizlikni ta'minlash usuli va tamoyillari boshka umumiy usullardan fark kilgan xolda dialektika va logikaga tegishlidir.

Tamoyillar va metodlar ma'lum mikdorda o'zaro bo'flikdir. Xavfsizlikni ta'minlash vositalari keng maenoda konstruktiv, tashkiliy, iktisodiy bo'lib, usul va tamoyillarni anik ro'yobga chikarishga xizmat kiladi.

Tamoyillar, metodlar va vositalar xavfsizlikni ta'minlashning logik boskichlaridir. Ularni tanlash faoliyatining anik sharoitiga, xavf darajasiga, baxosiga va boshka ko'rsatkichlarga bo'flik bo'ladi.

Xavfsizlikni ta'minlash o'z ichiga murakkab jarayonni oladi va uni elementar tashkil etuvchilarga, ya'ni dastlabki xolatlar, ro'yalor, tamoyillar deb ataluvchilarga bo'lish mumkin. Tamoyil so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, boshlanish, ro'ya, asos demakdir. Ishlab chikarishning turi, texnologik jarayonlarning afzalliklari, ko'llaniladigan jixozlarning xar xilligi - bularning xammasi xavfsizlikni ta'minlash tamoyillarining ko'p xilligiga shartlanadi.

Tamoyillar muxim uslubiy ahamiyatga egadir.

Xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha to'laqonli profilaktik ish ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik, loyixa ishlarida, ishlab chikarish obektlarini kayta kurish va foydalanish boskichida fakat ongli ravishda xavfsizlik tamoyillarini xisobga olish bilan amalga oshiriladi.

Tamoyillarning nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular bizni o'rab olgan dunyodagi xavflar bo'yicha bizlarning bilim darajamizni aniklaydi va o'z navbatida ximoya tadbirlariga va ularni xisoblash usullariga talablar belgilaydi.

Tamoyillarning ahamiyati amaliy jihatidan xam muximdir: Ular rakobatlashayotgan variantlarni takkoslab taxlil kilish asosida xavflardan ximoyalanishning optimal echimlarini topishga imkon beradi. Tamoyillarning evristik kiymati shundan iboratki, ular mexnat xavfsizligini boshkarishni tashkil kilishda xal kiluvchi ahamiyatga egadir.

Xavfsizlikni ta'minlash tamoyilini bir-birini to'ldiruvchi element sifatida o'zaro bo'flanishda karash muximdir.

Konkret sharoitlarga bo'lik xolda bir va boshka tamoyillar xar xil amalga oshiriladi. Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari ularni amalga oshirish belgilariga karab shartli ravishda 4 ta sinfga bo'linadi: taxminiy, texnikaviy, tashkiliy va boshkaruv tamoyillari.

Taxminiy tamoyillar o'zida xavfsiz echimlarni topuvchi yo'nalishni aniklovchi metodologik va ma'lumot bazasi bo'lib, xizmat kiluvchi, asos soluvchi foyalarni takdim etadi. Bunga kuyidagi tamoyillar kiradi: operatorning aktivligi, faoliyatni gumanlashtirish, strukturani o'zgartirish, operatorni almashtirish, sinflashtirish, xavfni bartaraf kilish va kamaytirish, tizimlilik va boshkalar.

Texnikaviy tamoyillar xavfli omillarning ta'sirini bevosita oldini olishga yo'naltirilgan. Texnik tamoyillar fizik konunlarni ishlatishga asoslangan. Bunga kuyidagilar kiradi: masofadan ximoyalash, ekranlashtirish, kattikligini oshirish, blokirovkalash (yakkalash), vakuumlashtirish, xavo kirmaydigan kilish, passiv zveno kiritish, zichlashtirish, flegmatizatsiyalash va eta olmaslik tamoyillari.

Boshkaruv tamoyillari deb, xavfsizlikni ta'minlash jarayonining aloxida boskich va etaplari orasida o'zaro bo'flanish va munosabatlarni aniklovchi tamoyillarga aytiladi. Ularga Mashgulot savollari:li, nazoratli, boshkarmali, majburiyli, kayta alokali, samarali, javobgarlik, ra'batlantirish, ierarxik, bir maenoli, adekvatli tamoyillar kiradi.

Tashkiliy tamoyillarga xavfsizlik maksadida mexnatni ilmiy tashkil kilish koidalarini amalga oshiruvchi tamoyillar kiradi. Ularga vakt bo'yicha ximoyalash, ma'lumot berish, rezervlashtirish, normallashtirish, kadrlarni tanlash, ketma-ketlik, ergonomik. mexnatni ratsional tashkil kilish va zidlik tamoyillari kiradi.

Metod - maksadga erishish usulidir. Xozirgi karayotgan xolatimizda maksad xavfsizlikni ta'minlashdir.

Metodlar tamoyillarni konstruktiv va texnikaviy jihatidan xakikiy borlikda gavdalanirish bilan amalga oshiriladi.

Xavfsizlikni ta'minlash usullarini bilgan xolda inson bilan ishlab chikarish muxiti tavsiflari orasidagi o'zaro ta'sirlarni kelishtirish mumkin, ya'ni ma'lum xavfsizlik darajasiga erishish mumkin.

Xavfsizlik usullarini o'rganishdan oldin, biz quyidagi yangi tushunchalarni kiritamiz. **Ko'rilayotgan faoliyat jarayonida insonning turgan joyi gomosfera deyiladi.**

Xar doim va davriy ravishda sodir bo'lib turadigan xavfli joy noksosfera deyiladi.

Bu sferalarni xavfsizlik nuqtayi nazardan ko'shish mumkin emas.

Xavfsizlikni ta'minlash usullari 3 xil turga bo'linadi:

A -metodi, gomosfera bilan noksosferani bir-biridan joy yoki vakt jixatidan ajratish usuli. Bu usul ishlab chikarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, jixozlarni masofadan boshkarish, manipulyator va robotlarni ko'llash bilan amalga oshiriladi.

B -metodi xavfsizlik tamoyillarini ko'llab, xavflarni yo'k kilish va noksosferani (ishlab chikarish muxitini) normallashtirish, xamda noksosfera tavsiflarini inson tavsiflariga moslashtirishga asoslanadi. Bu usul insonlarni shovkin, chang, gaz, jaroxatlanish va xokazo xavfli omillardan ximoya kilishga karatilgan tadbirlar majmuasi xamda kisman xavfsiz texnikani yaratish bilan amalga oshiriladi.

Agar A va B metodlarni ko'llash bilan talab kilingan xavfsizlik darajasiga erishish ta'minlanmaganda, V - metod ko'llaniladi. **V -metodi** tegishlicha ximoya vositalari yordamida insonlarning ximoyalanish xususiyatlarini oshirishga xamda insonni noksosferaga moslashtirishga asoslangan.

Bu usul kasbiy tanlash, o'kitish, instruksiylar berish, psixologik ta'sir kilish va shaxsiy ximoya vositalarini ko'llash bilan amalga oshiriladi. V-metodni amalga oshirishda noksosfera tavsiflarini o'zgartirish uchun xar xil vositalar ko'llaniladi.

Real sharoitlarda yukorida keltirilgan usullarning bittasi yordamida zarur xavfsizlik darajasini xar doim ta'minlash mumkin bo'lmaydi. Bunday xolatlarda yukorida keltirilgan usullar majmuasini ko'llash maksadga muvofik bo'ladi.

Ishlovchilarga zararli va xavfli ishlab chikarish omillarining ta'sirini kamaytirish yoki oldini olish uchun ximoya vositalari ko'llaniladi.

Ishlovchilarning ximoya vositalari inson organizmiga eng maekul sharoitlarni xosil kilishi va quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- ish zonasidan xavfli va zararli narsalar xamda materiallarni uzoklashtirish yoki xaydash;
- zararli omillar mikdorini belgilangan darajadagi sanitar normagacha kamaytirish;
- ishlovchilarni kabul kilingan texnologiyalar va ish sharoitlarida xamrox bo'lgan zararli va xavfli ishlab chikarish omillaridan ximoya kilish;
- texnologik jarayon buzulganda paydo bo'ladigan salbiy omillardan ximoya kilishi lozim.

Ximoya vositalarini tanlash xar bir aloxida xolatlarda mexnat xavfsizligi talablariga asosan amalga oshiriladi.

Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va usullarini gavdalantirishda xar xil ximoya vositalari ko'llaniladi.

Ximoya vositalarining ko'llanilish xarakteri bo'yicha kollektiv ximoya vositalari (KXV) va shaxsiy ximoya vositalariga (SHXV) bo'linadi. Xar biri vazifasiga ko'ra sinflarga bo'linadi.

KXV zararli va xavfli omillarga bo'flik xolda: shovkindan, titrashdan, elektrostatik zaryadlardan ximoyalash vositalariga sinflanadi.

SHXV asosan ximoyalanadigan inson a'zosi yoki a'zolar guruxiga karab: nafas a'zolarini, ko'l, bosh, bet (yuzni), ko'zni va eshitish a'zolarini ximoya kilish vositalariga bo'linadi.

KXV texnik tayyorlanishiga karab kuyidagi guruxlarga bo'linadi: to'siklar, blokirovkalar, tormozlar, saklaguvchi moslamalar, yoruflik va ovoz signallari, xavfsizlik asboblari, signal ranglari, xavfsizlik belgilari, avtomatik nazorat kurilmalari, masofadan boshkarish vositalari, elektr jixozlarini erga ulash va nollash kurilmalari, shamollatish (ventilyasiya), yoritish, isitish, sovutish (konditsionerlash), izolyasiyalash, germetizatsiyalash vositalari kiradi.

SHaxsiy ximoya vositalariga: gidroizolyasiya kostyumlari, skafandrlar, protivogazlar, respiratorlar, pnevmoshlemlar, pnevmomaskalar, xar xil turdagi maxsus kiyim va poyafzallar, tutgichlar, ko'lkoplar, kaskalar, shlemlar, shapkalar, shlyapalar, shovkinga karshi shlemlar, kulokka ko'ygichlar (vkladishlar), ximoya ko'zoynaklari, saklaguvchi belbo'lar, ximoyalovchi dermatologik (kremlar) vositalar va boshkalar kiradi.

Ximoya vositalari estetik va ergonomik talablarga javob berishi kerak, aloxida, inson faoliyati uchun normal sharoitlarni ta'minlashi lozim. Bir vaktning o'zida SHXV ko'llashda texnik me'yorlarni xisobga olish kerak, ko'pchilik SHXV ma'lum nokulayliklarni keltirib chikaradi va insonni ish kobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Talablarni xisobga olishning yo'kligi, kisman SHXV ko'llashda buzilishning sababchisi bo'ladi. Ximoya vositalari ximoya va fiziologik ko'rsatkichlari bo'yicha baxolanishi kerak.

Ergonomika ilmiy fan bo'lib, u texnika, psixologiya, fiziologiya va gigiena fanlarining birikishidan paydo bo'lgan. Unda anatomiya, biomexanika, toksikologiya, antropometriya va biofizika fanlarining ma'lumotlari ko'llaniladi.

Ergonomika mexnat jarayonlarida kulay (optimal) sharoitlarni yaratish maksadida insonning funksional imkoniyatlarini va afzalliklarini o'rganadi. Bunda mexnat yukori unumli va ishonchli bo'ladi xamda intellektual va fizik rivojlanishga yangi imkoniyatlar ochadi. Boshkacha kilib aytganda, inson tavsiflari bilan muxit tavsiflari o'rtasida ma'lum kelishuvchanlik xakida so'z boradi.

Albatta bunda o'ziga yarasha xayot faoliyati xavfsizligining ayrim masalalari echiladi. Lekin bu soxa bilimlarini bir-biriga tenglashtirmok to'fri kelmaydi. Kisman ergonomika texnikani insonlarga moslashtirishga intiladi, ammo bu masala xar doim

xam echilavermaydi. XFX esa insonni texnikaga moslashtirish muammolarini ko'radi.

Ergonomika - bu mehnat konuniyatlari va ishchi jarayonlar xakidagi fandır. ergonomika tushunchasi grekcha- ish va konun degan so'zlardan kelib chikkandır.

Ergonomika so'zini birinchi bo'lib, 1875- yili o'zining "Ergonomika jixatiları, ya'ni mehnat xakidagi fan" degan ishida polyak olimi YAstshembovskiy taklif kilgan.

YAngi ilmiy fanni yaratish foyasi boshida 1921 yilda sobik ittifok olimlari Bexterev V.M. va Myasnitsev V.N.lar uni «egologiya» keyin "ergonologiya" deb atashni taklif kilishgan.

1949 yilda Angliyada yangi ilmiy fanni yaratish uchun fanning xar xil soxalaridan bir gurux mutaxassislar birikkanlarida ergonomika tushunchasi kabul kilindi. Bu tushuncha asta-sekin keng tarkala boshladi, nainki u bilan birgalikda boshka taeriflar xam ishlatilib kelindi; misol: inson injeneriyasi, injenerlik psixologiyasi, "inson-mashina" tizimida izlash, inson omillari kabi tushunchalar.

Ergonomika texnika rivojlanishining ma'lum etapi (boskichi)da paydo bo'lgan bo'lib, ishlab chikarishda muxim muammolarni echishda zarur shart-sharoitdir. YAngi jixoz va unga to'fri kelgan ishlab chikarish muxitini loyixalashda sodir bo'ladigan ko'pchilik savollarni fakat so'fom fikr asosida echish mumkin bo'lmaganda, ergonomikaga murojaat kilinadi.

Ayrim yangi mashinalar namunasini sinash va foydalanish, olingan ma'lumotlarni taxlil kilish natijasida konstruktor va muxandislarimiz shunga ishonadilarki, inson organizmisiz mashinalarga bo'lgan ilmiy asoslangan talablar, balki eng takomillashgan texnik echimlar xam etarsiz darajada samaralidir. Bu shunday bir tushunchaki, mashinalarning konstruksiyasi insonning funksional extiyojlariga mos kelmasligidir.

Demak, ergonomika "inson-mashina-ishlab chikarish - muxit" tizimini o'rganadi.

ergonomika fanining maksadi - mashina va ishlab chikarish kurollarining o'lcham (parametr)larini xamda ishlab chikarish muxitini inson extiyojlariga moslashtirishdir, ya'ni mehnat jarayonlarini me'yorlash (optimallashtirish) va xamma ko'ngilsiz ishlab chikarish omillarini bartaraf kilish yoki maksimal kamaytirishdan iboratdir.

Ish joyi - bu inson mehnat faoliyatini amalga oshirishga "inson-mashina - ishlab chikarish muxiti" tizimida ma'lumotlarni aks ettirish vositalari, boshkarish kismlari va yordamchi jixozlar bilan jixozlangan joydir. Ish joylari yakka va kollektiv turlarga bo'linib, tikka, o'tirib va «tikka-o'tirib» ishlashga mo'ljallanadi.

Egronomika ish joylarini loyixalashga talablarni ifodalab beradi. Asosiy va ko'shimcha xarakat zonalarini aniklaydi, tegishlicha poldan balandlik bo'yicha, simmetriya o'kidan front bo'yicha jixozlarning joylashish zonalarini aniklab beradi.

Odam xar xil ishchi xolat (tik, o'tirgan, yotgan va engashgan)larining optimal va chegaraviy o'lchamlarini aniqlash uchun ish joyini ratsional tashkil kilishda ishlatiladigan zarur antropometrik ma'lumotlar tizimlashtiriladi.

Ishning va ishchi xolatlarining xarakteriga bo'flik xamda xar xil turdagi ishchi stollar va o'rindiklarni konstruksiyalash bo'yicha umumiy tavsiyalar yaratiladi.

Ish joyini loyixalashda antropometriya ma'lumotlarini xisobga olish muximdir. ergonomika bo'yicha manbaalarda maxsus taekidlanadiki, konstruktor o'zining antropometrik va psixofiziologik tavsiflarini boshka odamlar uchun xam namunaviy deb karamasligi va shu asosda narsalarni loyixalash jarayonini tashkil kilmasligi kerak.

Fakat inson tanasi o'lchamlari va a'zolari xakida, uning yoshi va jinsi o'rganilgan xolda keng to'plangan tizimli tanlangan ma'lumotlarni jalb kilganda o'lcham standartlarini loyixalash uchun mustaxkam ilmiy baza bo'lishi mumkin.

Ish joyini tashkil kilishda kuyidagilarni ta'minlash maksadga muvofik:

- operatorning maekul ishchi xolati (tik yoki o'tirgan xolda);
- muximligi va ko'rish maydoni doirasida foydalanish jadalligiga karab boshkarish kismalari va indikatorlarini ratsional joylashtirish;
- operatorga xarakatlanish va siljishda etarli erkinlik berilishi;
- ish joyi elementlarining eng yaxshi korinishi;
- insonning antropometrik, fiziologik va psixologik tavsiflarining ish joyi konstruksiyasiga mosligi;
- mashinadan kelayotgan ma'lumotlar tezligi va xajmining inson tomonidan kabul kilish va ishlov berishi imkoniyatlariga mosligi;
- operatorlarning ish vaktida kiska muddatli dam olishlari uchun sharoit bo'lishi;
- ishlovchilarni xavfli va zararli ishlab chikarish omillaridan ximoya kilish.

Ish joyida odamning kompleks xarakatlarini loyixalashda kuyidagi koida va nizomlarni bilish foydali:

- xarakat traektoriyasi va sonini minimumgacha kiskartirish;
- xarakatning oddiy va ritmik bo'lishi;
- xar bir xarakat keyingi xarakatni boshlash uchun kulay xolda tugashi;
- o'tgan va bo'lajak xarakatlar bir- biri bilan tekis bo'langan bo'lishi;
- xarakatni boshlash va tugatish uchun zarur bo'lgan vakt taxminan doimiy va yo'l uzunligiga bo'flik bo'lmasligi;
- ko'lining egri chizikli uzluksiz xarakati to'satdan yo'nalishini o'zgartirgan yakka xarakatdan tez bo'lishi;
- aylanma xarakat ilgarilama xarakatdan tez bo'lishi;
- ko'lining gorizontal xarakati vertikalga nisbatan anik va tez bo'lishi;
- agar xarakatda ikkala ko'l katnashsa, ular vakt bo'yicha simmetrik va sinxron (tekis) bo'lishi (bir vaktida boshlanishi va tugashi kerak).
- anik xarakatlarni xar doim o'tirib amalga oshirish lozim.

Tizimlarning muvaffakiyatli ishlab turishini ta'minlash uchun ergonomika soxasida besh xil moslik-ma'lumot-axborot, biofizik, energetik, fazoviy-antropometrik va texnik-estetik moslanish mavjud bulib, ularni ta'minlash va amalga oshirish ishni-vazifani tizimlarini muvaffakiyatli yakunlanishini nafolatlaydi.

Bajarilayotgan turli jarayonlar va unga boglik bulgan uskuna, kurilmalar doirasida axborotni etkazuvchi-kursatuvchi moslama-mashina modeli bulsa, operator murakkab tizimda bulsa xam boshkarish ishlarini amalga oshiradi. Bu vazifani bajarish uchun ergonomika nuktai nazaridan shunday axborot modeli yaratilishi kerakki, model uz vaktida mashinaga tallukli taerifni bersin, natijada operator tolikmasdan, fikrlab va eetibor bilan axborotni xatosiz kabul kilib kayta ishlasin.

Murakkab xisoblangan vazifani echish operatorni xavfsizligiga anik-sifatli ishlashiga mexnat unimdorligiga, shuningdek insonni psixofiziologik imkoniyatlarini axborot modeliga mos tuyushiga boglik buladi.

Ma'lumot jixatining maksadi - mashinaning barcha tavsiflarini aks ettirish va operatorning bu ma'lumotlarni xatosiz kabul kilish va ishlov berish, uni va xotirasini zo'riktirmaslik demakdir. Natijada operator mexnatining xavfsizligi, anikligi, sifati va unumi ta'minlanadi.

Biofizik moslik operatorni tadbik kiladagan ish kobiliyatini, normadagi fiziologik xolatini ta'minlaydigan atrof-muxitni yaratilishini ifodalaydi. Bu vazifa mexnat muxofazisi talablari bilan boglangan. Atrof-muxitni kupgina omillari chegara mikdorlari konuniyat bilan belgilangan va ular operatorni ish vazifasi bilan doimiy boglamangan bulishi mumkin. SHuning uchun mashinalarni yaratilishida shovkin, tebranish, eritilish, xavo muxiti va barcha birliklarni maxsus tekshirilishini talab kiladi.

Insonni kuchi va energetik birligi ma'lum chegaraga ega. SHuning uchun ish jarayonida boshkarish tizimida charchash va maksadga muvofik bulmagan okibatga olib kelishi mumkin yoki ish tizimidagi aniklik pasayadi. Bunday cheklanish yoki atrof-muxitga boglik bulgan vaziyat, omillar eetiborga linishi kerak.

Energetik moslik operatorni optimal imkoniyatlari asosida talab kilinadigan kuch, sarflanadigan kuvvat, xarakatni anikligi va tezligi bilan mashinani boshkarilishidagi kelishuvni ifodalaydi.

Fazoviy-antropometrik moslik inson tanasi ulchami, tashki fazoni ta'sirli imkoniyatlari, ish jarayonida operatorni vaziyati, gavgdani turishi xisobga olinishini ifodalaydi. Vazifani tugri xal kilinishida ish joyi xajmi, operator xarakatlanadigan masofa, balandlik boshkaruv pultigacha oralik va boshka kursatgichlar aniklanadi.

Moslikni ta'minlashda insonlarda antropometrik kursatgichlar xar xil bulishi murakkab xolatga olib keladi va bu vazifani echimida ergonomika yordam beradi.

Texnikaviy –estetik moslik mexnat jaroyonida, insonni mashina bilan mulokotida konikarli sharoit bilan ta'minlashni anlatadi. Kup sonli va favkulodda muxim texnik-estetik masalalarni xal kilishda saneatkorlar konstruktorlar, rassomlar va boshkalar jalb kilinadi.

Ishlab chiqarish travmatizmining oldini olish bo'yicha millionlab mablag' sarflanadi, biroq ko'pgina korxonalarda travmatizmning jiddiy pasaymayotgani sezilayapti. Binobarin, travmatizm bilan ko'rashishning boshqa usullarini izlash kerak. Baxtsiz hodisa yuz bergan sharoitlarini tekshirish shu narsani ko'rsatadiki, uning sodir bo'lishiga ko'pincha jarohatlanuvchining o'zi, uning shahsiy sifatlaridagi etishmovchilik sabab bo'lar ekan.

Mexnat xavfsizligi psixologiyasi - psixologik ilmning bir soxasidir. U ijtimoiy-tarixiy va anik ishlab chiqarish sharoitiga, mexnat kurollariga, mexnatga o'kitish usullariga va ishlovchilarning shaxsiy psixologik sifatlariga bo'flik xolda xar xil turdagi mexnat faoliyatining psixologik afzalliklarini o'rganadi.

SHuning uchun mexnat psixologiyasining o'rganish obekti nafakat mexnat faoliyati va mexnat xavfsizligi bo'lmasdan, balki mexnatkashlarning shaxsiy afzalliklari, kisman - uning kasbiy kobiliyatlari va mexnat faoliyati amalga oshiriladigan, mexnatdagi shaxslararo munosabatlar, predmetlar, kurollar, ishlab chiqarishga o'kitishning usullari xisoblanadi.

Mexnat psixologiyasining asosiy masalasi - mexnat faoliyatining engil, xavfsiz bo'lishiga, uning katta xursandchilik olib kelishiga, korxonalardagi insoniy munosabatlar garmonik va aktiv bo'lishiga yordam berishdir.

Mexnat xavfsizligi psixologiyasi inson faoliyati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar tizimida muxim zvenoni tashkil kiladi.

Zamonaviy ishlab chiqarishlarda buzilish va jaroxatlanish muammolarini fakat injenerlik usullari bilan echish mumkin emas.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, tez-tez buzilish va jaroxatlanishlar asosida injenerlik - konstruktorlik nuksonlar yotmaydi, balki tashkiliy-psixologik sabablar: xavfsizlik masalalari bo'yicha kasbiy tayyorgarlikning past darajasi, etarli tarbiyalanmaganlik, xavfsizlikni kuzatishga mutaxassislarni etarli darajada ko'ymaslik, jaroxatlanishga xavfi baland shaxslarni xavfli ishlar turiga ko'yish, odamlarning ishga charchagan va psixologik faoliyat ishonchliligini pasaytiruvchi xolatlarida kelishi.

Xalkaro tajriba va mutaxassislarning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, bo'ladigan jaroxatning 60% dan 90% gachasi asosan jabrlanuvchilarning o'z ayblari bilan sodir bo'ladi. Bu borada Sukrotning kuyidagi gapini eslaymiz: " Men tirik bo'lmagan tabiat bilan shu'ullanishni tugataman deb karor kildim va tushunishga xarakat kilaman, nimaga shunday bo'ladi, odam biladi, nima yaxshi, birok yomon ishni kiladi".

Ishlab chiqarish jarayonida ishlovchiga bog'liq bo'lgan psixologik omillarning katta ta'siri borligini ko'rsatadi. Mehnat xavfsizligi psixologiyasining asosiy hollarini ko'rib chiqamiz.

1. Mehnatni muhofaza qilish ishlovchining jismoniy va biologik sifatlrining katta kompleksiga bog'liq bo'lib, unga ishlovchining xatti-harakatlarida uning professional bilimi va uquvi mehnatni muhofaza qilish talablari bilan organik uyg'unlashib ketganida erishish mumkin. Bunda xavfsizlik texnikasi talablari ortiqcha yuklama bo'lmasdan, ishni bajarishning barcha texnikaviy bosqichlariga garmonik singib ketishi lozim. Bajarilishi xavfsiz bo'lgan ishni yaxshi ish desa

bo'ladi, lekin buning uchun uquv kerak. Yangi ishchilarni qabul qilishda asosiy e'tiborni ularning o'z kasblarini to'g'ri tanlashga va ishning xavfsiz qabullarini o'zlashtirishlariga jalb qilish lozim.

Ishlovchilarning xatti-harakatida intizom va o'zini tuta bilishiga erishish ham asosiy omillardan biridir. Bu narsa qo'shimcha nazoratsiz xavfsizlik texnikasi talablarini tizimli ravishda bajarishda namoyon bo'ladi. Ishlovchilarni sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar bilan tanishtirishda, uning barcha sodir bo'lish sabablarini tushuntirish va shu erning o'zida uning oldini olish yo'llarini ko'rsatish lozim. Amalda, asosan, ishlovchilarga baxtsiz hodisalar yuz bergan holat va ularning sabablarini tushuntirishda, ishlovchilarni ko'proq qo'rqitish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga harakat qiladilar, bu esa o'z navbatida ba'zi kishilarda ojizlik holatini tug'dirib, ishda asablarning ortiqcha buzilishiga olib keladi. Baxtsiz hodisa haqida dalolatnoma tuzishda (N-1 forma bo'yicha) «baxtsiz hodisa yuz bergan holat» grafasida jarohatlanuvchi va u bilan birga ishlagan kishilarning xarakteri va boshqa sifatlarning asosiy tomonlarini keng ochib berish, ularda shu paytda temperament qanday namoyon bo'lganligini yoritish kerak, chunki temperament shahsning psixologiyasi shug'ullanadigan asosiy shaxsiy xususiyatlaridan biridir. Smena boshlanishidan avval master yoki smena boshlig'i ishni taqsimlayotganda ishning barcha tomonlarini, garchi topshiriq qanchalik og'ir bo'lmasin, ochib ko'rsatish va odamlar ongiga etkazishi (chunki smena vaqtida topshiriqning o'zgartirilishi, uning yuk tashish-ortish ishlariga o'tkazilishi, elektr payvanchilar va boshqalarga yordamchi qilib yuborilishi ishlovchiga yomon ta'sir qiladi), va shu bilan mehnat faoliyati kayfiyatini vujudga keltirishi, odamlarning asab sistemalarini bajarilishi kerak bo'lgan ishga tayyorlashi lozim.

2. Texnikaviy kamchiliklarning ta'siri. Insonning psixik hayoti asosan tashqi muhitga bog'liq va ishni bajarish paytida kishi bu muhit bilan bir butun bo'lib, ishlab chiqarishdagi zararli omillar insonga butunlay yomon ta'sir ko'rsatadi. Bu zararli omillarga quyidagilar kiradi: gaz va chang bilan ifloslanganlik, yomon yoritilganlik, juda past (-4-6S va bundan past) yoki juda yuqori (Q28dan yuqori) temperatura, shovqin (ayniqsa bir me'yordagi shovqin). Bu omillar ishlovchining tez charchashiga, sergakligining yo'qolishi kabilarga sabab bo'ladi, bular esa tajribasizlik (ayniqsa ish staji bir yildan kam bo'lgan ishchilarda) va ehtiyotsizlik bilan birgalikda baxtsiz hodisaga olib keladi.

3. Ishlovchilarning travmatizmga sabab bo'luvchi shaxsiy sifatlari. Ishga qabul qilinayotgan ko'pchilik kasbdagi kishilar uchun majburiy bo'lgan tibbiy ko'rikni o'tkazish vaqtida ishga qabul qilinayotgan kishining shaxsiy sifatlarini, shuningdek uning sog'lig'idagi travmatizmga chalinishi kuchaytiradigan etishmovchiliklarni kompleks ravishda hisobga olish zarur. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Kasalik xarakteriga yoki shunga yaqin holatga ega bo'lgan asab sistemasi yoki boshqa organlardagi doimiy funksional o'zgarishlar.

2. Sezgi organlarining turli kamchiliklari, ko'rishning qisman yo'qotilishi, garanglik va h.k.

3. Asab tizimining yuqori bo'limlaridagi sensorlar va harakatlantiruvchi markazlar o'rtasidagi bog'liqlikning buzilishi.

4. Harakatlarning moslashuvidagi nuqsonlar (epchilmaslik ishonchsiz harakatlar).

5. Emotsional (ruhiy) jarayonlarning muvozanatlashmaganligi (xursandchilik va jahlning almashinuvi, arzimagan tashqi ta'sirlarga darhol berilishi), bular engiltaklik, o'ylamasdan ish qilish, shoshma-shosharlikda namoyon bo'ladi.

6. Alkogol va boshqa mast qiluvchi narkotik moddalarga ruju qo'yish.

7. Ishdan ko'ngli to'lmaslik va unga qiziqishning yo'qligi bundan esa hardam hayollik, qiziqmaslik kelib chiqadi.

YUqorida aytilganlardan shunday hulosalar kelib chiqadiki, tibbiy ko'rikdan salbiy hulosasiga yoki bajaryotgan ishiga o'zining shahsiy xislatlari mos kelmasligiga (passivlik, bosiqmaslik, haddan tashqari harakatchanlik va h.k.) qaramasdan ishga kirgan kishi, boshqalarga nisbatan o'zining baxtsiz hodisaga uchrashiga doimo sababchi bo'ladi.

SHaxsning ma'naviy buzilishining ayrim belgilari ba'zan ta'magirlik, amalparastlik kabi formalarda namoyon bo'ladi, bu bilan esa safsatabozlik, ko'zbo'yamachilik, ko'z-ko'z qilish, xavfsizlik normalari va qoidalariga hurmatsizlik qilish va boshqalar chambarchas bog'langan.

Xavfsizlik psixologiyasi deganda inson faoliyati xavfsizligini ta'minlash uchun psixologik bilimlarni ko'llash tushuniladi.

Xavfsizlik psixologiyasi psixologik jarayonlar va xususiyatlarni o'rganadi va mehnat faoliyati jarayonida kuzatiladigan psixologik xolatlarning xarakter xil shakllarini, aynan to'liq taxlil qiladi.

Psixologik faoliyat strukturasi inson 3 ta asosiy gurux komponentlarni ajratadi: **psixologik jarayonlar, xususiyatlar va xolatlar.**

Psixologik jarayonlar psixologik faoliyatning asosini tashkil qiladi. Bularsiz bilimning vujudga kelishi va xayot tajribasini o'tqizish mumkin emas. Psixologik jarayonlarning bilim, emotsional va irodali turlari mavjud (sezish, zexnlash, eslash va xokazo).

Psixologik xususiyatlar (shaxs sifati). SHaxs xususiyati - bu uning muxim afzalliklari (xarakter, temperament yo'nalishi). SHaxsning sifatlari ichida intellektuallik, emotsionallik, iroda, axloq, mehnat ajralib turadi. Yana barkarorlik va doimiylik xususiyatlari.

Psixologik xolatlar turli-tumanlik va vaktinchalik xakteri bilan ajraladi, u aniq davrda psixologik faoliyatning afzalliklarini aniklaydi va butun psixologik jarayonlar davomida ijobiy yoki salbiy bayon kilinishi mumkin. Mehnat psixologiyasi vazifalari va xavfsizlik psixologiyasi muammolaridan kelib chikkan xolda, ishlab chikarish jaroxati xalokatning oldini olishni tashkil kilishda aloxida ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chikarish psixologik xolatlari va maxsus psixologik xolatlarni ajratish maksadga muvofik.

Inson faoliyati (ish kobiliyati)ning samaradorligi psixik kuchlanishning darajasiga asoslanadi.

Psixik kuchlanish ma'lum chegaragacha mexnat natijalariga ijobiy ta'sir kiladi. Aktivlashishning kritik darajagacha ko'tarilishi mexnat natijalarining pasayishiga, ba'zan ishchanlikning to'lik yo'kolishiga olib keladi. Psixik kuchlanishning me'yoridan oshgan shakli chegaradan chikish deyiladi.

Insonning normal yuklanishi maksimal yuklanishga nisbatan 40-60 % dan oshmasligi kerak, ya'ni yuklanish chegaradan oshganda ish kobiliyatining pasayishi kuzatiladi.

Psixik kuchlanishning chegaradan chikkan shakllari psixik faoliyatning xar xil kiyofada dezintegrasiyalanishiga olib keladi, birinchi navbatda insonga xos yakka psixik ish kobiliyati darajasining pasayishiga olib keladi. Psixik kuchlanishning juda anik ifodalangan shakllarida xarakat koordinatsiyasi va chakkonligi yo'koladi, balki xarakatning samarasiz shakllari va boshka salbiy xolatlar paydo bo'ladi.

Tajribasizlik - ish joyida ishchining butun xulkiga ta'sir kiladi va ish jadalligi, sureati va bir makomligi bilan ifodalanadi. Tajribasiz ishchi texnikaning xar xil kamchiliklardan paydo bo'lgan ishdagi uzulishlarga, atrof-muxitning yomon ta'siriga tez moslashishga yo'l topa olmaydi, ko'p charchaydi va buning bilan o'z ishinings xavfsizligini kamaytiradi.

Ishchilarning malakasi va ustaligini oshirishning ilmiy asoslangan usullari, nafakat ularning mexnat natijalariga aktiv ta'sir kiladi, balki ishning xavfsizligiga yordam beradi.

Extiyotsizlik - bu shunday omilki, kandaydir vakt ichida bironta ishchining yoki butun jamoaning xavfga noto'g'ri munosabatda bo'lishidan Baxtsiz xodisa xavfi ostida kolishini kuchaytiradi.

Bunday xavf ostida kolishni kamaytirishning birdan-bir usullari xulkdagi be'amlikni engish, kasbiy etuklik va ongli o'z -o'zini boshkarishni vujudga keltirishdir.

CHarchash - organizmdagi xar xil buzilishlar okibatidir, asosan o'g'ir xolatlarda u baxtiz xodisalar xavfi ostida kolishni kuchaytiruvchi patologik kelib chikishlar deb ataladi. Xaddan tashkari charchashdan kutilish uchun ta'til berish, yoki davolanishga jo'natish yoki boshka ishga o'tkazish lozim.

Ish jarayoni nafakat ojiz odamni charchatadi, balki normal bardoshli odamni xam charchatadi. CHarchash murakkab fiziologik jarayonlar natijasida paydo bo'ladi.

CHarchashning **fiziologik va psixik** turlari mavjud. Fiziologik charchash xammadan oldin asab tizimida muskul faoliyati natijasida bo'shatiladigan maxsulot ajralishi bilan ifodalanadi.

Psixik charchash - markaziy asab tizimining xaddan ortik yuklanish xolatidir. Psixik charchash sezish chegarasida bilinadi - ko'z'g'alishni past o'kuvchanlikda.

Mavzu: XAYOT FAOLIYAT XAVFSIZLIGING XUKUKIY VA TASHKILIY ASOSLARI

Mashgulot savollari:

1. **Mexnat xavsizligida konunchilik asoslari**
2. **«Mexnatni muxofaza qilish tugrisidagi» UzR konuni, uning axamiyati va asosiy bandlaring kiskacha mazmuni**
3. **Mexnat xavfsizligi standartlar tizimi» (MXST) .**
4. **Mexnat muxofazasi buyicha davlat va jamoa nazorati.**
5. **Korxonalarda uch boskichli nazorat.**
6. **Faoliyat xavfsizligi konun va koidalarini buzganda javobgarlik turlari..**

Tayanch soʻz va iboralar: Mehnatning muhofaza qilinishini taʼminlash.

Konstitutsiya, “Mehnatni muhofaza qilish” “Mehnat Kodeksi” Umumiy qoidalaridan, Ishlovchilarning mehnatni muhofaza qilishga doir huquqlarini roʻyobga chiqarishdagi kafolatlar.

Tayanch soʻz va iboralar: Mehnatni muhofaza qilishdagi davlat boshqaruvi, Kasaba uyushmasining texnik nazorati, Sanoatda xavfsiz ish olib borish va togʻ ishlari xavfsizligi texnik davlat nazorati, Davlat sanitariya nazorati. Yongʻinga qarshi kurash davlat nazorati

Maʼlumki, qonunchilikda eng asosiy boʻlib hisoblanadigan hujjat bu davlatning Konstitutsiyaidir. Demokratik davlatda har bir fuqaro, kim boʻlishidan qatʼiy nazar xoh u davlat arbobi, yoki oddiy xizmatchi, ishchi, oʻquvchi, yoki oʻqituvchi (va hokazo) boʻlishiga qaramay u davlatning qonunchiligiga itoat qilishi shart. Davlatning hududida boʻlgan har bir tashkilot va korxona, yoki xususiy muassasa mehnat jarayonida ish yuritishi ham, davlatning qonun va qoidalari talabani ijro etish bilan asoslangan boʻlishi lozim.

CHunonchi, shu toʻgʻrisida OʻR Konstitutsiyasida ham taʼkidlab oʻtilgan:

“Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish koʻradilar” (15 modda).

Respublikada qabul qilingan har bir qonun, qoida va boshqa meʼyoriy hujjatlarning talablari Konstitutsiyaning talablariga mos boʻlib va uning yoʻnalishiga zid boʻlmasligi kerak. SHu tariqada, davlatimizni Konstitutsiyasining 16 moddasida quyidagicha taʼrif berilgan:

Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi Oʻzbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar etkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas”.

Hayot faoliyati xavfsizligini taʼminlash borasida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi boʻlimida - inson va fuqarolarning manfaatini koʻzlab, ularning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari aniq va ravshan koʻrsatilib oʻtilgan. Buni toʻgʻri va mazmunli boʻlganini tushunish uchun, biz moddalarni faqat soʻzma – soʻz qaytarsak maqsadga muvofiq boʻladi.

18 modda. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqiqshi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qati nazar, qonun oldida tengdir.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart”.

19 modda. “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir – biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

20 modda. “Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarninig, davlat va jamiyatnining qonuniy manfaatlarini, huquqlariga va erkinliklariga putur etkazmasliklari shart”.

Konstitutsiyaning IX bobida insonning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari yoritilgan. Bu bobda fuqarolarning mehnati, mehnatidan manfaatlanish tartiblari ham aytilgan.

CHunonchi, 36 moddada: “Har bir shaxs mulkdor bo‘lishiga haqli - deb ta’rif berilgan.

37 modda. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani sh huquqiga egadir, deb birinchi qismda ta’riflangan.

Undan tashqari, ish vaqti, ijtimoiy ta’minot, nafaqalar, bepul bilim olish va boshqa kafolotlar to‘g‘risidagi tamoyillarni quyidagi moddalarda ko‘rishimiz mumkin.

38 modda. “YOllanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to‘lanadigan mehnat ta’tilining muddati qonun bilan belgilanadi”.

39 modda. “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega.”

40 modda. “Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega”.

41 modda. “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi”.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning hayot faoliyati xavfsizligining ta’minlash borasida Konstitutsiya asosida bir qator qonunlar va qonunchilikka doir me’yoriy hujjatlar yaratilgan va ularni ish faoliyatida qonun doirasiga asosan qo‘llanilishi tavsiya etilgan.

Mehnatni muhofaza qilish borasida qabul qilingan Qonunlardan birinchi navbatda quyidagilarni ta’kidlab o‘tish mumkin:

1992 yilning 13 yanvarida “Aholini ish bilan ta’minlash” to‘g‘risidagi;

1992 yilning 2 iyulida O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquq va kafolatlari” to‘g‘risidagi;

1993 yilning 6 may kuni O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish” to‘g‘risidagi;

1995 yilning 21 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat Kodeksi” to‘g‘risidagi.

SHu bilan birgalikda, mehnatni muhofaza qilish qonunchilik tomonidan boshqa har xil me'yoriy hujjatlar asosida ham ta'minlanadi. Bular: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining farmonlari, farmoishlari, qarorlari va ko'rsatmalari hisoblanadi. Undan tashqari me'yoriy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi va uning vazirliklari, qo'mitalari hamda mahkamalarini qarorlari, buyruqlari va ko'rsatmalari ham mehnatni muhofaza qilishniga qaratilgan yuridik hujjatlar hisoblanadi.

YUqori organlarda sog'lom va xavfsiz mehnatni tashkil etish, mehnatkashlarni sog'lig'ini saqlashga qaratilgan har xil yo'nalishdagi va daxldor qonunchilikka doir normativ hujjatlar tayyorlab chiqariladi va uni amalga oshirilishi ta'minlanadi. Bular qatoriga umumiy qoidalar, me'yorlar, yo'riqnomalar, yo'llanmalar va boshqa yuridik aktlar kiradi.

Umumiy me'yor va qoidalarining talablarini bajarilishi barcha davlat va nodavlat korxonalari tomonidan ta'minlanishi shart. Masalan: Yo'l harakati qoidalari (PDD) hamma yuridik yoki noyuridik shaxslarga ataladi. YOki, Qurilish me'yorlari va qoidalari (KMK eskicha SNiP) – bu normativ hujjatning talablari Respublikaning barcha korxonalarida qurilish qoidasini tasdiqlaydi.

YOki: - “Radiatsiya xavfsizligini me'yori” (NRB -76/87);

- “Elektr uskunalarni joylanishi” (PUE) va boshqalar.

Tarmoqli me'yor va qoidalar – bu xil yuridik hujjatlarning ijro ta'siri faqat bir soha, bir yo'nalishga qaratilgan bo'lib, boshqa daxldor bo'lmagan korxonalarga talablarini ijrosi shart emas. Masalan: “Qishloq xo'jalikda pestitsiyalarni ishlatish qoidasi” va boshqalar. Bu xildagi qoidalar faqat daxldor korxonalarga, tashkilotlarga yo'riqnoma hisoblanadi.

SHu shaklda boshqa qoidalar tuziladi. Masalan: “Texnika xavfsizligi”, “Mehnat xavfsizligi yo'llanmasi”, yo'riqnomalar va boshqalar.

Ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat'i nazar mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydigan hamda fuqarolarining sog'lig'i va mehnatni muhofaza qilinishini ta'minlashga qaratilgan “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1993 yil 6 may kundan boshlab amalga kiritildi.

Ushbu Qonun 29 moddadan tarkib topgan bo'lib 5 bo'limga tartiblashtirilgan.

I bo'lim. Umumiy qoidalaridan tashkil topilgan.

II bo'lim. Mehnatning muhofaza qilinishini ta'minlash.

III bo'lim. Ishlovchilarning mehnatni muhofaza qilishga doir huquqlarini ro'yobga chiqarishdagi kafolatlar.

IV bo'lim. Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan davlat va jamoatchilik nazorati.

V bo'lim. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yori, shuningdek mehnat qilish qonuniyatlarining bajarilishini ta'minlovchi umumiy va maxsus davlat nazorat tashkilotlari mavjud.

Mehnatni muhofaza qilishdagi davlat boshqaruvi - bu mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish bo'lib, ular quyidagilardir:

- davlat organlarining maxsus vakillari tomonidan belgilangan inspeksiyalar;
- kasaba uyushmalari hamda ulardagi mehnat huquqi va texnika bo'yicha inspeksiyalar.

Hamma vazirliklar, boshqarmalar va korxonalarda mehnat qonuniyatlarining aniq bajarilish Respublika Prokraturasi nazorati ostida olib boriladi. Prokratura nazorati Mashgulot savollari: asosida yoki fuqarolarning arizasi, yoki korxonalarining ma'lumotlari hamda fuqarolarning arizalari asosida tekshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Prokratura umumiy nazorat tartibida tekshirish natijalaridan korxona rahbar xodimlarini xabardor etadi va mehnat qilish qoidasi buzilishini tezda bartaraf etishni talab qiladi va rahbar xodimlarga ma'muriy chora ko'rilishini so'rab yuqori rahbar xodimlarga murojaat etadi. Agar jinoyat sodir bo'lganligi aniqlansa, rahbar xodimlarni jinoiy javobgarlikka tortadi. O'lim sodir bo'lgan og'ir baxtsiz xodisaga uchragan holatlarda prokratura mustaqil tekshirish o'tkazadi.

Mehnat qonuniyatlari buzilmasligining umumiy nazoratini mehnatkashlar deputatlari kengashi va ularning ijroiya qo'mitalari ham amalga oshiradi.

Bundan tashqari, mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga hamma joylarda rioya etilishi ustidan davlat nazoratini bunga maxsus vakolat berilgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan nizom asosida ishlovchi davlat idoralari va inspeksiyalari amalga oshiradilar.

SHular qatoriga;

1. Kasaba uyushmasi markaziy qo'mitasi texnik inspeksiyasi.
2. Sanoatda xavfsiz ish olib borish va tog' ishlari xavfsizligi texnik davlat nazorati (Gosgortexnadzor)
3. Davlat sanitar – epidemiologik kazorati. (Sanepidstansiya)
4. Davlat energetika nazoarti. (Energonadzor)
5. Davlat yong'in xavfsizligi nazorati (Gospojnadzor)
6. Tabiatni muhofaza qilish davlat nazorati.
7. Suv va suv manbalarining tozaligini himoyalash davlat nazorati
8. Davlat avtomobil nazorati (GAI)

Kasaba uyushmasining texnik nazorati. Kasaba uyushmalari davlat va xo'jalik idoralari oldida xodimlarning mehnati muhofaza qilinishiga doir huquqlarini himoya qiladilar, uning ro'yobga chiqarilishi ustidan nazoratni har bir sanoat korxonasida amalga oshiradilar, ana shu maqsadda o'z qaramog'larida nizom asosida ishlovchi mehnat texnik inspeksiyasiga ega bo'ladilar, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqarishda, me'yoriy va huquqiy faoliyatda ishtirok etadilar. Mehnat muhofaza qilish masalalariga doir barcha me'yoriy hujjatlar (standartlar,

qoidalar, me'yorlar, yo'riqnomalar va hokozo) kasaba uyushmalari oldindan ko'rib chiqqanidan keyin tegishli idoralar tomonidan qabul qilinadi.

Xodimning mehnatini muhofaza qilinishiga bo'lgan huquqlari ro'yobga chiqarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish chog'ida kasaba uyushmalarining mehnat bo'yicha texnik inspeksiyasi istalgan korxonani bemalol ko'rish, aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish to'g'risida ma'muriyatga ko'rsatmalar berish, mansabdor shaxslarga jarima solish, agar bundan buyon ishlatiladigan uskunalar mehnat qiluvchilar sog'ligi yoki hayotiga xavf tug'dirsa uskunalar, uchastkalar, sexlar ishilar vaqtincha to'xtatib qo'yish, ishlab chiqarishda xodim duchor bo'lgan baxtsiz hodisalarni tekshirishda qatnashish (yoki uni mustaqil o'tkazish)ga haqlidir.

Sanoatda xavfsiz ish olib borish va tog' ishlari xavfsizligi texnik davlat nazorati tog' sanoati, tog' ruda sanoati, neft qazib chiqarish, metallurgiya, geologiya, suv isitish qozonlari, bug' va issiq suv quvurlari, yuk ko'tarish kranlari, liftlar, eskalatorlar, osma passajir yo'llari (va hokazo) ishlarini nazorat qiladi.

Davlat sanitariya nazorati. Davlat sanitariya nazorati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi sanitariya-epidemiologiya xizmatlari orqali amalga oshiriladi. Sanitar nazoratining asosiy vazifasi tashqi muhitning (suv havzalari, tuproq, atmosfera) sanoat chiqindilari bilan ifloslanmasligini kuzatib borish, shuningdek sanoat korxonalarining sanitariya-gigiena holatini va kasb kasalliklarining kelib chiqmaslik chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Davlat energetika nazorati. Energetika va elektrlashtirish sanoati vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Ularning asosiy vazifasi elektr va issiqlik kurilmalaridan to'g'ri foydalanishni kuzatish hamda ularning xavfsiz ishlatilishini taminlash borasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilishdan iborat.

Nazorat vazifalarini amalga oshirish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish hamda aybdorlarga jazo choralari belgilash maqsadida yuqorida ko'rsatilgan nazorat tashkilotlari quyidagi huquqlarga egadirlar:

1. Kunning hohlagan vaqtda korxona maydoniga hech qanday qarshiliksiz kirish, hohlagan qismini ko'zdan kechirish.
2. Ma'muriyat va xodimlardan mehnatni muhofaza qilishga, ularning mehnat sharoitini yaxshilashga taalluqli bo'lgan hujjat, ma'lumotnoma va boshqa materiallarni talab qilib olish, kamchiliklarga yo'l qo'yilgan taqdirda ularga ma'muriyat xodimlarining e'tibor berishlarini talab qilish.
3. Mehnatni muhofaza qilish qoida va me'yorlarini bajarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish uchun ma'muriyat va ba'zi bir rahbar shaxslarga ko'rsatmalar berish hamda ularni bartaraf qilish muddatlarini belgilash.
4. Ish olib borilayotgan joylarda xodimlarning hayoti uchun xavfli bo'lgan omillar, ayrim mashina va mexanizmlardan jarohatlanish yoki shu chegarada ishlash natijasida xodim biror kasb kasalligiga chalinib qolishi ehtimoli bo'lsa, ishni to'xtatishi, agar zarurat tug'ilsa, hatto ish olib borayotgan korxonaning ishini to'xtatishi mumkin.

5. Mehnat qonunlarini, havfsizlik texnikasi hamda sanoat sanitariya mezon - qoidalarini buzgan va jamoa bitimida ko'rsatilgan ish sharoitini sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini o'z vaqtida bajarmagan ma'muriyat xodimlarini javobgarlikka tortish.

YOng'inga qarshi kurash davlat nazorati organlarini vazifasi yong'inga qarshi chora tadbirlarning korxona bo'limlarida bajarilishi, mavjud bo'lgan yong'in xavfsizligiga oid tartib – qoidalarga amal qilinishini, yong'inga qarshi xizmatning jangavor holatini, o't o'chirish vositalarining tayyorligi va qobiliyatini tekshirish va boshqalar.

Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan **jamoatchilik nazoratini mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi tashkilotlar tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'zlari saylaydigan vakillar** amalga oshiradilar.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'zlari maxsus tayyorgarlikdan o'tgan vakil ish joylarida mehnat muhofazasining ahvolini moneliksiz tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritish huquqiga egadir. Mehnat muhofazasi bo'yicha vakilga o'z vazifalarni bajarish uchun har haftada ish paytida kamida ikki soat vaqt ajratib beriladi va o'rtacha ish haqi miqdorida haq to'lanadi.

Kasaba uyushmalari o'z tashabbusi bilan yoki ishlovchilarning iltimosi bilan korxonalarda mehnatni muhofaza qilishga oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishini, jamoa shartnomalari va bitimlari bajarilishini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida qarorlar qabul qilish yoki ma'muriyatga taqdimnomalar kiritishga haqlidir.

Mansabdor shaxslar ularni bajarishni asossiz rad etgan yoki odamlar sog'ligi yohud hayotiga xavf tug'diruvchi qonunga zid xatti-harakatlar qilgan, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni hisobga olishdan yashirgan taqdirda kasaba uyushmalari aybdorlarni egallab turgan lavozimidan bo'shatishgacha javobgarlikka tortish, shuningdek aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar ishlarni to'xtatib turish to'g'risidagi talablar bilan davlat va huquqni muhofaza qilish idoralariga murojaat etishga haqlidirlar.

Kasaba uyushmalari belgilangan tartibda mehnatni muhofaza qilishga doir me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda va kelishib olishda ishtirok etadilar, ular bilan kelishib olinmagan hujjatlarning kuchga kiritilishiga qarshi tegishli davlat idoralari orqali protest kiritish huquqiga egadirlar.

Kasaba uyushmalari ishlab chiqarish vositalarni sinash va foydalanishga qabul qilish davlat komissiyalari ishida, ishlab chiqarishdagi kasb kasalliklarini tekshirishda, tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (TMEK) majlislarida ishtirok etadilar, mehnat muhofaza qilishining ahvolini, uni yaxshilash bo'yicha jamoa shartnomalarida ko'zda tutilgan tadbirlar bajarilishini tekshiradilar va ularning natijalari yuzasidan aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan bajarilishi shart takliflar kiritadilar.

Xizmat vazifalarini bajarish chog'ida mayib bo'lish yoki salomatlikka boshqacha tarzda putur etishi tufayli keltirilgan zarar qoplanishi uchun hamda xodimlarning salomatligi va mehnati muhofaza qilinishiga bo'lgan huquqlari cheklangan boshqa hollarda kasaba uyushmalari o'z tashabbusi bilan yoki ishlovchilarning arizalariga binoan ularning huquqlarini himoya qilib da'vo arizalari bilan sudga murojaat etishlari mumkin.

Mehnatni muhofaza qilish komissiyalari va jamoat inspektorlari bajaradigan ishlarning tarkibi kasaba uyushmasi tomonidan tasdiqlangan qarorlar bilan belgilanadi.

Ma'muriyatning kasaba uyushmasi tashkiloti bilan birgalikda olib borayotgan unumli ***nazorat usullaridan biri uch bosqichli nazorat usulidir: birinchi bosqich - ish joylarida, ikkinchi bosqich - o'zi bilan to'g'ridan -to'g'ri ishlayotgan kichik jamoada va uchinchi bosqich butun korxona bo'yicha.*** Bu usul kasaba uyushmasi faoliyati bilan ma'muriyat o'rtasidagi mehnatni muhofaza qilish qoidalarini ish joyida tatbiq qilish, mehnat madaniyatini yaxshilash va ish sharoitini sog'lomlashtirish borasidagi tadbirlarni birgalikda olib borish imkoniyatini yaratadi. Bunda xavfsizlik darajasini xavfsizlik koeffitsienti orqali baholash mumkin bo'ladi.

Ish joyidagi - rahbar nazoratning birinchi bosqichini mehnatni muhofaza qilish jamoat inspektori va belgilangan ko'rsatma bo'yicha navbatchi xodim bilan birgalikda o'tkazadi. Ular ish boshlangunga qadar xodimlar bilan mehnatni muhofaza qilish masalalarida besh daqiqali suhbat o'tkazadilar, so'ngra ish joylari, anjomlar, ularning sozligi va to'g'riligini tekshiradilar. Aniqlangan kamchiliklar tuzatiladi.

Ish davomida - xodimlarning texnologik hujjatlarga, xavfsizlik texnikasining qo'llanmalariga qanday rioya qilayotganliklarini kuzatib boradilar, shuningdek xodimlarning ish joylariga va o'tish yo'laklariga, havo muhitining tozaligiga, ish joylarining yoritilishi masalalariga e'tibor beradilar, hamma aniqlangan kamchiliklar hamda xodimlar tomonidan kiritilgan taklif va mulohazalar jurnalga yozib boriladi. Rahbar esa aniqlangan kamchiliklarni yo'qotish chora-tadbirlarini ko'radi. O'zi bartaraf qilishi mumkin bo'lmagan ba'zi bir kamchiliklarni tugatish chora-tadbirlarini ko'rish iltimosi bilan **yuqori bosqichdagi** rahbarga murojaat qiladi. Rahbar tartibbuzarlarning ismi shariflarini hamda buzilgan tartibning mohiyatini maxsus tutilgan daftarga yozib qo'yadi va bu haqda tartibbuzuvchini ogohlantiradi, har qanday tartibbuzarlik holatlari keyingi ish vaqti boshlanishi oldidan o'tkaziladigan yo'riqnomada muhokama qilinishi shart.

Nazoratning **ikkinchi bosqichini** har haftada javobgar rahbar xodim kasaba uyushmasi bo'lim boshlig'i tavsiya qilgan mehnatni muhofaza qilish komissiyasining raisi bilan birga bo'lim texnika xizmati xodimlari ishtirokida amalga oshiradi. Ular bo'lim tarmoqlarini aylanib, unda mehnatni muhofaza qilish ahvolini ko'zdan kechiradilar, oldingi galda belgilangan va birinchi bosqich nazorati tomonidan aniqlangan chora-tadbirlarning qanday bajarilganligini kuzatadi, aniqlangan barcha kamchiliklar va bajarilmagan chora-tadbirlar, shuningdek xodimlarning takliflari maxsus jurnalga yozib qo'yiladi. Ko'rik o'tkazib

bo'lingandan keyin tartibbuzish sabablari muhokama qilinadi, aniqlik kiritilgan qo'shimcha chora-tadbirlar, bajaruvchi shaxslar va bajarish muddati belgilanadi.

Uchinchi bosqich - korxonaning bosh muxandisi, kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi, xavfsizlik texnikasi xizmati boshlig'i, bosh energetik, tibbiyot bo'limi boshlig'i amalga oshiradi. Ular bo'limni maxsus ko'rsatma bo'yicha oyiga bir marta aylanib, birinchi va ikkinchi bosqich bo'yicha o'tkazilgan nazorat natijalarini tekshirib chiqadi, bo'limda hal qilinmagan xavfsizlik texnikasining jarohatlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarini aniqlaydi. Aniqlangan kamchiliklarni tuzatish uchun chora-tadbirlarni, shuningdek joyda mehnat madaniyatini yuksaltirish vositalarini belgilaydi.

Tekshirish natijasi majlisda muxokama qilinadi, ishlab chiqarish bo'limlari rahbarlarining kamchiliklarni tugatish borasidagi ishlar xaqida hisobotlar tinglanadi, jamoat inspektorlari mehnatni muxofaza qilishning hal qilinmagan masalalarini o'rta tashlaydilar. Majlis xulosasi asosida korxona rahbari tomonidan korxona bo'yicha buyruq chiqariladi.

Mehnatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarni talablarini buzgan, qoida va me'yorlarga rioya qilinmagan hollarda qonunchilikda quyidagi javobgarlik tartibi belgilangan:

1. Axloqiy javobgarlik.

Bu javobgarlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksining 174-184 moddalarida ta'kidlab o'tilgan.

Ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilish borasida davlat miqiyosida har xil kerakli standartlar, qoida va me'yorlar ishlab chiqilgan va ish faoliyatda ular tatbiq etiladi. Bular, umumiy (edinye), tarmoqlararo (mejotraslevnye) va tarmoqli (otraslevnye) qoida va me'yorlarga bo'lingan. Undan tashqari har bir sanoat korxonasi o'z ichki tartib – qoidalarini ishlab chiqqan. Bu tartib- qoidalarning barchasi sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash, jarayonlarni me'yor darajasida bajarishga qaratilgan. Talablarni bajarmaslik, ishchi - xizmatchilarning tartib – qoidalariga amal qilmasligi ish rejimining buzilishiga, kasallik, baxtsiz hodisa, zaharlanish va boshqa hodisalarning sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ular uchun intizom – axloqiy javobgarligi ta'sis etilgan.

Bu javobgarlik ishchilar uchun:

- ogohlantirish;
- jarima solish (o'rtacha oylik miqdorining 30%gacha);
- mehnat shartnomasini bekor qilish (MK 100 moddasining 3 va 4 qismi).

Rahbar xodimlar xam jamoa bitimida ko'rsatilgan talablarni yuqori tashkilot buyruqlarini bajarmaganliklari va asosan xavfsizlik texnikasi, sanoat gigienasi - sanitariyasi talab qoidalariga amal qilinmaganligi intizomiy uchun javobgarlikka tortiladilar.

2. Ma'muriy javobgarlik.

Bu javobgarlik mehnat xavfsizligini ta'minlanmagan, qoida va me'yorlarni buzgan rahbar – xodimlarga nisbatan qo'llaniladi. Bunday jarimalarni qo'llash kasaba uyushmalarini texnik nazoratchilari, mehnatni muhofaza qilishning davlat nazorat

organlari (ichki ishlar boshqarmalari, sanitar – epidemiologik stansiyalar, o't o'chirish boshqarmalar va boshqalar) yoki shahar va tuman hokimiyatlarida tashkil etilgan komissiyalar qarori bilan belgilanadi.

3. Moddiy javobgarlik. (MK 185-210 moddalari).

Bu ishchi va xizmatchilar ishlayotgan korxonalarda o'zlarining aybi bilan korxonaga etkazgan moddiy zararni qoplash hisoblanadi. Mehnatni muhofaza qilish qoida va me'yorlarining ishchi va xizmatchi tomonidan buzilishi natijasida sanoat korxonasi moddiy zarar ko'rsa, shu zararning bir qismini yoki hammasini aybdor shaxs tomonidan to'lanishi moddiy javobgarlik chorasiga kiradi.

CHegaralangan moddiy javobgarlikda sanoat korxonasiga etkazilgan zarar ma'muriyat buyrug'iga asosan ishchi va xizmatchining oyligidan undirib olinadi.

To'liq moddiy javobgarlik jinoyat sodir bo'lgan taqdirda va aybdor jinoiy ish qilgan bo'lsa, uni javobgarlikka tortish bilan bir qatorda sanoat korxonasiga keltirilgan moddiy zararni ham to'liq qoplashga majbur qilinadi. Bunday javobgarlik qarorlarini tuman yoki shahar sudi organlari chiqaradi.

Ma'muriyatni aybi bilan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi natijasida mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotgan xodimga O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartib va miqdorda korxona bir marta beriladigan nafaqa to'laydi, hamda sog'liqqa etkazilgan shikast uchun tovon to'laydi. Bir marta beriladigan nafaqa miqdori jamoa shartnomasi (bitimi) bilan belgilanadi va jabrlanuvchining bir yillik maoshidan kam bo'lmasligi lozim.

Agar xodim davolanish, protez qo'ydirish va tibbiy, hamda ijtimoiy yordamning boshqa turlariga muhtoj bo'lsa, korxona jabrlangan xodimga bu tadbirlar bilan bog'liq xarajatlarni to'laydi, shuningdek jabrlanuvchining kasbini o'zgartirib qayta tayyorlanishini va tibbiy xulosaga muvofiq ishga joylashishini ta'minlaydi yoki ana shu maqsadlar uchun ketadigan xarajatlarni qoplaydi (Uz R "Mehnatni muhofaza qilish" tugrsidagi konuni №28 modda).

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodim vafot etgan taqdirda korxona tegishli huquqqa ega bo'lgan shaxslarga moddiy ziyonni qoplaydi, shuningdek belgilab qo'yadigan miqdorda bir marta beriladigan nafaqa to'laydi.

4. Jinoiy javobgarlik.

Bunda mehnatni muhofaza qilish qoidalarining qo'pol ravishda buzilishi, texnika xavfsizligiga rioya qilmaganligi natijasida ishchi – xodimlarning og'ir jarohatlanishi sodir bo'lganda yoki baxtsiz hodisa o'lim fojiasiga olib kelsa, unda qoidani buzgan rahbar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jinoiy javobgarlik qarori sud tomonidan jinoiy kodeks asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida jinoiy javobgarlik quyidagicha bayon etilgan:

257 – modda. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish.

Texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarini shu qoidalariga rioya etilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan buzilishi o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati etkazilishiga sabab bo'lsa, -

- eng kam oylik ish haqining 25 baravaridan 50 baravargacha miqdorda jarima yoki 5 yilgacha muayan huquqdan mahrum qilish yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 3 yilgacha ozodlikdan maxrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

- a) odam o'lishiga;
 - b) boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa,-
- muayyan huquqdan mahrum qilib, 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

3- dars

Mavzu: ISHLAB CHIKARISHDA FAOLIYAT XAVFSIZLIGINI BOSHKARISH

Mashgulot savollari:

1. **XFXni boshkarish xakida tushuncha va boshkarishda tizimli yondashish**
2. **XFXni boshkarish vazifalari va vositalari**
3. **Faoliyatni tashkil etuvchilarga ajratish**
4. **XFXni loyixalashning taxminiy chizmasi**

Tayanch so'z va iboralar: X.F.X ni boshkarish vazifalari, XFX ni boshkarish vositalari, Faoliyatni tashkil kiluvchilarga ajratish, Mehnat muxofazasi boshqaruvi, Obektning xolatini taxlil kilish va baxolash, Ra'batlantirish,

XFXni boshkarish deganda ko'zda tutilgan natijalarga erishish uchun "inson-muxit" tizimiga tashkiliy ta'sir kilishni tushunamiz.

XFXni boshkarish - bu obeektni ongli ravishda bir xolatdan (xavfli) boshka bir (xavfsiz) xolatga o'tkazishdir.

Bunda obektiv ravishda iktisodiy va texnik shartlarga amal kilish maksadga muvofikdir.

Tizimlilikka bo'lgan talab shundan iboratki, bunda xavfsizlikni aniklashda muxim va etarli bo'lgan tashkil kiluvchilar sonini xisobga olish ko'zda tutiladi.

Tizimli taxlil kilishning muxim tamoyillari kuyidagilarga olib keladi: karor kabul kilish jarayonida oxirgi maksadni aniklashi va aniklik kiritishdan boshlanmo'ri kerak; butun muammolarni to'laligicha karash muximdir; maksadga erishishning alternativ yo'llarini taxlil kilish muximdir; ko'shimcha maksadlar umumiy maksadga to'skinlik solmasligi kerak. Bunda maksad - reallik, predmetlik, sonli aniklik, adekvatlik, samaralilik, nazoratlilik talablarini kondirmokligi kerak.

Maksadlarni vujudga keltirish - xavfsizlikni boshkarishda juda murakkab masaladir. Maksadni xar doim ierarxik tushuncha deb karash kerak. Mashgulot savollari: xar doim anik tugallangan maksadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu bosh maksaddir, Umuman kism maksadlarga bo'linadi va o'z navbatida muximlik darajasiga karab joylashtiriladi.

Boskichlarda, xavfsizlikning barcha talablari xisobga olingan xolda, to'lik faoliyat sikli xosil kilinadi, ya'ni: ilmiy fikr; ilmiy izlanish ishlari; konstruktorlik ishlari; loyixa; loyixani amalga oshirish; sinash; ishlab chikarish; tashish; foydalanish; takomillashtirish va tuzilishini o'zgartirish; saklashga ko'yish va bartaraf kilish; yo'k kilish.

Xavfsizlik talablarini o'z vaktida xisobga olish fakat texnik shartlargaagina emas, balki iktisodiy karashlarga tayanadi.

X.F.X ni boshkarish vazifalari

Boshkarish - bu shunday jarayonki, uni bir kancha boskichlarga bo'lish mumkin:

1. Obektning xolatini taxlil kilish va baxolash,
2. Boshkarishning maksad va masalalarini amalga oshirish uchun tadbirlarni Mashgulot savollari:lashtirish va oldindan aniklash.
3. Boshkaruvchi va boshkariladigan tizimlarni bevosita tashkil kilish,
4. Nazorat, ya'ni boshkarishni tashkil kilish ustidan kuzatish va tekshirish.
5. Tadbirlarning samaradorligini aniklash.
6. Ra'batlantirish, ya'ni boshkarish katnashchilarini boshkaruv muammolarini muvaffakiyatli xal kilishga undovchi ta'sir shakllari.

XFX ni boshkarish vositalari

XFXni boshkarish vositalarini kuyidagi jixatilarga ajratish mumkin: fizologik, psixologik, ijtimoiy, tarbiyaviy, ergonomik, ekologik, ommani o'kitish; xavfsiz xulk madaniyatini tarbiyalash; kasbiy o'kitish; kasbiy tanlash; boshkarish subektiga psixologik ta'sir kilish; dam olish va ishlash rejimlarini ratsionallashtirish; kollektiv ximoyalanishning texnik va tashkiliy vositalari; shaxsiy ximoya vositalari; engillik va kompensatsiya to'lovlari tizimi va boshkalar, tibbiy, texnik, tashkiliy-operativ, xukukiy va iktisodiy.

XFXni boshkarishning vositalari boy va rang-barangdir. Bularga kuyidagilar kiradi: xalk ommasini o'kitish, kasbiy tanlash, boshkarish subektiga psixologik ta'sir kilish; dam olish, ishlash rejimlarini ratsionallashtirish; kollektiv ximoyalanishning texnik va tashkiliy vositalari; shaxsiy ximoya vositalari; yengillik va kompensatsiya to'lovlari tizimi va boshkalar.

Faoliyatni tashkil kiluvchilarga ajratish

"Inson-muxit", "inson-ishlab chikarish" va boshka tizimlar murakkab ko'p tenglamali va kismli tashkil kiluvchilardir. Xavflar identifikatsiyasini ijobiy echishda bu tizimlarni taxlil jarayonida tashkil kiluvchilarga ajratish (dekompozitsiya kilish) muximdir.

Faoliyatni tashkil kiluvchilarga ajratish bir ma'noda xavf va uning xavfli turkumlarini aniklashga imkon beradi.

SHuning uchun faoliyatni loyixalashda ma'kul bo'lgan manba ma'lumotlaridan foydalanilgan xolda uni etarli darajada detallashtirish (elementlarga ajratish) va xavfli xususiyatlarini aniklash muximdir. Xavfsizlik sharoitlarini loyixalash juda kiyin jarayon bo'lib, insondan maxsus tayyorgarlikni talab kiladi. Kuyida XFXni loyixalashning taxminiy chizmasini keltiramiz (5 - jadval)

5-jadval

T/p	Harakat tartibi	Harakat natijasi
1	Loyihalanayotgan yoki ma'qul obyekt ⁿⁱ tashkil qiluvchi (element)larga ajratish	Aniqlashtirilgan: 1. Mehnat sharoitlari 2. Mehnat vositalari, mashina, inshoot, binolar 3. Mehnat ozuqalari, yarim fabrikatlar 4. Energiya (elektrik, pnevmatik) 5. Texnologik jarayonlar, operatsiyalar, harakatlar 6. Tabiiy-klimatik omillar 7. O'simlik, hayvonlar 8. Hizmatchilar 9. Ish joylar, sexlar, bo'limlar
2	Yaratilgan har bir element uchun xavflar identifikatsiyasini tuzish	Xavflar ro'yxati
3	"Sabab va xavflar daraxt"larini ko'rish	Xavflar sababi
4	Xavflarni son va sifat jihatidan baholash, ularni xavf-xatarning ruxsat qilingan qiymat va darajasi bilan taqqoslash	Himoyalalanish muhim bo'lgan xavflar va sabablar ro'yxati

5	Maksadni aniklash	Erishilgan zarur bo'lgan mexnat sharoitining sonli o'lchamlarini aniklash
6	Obektlarni xavfsiz ko'rsatkichlari bo'yicha kompleks baxolash	Kabul kilingan integral yoki balli ko'rsatkichlar
7	Mumkin bo'lgan xavfsizlik tamoyil, usul va vositalarining taxlil qilish	Tamoyillar, usullar, alternativlarni to'plash
8	Xar bir alternativ bo'yicha talofat va yutuklarning afzallik va kamchiliklarini taxlil qilish	Maekul bo'lgan variantni tanlash
10	Maekul bo'lgan usul, tamoyil va vositalarni taxlil qilish	Anik usul, tamoyil va vositalarni tanlash
11	Xisoblar samaradorligini baxolash	anik echim (tadbir)lar Texnik, ijtimoiy va iktisodiy samara ko'rsatkichlari


Mehnat xavfsizligini boshqarishning asosiy vazifalari (2-rasm):

- xavfsizlikni ta'minlovchi ishlarni Mashgulot savollari:lashtirish va tashkillashtirish;
- mehnat xavfsizligi ustidan nazorat olib borish;
- havfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish;
- mehnat muhofazasini ta'minlovchi ishlarni moddiy rag'batlantirish;

Mehnat xavfsizligini boshqarishning asosiy shartlari

1. xavfsiz mexnat qilishga o'rgatish va targ'ibot qilish;
2. uskunalar xavfsizligini ta'minlash;
3. xavfsiz uslubini tanlash;
4. bino va inshootlarning ustuvorligini ta'minlash;
5. mehnat sharoitini sog'lomlashtirish;
6. xodimlarni xavfsiz himoya vositalari bilan ta'minlash;
7. eng qulay mehnat sharoiti va dam olish tartibini joriy qilish;
8. kasb kasalligi omillarini nazorat qilish va o'z vaqtda davolanishni tashkil etish;
9. xodimlarni ixtisosligi va malakasiga qarab ishga jalb etish.

Mehnat muxofazasi boshqaruvi



2-Rasm. Qurilish maydonida mehnat muhofazasini boshqarish.

Har bir korxona o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda mehnatni muhofaza qilish bo'limini yoki xavfsizlik texnikasi muhandisi lavozimidagi shtat birligini tashkil qilishi shart. Uning asosiy vazifasi korxonada mehnat qilayotgan xodimlarning mehnatni muhofaza qilish qoidasi talablarini qanday bajarayotganliklarini nazorat qilishdan iborat.

Jumladan uning xizmat doirasiga quyidagilar kiradi:

1. Bo'lim boshliqlari tomonidan mehnatni muhofaza qilish qonunlarini va boshqaruvchi tashkilotlarning xavfsizlik texnikasi, sanitariyasi me'yor va qoidalarini bajarish to'g'risidagi qarorlarning bajarilishini kuzatib boradi, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish davlat tashkiloti ko'rsatmalarini to'g'ri bajarilayotganligini tekshiradi.
2. Korxona havo muhitining toza bo'lishiga e'tibor beradi va shamollatish tizimlarining to'g'ri ishlayotganligini kuzatib boradi.
3. Korxonaga zamonaviy xavfsizlik texnikasi vositalarini joriy qilish choralari ko'radi.

4. Bo'lim boshliqlari tomonidan "Korxonada ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish" haqidagi qarorning bajarilayotganligini kuzatib boradi.

5. Korxonaning hamma bo'limlarida xavfsizlik texnikasi tavsiyanomasini o'z vaqtida va sifatli o'tkazish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Xavfsizlik texnikasi muhandisining asosiy e'tibor berishi zarur bo'lgan ob'ektlaridan biri-texnik echimlarning loyiha hujjatlarida to'g'ri hal kilinishini nazorat qilishdan iborat. Chunki muhofaza qilish asosiy chora-tadbirlari va xavfsizlik texnikasining umumiy masalalari ana shu hujjatlarda hal qilinadi. Mazkur hujjatlarni qabul qilish vaqtida xavfsizlik texnikasi muhandisining qatnashishi shart va bu korxona rahbari tomonidan buyruq bilan asoslanadi. Umuman xavfsizlik texnikasi muhandisi korxonalarni Mashg'ulot savollari:lashtirish, qayta tashkil qilishda, sanitariya-maishiy xonalar tashkil etish ishlarida, turli xil mashina va mexanizmlarini o'rnatishda, yangi texnologik mashina va mexanizmlar, texnologik tarmoqlarni yig'ish va o'rnatish ishlarida qatnashishi kerak. Xavfsizlik texnikasi muhandisi nazoratchi sifatida korxonada tuzilgan har xil komissiyalar a'zosi sifatida qatnashishi kerak. Masalan, yangi qurilgan yoki qayta jihozlangan ob'ektlarni, yangi o'rnatilgan yoki ta'mir qilingan jihozlarni qabul qilishda, muhandis-texnik xodimlarning mehnatni muhofaza qilish sohasidagi bilimlarini tekshirishda, xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish va boshqalarda ishtirok etishi zarur.

Bundan tashqari xavfsizlik texnikasi muhandisi mehnatni muhofaza qilishga qaratilgan masalalarni muhokama qilishda qatnashibgina qolmasdan, qabul qilingan qarorlarni Mashg'ulot savollari:lashtirib, amalga oshirish chora-tadbirlarini ko'radi.

Uning bajarishi zarur bo'lgan vazifalari qatoriga yana quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan baxtsiz hodisalarni hisobga olish, ularni keltirib chiqargan sabablarni tahlil qilish va baxtsiz hodisaning qaytarilmaslik chora-tadbirlarini ko'rish;
- baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklarini kamaytirish sharoitlarini yaxshilash uchun ajratilgan mablag'larning o'zlashtirilishi haqida hisobot tuzish;
- korxonadagi mehnatni muhofaza qilish masalalarini tahlil qilish va rahbar xodimlarga o'z mulohazalarini bildirish;
- tegishli bo'lim va xizmatchilar oldiga xodimlarni xavfli va zararli omillar ta'siridan muhofaza qilish talablarini qo'yish;
- bo'limlarga mehnatni muhofaza qilish masalalarida va ish sharoitini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda yordam ko'rsatish;
- bo'limlarda ishlab chiqilgan mehnatni muhofaza qilish Mashg'ulot savollari:larini umumiy korxona Mashg'ulot savollari:liga kiritib, umumlashtirish va ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini ko'rish.

Xavfsizlik texnikasi muhandisi xodimlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ularni o'qitadi va yo'riqnomalardan o'tkazadi. SHuning uchun u kadrlar tayyorlash bo'limi bilan birgalikda xodimlarni maqsadli kurslarda o'qitish ishlarini tashkil qiladi, mehnatni muhofaza qilish xonalari, burchaklari va vitrinalari tashkil qiladi. Xavfsizlik texnikasi qoida va me'yorlarini tashviqot qilish maqsadida ma'ruzalar

uyushtiradi, plakatlar sotib oladi va ularni tarqatadi, xavfsizlik texnikasining ogohlantiruvchi yozuvlarini va belgilarini kerakli erlarga oʻrnatadi.

Ish beruvchi xodimlarning mehnatni muhofaza qilish boʻyicha oʻqishini taʼminlashi va ularning bilimlarini tekshirib turishi shart.

Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha oʻquvdan, yoʻl-yoʻriqdan oʻtmagan va bilimlari tekshirilmagan xodimlarni ishga qoʻyish taʼqiqlanadi.

Mehnatni muhofaza qilish mutaxassisi sifatida xavfsizlik texnikasi muhandisi yangi ishga kirayotganlarni kirish yoʻriqnomasidan oʻtkazadi va ularga mehnatni muxofaza qilish qoida va normalarini tushuntiradi.

4- dars

Mavzu: ISHLOVCHILARNI MEHNAT FAOLIYAT XAVFSIZLIGI KOIDALARI VA TALABLARIGA UKITISH TIZIMI.

Mashgulot savollari::

- 1. Yo‘riqnomaning mohiyati va uning turlari.**
- 2. Jarohatlanish, baxtsiz hodisa va kasb kasalliklari xakida tushuncha.**
- 3. Baxtsiz xodisalarning sabablari.**

Tayanch soz va iboralar: Ish joyidagi jarohatlanish, Ish bilan bog‘liq, lekin ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan jarohatlanishlar, Ish bilan bog‘liq bo‘lmagan jarohatlanish, Statistik usul, Guruh usuli. Topografik usul Monografik usul. Yo‘riqnomalarni asosan to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin, Kirish yo‘riqnoma, Ish joyidagi yuriqnoma, Ish joyini tashkil qilish, Vaqt-vaqti bilan o‘tkaziladigan yo‘riqnoma, Mashgulot savollari:dan tashqari yo‘riqnoma, Kundalik yo‘riqnoma.

Hozirgi zamon fan va texnikasining o‘sishi, yangidan-yangi texnologiya va mashina-mexanizmlarning joriy etilishi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan har bir xodimning yuqori malakali, texnikaning tartib-qoidalarini chuqur tushunadigan va unga amal qiladigan bo‘lishlarini taqozo qiladi. Hozirgi vaqtda xavfsizlikni ta‘minlash borasida qanchadan-qancha tavsiyanomalar, qoida va meyorlar ishlab chiqilganligiga qaramasdan, korxonalarda baxtsiz hodisalarning butunlay bartaraf bo‘lishini ta‘minlovchi sharoit mavjud emas. SHu sababdan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda korxonalarda kasb kasalliklari va jarohatlanishga olib keladigan omillarni butunlay yo‘qotish korxonalar rahbarlari oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, korxonalarning xilma-xilligi, hattoki ma‘lum bir korxonada ish sharoiti bir-biriga o‘xshash ikkita bo‘limni topish amrimahol ekanligi, korxonalar umumiy havfsizligini ta‘minlovchi, tartibga solingan qoida ishlab chiqarish mumkin emas. SHuning uchun ham har bir korxonada mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan yo‘riqnomalar tizimi tashkil qilingan va bu tizimlar xodimlarning xavfsizligini ta‘minlovchi ish usullarini o‘rgatish bilan xodimning mehnat jarayonidagi xavfsizligini saqlash chora-tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi.

Yo‘riqnomalarni asosan to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

- kirish yo‘riqnoma.
- ish joyidagi yo‘riqnoma.
- vaqt-vaqti bilan o‘tkaziladigan yo‘riqnoma.
- Mashgulot savollari:dan tashqari yo‘riqnoma.

Korxonalarning hammasida xodimlar toifasi va mehnatning xavflilik darajasi qanday bo'lishiga qaramay, barcha xodimlar ishlash davri, mutaxassisligi va malakasidan qat'iy nazar, yo'riqnomadan o'tishlari shart.

Kirish yo'riqnomasi. Ishga yangi kirayotganlar uchun o'tkaziladi. Bu yuriqnomaning *asosiy maqsadi - ishga kirayotgan kishiga mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va sanitariyasi to'g'risida ma'lumot berish, uni korxona maydonlaridagi tartib qoidalaridan xabardor qilishdir.* Kirish yo'riqnomasi yaxshi jihozlangan va ko'rgazmali qurollar o'rnatilgan mehnatni muhofaza qilish xonasida xavfsizlik texnikasi muhandisi tomonidan o'tkaziladi. Ushbu *yo'riqnoma vaqtida ishga kirayotgan xodim quyidagi hollar bilan tanishtirilishi shart: O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish qonuniyatlari asoslari, korxonada yo'lga qo'yilgan ichki tartib qoidalar, korxona maydonida va bo'limlarda o'zini tutish qoidalar, korxonadagi xavfsizlik texnikasining umumiy talablari, ish joyini to'g'ri tashkil qilish, topshirilgan mashina va mexanizmlarni saranjom va ozoda saqlash qoidalar, maxsus ish sharoiti tashkil etilgan bo'limlar bilan tanishtirish, baxtsiz hodisalarning oldini olish qoidalarini tushuntirish, engil alangalanuvchi suyuqliklar, siqilgan havo, elektr toki xavfi mavjud bo'lgan bo'limlarga diqqat qaratishni tushuntirish.*

Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va korxona sanitariyasi qoida, me'yori va yo'riqnomalarining buzilishi natijasida vujudga kelgan baxtsiz hodisalar haqida ma'lumotlar berilishi, baxtsiz hodisa ro'y berganda o'zini qanday tutish va baxtsiz hodisaga uchragan kishiga shofokorlar kelgunga qadar yordam ko'rsatish usullari haqida ma'lumot beriladi. Alkogolli ichimliklar baxtsiz hodisaga olib kelishi haqida ogohlantiriladi.

Ish joyidagi yuriqnoma. *Xodimning doimiy ishlash joyi, texnologik jarayon va xavfli xududlar, xodim doimiy ishlashi zarur bo'lgan anjom aslahaning tuzilishi, uning xavfli joylari, muhofaza qurilmalari va boshqa himoya vositalari, ularning vazifasi hamda ulardan foydalanish qoidalar, ishga tayyorlanish qoidalar, texnikaning sozligini tekshirish, yurgizish-o'chirish asboblarning ishlashi, ularning erga ulanganligi, yordamchi va asosiy qurollarning mavjudligi.* SHaxsiy muhofaza aslahalarining vazifalari va ulardan foydalanish qoidalar, ish kiyimlari, maxsus kiyimlar, oyoq va bosh kiyimlarga qo'yiladigan talablar.

Ish joyini tashkil qilish - bunda material va tayyor mahsulotlarni joylashtirish, ish joylarining iflos va keraksiz narsalar bilan to'lib ketishiga yo'l qo'ymaslik, yo'llar, o'tish va ish joylarini to'sib qo'ymaslik. Baxtsiz hodisalar kelib chiqishi mumkin bo'lgan ish usullarini qo'llashni ta'qiqlash va kasb kasalliklariga olib kelishi mumkin bo'lgan sanoat zararli moddalari haqida tushuncha berib va ulardan saqlanish usullarini ko'rsatish.

Yo'riqnoma o'tkazayotganda dastlab odatdagi ish sharoitida xodim o'zini qanday tutishi kerakligi haqida ma'lumot beriladi. Lekin, korxonalarda ba'zi bir favqulodda holatlar xam yuz berib kolishi mumkin. Masalan, halokat, yong'in va boshqa hollarda xodim o'zini qanday tutishi, tez va to'g'ri harakat qilishi muhim ahamiyatga

ega. SHuning uchun mana shunday hollarda qanday harakat kilish kerakligi haqida ham ma'lumot beriladi.

Vaqt-vaqti bilan o'tkaziladigan yo'riqnoma. Bu yo'riqnomaning o'tkazish vaqtini korxona kasaba uyushmasi qo'mitalari bilan kelishgan holda korxonaning rahbari belgilaydi. Ushbu yo'riqnomaning mazmuni ish joyidagi yo'riqnoma mazmuni bilan bir xil. Mazkur yo'riqnoma kirish yo'riqnomasi singari ish staji, malakasi, toifasidan kat'iy nazar, hamma xodimlar bilan o'tkazilishi shart.

Mashgulot savollari:dan tashqari yo'riqnoma. *Bu yo'riqnoma texnologik jarayonning o'zgarishi, yangi mashinalar kiritilishi va yangi materiallardan foydalanish natijasida ish sharoitining o'zgarishi munosabati bilan xodimlarning mehnat xavfsizligini saqlash borasidagi bilimlari etishmagan hollarda o'tkaziladi.*

Bundan tashqari, ba'zi bir xodimlar tomonidan xavfli ish usullaridan foydalanilsa, mehnat intizomi yoki xavfsizlik texnikasi qoidalari buzilsa yoki ishchi ishlayotgan joyidan biror sabab bilan (masalan, kasallik, ta'til) uzilish ro'y bersa, shuningdek, ish joylarida kasb kasalliklari va baxtsiz xodisalar ro'y bersa, yo'riqnoma o'tkaziladi. O'xshash korxonada halokat sababli baxtsiz hodisa ro'y berganligi haqida xabar eshutilgandan keyin ham Mashgulot savollari:dan tashqari yo'riqnoma o'tkaziladi.

Kundalik yo'riqnoma. Kundalik ruxsatnoma bilan bajariladigan xavfli ishlar uchun ish boshlashdan oldin o'tkaziladi. Bu yo'riqnoma o'tkazilganligi haqidagi ma'lumot kundalik ruxsatnomaga yozib qo'yiladi.

Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish masalalarini targ'ib qilish va xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalarini o'tkazish maqsadida mehnatni muhofaza qilish maxsus xonasi tashkil qilinadi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha maxsus jihozlangan xonalardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- ishga yangi kirayotgan ishchi va xizmatchilarni xavfsizlik texnikasi va sanitariya bo'yicha yo'riqnomalardan o'tkazish, shuningdek bu erda kasb-xunar kollejlari va akademik litseylar talabalarini ishlab chiqarish amaliyoti vaqtida kirish yo'riqnomasidan o'tkazish;
- xavfsizlik texnikasi bo'yicha maxsus bilim talab qiladigan yumushlarda mehnat qilayotgan xodimlar bilan suhbatlar o'tkazish, korxona bosh muhandisi tomonidan tasdiqlangan dastur bo'yicha muhandis-texnik xodimlar va kasaba uyushmasi faollari bilan mehnatni muhofaza qilish masalalarida seminarlar o'tkazish;
- mehnatni muhofaza qilish xaqidagi xujjatli filmlar namoyish qilish, suhbatlar o'tkazish va ma'ruzalar uyushtirish.

ISHLAB CHIKARISHDA MEXNAT FAOLIYATI JARYONIDAGI MUAMMOLAR.


Korxonalarda xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligi qoidalariga, me'yor va tavsiyanomalariga rioya qilmaslik xodimning jarohatlanishiga va kasb kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Inson tanasining teri yoki ayrim qismlari tashqi mexanik, kimyoviy, issiqlik va elektr ta'siri natijasida shikastlanganini jarohatlanish deb ataladi. Jarohatlanish natijasida lat'eyish, kesilish, suyak sinishi va chiqishi, kimyoviy yoki issiqlikdan kuyish, issiq urishi, sovuq urishi, o'tkir zaharlanish va elektr toki ta'sirida organizmning ba'zi qismlarida hayot faoliyatining buzilishi kiradi. **O'lim bilan tugagan jarohatlanishga baxtsiz hodisa deyiladi** (3-rasm).

Ish joyidagi jarohatlanish - xodimning ma'muriyat tomonidan buyurilgan ishni bajarish chog'ida olgan jarohatlanishi tushuniladi.

Ish bilan bog'liq, lekin ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan jarohatlanishlar - ishga borib-kelish vaqtida transport vositalarida, xizmat safari vaqtida yoki korxona ma'muriyatining topshirig'iga muvofiq ishlab chiqarish hududidan tashqaridagi ba'zi bir ishlarni bajarganda olingan jarohatlanishlar tushuniladi.

3- rasm. Jarohatlanish turlari



Ish bilan bog'liq bo'lmagan jarohatlanish - bunga mastlik oqibatida olingan jarohatlar, davlat mulkini o'g'irlash va boshqa shunga o'xshash holatlarda olingan jarohatlanishlar kiradi.

Birinchi turdagi jarohatlanishga – ishchi ish joyida ishchi vazifalarini bajarishi yoki korxonaning topshiriqlarini boshqa joyda bajarishi paytida, ya'ni sexda, korxona hududida, yuk ortish, tushirish yoki yuklarni boshqa joyga ko'chirish vaqtida va shunga o'xshash jarayonda olgan jarohati kiradi.

Ikkinchi turdagi jarohatlanishga – ishchining ishga borib – kelishi vaqtida, komandirovka vaqtida, ma'muriyat topshirig'i bilan boshqa joylarda ta'luqli ishlarni bajarayotgan paytlarda olgan jarohati kiradi.

Uchunchi turdagi jarohatlanishga – o'z shaxsiy ishlarini bajarayotgan holatlarda yoki mast bo'lish natijasida, davlat mulkini o'g'irlash vaqtida, hamda uy sharoitida vujudga kelgan jarohatlanishlar kiradi.

Birinchi va ikki turdagi jarohatlanish ishlab chiqarish bilan bog'langan taqdirda ma'muriyat javobgar hisoblanadi va uning jarohatlanish natijasida yo'qotilgan kunlari uchun to'lik haq to'laydi.

Agar baxtsiz hodisa u ma'muriyat tomonidan xavfsiz ish sharoitini yaratish sohasida yo'l qo'yilgan xato tufayli bo'lmay, balki xodimning mehnatni muhofaza qilish qoida va me'yorlariga amal qilmasligi natijasida kelib chiqqan bo'lsa, unda xodim ham ma'muriyat xodimi bilan birga javobgar hisoblanadi. Bunda moddiy to'lov miqdori ma'muriyat xodimi va xodimning aybdorlik darajasiga qarab belgilanadi. Mehnat qonunlariga asosan ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jarohatlanishdan yo'qotilgan ish kunlariga korxona tomonidan haq to'lanishi belgilab qo'yilgan.

Ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan jarohatlanish yoki zararlanish yoki kasb kasaligiga yo'liqish korxonalarida yo'l qo'yilgan tashkiliy va texnik xatolar natijasida ro'y berishi mumkin. SHuning uchun ham ishlab chiqarish korxonalarida yuz bergan har qanday baxtsiz hodisa, har tomonlama tekshirilishi va hisobga olinishi shart. Tekshirish va hisobga olish natijalari baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini aniqlab, kelajakda jarohatlanish hamda, kasallanishning qaytarilmasligi uchun zarur bo'lgan chora - tadbirlarni ko'rish imkoniyatini yaratadai.

Har bir baxtsiz hodisa, qay tarzda yuz berilganiga qaramay, ya'ni ish boshlanishdan oldinmi, ish davomidami, ishdan keyinmi, yoki ish joyidami, korxona maydonidami, yoki ma'muriyat topshirig'i bilan korxona maydonidan chetda yuz berilgan holatlarga qaramay, shu tariqa va boshqa sabablardan qat'iy nazar - tekshiruv marosimi o'tkazilishi lozim.

Tekshirish hamda hisobga olish ishlarini kasaba uyushmasi (federatsiyasi) Nizomiga asosan korxona boshlig'i, xavfsizlik texnikasining muhandisi, jamoat inspektori va boshqalar ishtirokida tuzilgan komissiya olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 iyundagi 286 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish" to'g'risidagi Nizomda O'zbekiston Respublikasi hududida mulkchilikning barcha shakllardagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek, mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan ayrim fuqarolar bilan mehnat faoliyatiga bog'liq holda yuz bergan hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olishning yagona tartibi belgilangan.

Ishlab chiqarish korxonalarida yuz bergan har qanday baxtsiz hodisa o'rnatilgan qat'iy tartib asosida har tomonlama tekshiriladi va hisobga olinadi. O'lim bilan tugagan og'ir jarohatlanish va barcha guruh xodimlarning baxtsiz hodisaga uchrashi hollaridan tashqari, ***hamma baxtsiz hodisalar bo'lim boshlig'i, xavfsizlik texnikasi muhandisi va jamoat nazoratchisi tarkibida tuzilgan komissiya tomonidan tekshiriladi.*** Baxtsiz hodisa ish boshlanishidan oldin, ish davomida, ish vaqtdan keyin ish joyida, korxona xududida va ma'muriyatning topshirig'iga asosan, korxona xududidan chetda yuz bergan bo'lishidan qat'iy nazar tekshiriladi. Issiq urishi va tana ba'zi qismlarining muzlashi ham baxtsiz hodisa sifatida tekshiriladi.

Kamida bir ish kuni yo'qotilgan baxtsiz hodisalar 24 soat davomida tekshiriladi va maxsus shakl bo'yicha (N-1) 4 nusxadan iborat akt tuziladi. Mazkur aktda baxtsiz hodisaga uchragan kishi haqidagi axborotdan tashqari, aniqlangan baxtsiz hodisaning sabablari keltirilishi va bunday baxtsiz hodisalar qaytarilmasligi uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilganligi haqida axborot beriladi. Aktni korxonaning bosh muhandisi tasdiqlaydi. Aktning bir nusxasi bo'lim boshlig'iga yuboriladi va u bosh muhandis belgilagan muddat davomida aktda ko'rsatilgan masalalarni amalga oshirishi kerak. Ikkinchi nusxasi kasaba uyushmasi qo'mitasiga, uchinchi tegishli kasaba uyushmasining texnik nazoratchisiga va to'rtinchi mehnatni muhofaza qilish bo'limiga nazorat o'rnatish uchun yuboriladi. Ma'muriyat baxtsiz hodisaga uchragan kishiga aktning tasdiqlangan nusxasini berishi shart. Aktda bunday hodisalarning qaytarilmasligini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmuasi tavsiya etiladi va uning bitta nusxasi respublika Sog'liqni saqlash vazirligining yuqori tashkilotlariga yuboriladi. Baxtsiz hodisaning asoratlari keyinchalik ham kelib chiqishini hisobga olib, aktlar 45 yilgacha saqlanishi kerak.

Baxtsiz hodisa tekshirilgandan keyin korxona ma'muriyati yo'l qo'yilgan xatolarning qaytarilmasligini ta'minlashga qaratilgan buyruq e'lon qiladi. Bu buyruqda korxonada yuz bergan baxtsiz hodisaning sodir bo'lishida aybdor bo'lgan kishilarning javobgarligi aniqlanib, ta'kidlanadi.

Baxtsiz hodisaga uchragan kishi hisobga olinib, unga ma'lum davolanish kursi belgilanadi. Agar zarur bo'lsa, kasb kasalligiga uchragan kishi mehnat ekspert tibbiyot xodimlari komissiyasi (TMEK)ga yuboriladi va unda xodimning kasb kasalligining oqibati natijasida olgan nogironlik guruhi aniqlanib va shunga yarasha ma'lum moddiy ta'minlanish miqdori belgilanadi.

Korxonalarda baxtsiz hodisalar va ularni keltirib chiqaruvchi xavfli holatlar baxtsiz hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan omillarni yo'qotish maqsadida aniqlanadi. Bu ishlar asosan oqilona usullarni qo'llash, baxtsiz hodisa va kasb kasalliklarining kelib chiqishidan holi bo'ladigan ish sharoitini tashkil qilish hisobiga amalga oshiriladi.

Baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlash uchun asosan ikki usuldan foydalaniladi.

1. **Statistik usul.** Bu usul baxtsiz hodisalarning umumiy statistik hisobga olingan jarohatlanish materiallarini tahlil qilishga asoslangan. Mazkur usul jarohatlanishni tahlil qilish uchun ham asosiy material bo'lishdan tashqari, baxtsiz hodisalarni kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rish uchun amaliy ma'lumot beradi. Bu usul bilan jarohatlanishni aniqlovchi chastota koeffitsienti va jarohatning og'irligi koeffitsientining o'rtacha ko'rsatkichini olish mumkin.

Baxtsiz hodisalarning takrorlanish koeffitsientini, 1000 ta xodim hisobiga, ma'lum vaqt davomida korxonada kelib chiqqan baxtsiz hodisalarning o'rtacha miqdorini quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$K=R/T.1000$$

Bunda R — ma'lum vaqt ichidagi jarohatlanganlar soni; T—shu vaqt ichida korxonada ishlagan xodimlar soni. Jarohatlanish koeffitsienti qaysi korxonada baxtsiz hodisalar ko'proq vujudga kelayotganligi haqida ma'lumot beradi.

Baxtsiz hodisaning og'irlik koeffitsientini, ya'ni har bir jarohatlanishning o'rtacha yo'qotilgan ish kunlari hisobini ko'rsatuvchi K ni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin.

$$K=P/R$$

Bunda P —hamma baxtsiz hodisaga uchraganlar tomonidan yo'qotilgan ish kunlari soni; R — shu davrda baxtsiz hodisaga uchraganlar soni.

SHuni aytib o'tish kerakki, bu ko'rsatkich haqiqiy og'ir jarohatlanish belgilarini ko'rsata olmaydi, chunki uning tarkibiga nogironlik va o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar kiritilmagan, ular alohida hisobga olinadi.

Statistika usulini ikkiga bo'lib qarash qabul qilingan: bular guruh va topografik usullardir.

Guruh usuli. Bu statistik usulning tarkibiy qismi hisoblanib baxtsiz hodisalarning bir xil sharoitlarda va ayrim belgilari bilan (masalan vaqti va sodir bo'lgan joyi, baxtsiz hodisaning xususiyatini va h.k.) guruh holida takrorlanishini aniqlash imkoniyatini beradi.

Topografik usul. Bu usul ham guruh usulining ko'rinishlaridan biri bo'lib, quyidagi hollarda qo'llaniladi. Guruh usulida keltirilgan baxtsiz hodisalar haqidagi ma'lumotlarni har xil shartli belgilar bilan belgilab (masalan, N-1), ish joyi hududlarining Mashg'ulot savollari:sida baxtsiz hodisa yuz bergan joylarga ogohlantiruvchi belgilar qo'yib chiqiladi. Bu usulda ma'lum ish joylarida baxtsiz hodisalarning takrorlanishi haqida ko'rgazmali ma'lumot olinadi.

Har qanday statistik tekshirish kabi, bu usul bilan baxtsiz hodisalarni tahlil qilishda ham olingan material, asosan baxtsiz hodisa haqida tuzilgan N-1 shakldagi akt har tomonlama o'rganiladi. Aktda baxtsiz hodisa yuz bergan joy, jarohatlanish tavsifi, og'irlik darajasi, voqea shu kecha-kunduzning kaysi vaqtida yuz berganligi xaqidagi ma'lumotlar aks etadi.

Monografik usul. Bu usulning mohiyati shundaki, baxtsiz hodisa yuz bergan ayrim bo'limlar chuqur va har tomonlama o'rganiladi. Asosiy diqqat-e'tibor texnologik jarayonlarning cheklanishi, ayrim ish usullari, ishlab chiqarishning xavfli lahzalari va sanitariya-gigienik talablar mehnat sharoitiga qaratilishi kerak. Bu usulda korxonalarda ro'y bergan baxtsiz hodisalar, halokatlar va kasb kasalliklarining sabablari aniqlanadi va o'rganiladi.

Xuddi shunday taxlillar turdosh korxonalar bo'yicha ham o'tkaziladi.


Monografik usul ishlab chiqarish sharoitida kelib chiqishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarni aniqlash imkoniyatini beradi. SHuningdek qurilayotgan yoki loyihalashtirilayotgan turdosh korxonalarda shunga o'xshash baxtsiz hodisalarning kelib chiqmasligini ta'minlashga harakat qilinadi.

Bu usul xulosalari asosida loyihalashtirilayotgan korxonalarda texnologik jarayonlarni o'zgartirish va takomillashtirish chora-tadbirlari ko'riladi.

Baxtsiz hodisalarni qayd qilish va hisobga olish bilan baxtsiz hodisalarning sabablarini aniqlab bo'lmaydi, bu faqat baxtsiz hodisa sabablarini aniqlash uchun material bo'la oladi. Xodimning ish sharoitida ishlash faoliyatini o'rganish uning

ishlash qobiliyati bilan ish vaqti o'rtasida bog'lanish borligini aniqlash imkoniyatini beradi.

Bu bog'lanish 4 -rasmida ko'rsatilgandek o'zgaradi. YA'ni xodim ish boshlagandan keyin yarim soat davomida ish maromiga tushmagan va sozlanmagan holatda bo'ladi. YArim soatdan keyin ish maromi muvo-fiqlashadi va bir me'yorda taxminan 3,5 soat davom etadi, so'ngra yana pasayish boshlanadi. Baxtsiz hodisalarning yuz berishi ham xuddi shu shakl asosida borishi aniqlandi. 4 soat davomida xodim charchashi hisobiga ish qobiliyati kamaysa, xuddi shu charchash hisobiga baxtsiz hodisalar ham vujudga keladi.



4-rasm. Xodimning ishlash qobiliyati va ish vaqti o'rtasidagi bog'lanish.

Tashkiliy sabablar. Korxonani loyihalash vaqtida yo'l qo'yilgan xatolar, xodimlarning xavfsiz ishlash usullariga o'rgatilmaganligi, yo'riqnomaning noto'g'ri o'tkazilganligi, xodimlar mehnatidan mutaxassisligi bo'yicha foydalanmaslik, xavfsiz mehnat qilish texnik nazoratining yo'qligi, xavfli ekanligini bilib turib, betartib ish yuritish va xodimlarning o'zaro kelishmasdan ish olib borishlari, texnologik jarayonlarning buzilishi, xodimlarning mehnat qilish va dam olish Mashgulot savollari:larining buzilishi, ish joylarini noqulay Mashgulot savollari:lashtirish, korxona hududida yo'lka va o'tish joylarini noto'g'ri joylashtirish, ish joylarini noto'g'ri tashkil kilish, nobop ish qurollaridan foydalanish, shaxsiy muhofaza anjomlarining ish sharoitiga to'g'ri kelmasligi, to'siqlarning yo'qligi, xavf haqida ogohlantiruvchi plakatlarining bo'lmasligi va boshqalar.

Texnik sabablar. Stanoklar, ish qurollari, yordamchi vositalar harakatlanuvchi va yuk ko'taruvchi qismlarining qurilish kamchiliklari, mashina va mexanizmlar ayrim qismlarining sinib yoki uzilib ketishi, texnologik jarayonlarning nomukammalligi, to'siq qurilmalari va saqlovchi vositalarning puxta ishlamasligi.

Sanitariya-gigienik sabablar. Ob-havo sharoitining (havoning harorati, nisbiy namligi, harakat tezligi va bosimi, issiqlik ajralib chiqishi) qoniqarli bo'lishi korxonalardagi havo muhitining changlanganligi, ish joylari, maydonlar va o'tish joylarining oqilona yoritilmaganligi, shovqin va titrashning mavjudligi, ishlab

chiqarish xonalari va sanitariya-maishiy xonalarning etarli emasligi va sanitariya-gigiena talablariga javob bermasligi, shaxsiy gigiena talablariga rioya qilmaslik.

Jismoniy-ruhiy sabablar. Xodim ruhiy ahvolidagi buzilishi natijasida vujudga keladigan sabablar oilaviy notinchlik, ishxonada, jamoa o'rtasidagi kelishmovchilik va hokazo.

Mazkur sabablar aniqlangandan keyin ish sharoitida ularning kelib chiqmasligini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilishi zarur. Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish esa ishlab chiqarish sharoitida baxtsiz hodisalarning butunlay yo'qolishiga yoki kamayishiga olib keladi.

Sanoat korxonalarida, qurilish ob'ektlarida va boshqa har xil maishiy, madaniy xo'jaliklarida turli – tuman mashina va mexanizmlar, stanoklar, ko'tarish kranlari, ish bajarish konveyerlari va boshqa qurilmalar mavjudki, bularning hammasi ishlayotganlar uchun, atrofdagilar uchun ma'lum xavf tug'dirishi, agar ehtiyot choralari, tadbirlari belgilab qo'yilmasa, baxtsiz hodisalar sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Bu mexanizmlarning ish sharoiti har xil bo'lib, shu tariqada ular har xil xavf tug'diradi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ish sharoitini yaxshilash va baxtsiz hodisalarni kamaytirishning birdan – bir yili korxonalarning ishini mexanizatsiyalashtirish, og'ir ishlarni robot va avtomatlashtirilgan vositalar zimmasiga yuklashga erishishga, intilish kerak.

Mexanizatsiyaning eng yuqori bosqichi avtomatlashtirish hisoblanadi. Ammo, hozirgi vaqtda (umuman ham) butun sanoat korxonalarni va boshqa tarmoqlarni avtomatlashtirish imkoniyati yo'q. SHuning uchun ham avtomatlashtirilmagan ishlab chiqarish jarayonlarining xavfsizligini ta'minlash uchun umumiy usullar qo'llaniladi.

5- dars

Mavzu: ISHLAB CHIQARISHNING SANITARIYASI VA GIGIENASI ME'YORLARI.

Mashgulot savollari::

- 1. Mexnat fiziologiyasi va gigienasining mazmuni.**
- 2. Mexnat faoliyatining turlari.**
- 3. Mexnat jarayonida ishlovchilarning ishlash kobiliyatining pasayishi va zurikishi.**
- 4. Texnosferada havo muhitining ko'rsatkichlari**
- 5. Xavo muhitining inson organizmiga ta'siri.**

Tayanch so'z va iboralar: Yopik ishlab chiqarish, xonalarida meteorologik sharoitlarni (mikroiklimni) belgilovchi kursatkichlar: xavo xarorati; xavoning nisbiy namligi; xavo xarakati tezligi; issiklik nurlanishi jadalligi. Havo harorati, Havoning nisbiy namligi, Havoning tezligi. Ishlar toifasi, Urtacha ogirlikdagi jismoniy ishlarga. Mexnat fiziologiyasi, Kasb kasalliklari, Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning yo'nalishlari, Estetik yo'nalish. Fiziologik yo'nalishda: Psixologik

yoʻnalish: Statik ish – odamning *fazoda* tana, qoʻl va oyoq, Aqliy mehnat. Urtacha ogirlikdagi jismoniy ishlarga

Mexnat fiziologiyasi-ish paytida inson tanasida yuz beradigan funksional oʻzgarishlarni tekshiradi va ish qobiliyatini saklash va oshirish, mehnat faoliyati va jarayonining ishchilar soʻfligiga salbiy taʼsirining oldini olish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chikadi.

Mehnat, avvalo ijtimoiy tushunchadir. Mehnat jamiyatning eng xususiyatli belgilarini tahlil qilish, ijtimoiy Mashgʻulot savollari:da moddiy boyliklar manbai va jamiyatni shakllantiradigan negiz ekanligini koʻrsatadi. Biologik jihatdan mehnatning eng muhim faoliyati tana hisoblanadi. Foydali mehnat yoki ishlab chiqarish ayrim turlari oʻrtasidagi tafovutlarga qaramay, fiziologik jihatdan ular organizmning vazifasi hisoblanadi va shunday har bir vazifa kishi miyasi, asabi, mushaklar, sezgi organlarining sarfidir.

Mehnat gigienasi tibbiy profilaktika sohasi boʻlib, ish qobiliyatini yuksak darajada taʼminlash, kasb kasalliklari va odamning mehnat faoliyati bilan bogʻliq boshqa salbiy oqibatlarning oldini olishning ilmiy asoslarini va amaliy choralarini ishlab chiqish bilan shugʻullanadi. Mehnat odamning shakllanish va ijtimoiy rivojlanishi, moddiy boyliklar yaratishining asosi hisoblanadi. U organizmda biologik jarayonlarning meʼyoriy kechishi va ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun zarurdir. Masalan oʻsmirlar organizmi kattalarnikidan fark kiladi, ularda oʻpka kasalliklari rivojlanishi mumkin, umurtkalarini deformatsiyalanishi kutiladi. SHu sababli 15 yoshgacha oʻsmirlar 8,2 kg gacha, 15 yoshgacha kizlar 5 kg gacha, 16-18 yoshgacha 16,4 kg gacha 16-18 yoshgacha kizlar 10,2 kg oʻirlikdagi yuklarni ish kunidan 1/3 kismini sarflagan xolda ishlashlariga ruxsat etiladi. Ular ish vaktida tez-tez dam olishlariga sharoit yaratib berishlari zarur. Dam olish aktiv ishlab chikarish gimnastikasiga asoslangan xolda olib borilishi kerak. Oʻsmirlarning shaxsiy gigienasiga xam axamiyat berish zarur, jumladan organizmni chiniktirish, ish va dam olish rejimiga toʻrri rioya kilish kerak. Ularning uykusi 7-8 soatdan kam boʻlmasligi kerak, xamda jismoniy tarbiya bilan shuʻullanishlari shart.

Toʻgʻri tashkil etilgan mehnat kishining jismoniy intellektual va maʼnaviy kamol topishiga olib keladi. Jamiyatda u nafaqat moddiy farovonlik, balki odamning tetiklik manbai hamdir. Biroq mehnatning ijobiy taʼsiri bilan birga baʼzi hollarda salbiy oqibatlari ham boʻlishi ilgariidan kuzatilgan. Bu mehnat faoliyati natijalarini kamaytirib va sifat jihatdan pasaytiribgina qolmay, balki kasbga aloqador kasalliklarni ham vujudga keltirishi mumkin.

Mehnat gigienasining asosiy vazifasi ish unumdorligini eng yuqori darajada oshirish va ishlovchilarning sogʻligiga zararli taʼsir qilmaydigan sharoitlarni taʼminlaydigan tadbirlarni ishlab chiqarishdan iborat. *Bunda mehnat gigienasi va yurak – tomir, onkologik va asab kasalliklarini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.* Bu vazifalarni hal qilishning asosiy yoʻllarini koʻrib chiqamiz.

Kasb kasalliklarining profilaktikasi ilmiy tahlil xulosalariga asoslangan. Fan va texnika taraqqiyoti, mehnat gigienasi oldiga yangidan – yangi vazifalar qoʻymoqda.

Tebranma harakat, ultratovush, elektr va magnit maydonlari, ionlovchi radiatsiya, lazer nurlanishi va yangi kimyoviy moddalarning organizmga ta'sirini qunt bilan o'rganish, zaruriyati tug'ildi. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilmasdan oldin, ayniqsa ularni odam sog'ligiga zararli ta'siri va belgilarini aniqlash, chuqur o'rganish, muhim.

Sanoat va qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun yil sayin ko'p miqdorda kimyoviy moddalar sintez qilinadi. Ishlab chiqarishga joriy qilishdan avval ularning organizmga zararli ta'sirini o'rganish lozim hamda ulardan saqlanish himoya vositalarini, ishlab chiqarish kerak. Birorta ham yangi birikma Sog'liqni saqlash vazirligining ruxsatisiz xalq xo'jaligida qo'llanilishi tavsiya etilmaydi.

Gigienik me'yorlarni ilmiy asoslash katta ahamiyatga ega. Bunda ish qobiliyatini saqlash va oshirish uchun qulay, ishlovchilarning salomatligiga zararli ta'sirning oldini olish imkonini beradigan tashqi muhit ko'rsatikichlarini ham aniqlash lozim. Bu, avvalo, yaxshi mikroiklim sharoitlarini yaratish, ish joylarini qulay ravishda yoritish va boshqalardan iborat. Ishlab chiqarish muhiti fizik va kimyoviy omillarning zarari xususida organizm uchun yo'l qo'yiladigan daraja va miqdorlar belgilanishi lozim va bu darajalarni, miqdorini pasaytirish choralarini ta'minlash kerak.

Sanitariya – gigienik me'yorlar Mehnat Kodeksi asosini tashkil etish, ishlab chiqarishga ilmiy asoslangan va jahon andozalariga javob beradigan ilg'or texnologiyalarga asoslangan. Yuqori mehnat unumdorligiga imkon beradigan sharoitlarni ta'minlash uchun - uskunalar va jihozlar, boshqarish pultrlari va ish joyining tuzilishi, mehnat va dam olish davrlarining davomliligi, ish qobiliyatiga ta'sir qiladigan qator boshqa omillarga bo'lgan talablarni fiziologik jihatdan asoslash zarur.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning yo'nalishlari quyida keltirilgan.

1. Gigienik yo'nalish

- salomatlik va ish qobiliyatiga ta'sir qiladigan ishlab chiqarish muhiti omillarini me'yorlash;
- ishlab chiqarish muhitdagi zararli omillarni kamaytirish va yo'qotish yo'li bilan mehnat sharoitlarini sog'lomlashtirish.

2. Fiziologik yo'nalishda:

- ish joylar, asboblari, mashina va jihozlar fiziologik talablarga muvofiq holda bo'lishiga erishish;
- mehnat va dam olish rejimlarini joriy etish;
- mehnatning jismoniy og'irligini kamaytirish, fiziologik jihatdan etarlicha harakat faolligini ta'minlash;
- mehnatning aqliy va emotsional toliqtirishini kamaytirish.

III . Psixologik yo'nalish:

- pultrlar, mashinalar va mexanizmlar tizimlarini boshqarish uchun boshqa vositalar ixtiro qilishda ruhiy talablarni hisobga olish (muhandislik ruhiyati);
- kasb tanlashda - kasbiy talablarga muvofiq holda shaxsning ruhiy xususiyatlarini hisobga olish;

- jamoalarda qulay ruhiy kayfiyat yaratish, ishlovchilarning mehnatdan va uning natijalaridan yuqori manfaatdor bo'lishlarini ta'minlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqarish va joriy qilish.

IV. Estetik yo'nalish.

- inter'ernlarni bezatishda, uskunalarni joylashtirishda, ranglar bilan bezatishda va boshqalarda ishlab chiqarish estetikasi talablariga rioya qilish;
- texnikaviy estetika talablarni bajarish, mashinalar, asboblarni, jihozlarni, pultlar singari boshqaruv vositalarini *badiiy ixtiro qilish*.

Qurilayotgan va loyiha qilinayotgan zavod, fabrika va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarida gigiena - sanitariya masalalari bo'yicha ma'lum talablar qo'yiladi. Mehnat giigenasi bo'yicha muhandis va ularning yordamchilarini joylardagi havoning tozaligi, mehnat fiziologiyasi talablarining bajarilishi, meteorologik sharoitlariga doir sanitariya me'yorlari, ish joylarining yoritilishi, ishlab chiqarishda shikastlanishning oldini olish bo'yicha choralar qo'llanilishi ustidan nazorat qilib boradilar.

Mehnat turlarining umumiy belgilari ham, tafovutlari ham bor. SHartli ravishda jismoniy va aqliy mehnat turlari farqlanadi. Har qanday mehnat turida quvvat sarf bo'ladi, organizmda fiziologik siljishlar kuzatiladi. Jismoniy mehnatda nafas va qon aylanish tizimlarida bir muncha siljishlar sodir bo'lsa, aqliy mehnatda asosan - asab tizimi qatnashadi va modda almashinuvi kamroq ro'y beradi.

Jismoniy mehnat (ish) deganda tayanch harakat apparati va uning ishlashi uchun zarur tizimlar harakatini ta'minlaydigan muhim quvvat sarflari bilan bog'liq ishlab chiqarish faoliyatining turi tushuniladi. Bunda diqqat, xotira kabi oliy ruhiy funksiyalar va umuman intellektual va emotsional sohalar unchalik zo'riqmaydi.

Jismoniy ish dinamik va statik bo'lishi mumkin.

Dinamik ish – yukni yuqoriga, pastga yoki ufqiy ko'tarishdir.

Statik ish – odamning *fazoda* tana, qo'l va oyoqlarini o'zgartirmagan holda kuch sarflab ishlashidir.

Aqliy mehnat odamning ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va ijodiy faoliyat bilan band bo'lishidir. Uning asosini ma'lumotni idrok qilish, qayta ishlash va qarorlar qabul qilish tashkil etadi. Ma'lumot qabul qilish asosan ko'rish va eshitish organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda diqqat, xotira, intellektual faoliyat singari oliy ruhiy funutsiyalar ishga solinadi. Aqliy faoliyatning hamma hollarida asab tizimi uning markaziy bo'limlarining ishtirok etish asosiy belgisi sanaladi.

Aqliy mehnat kuchini sinflashda uning qator xususiyati hisobga olinadi.

Mehnatning kuchi, avvalo, diqqat funksiyasiga qanday talablar qo'yilishiga bog'liq. Bu ayni vaqtda kuzatilishi lozim bo'lgan muhim ishlab chiqarish ob'ektlarini soni, vaqt birligida kelib turadigan signallar miqdoriga bog'liq. SHuningdek emotsional eshitish hamda ko'rish zo'riqishining oldini olishda mehnatning bir maromdagi darajasi muhim ahamiyatga ega. Mehnatning kuchiga, shuningdek navbat (smena) bilan ishlash Mashgulot savollari:si ham ta'sir qiladi. Muntazam ravishda ertalabki smenada bajariladigan ish - kam kuch sarflanadigan

mehnat; ish smenasi o'zgarib turadigan, jumladan tunda ishlash jarayoni - ko'p kuch sarflanadigan mehnat deyiladi.

Ba'zan ish bajarish jarayonida organizm ish qobiliyatining pasayish hollari sodir bo'lishi mumkin, bu hollarga ob'ektiv ravishda **toliqish** deb baho beriladi, sub'ektiv ravishda esa **charchash** sezgisi yuzaga keladi.

Toliqish – ish qobiliyatining pasayishidir. U ancha og'ir, ko'p kuch talab etadigan yoki davomli mehnat bajarish natijasida paydo bo'ladigan va mehnat natijalarining miqdor va sifat jihatidan yomonlanishuvi bilan ifodalanadi. Vaqt birligida (minut, soat) tayyorlanadigan yoki bajariladigan operatsiyalar soni miqdoriy ko'rsatkich hisoblanadi. Toliqqan organizmda bir qancha o'ziga xos fiziologik siljishlar kuzatiladi.

Toliqish qaytuvchan, fiziologik holatdir. Biroq ish qobiliyati keyingi ish davri boshlangunga qadar tiklanmasa, toliqish tobora kuchaya borishi va o'ta toliqish bosqichiga o'tishi mumkin. Bu ish qobiliyatining birmuncha barqaror pasayishi bo'lib, keyinchalik, ayrim hollarda, kasallikni rivojlanishiga olib boradi, xususan, bunda tananing yuqumli kasalliklarga chidami pasayib ketadi. Ortiqcha toliqishda hissiyotga berilish yuzaga kelib, bu yurak-tomirlar potologiyasi rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Toliqish ishlab chiqarishda shikastlanishlar oshishiga, mehnat unumdorligining pasayishiga, umumiy va kasbga doir kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

Tananing ish qobiliyati birinchi galda markaziy asab tizimining holatiga bog'liq. Markaziy asab tizimiga esa ijtimoiy muhit sharoitlari katta ta'sir ko'rsatadi. Ish kuni va haftasining davomiyligini qisqartirish toliqishning oldini olishda eng muhim vosita hisoblanadi. Ko'p mehnat talab qiladigan ishlarni mexanizatsiyalashtirish, yarim avtomat va avtomatlashgan texnologiya jarayonlariga o'tish mehnatni engillashtirib, ishlab chiqarish, muhitini birmuncha qulay sharoitga keltirib, toliqish rivojlanishining oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarishda toliqishga qarshi kurash ko'pgina yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilib, ular orasida so'nggi yillarda ergonomika, ishlab chiqarish estetikasi kabi yangi yo'nalishlar ham vujudga keldi. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida mashq qilishdan foydalanish ish qobiliyatini oshirishiga keltiradi. Muntazam mashq qilib borish unumli ishlashning eng ishonchli usuli hisoblanadi.

Havo harorati Soglom va yusori unumli metsnatning zarur shartlaridan biri xonaning ishchi zonasida, ya'ni pol satxidan ikki metrgacha ba-landlikdagi maydonda xavoning tozaligini va normal meteorologii sharoitlarni ta'minlashdan iborat. Xavoning xarorati, xarakatchanligi va nisbiy namligi, shuningdek nurli issiklik almashinuvi xavo muxitida bulgan odam uchun sharoitlarning issiklikka nisbatan kanchalik kulay (yoki nokulay)ligini belgilab beradi. Xavoning xarorati, xarakatchanligi va nisbiy namligi, muayyan nurli issiklik almashinuvi va biometrik bosimi bilan belgilanadigan xavo muxiti xolati mikroiklim (ba'zida - ishlab chitsarish mikroitslimi) deb ataladi. Ish joyida mikroiklimni gigienik normalar chegarasida saklab turish - mexnatni muxofaza kilishning eng muxim vazifasidir. Mikroiklim parametrlari Uzbekistan Respublikasining 2006 yil 24 maydagi 0203-06-sonli SanPiN - "Ishlab chikarish xona-lari mikroiklimining sanitar-gigienik

normalari", shuningdek Davlatlararo standart GOST 12.1.005-88 bilan me'yorga solinadi. Xonalarda xavo muxiti sifatini shakllantirish jarayoni ochik atmosferadagi xuddi shunday jarayondan ultrabinafsha nurlanishining yukligi, xavo elektrik xossalari-ning uzgarganligi, oliy usimliklarning yukligi va x.k.lar bilan fark kiladi.

Bularning xammasi xonadagi xavo muxitining sifatiga ta'sir kiladi, chunki, odatda, xonadagi, ayniksa ishlab chikarish xonalaridagi xavoning sifati "kucha"dagi xavodan unlab marotaba, xattoki yuzlab marotaba yomon bulishi xollari uchraydi. Bundan tashkari, yukorida sanab utilgan omillarning mavjudligi xavo muxitini odam organizmi uchun yul Kuyilishi mumkin bulgan darajada saklab turishni kiyinlashtiradi, maxsus tozalovchi moslamalardan va individual ximoya vositalaridan foydalanishni takrzo etadi.

YOpiq ishlab chikarish xonalarida meteorologik sharoitlarni (mikroiklimni) belgilovchi kursatkichlar kuyidagilardir:

- xavo xarorati;
- xavoning nisbiy namligi;
- xavo xarakati tezligi;
- issiklik nurlanishi jadalligi.

SHuningdek, inson sogligiga bosim uzgarishlari xam jiddiy ta'sir kursatadi.

Havo harorati

Uy joyning va ishlab chiqarish xonalarning meteorologik sharoitini bildiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib havoning harorati hisoblanadi. Korxonalaridagi havo harorati shu xonalarga tashqi muhit isitgichlaridan konveksiya yo'li bilan kelib tushadigan issiqlikdan va har xil qurilma, uskunalaridan ajraladigan nurlanishdardan (ko'pincha infraqizil nurlanish) iborat. SHuni ham ta'kidlash kerakki, issiqlik chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan sanoat korxonalarida issiqlikning 2/3 qismi nurlanish issiqligi bilan bog'liq bo'lib, 1/3 qismi konveksiya orqali tarqaladi. Sanoat korxonalarida nurlanish issiqligi har xil uskuna va moslamalarning qoplamasi va ustunidan chiqadi. Masalan, metallurgiya pechlari, qozonlar, oshxona qozonxonalari va boshqalar.

Havo harorati yuqori darajalarga ko'tarilganda (asosiy omil) va shu paytda harorat past, nisbiy namlik yuqori hamda issiqlik radiatsiyasi oshganda inson organizmida **issiqlash** protsesi boshlanishi mumkin

Agarda, havo harorati past bo'lib ketganda va shu paytda, yana, namlik darajasi yuqori bo'lsa, havo harakati jadal bo'lsa **sovish** protsessi kelib chiqishi mumkin va odam tanasining temperaturasi pasayib, qon tomirlari torayadi, yurak – tomir sistemasi ishi buziladi va shamollanish kasali kelib chiqishi mumkin.

Havoning nisbiy namligi

Ko'rilayotgan paytda, havo haroratida mavjud bo'lgan suv parlar miqdorining, shu temperatura va atmosfera bosimida, havoda etilishi mumkin darajada bo'lgan maksimal boyitilgan suv parlanishining miqdoriga (насыщение воздуха водяными парами) nisbati – **nisbiy namlik** deb bilinadi.

Buni quyidagi formulada ifodalash mumkin

$$\varphi = (D/D_0) 100\%$$

bunda: D – ko‘rilayotgan vaqtdagi havoda mavjud bo‘lgan suv parlarining miqdori (G/m^3);

D_0 – shu vaqtda, shu havo haroratida to‘la maksimal bo‘lishi mumkin bo‘lgan suv parlarining miqdori (G/m^3);

φ –havoning nisbiy namligi (%).

Xavo namligi organizm termoregulyasiyasiga ta‘sir kursatadi: yukori namlik (85 foiz-dan yukori) ter ajralishining pasayishi okibatida termoregulyasiyani kiyinlashtiradi, xavo namligining juda past bulishi esa (20 foizdan past) nafas yullari shilimshik kavatini kuritib yuboradi. Namlikning optimal mitsdori - 40-60%.

Nisbiy namlik havo haroratining darajasi pasayishi va atmosfera bosimini baland bo‘lishi natijasida - ko‘tariladi. YUqori namlik (75-80% dan oshiq) ta‘siri harorat baland bo‘lganda terlash protsessiga qarshilik ko‘rsatib organizmni **issiqlash holatiga** (peregrev) olib keladi.

Havoning tezligi.

Xavoning xarakati xam inson kayfiyati va xol-axvoliga katta ta‘sir kursatadi. Issik xonada u odam organizmidan issiklik ajralishi ortishiga olib keladi va past xaroratda uning xol-axvolini yaxshilaydi. Yilning sish faslida xavo xarakati tezligi 0,2-0,5 m/s dan, ezda esa 0,2-1 m/s dan oshmasligi kerak. Xavo xarakatining tezligi zararli moddalar tarkalishiga nokulay ta‘sir kursatishi mumkin.

Havoning harakti mikroiklimning normallashuviga katta ta‘sir o‘tkazadi. Havo harakati konveksiya natijasida paydo bo‘ladi. Bu ishlab chiqarish xonalarining havosini notekis issiqlanishidan (neravnomernoe nagrevanie) yoki tashqi mexanik (suniy) ta‘sirdan paydo bo‘ladi. Birinchi holat tabiiy konveksiya va ikkinchi holat suniy konveksiya deb bilinadi. Havo harakatining ko‘rsatgichi bo‘lib uning tezligi hisoblanadi va M/s da o‘lchanadi.

YUqorida qayd etilganday meteorologiya omillari ba‘zi bir hollarda inson uchun ijobiy va ba‘zi bir hollarda salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Salbiy ta‘sir holatlarda inson organizmining issiklik boshqarilishi buzilib ketishi mumkin.

Inson organizmining **issiqlik boshqarilish xususiyati** (*termoregulyasiya*) fizikaviy va kimyoviy jarayonlar asosida, tana haroratini bir xil chegarada ($36^0 \pm 0,5^0$) saqlab turish qobiliyatiga ega. Asosiy mikroiklim parametrlarini xisobga olishning kanchalik katta ahamiyatga egaligini inson organizmi bilan atrof-muxit urtasidagi issiklik balansi misolida kurish mumkin. Inson organizmidan ajraladigan issiklik mikdori muayyan sharoitlarda uning jismoniy zurikishi darajasiga bog‘lik va 80 dj/s l dan (tinchlik xolati) 500 dj/s gacha (og‘ir ish) chegarasida buladi. Organizmning atrof-muxitga issiklik chikarishi odam-ning kiyim orkali issiklik utkazuvchanligi, tana konveksiyasi, nurlanish, atrofdagi yuzalar bilan kontaktda bulish, yuzadan namlikning parlanishi natijasida yuz beradi, issiklikning bir kismi nafas olinayotgan xavoni isitishga sarflanadi. Inson organizmida normal fiziologik jarayonlarning borishi uchun organizm ajratadigan issiklik butunlay atrof-muxitga chikarilishi kerak. Normal issiklik sharoiti issiklik balansiga rioya etilganda ta‘minlanadi, bunday balansda odam tanasi xarorati doimiy 36^0 S atrofida saklab turiladi. Inson organizmining atrof-muxit parametrlari uzgarganda tana xaroratini doimiy saklab turish

kobiliyati termoregulyasiya deb ataladi. Xonadagi xavo xarorati yukori bulganda kon tomirlari kengayadi, natijada tana yuzasiga kon kelishi oshadi va atrof-muxitga issiklik ajratilishi xam kupayadi. Birok atrof-muxit xarorati 35°S va undan yukori bulganda issiklikning konveksiya va nurlanish orkali ajratilishi tuxtaydi. Atrof-muxit xarorati pasayganda kon tomirlari torayadi, konning tana yuzasiga okimi sekinlashadi va issiklik ajratilishi kamayadi. Meteorolojiya sharoiti doimo o'zgarib turgan holatda tana haroratining, o'zgarmasligini saqlash, inson hayotining asosi bo'lgan organizmdagi bioximik jarayonlarning normal bo'lishini ta'minlaydi. Tana haroratining yuqorida ko'rsatilgan darajadan, ortib ketishini "issiqlash", sovishini esa "sovish" deb atagan. Issiqlash va sovish mehnat faoliyatini buzuvchi halokatli holatni vujudga keltirishi mumkin. SHuning uchun ham, inson organizmida issiqlik boshqarilishining fizikaviy mexanizmi mavjud bo'lib, u markaziy asab sistemasining nazorati ostida bo'ladi. Bu fizikaviy mexanizmning asosiy vazifasi organizmda modda almashinuvi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlikning ortiqchasini tashqi muhitga chiqarib, issiqlik muvozanatini (balansini) ushlab turish qobiliyatidir. Issiqlash (peregrev). Havoning harorati juda baland bo'lganda (asosiy omil) va uning harakati past bo'lib, nisbiy namlik baland bo'lgan holda hamda isituvchi (teplovaya) radiatsiya yuqori bo'lgan taqdirda issiqlash holati paydo bo'ladi.

Issiqlash holatiga tushgan insonning yurak urushi ortadi, nafas olishi kuchayadi, bosh og'rig'i paydo bo'lib, tana harorati ko'tarilib - odam kuchsizlanadi. Tananing harorati 1°S ga ko'tarilganda odam bemorligini sezadi, $3-4^{\circ}\text{S}$ va ortiqroq oshganda - issiqlik urish holatiga (teplovoy udar) etadi. Issiqlash ko'p terlash holatiga olib keladi. Odam organizmi 66-70 % suvdan tashkil topilgan. Agar kishi 1-2 % tana suvini yo'qotsa u kuchli chanqoq sezadi, 5% yo'qotsa - hushdan ketish holatiga etadi, sezgi va miya qobiliyati buziladi (galyusionatsiya) va 20-25% suv yo'qotilganda - o'lim holatiga uchraydi. Terlash holati hamma vaqt mavjud. Hatto, muvozanat holatda, kishi bir sutka davomida 0,7 – 1,0 l namlik yo'qotadi. Og'ir ish bajarilayotganda va yuqori terlash marosimida kishi 1,7 l/s (to 10-12 l smenada) namlik yo'qotadi. SHu jarayonda, odam organizmidan natriy, kaliy, kalsiy fosfor, mikroelementlar (mis, sink, yod), suvda aralashadigan vitaminlar S, V₁, V₂ va boshqa moddalar chiqib ketadi. Sovish (pereoxlajdenie). Sovish holati havoning harorati past bo'lganda, hamda yuqori nisbiy namlik va havoning tez harakati bilan bog'liq hollarda paydo bo'ladi. Sovish holati paytida tana temperaturasi pasayadi, qon tomirlari qisqaradi, yurak – tomir sistemasining ishi buziladi, shunda kasallanish paydo bo'ladi. Tananing issiqlik holati insonning ishlash qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Issiqlash ham sovish ham odamni tezda charchash holatiga tushiradi, kasallanishiga olib keladi va ish qobiliyatini pasaytiradi. Hayotda meteorologik omillarning har biri mikroiqlimga alohida -alohida ta'sir o'tkazadi, lekin ko'pincha ular birgalikda ya'ni o'zaro ta'siri natijasida ifodalanadi. Bir birlarini ta'siri salbiy holat yoki ijobiy holat natijasini berishi mumkin. Masalan, salqin ob – havoda korxonada ishlov jarayonida bo'lgan issiqlik chiqaruvchi aslaha – uskunalarining ta'sirida xonadagi havo harorati darajasi issiqlik nurlanish hisobidan ko'tariladi va xodimlarga ijobiy ta'sir etib, ish faoliyati yaxshilanishiga ko'mak beradi.. Lekin

ayrim korxonalardagi aslahalardan, texnologik jarayonda xonaga ko'p miqdorda suv parlari ajralishi natijasida, binoning ichida nisbiy namlik oshadi va xodimlarning ish faoliyatini buzadi. Ba'zi, yuqori darajali temperaturali ishlov protsessida havoning harakati ijobiy ko'rsatgich hisoblanadi. Lekin sovutgichlar yoki boshqa sovuq protsessli ishlov xonalarida havoning harakatini kuchayishi - juda salbiy ta'sir o'tkazadi. Bularga misol qilib har xil tizimda ishlovchi zavod, fabrika va maxsus korxonalarni ko'rsatish mumkin. Masalan: asbest – sement chiqaruvchi korxonalarda issiqlik va nurlanish chiqaruvchi manbalar ko'pligi hisobidan bu joyda havo harorati baland bo'lsa, konserva tayyorlash zavodida namlik ko'pligi natijasida bu erda havo harorati sovuq bo'lishi ma'lum. SHuning uchun xodimning sog'lig'ini saqlash maqsadida, ishlab chiqarishni unumdorlikka etkazish, uchun har xil korxonalarda alohida, maxsuslashgan chora – tadbirlar ko'rilib, ularni amalga oshirilishiga etishadilar. Mikroiklim parametrlarini me'yorlashtirish uchun optimal va yul kuyiladigan normalar belgilanadi. Optimal mikroiklim sharoitlari - bu mikroiklim mikdoriy kursatkichlarining shunday nisba-tiki, ular insonga uzok vakt va muntazam ta'sir kilganda organizm-ning normal issiklik xolatining termoregulyasiya mexanizmlarini zuriktirmasdan saklanishi ta'minlanadi. Inson uzini juda kulay xis kiladi va uning ishchanlik kobiliyati yukori buladi.

Yul kuyiladigan mikroiklim sharoitlari - bu mikroiklim sifat kursatkichlarining shunday nisbatiki, ular uzok vakt va muntazam ta'sir kilganda insonda organizmidagi issiklik balansi termoregulyasiya mexanizmlarini zuriktirgan xolda, tez tikla-nadigan darajada, fiziologik moslashuvchanlik imkoniyatlari chegarasidan chikmasdan uzgaradi. Bunda soglikning yomonlashishi va uzgarishi kuzatilmaydi, birok issiklik xissi nokulay bulishi, kayfiyat va xol-axvol yomonlashishi, ishchanlik tushib ketishi mumkin. Mikroiklim kursatkichlarining yul kuyiladigan mikdorlari texno-logik talablar, texnik va iktisodiy sabablarga kura optimal normalar ta'minlanmaydigan xollarda belgilanadi. Kurish mumkinki, mikroiklim kursatkichlari normalari ishning ogirlik toifasiga karab urnatiladi. SHuning uchun korxo-nada mikroiklimning yukorida kursatilgan normalarini kullash uchun ishlarning toifalarga kanda y ajratilishi xakida tasavvurga ega bulish lozim.

Ishlar toifasi - ishlarni organizm umumiy energiya sarfi asosida ogirligi buyicha ajratish. Ishlab chikarish xonalarini ularda bajariladigan ishlar toifalari buyicha energiya sarfiga karab tavsiflaganda, belgilangan tartibda kelishilgan idora-viy normativ xujjatlarga asoslanish va tegishli xonada ishlaidiganlarning 50 foizi va undan kupchiligi bajaradigan ishlar toifasidan kelib chikish zarur **Engil jismoniy ishlarga (I-toifa)** energiya sarfi 120 kkal/soatgacha sarflanadi-gan (Ia-toifa) va 120 dan 150 kkal/soatgacha sarflanadigan (Ib-toifa) faoliyat turlari kiradi. Ia-toifaga utirib bajariladigan va jismoniy zurikishni talab kilmaydigan ishlar kiradi (anik asbobsozlik va mashinasozlik korxonalaridagi, soatsozlik, tikuv ishlab chikarishlaridagi, boshkaruv soxasidagi bir kator kasblar va x, k. kiradi).

Ib-toifasiga utirib, turib bajariladigan yoki yurish bilan bo'FLik, bulgan, birmuncha jismoniy zurikish bilan boradmtgm shshar KWpap, v\ (matlubot sanoatidagi, aloka korxonalaridagi bir k, ator kasblar, turgm ishlab chi^arishlardagi nazoratchilar, ustalar

va X.k.). **Urtacha ogirlikdagi jismoniy ishlarga (II-toifa)** energiya sarfi 150 dan 200 kkal/ soatgacha (IIa-toifa) va 200 dan 250 kkal/soatgacha (IIb-toifa) sarflanadigan faoliyat turlari kiradi.

IIa-toifasiga yurish bilan, mayda (1 kg.gacha) buyumlarni yoki predmetlarni turib yoki utirib tashish bilan bog'liq. bulgan, muayyan jismoniy zurikishni talab kiladigan ishlar kiradi (mashinasozlik korxonalarining mexanika-yigish sexlaridagi bir kator kasblar, tukimachilik-tikuv ishlab chikarishlaridagi kasblar va x.k.).

IIb-toifasigaturibbajariladigan, yurish bilan, katta bulmagan (10 kg.gacha) ogirlikdagi buyumlarni tashish bilan bog'liq. bulgan, urtamiyona jismoniy zurikishni talab kiladigan ishlar kiradi (mashinasozlik va metallurgiya korxonalarining mexanizatsiyalashtiril-gan metall kuyish, prokat, temirchilik, payvandlash sexlaridagi bir kator kasblar va x.k.).

Ogir jismoniy ishlarga (III-toifa) energiya sarfi 250 kkal/soatdan oshadigan faoliyatturlari kiradi.

6- dars

Mavzu: ISHLAB CHIKARISHDA YORITISH VA UNI ME'YORLASH.

Mashgulot savollari:: Mashgulot savollari:

5. **YOruglikning asosiy tavsiflari va ulchov birliklari.**
6. **YOritish usullari.**
7. **YOritishga kuyiladigan asosiy talablar.**
8. **YOritish vositalari.**

Tayanch so'z va iboralar: *optik jarayoni, infraqizil nurlar, Nur oqimi, tabiiy quyosh yorug'ligi yordamida, Ishchi yoritilish, Falokat davridagi yoritilish, Maxsus yoritilish, Xonalarni yoritishga ko'yiladigan asosiy talablar, Sun'iy yoritish manbalari*

YOrug'lik inson hayot faoliyati davomida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rish esa inson uchun asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi. Umumiy olinadigan ma'lumotning taxminan 90 foizi ko'z orqali olinadi.

SHuning uchun ham xonalarni me'yorida yoritish sifatli maxsulot ishlab chiqarishni ta'minlash bilan birga ishlab chiqarish sharoitini yaxshilaydi, xodimlarni charchashdan saqlaydi va mehnat unumdorligini oshiradi. Oqilona yoritilgan ish joylarida ishlayotgan xodimlarning kayfiyati yaxshi bo'ladi, shuningdek, xavfsiz mehnat sharoiti yaratiladi va buning natijasida baxtsiz hodisalar keskin kamayadi. Bundan ko'rinib turibdiki, xonalarni yoritishga faqatgina gigienik talab qo'yilmasdan, balki texnik-iqtisodiy talablar ham qo'yiladi.

Elektromagnit spektrlari to'liq uzunliklarining 10 n.m dan 340000 n.m gacha bo'lgan oralig'i spektrlarning **optik jarayoni** deb ataladi, bundan 10 dan 380 n.m gacha **infraqizil nurlar**, 380 dan 770 n.m gacha ko'rinadigan nurlar va 770 dan 340000 n.m. gacha bo'lganlari esa **ultrabinafsha nurlar** deb aytiladi.

Biz ko'zimiz bilan binafsha rangdan to qizil ranggacha bo'lgan yorug'lik nurlarini sezamiz.

Xonalarni yoritishning mukammalligi sifat va son ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Son ko'rsatkichlariga nur oqimi, yorug'lik kuchi, yorqinlik, nur qaytarish koeffitsientlari, yorug'lik kiradi.

Nur oqimi — nur energiyasining quvvati sifatida aniqlanadi va u inson ko'ziga ta'sir qilish sezgisi sifatida baholanadi. Nur oqimining birligi sifatida lyumen (lm) qabul qilingan. Nur oqimi faqatgina fizik ko'rsatkich bo'lib qolmasdan, balki fiziologik ko'rsatkich sifatida ham aniqlanadi. CHunki uning o'lchov birliklari ko'rish sezgisiga asoslangan.

Hamma nur manbalari, shu jumladan yoritish asboblari ham fazoga bir xilda nur sochmaydi, shuning uchun fazodagi nur oqimi zichligini aniqlovchi yorug'lik kuchi I birligi kiritilgan. O'tadigan va tushadigan nur oqimi fazo yoki yuza bilan baholanishi mumkin. YOrug'lik manbai tarqatayotgan moddiy burchak (6.2-rasm) ichida bir xil tarqalgan 1 lm nur oqimini chiqaruvchi nuqtali manba yorug'lik kuchining o'lchov birligi bo'ladi.

$$I = dF/dW$$

bunda: I_α —burchagi ostidagi yorug'lik kuchi; dF , $d\alpha$ -fazoviy burchak chegarasida bir tekis tarqalayotgan yorug'lik oqimi.


YOrug'lik kuchining o'lchov birligi sifatida Kandela (kd) qabul qilingan. 101325 Pa bosim ostida 204b,65°K haroratda qotayotgan platinaning 1/600 000 m² yuzasidan tushayotgan yorug'lik kuchi - bir kandela deb qabul qilingan (davlat nur etoloni).

1 lm nur oqrmi bir xilda tarqalib, 1 metr kvadrat yuzaga tushsa, bu yoritilganlik bo'ladi (b.2-rasm).

$$E = dF / dS$$

Bunda: dF - tushayotgan nur oqimi; dS - yuza.

YOritilganlik, 1 lyuks



YOrug'lik oqimi, 1 lyumen

6.2-rasm. YOrug'lik manbaidan tarqalayotgan nur oqimi

YOritilganlik bu yuzaga tushayotgan nur oqimi shu yuzadan qaytsa, bu nur qaytarish koeffitsienti bilan belgilanadi. Nur qaytarish koeffitsienti yuzaning rangiga bog'liq bo'lib, mutloq, qora yuzaning nur qaytarish koeffitsienti 0 ga teng bo'ladi. Tabiatda mutloq qora narsa bo'lmagani sababli fonni belgilashda nur qaytarish koeffitsientining 0,02 dan 0,95 gacha bo'lgan chegaralari hisobga olinadi.

Nur qaytarish koeffitsienti 0,4 dan katta bo'lsa yorug' fon, 0,2 dan 0,4 gacha bo'lsa, o'rtacha fon va 0,2 dan kichik bo'lsa, qora fon deb yuritiladi.

YOrug'lik manbalariga nisbatan xonalarni yoritish ikki usulda bo'ladi:

- **tabiiy quyosh yorug'ligi yordamida** (bunda quyosh tarqatayotgan nurdan to'g'ridan-to'g'ri foydalaniladi yoki quyosh nurining ta'sirida yorug'lik tarqalayotgan osmonning diffuziya yorug'ligidan foydalaniladi);

- **quyosh yordamida yoritish** iloji bo'lmagan xonalarni va quyosh botgandan keyin umuman xonalarni elektr nurlari yordamida sun'iy yoritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tabiiy yorug'lik o'zining barcha xususiyatlari bilan sun'iy yoritilishdan keskin farq qiladi. Tabiiy yorug'lik inson ko'rish organlari va boshqa fiziologik jarayonlarning borishi uchun zarur bo'lgan ultrabinafsha nurlarga boy va bu yorug'lik bilan yoritilgan xonalarda ishlash ko'z uchun juda foydali.

Tabiiy yorug'lik yoritilish mintaqasi bo'ylab bir tekis tarqaladi.

Xonalarni tabiiy yorug'lik bilan yoritish yon tomondan maxsus qoldirilgan oynalar orqali, juda katga xonalarning yuqori tomonida maxsus qoldirilgan oynalari - framugalar va bu ikki holatni kombinatsiya qilgan holda amalga oshiriladi.

Xonalarning bir xilda sun'iy yoritish - umumiy yoritish va umumiy yoritishga qo'shimcha ravishda ish joylarini maxsus yoritish bilan qo'shib kombinatsiyalashtirilgan yoritilish usullari yordamida amalga oshiriladi.

Xonalarni faqatgina ish joylaridagi yoritilish bilan qanoatlanishga mutlaqo ruxsat etilmaydi. Xonalarning bir tekisda umumiy yoritilish usuli bilan yoritilgan bo'lishi shart. Bunda ba'zi bir joylarda ma'lum miqdorda oshirilgan yoki qisman kamaytirilgan holatlarga yo'l qo'yiladi, lekin har qanday holda ham umumiy xonalar uchun sanitariya talablarini qondiradigan yoritilish bo'lishiga erishish kerak.

Murakkab ishlar bajariladigan xonalar kombinatsiyalashtirilgan yoritilish bilan ta'minlanishi zarur. Bunday yoritilish ikki tomonlama ijobiy samara beradi, birinchidan, ish joylarida, ayniqsa, ish bajarilayotgan joylarda va yuzalarda har qanday qorong'ilik va soyalarni bartaraf etadi hamda bu ish joylari uchun kerak bo'ladigan yorug'lik miqdorini aniq hisoblash imkoniyatini beradi. Ikkinchidan, umumiy yoritilishga nisbatan kam energiya sarflashga erishiladi.

Ish bajarish vazifasiga ko'ra sun'iy yoritilishlar: ishchi yoritilishi, falokat yoritilishi va maxsus yoritilishlarga bo'linadi.

Ishchi yoritilish korxonaning hamma xonalari, xududlari, o'tish joylari, transport vositalarining harakatlanish joylarida zarur bo'ladi.

Falokat davridagi yoritilish korxona xonalaridagi ishchi yoritilishning to'satdan o'chib qolishi mumkinligini nazarda tutadi. Bunday hol yuz berganda ishlab chiqarish joylaridagi minimal yoritilishni ta'minlash kerak bo'ladi. Falokat yoritilishi asosan ishchi yoritilishini to'satdan uzilib qolishi, portlash, yong'in, xodimlarning zaharlanish va baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar vujudga kelganda, shuningdek bu hodisa texnologik jarayonning uzoq vaqt to'xtab qolishiga olib keladigan, jumladan elektr stansiyalari, dispetcher punktlari, aholini suv bilan ta'minlash, nasos stansiyalarining to'xtab qolishiga sabab bo'ladigan joylarda ko'zda tutiladi. Falokat davridagi yoritilish umumiy yoritilishning 5 foizidan kam bo'lmagan yorug'lik bilan ta'minlashi va bu yorug'likning umumiy tizimlariga nisbatan xonalarida 2 lk dan kam bo'lmagan yorug'likni ta'minlashi kerak (bunda yoritilish me'yorlariga asoslanadi).

Falokat davri yoritilishlari, shuningdek, 50 kishidan ortiq xodim ishlaydigan korxonalarning favqulodda safarbarlik (evakuatsiya) yo'laklari, o'tish joylari, zinapoyalar va boshqa chiqish joylariga o'rnatiladi. Bunda yoritilish xona pollarini, zinalarini va o'tish joylarini kamida 0,5 j va ochiq hududlarni kamida 0,2 lk dan kam bo'lmagan yorug'lik bilan yoritishi kerak. 100 kishidan ortiq xodim ishlaydigan korxonalarning chiqish joylari yorug'lik signallari (ko'rsatkich signallar) bilan ta'minlanadi.

Falokat davridagi yoritilish ishchi yoritgichlar bilan bog'lanmagan mustaqil manbalarga ulanishi kerak. Falokat davridagi yoritgichlar sifatida fakat cho'g'lanuvchi va lyuminissent lampalardan foydalanish mumkin.

Maxsus yoritilish turlariga qo'riqlash maqsadidagi va navbatchi yoritilishlarni kiritish mumkin. Bunday yoritilishlar uchun umumiy yoritish vositalarining bir qismidan yoki falokat davridagi yoritgichlardan foydalanish mumkin.

Ba'zi bir hollarda ishlab chiqarish xonalari havosiga ishlov berish va ichimlik suvlari hamda oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini saqlash maqsadida bakteritsid yoritishlardan foydalaniladi. Bunda maxsus lampalar yordamida hosil qilingan ultrabinafsha nurlarining 0,254 - 0,257 mkm uzunlikdagi to'lqinlarga ega bo'lgan yorug'lik nurlari yaxshi natija beradi.

Xonalarni yoritishga ko'yiladigan asosiy talablar. Xonalarda xodimlarning unumli ish sharoitini tashkil qilish va yaxshilash maqsadida ko'zni toliqishdan saqlovchi yoritish vositalarini o'rnatish xonalarga nisbatan qo'yilgan asosiy sanitar-gigienik talablardir. Bunda xonalarni yoritish tizimlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Sanitariya-gigiena me'yorlari asosida ish joylarini yoritish ish toifalariga moslashgan bo'lishi kerak. Ish joylarini maksimal yoritish albatta ish sharoitini yaxshilashga olib keladi. Bunda ish olib borilayotgan ob'ektning ko'rinishi yaxshilanadi, natijada ish unumi ortadi. Ba'zi bir aniq ishlarni bajarganda yoritilishni 50 j dan 1000 j gacha oshirish bilan ish unumi 25 foizga oshganligi ma'lum. Ko'z bilan ko'rib ishlash unchalik shart bo'lmagan (ko'polroq) ishlarni bajarganda ham yoritilishni 50 lk dan 300 j ga oshirish, ish unumini 5-7 foizga oshirganligi ma'lum. Ammo yoritilish ma'lum miqdorga etgandan keyin yoritilishni oshirish yaxshi natija bermaydi. SHuning uchun ham iqtisodiy samara beradigan yoritilishning oqilona variantini tanlash zarur.

2. Ish olib borilayotgan yuzaga va ko'zga ko'rinadigan atrof muhitga yorug'lik bir tekis tushadigan bo'lishi kerak. CHunki agar ish oshib borilayotgan yuzada va atrof muhitda yaltiroq joylar mavjud bo'lsa, unda ko'zning ularga tushishi va qaytib ish joyiga qaraganda ko'zning jimirlashi va ma'lum vaqt ko'nikishi kerak bo'ladi. Bu esa ko'zning tez charchashiga olib keladi.

3. Ishchi yuzalarda keskin soyalar bo'lmisligi kerak. CHunki bunday holatning bo'lishi, ayniqsa, u soyalar harakatlanuvchi bo'lsa, bajarilayotgan ob'ektning ko'rinishini yomonlashtiradi, ob'ekt ko'zga noto'g'ri bo'lib ko'rinadi va bu ishning sifatini hamda unumdorligining pasayishiga olib keladi. SHuning uchun ham xonalarda to'g'ri tushayotgan oftob nurlarini soyabonlar va boshqa oftobga qarshi vositalar bilan to'sish kerak, chunki quyosh nurlari ta'sirida keskin soyalar paydo bo'ladi.

4. Ishchi joylarda to'g'ridan-to'g'ri yoki nur qaytishi ta'sirida hosil bo'layotgan yaltirash zararlidir. CHunki ish joylaridagi yaltirash ko'zning qobiliyatini pasaytirib, ko'zni qamashtirishi mumkin. YUzalnarni yoritish asboblarning yuzalarida, nur qaytarish ta'sirida hosil bo'ladigan yaltirashlar, nur qaytarish koeffitsienti katta bo'lgan yuzalarda vujudga keladi. YAltirashni kamaytirishga yoritish asboblarning nur tarqatish burchaklarini tanlash va nur qaytarish ta'sirida hosil bo'ladigan yaltirashlarning nur to'sish yo'nalishlarini o'zgartirish hisobiga erishish mumkin.

5. YOritilish miqdori vaqt bo'yicha o'zgarmas bo'lishi kerak. YOritilishning ko'payib-kamayishi, agar u o'qtin-o'qtin ro'y beradigan bo'lsa, ko'zga zarar keltiradi, chunki ko'z yorug'lik o'zgarishlariga ko'nikishiga to'g'ri keladi. Bu esa ko'zning tez charchashiga olib keladi.

YOritilishning o'zgarmsligiga muhit o'zgarms kuchlanishli manbalardan foydalanish yo'li bilan erishish mumkin.

6. YOrug'lik nurlarini optimal yo'nalish bilan yo'naltirish kerak; bunda ma'lum holatlarda detalning ichki yuzalarini ko'rish va boshqa hollarda detal yuzasidagi kamchiliklarni yaxshiroq ko'rish imkoniyati tug'iladi.

7. YOrug'likning lozim bo'lgan spektr tarkibini tanlash zarur. Bu talab materiallarning rangini aniqlash zarur bo'lgan hollarda muhim rol o'ynaydi.

8. YOrug'lik qurilmalari qo'shimcha xavf va zararlarni manbai bo'lmisligi kerak. SHuning uchun yoritish manbalari ajratadigan issiqlikni, tovush chiqarishini maksimal kamaytirish zarur.

9. YOritish qurilmasini ishlatish uchun qulay, o'rnatish oson va iqtisodiy samarador bo'lishi kerak.

Sun'iy yoritish manbalari

YOrug'lik manbalarini tanlash va ularni bir-biriga solishtirishda ularning quyidagi **tavsiflaridan** foydalaniladi:

- ◆ elektrotexnika tavsifi (uning nominal kuchlanishi va quvvati);
- ◆ yorug'lik texnikasi tavsifi (lampa nurlantirayotgan nur oqimi, maksimal yorug'lik kuchi);
- ◆ iqtisodiy va ishlatish tavsiflari. Ular quyidagilardan iborat -lampaning nur berishi lm/Vt bilan o'lchanib, lampadan kelayotgan nur oqimi uning elektr quvvatiga nisbatidan iborat. Lampaning xizmat qilish vaqti ikkita davrdan, ya'ni, umumiy ishlatish davri (uning yondirilgan vaqtdan boshlab to'kuygunga qadar ishlash davri) va lampaning foydali xizmat davri (bunda lampa o'z nur berish qobiliyatining 20 foizini yo'qotgan holda hali ishlatish uchun yaroqli holatda bo'ladi).
- ◆ konstruktiv tavsiflari (kolbaning shakli, cho'g'lanuvchi elementning tuzilishi, kolba gaz bilan to'ldirilgan bo'lsa, gazning tarkibi, bosimi va boshqalar).

Hozirgi vaqtda xonalarni yoritishda asosan cho'g'lanuvchi va gaz razryadli lampalar, ya'ni lyuminissent lampalardan foydalaniladi. CHO'g'lanuvchi lampalar hozirgi vaqtda eng ko'p tarqalgan nur tarqatish manbai hisoblanadi. Buning asosiy sababi ularning moddiy tuzilganligi, ishlatilganda qulayligi, yonish davrining tezligi va ularni ishlatish uchun qo'shimcha qurilmaning kerak emasligidir.

Ammo bu lampalarning anchagina kamchiliklari ham bor. Bulardan asosiylari: lampadan tarqalayotgan nurlar tarkibida qizg'ish va sarg'ish nurlar mavjud, quyosh nurlariga nisbatan spektrlarining tarkibi boshqacha bo'lganligi sababli ranglarni buzib ko'rsatadi va shu sababli qator ishlarni bajarish imkoniyati cheklanadi, yani ba'zi bir ishlarni bunday nurlar ostida bajarib bo'lmaydi. SHuningdek, bu lampalarning nur berish darajasi ham juda past bo'lib, 7 dan 20 lm/Vt ga boradi va xizmat davri anchagina kam, ya'ni 1000 soatni tashkil qiladi.

Xonalarni yoritish maqsadida cho'g'lanuvchi lampalarning bir necha xillaridan: vakuumli lampalar (NV), gaz to'ldirilgan bispiral' lampalar (NB), krepgeksonon to'ldirilgan bispiral lampalardan (NBK) foydalaniladi.

Oxirgi vaqtlarda tarkibiga qisman yod qo'shilgan yodli cho'g'lanuvchi lampalardan foydalanilmoqda. Bularning xizmat muddati tarkibidagi yodning qaytaruvchanlik xususiyatiga asosan 3000 soatga uzaytirilgan va bu lampalarning nur berish qobiliyati ham 30 lm/VT ga oshgan. Gazlarning razryadlanishiga asoslangan lampalar - bu lampalarda elektr tokining inert gazlar, metal bug'lari yoki ularning aralashmalari muhitida razryadlanishidan hosil bo'ladigan yorug'likning optik diapazoni sifatida vujudga keladi.

Xozirgi vaqtda qo'llanilayotgan gaz razryadlanish lampalari cho'g'lanuvchi lampalarga nisbatan ba'zi bir ijobiy xususiyatlarga ham ega; jumladan bu lampalarning nurlanish darajasi ancha katta bo'lib, 50 dan 100 lm/Vt gacha boradi, (masalan, natriyli lampalarning nurlanishi 100 lm/Vt, lyuminissent lampalarniki esa 75-80 lm/Vg ni tashkil qiladi). Bundan tashqari ularning xizmat qilish muddati ham birmuncha ko'p bo'lib, ba'zi birlariniki 8000-14000 soatga boradi. Bu lampalarda to'ldirilgan inert gazlar, metall bug'lari miqdorlarini o'zgartirish hisobiga xohlagan spektrdagi nurlarni olish imkoniyati bor.

Bu lampalarning ba'zi bir salbiy xususiyatlari ham bor. Nur oqimi pulsatsiyasi natijasida narsalar ikkita va hatto undan ko'p bo'lib ko'rinishi va aylanayotgan mexanizmlarning aylanish yo'nalishi o'zgargan bo'lib ko'rinishi (sproboskopik effekt), ba'zida shovqin chiqarishi mumkin. Past bosimli gaz razryadlanish lampalarini muhit harorati pasg bo'lganda ishlatib bo'lmaydi. O't tushish va portlash xavfi bo'lgan ishlab chiqarish joylarida ularni qo'llash cheklanadi.

Qo'llanilayotgan inert gazlari, metal bug'larning tarkibi va lampalar tuzilishidagi ba'zi xususiyatlariga ko'ra lyuminissent lampalar bir necha turda bo'ladi: LB - oq yorug'lik lampalari, LTB - issiq oq yorug'lik lampalari, LXB - sovuq oq yorug'lik lampalari, LDS - rangni to'g'ri beradigan kunduzgi yorug'lik lampalari va boshqalar.

YOyli simobli lyuminissent lampalar jumlasiga kiruvchi, yuqori bosimli lampalar (DRL) elektr energiyasini tejashi bilan ajralib turadi va yoritishning yuqori darajasini ta'minlaydi. Ular havosida chang, tutun va is bo'lishi mumkin bo'lgan prokat, po'lat quyish va boshka mexanika sexslarining baland binolarini yoritishda keng foydalaniladi.

.

7- dars

Mavzu: ISHLAB CHIKARISHDA SHOVQIN VA TITRASH

Mashgulot savollari:

1. SHovkin turlari, titrashning fizik xususiyatlari va ularning inson organizmiga zararli ta'sirlari.
2. SHovkin va titrashdan ximoyalanish usullari va vositalari.
3. Ultra va infratovushlarning zararli ta'sirlaridan saklanish

Tayanch so'z va iboralar: Bino ichidagi shovkin, Tovush manbai;Tovush yutuvchi materiallar;SHovkinga karshi izolyasiya;Me'moriy Mashgulot, Shlemlar,Vkladishlar. Naushniklar Sanoat korxonalari VSNIOT naushniklari

SHovkin deb, keng ma'noda odamlarga yokmaydigan, kayfiyatiga salbiy ta'sir etib, eshitib tushunishiga xalakit beruvchi tovushga aytiladi. Odamga shovkinning ta'siri uning bosim darajasiga, chastotasiga va uzok muddatli ta'sir darajasiga boglik buladi. Ma'lumki, yokimli tovush, musika, yaxshi ashula odamlarning kayfiyatini kutarib,ishlash kobiliyatini oshiradi. YOkinsiz tovush, uzok vakt ta'sir etadigan shovkin odamlarning psixologiyasiga salbiy ta'sir etib, ish kobiliyatini keskin tushirib, xar xil salbiy kasalliklar kelib chikishiga sabab bulishi mumkin. Juda yukori bosim, darajasidagi shovkin odam kulogida ogrik paydo kiladi va xatto kulok pardalarini yirtib odamni kontuziya xolatiga xam tushiradi.

Texnogen va demografik progress natijasida shovkin manbalari xam keskin oshib bormokda. Asosan shovkin manbaini ikkiga bulish mumkin.

Birinchisi - bino ichidagi shovkin. Bunga sanitar- texnik va injenerlik uskunolari, xar xil elektr asboblal, baland musika va boshkalar misol buladi.

Ikkinchisi – bino ichidagi shovkin. Bunga transport, sanoat korxonalarida ishlab chikarish jarayonidan chikayotgan shovkin va boshklarni misol keltirish mumkin.

SHovqin xar xil chastota va tezlikga ega bo'lgan tovushlar yig'indisi bo'lib inson organizmiga noxush ta'sir etadi. SHovqin-bu havo muhitining tebranishidir.

Inson qulog'i 16 gersdan 20000 gers chastotaga ega bo'lgan havo muhitning tebranishini qabul qila oladi (Gers-bu 1 sekundagi tebranish chastotasidir).

SHovqin manba'lariga - kompressorlar, havo almashgichlar, maydalovchi va saralovchi qurilmalar, quvirlarda yuqori bosimda o'tayotgan suyuqlik va gaz aralashmalarining yuqori tezlikdagi harakati kiradi.

Davomli shovqinning ta'sirida insonni eshitish pasayib borib xattoki kar bo'lib kolishi mumkin. SHovqin avvalambor inson markaziy nerv sistemasiga ta'sir etib, ko'rish, fikrlashni pasaytiradi va inson charchashini tezlashtirib, jarohatlanishga olib keladi.

SHovqining ta'sir darajasi uning kuchiga, chastotasiga ta'sir davomliligiga va kaytalanib turishiga bog'liq.

Tovushning fizikaviy kuchi - tovush to'lqinining energiyasi (Vt/m^2), tovushining bosimi (Pa) bilan xarakterlanadi.

Inson qo'log'i qabul kila oladigan eng kichkina kuchga ega bo'lgan tovushga eshitishning boshlanishi deb aytiladi va u quyidagicha belgilanadi.

$$I_0=10^{-12} \text{ Vt/m}^2 \quad \text{yoki} \quad R_0=2 \cdot 10^{-5} \text{ Pa}$$

Inson qulog'i og'riksiz qabul qila oladigan eng katta kuchga ega bo'lgan tovushga og'riq-bilan eshitishning boshlanishi deb aytiladi va mana shu o'rtalikda eshitish chagarasi mavjuddir.

Inson organizmiga shovqinning sub'ektiv ta'sirini baxolash uchun, shovqin darajasi tushunchasi kirgizilgan bo'lib u katta h-bilan belgilanib xalqaro birlik bo'lgan bel -da o'lchanadi. Amalda 10 marta kichik o'lcham birligi - detsibel (db) qabul qilingan.

Tovush bosimining darajasini odamlarga ta'sir darajasiga bog'lik xolda shovkinni uch guruxga bulish mumkin.

1-gurux-tovush bosimining darajasi 40 dB gacha bulib, bunda tovush kuchsiz bulib, odam bu tovushlarga uncha e'tibor bermaydi;

2-gurux- tovush bosimining darajasi 40 dB dan 80-90 dB gacha bulib, bunda shovkin manbai radio, televizor, uzaro suzlashish va boshkalar bulib, bu tovushlarni odam kulogi barchasini kabul kiladi va bu diiapozonda tovush sifatlarini ajrata oladi;

3-gurux-tovush bosimining darajasi 90 dB dan 120-130 dB gacha buladi. Bu tovushlar darajasi 120-130 dB dan yukori bulsa, kulok pardasini yirtib yuborishi mumkin. Agar shovkin 100-120 dB darajada bulsa eshitish a'zolariga zararli ta'sir etishi mumkin.

Past darajadagi davomli shovkin xam odamlarning asabiga zararli ta'sir kursatishi mumkin.

Kuydagi jadvalda ba'zi shovkin manbalarining bosim darajasi keltirilgan.

SHovkinni ab'ektiv baxolash (Xususiyati)	SHovkin manbasi	Tovush bosimining darajasi, dB
Past, Jim-jit	Eshitish chegarasi (pogonasi), Barglarning shitirlashi, kuchsiz shamol shovkini 1m masofadagi shivirlash. Past ovozli musika	0-10
SHovkinli	Me'yoriy xolatda gaplashish	50-60
	Bir necha metr masofadagi baland ovozda gaplashish	60-70
Juda shovkinli	Ovoz kuchaytirgichdan tarkalayotgan Baland musika	70-80
	Simfonik orkestr	80-90
	Sanoat shovkini	90-100
Diskomfort	7m masofadagi yuk avtomobilining shovkini	90-110
	Pnevmatik vibrator ish vaktidagi va vibratsiyalanadigan mexanizmlar shovkini	110-120
Eshitish organlarida ogrik paydo kiluvchi pogona	3m masofada reaktiv samolyot shovkini	130-140

Agar eshitishning boshlanishini 0 db deb baxolasak, unda og'riq bilan eshitishning boshlanishi 130÷140 db tengdir.

Tovushning fiziologik ta'siri uning faqat kuchiga bo'lmasdan chastotasiga ham bog'liqdir, nima uchun deganda inson eshitish xar xil chastotali tovushlarga birday emas.

1000 - 4000 gs chastotali bo'lgan tovushlar hammadan yaxshi qabul qilinadi. Darajasi bir xil bo'lib, xar xil chastotaga ega bo'lgan tovushlar bir xil qabul qilinmaydi. SHuning uchun shovqin balandligi birligiga fon qabul qilingan.

1 fon - bu shovqin darajasi 1 db bo'lganda uning chastotasi 1000 gs ga tengdir.

Sanitar me'yorlarida SN 245 -71 va GOST 12.1.003-83, SN 3223-85 shovqinning ruxsat etilgan miqdor darajasi aniqlangan bo'lib, u tovushning chastotasiga bog'liqdir va 8 oktavdagi chiziqlar orqali izohlanadi.

63, 125, 250, 500 1000, 2000, 4000, 8000 gs. Misol uchun 250 gs chastota uchun shovqin darajasi 91 db oshmasligi kerak. 1000 gs bo'lganda shovqin darajasi - 85 db va 4000 gs -81 db x.k.

SHovqinni salbiy ta'siri uning chastotasi oshishi bilan oshadi.

Ishlab chiqarishdagi shovqinlar chastotasiga qarab 3 sinfga bo'linadi.

1. Past chastotali shovqinlar < 300 gs.
2. O'rtacha chastotali shovqinlar < 800 gs.
3. Baland chastotali shovqinlar > 800 gs.


Ma'lumki, tovush kattik jismlarda suv va xavodagiga nisbatan tez tarkaladi.

Masalan: tovush tezligi xavoda 340 m/s bulsa, suvda 1450 m/s, betonda 4000 m/s va metallda 5100 m/s buladi.

SHovqinlar davlat standartlariga asosan spektral va vaqt bo'yicha sinflarga bo'linadi.

Spektral bo'yicha shovqinlar tonal tovushlar (elektr arraning tovushi) va keng polosali (reaktiv dvigatel tovushi) bo'lishi mumkin. Vaqt bo'yicha tavsifiga ko'ra uning doimiyliigi (8 soat davomida 5 dBA gacha o'zgarsa) va o'zgaruvchanligi (8 soat davomida 5 dBA dan ortiq o'zgarsa) hisobga olinadi. O'zgaruvchan shovqinlar o'z navbatida vaqt birligida uzluksiz (impuls) bo'lishi mumkin.

Eshitiladigai shovqinlar ma'lum chastotalar (16— 20000 Gs) bilan chegaralanib qolmasdan, ma'lum chegaradagi eshitilish darajasi va bosimi bilan ham farqlanadi .1 -rasmdan ko'rinib turibdiki, tovush bosim darajasi ikkita chiziq bilan belgilanadi. Pastki chiziq quloqqa zo'rg'a eshitiladigan chegara tovushni ifodalaydi. Bu tovush har xil chastotalar uchun o'zgaruvchan ekanligi chizmadan ko'rinib turibdi. CHastota 1000 Gs bo'lganda dB bilan o'lchanadigan tovush darajasi standart daraja sifatida qabul qilinganligi va chastotadagi eshitish chegarasi $L = 0$ dB deb qabul qilingan. Tovush chastotasi 800-4000 Gs atrofida bo'lganda eshitilish darajasi minimal miqdorni tashkil qiladi. Bu miqdordan kamroq va ko'proq chastotalarda chegara eshitilish darajasi $L = 80-100$ dB ga borib qoladiki, bu narsa tovush xususiyatlarining o'ziga xos tomoni hisoblanadi. Tovush chastotasining 800 Gs dan kichik bo'lganda eshitilishning quyi darajasi keskin o'zgarganligini ta'kidlab o'tish kerak. Bu tovushning quyi chastotalariga nisbatan yuqori chastotadagi tovushlar inson uchun yoqimsiz tovushlar ekanligini bildiradi.



1-rasm. SHovqin darajasini belgilash nomogrammasi.

1-rasm yuqorisida joylashgan egri chiziq tovush darajasining yuqori ogʻriq hosil qiluvchi chegarasini belgilaydi. Bu chegara taxminan $L=120-130$ dB atrofida ekanligi koʻrinib turibdi. Bundan ortiq darajadagi shovqinlar inson uchun ogʻriq hosil qiluvchi shovqinlar boʻlib, insonning eshitish aʼzosini ishdan chiqarishi mumkin. Mana shu ikki egri chiziq oraligʻidagi chastotalardagi shovqinlar odam eshitish mumkin boʻlgan tovushlar deb ataladi.

SHovqin darajasiga va xususiyatiga qarab, ular inson organizmiga har xil taʼsir koʻrsatadi. SHovqin taʼsir darajasining oʻzgarishida uning taʼsir davri va odamning shaxsiy xususiyatlari ham maʼlum ahamiyatga ega. SHuning uchun xam shovqin hammaga bir xil taʼsir koʻrsatadi deb boʻlmaydi. Uncha katta boʻlmagan shovqinlar (50—bOdB) ham inson asab tizimiga sezilarli taʼsir etadi. Ayniqsa, shovqinlarning taʼsiri aqliy mehnat bilan shugʻullanuvchilarda koʻproq seziladi. Umuman, bunday shovqinlarning taʼsiri har xil odamda har xil boʻladi. Baʼzilar bunday shovqinlarga mutlaqo ahamiyat bermaydilar, baʼzilar esa keskin asabiylashadilar.

Bunday shovqinning taʼsir koʻrsatishi odamning yoshiga, sogʻligʻiga va bajaradigan ishiga, kayfiyatiga va boshqa omillarga bogʻliq. SHovqinning zararli taʼsiri, shuningdek doimiy shovqinlardan farqliligiga, masalan, musiqa tovushlari, odam soʻzlashgandagi tovushlarga odam mutlaqo befarq qaraydi, xuddi shu darajadagi begona shovqinlar uni asabiylashishga olib keladi.

Maʼlumki, bazi bir jiddiy kasalliklarga chalingan bemorlar, masalan, qon bosimi, ichak va oshqozon yarasi va baʼzi teri kasalliklari, asab kasalliklari bilan ogʻrigan bemorlarning mehnat qilish va dam olish holatlari umuman kasallik tufayli buzilgan boʻladi. Bunday kasallar uchun ortiqcha shovqinning boʻlishi ularning nihoyat darajada toliqishlariga olib keladi. Agar bu shovqinlar tunlarda boʻlsa, ogʻir asoratli kasallarni kelib chiqishiga sabab boʻladi. Agar shovqin darajasi bunday hollarda 70 dB ga teng boʻlsa, u bunday toliqqan bemorlar organizmida fiziologik oʻzgarishlar sodir boʻlishiga olib kelishi mumkin. YOsh va sogʻlom odamlar uchun ham bunday shovqinlar zararlidir.

Kuchli shovqin odam sogʻligʻiga va ishlash qobiliyatiga keskin taʼsir koʻrsatadi. Agar shovqin darajasi 85—90 dB ga etsa, bundan ishlayotgan har qanday odamning birinchi navbatda yuqori chastotadagi tovushlarni eshitish qobiliyati susayadi. Uzoq vaqt kuchli shovqin taʼsirida ishlagan

odam tez toliqib, befarq, hatto kar bo'lib qolishi mumkin. Bundan tashqari shovqin ta'siridan ovqat hazm bo'lish jarayoni buziladi, ichki a'zolar hajmi o'zgaradi.

SHovqinning bosh miya qobiliyatiga ta'siri natijasida odam asabiylashadi, toliqish jarayoni tezlashadi, asabiy reaksiyasi keskin o'zgaradi. Oqibatda jaroxatlanishlar sodir bo'lishi mumkin. Masalan, shovqin ta'sirida harakatlanayotgan mexanizmlar signallarini eshitmasdan, ularni ta'siriga tushib kolish mumkin va h.k.

SHovqin darajasi qancha katta bo'lsa, uning keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari ham kattalashadi. Har qanday shovqin natijasida paydo bo'ladigan fiziologik o'zgarishlar oqibatida shovqin kasalligi kelib chiqadi.

Tovush to'liqlari bosh miya qobig'i orqali o'tish imkoniyatiga ega. Agar shovqin darajasi kichik bo'lsa (40— 50 dB), unda suyak orqali o'tgan shovqin ta'siri uncha sezilmaydi. Agar tovush darajasi yuqori bo'lsa, unda uning ta'sir kuchi ortib ketadi va organizmga ko'rsatadigan salbiy ta'siri keskin kuchayadi. 145 dB dan ortiq bo'lgan tovush darajalarida odam quloq pardasi yirtilishi mumkin.

Sanoat korxonalarida mashina va mexanizmlarning xarakati natijasida xar xil titrashlar vujudga keladi. Bu titrashlar ba'zi uchastkalarda bitta va ba'zi uchastkalarda bir nechta mashina va mexanizmlarning xarakati ta'sirida bo'lib, ba'zan zo'rayishi va ba'zan susayishi kuzatiladi va bu organizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi.

Titrash xosil kiluvchi mashinalar orasida transport vositalari, katta xajmdagi ko'zralmas agregatlar, ko'lda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar mavjud.

Texnika tarakkiyoti natijasida zamonaviy mexanika-mashinasozlik korxonalarida turli-tuman jixozlarning kirib kelishi, shuningdek bu mashinalarning unimdorligini oshirishga talabning kuchayganligi, mashinalarning iloji boricha kam material sarflab, ko'l bilan bajariladigan vazifalarni mexanizmlar zimmasiga yuklash natijasida insonga ta'sir etuvchi ko'shimcha xodisa, titrash xodisasini kelib chikishiga olib keldi. Titrash sanoatda ishchining ish unimdorligini kamaytiribgina kolmasdan, balki uning soflifiga xam ta'sir ko'rsatishi va bu ta'sirning oldi vaktlirok olinmasa, xavfli titrash kasalligiga olib kelishi aniklandi. SHuning uchun xam titrashga karshi kurash muxim axamiyatga ega.

Titrash umumiy va kisman bo'lishi mumkin. Umumiy titrashda inson organizmi butunlay titrash ta'sirida bo'ladi, kismanda esa inson organizmining ba'zi bir kismalarigina titrash ta'siriga tushadi. Umumiy titrashga transport vositalarini boshkaruvchilar, shtamp sistemalarini, yuk ko'tarish kranlari va boshka vositalarni boshkaruvchilar umumiy titrash ta'siri ostida bo'ladi.

Kisman titrash ta'siriga ko'lda ishlatiladigan elektr va pnevmatik kurilmalar bilan ishlayotganlar (ko'lda silliklash ishlarini bajaradigan vositalar, elektr drellari, betonni shibbalovchi vibratorlar va x.k.) tushadi. Ko'pincha ishchilar xar ikkala titrash ta'sirida bo'ladi.

Umumiy titrashning 0,7 Gs dan kichik bo'lgan chastotalari umuman titrash kasalligiga olib kelmaydi, ammo bunday chastotadagi titrashlar dengiz to'liqlari singari bo'lganligi sababli, dengiz kasalligiga olib kelishi mumkin. Bunda odam ichki organlarining muvozanati buzilishi kuzatiladi.

Inson organizmining deyarli xamma kismalarida xar xil chastotadagi titrashlar mavjud. Masalan, odam boshi, bo'yni, yurak kismalari titrashlar sistemasi sifatida karalishi mumkinki; bu o'ziga yarasha o'irlikka ega bo'lib prujinasimon vositalar yordamida titrashlar vujudga keltiradi va bu titrashlarni so'ndirishga xarakat kiluvchi karshiliklar guruxlari xam mavjud. Agar bu titrovchi kislarga tashkaridan xuddi shu chastotadagi titrashlar ta'sir ko'rsatsa, organizmda rezonans vujudga kelishi mumkinki, bu titrashni bir necha o'n marta ortishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida organizm kismalarida siljishni vujudga keltiradi.

Masalan tik turib ishlaganda bosh, elka, bo'yin va umurtka kismalarining titrashi 4-6 Gs ni tashkil kiladi. O'tirib ishlaganda boshning elkaga nisbatan titrashi 25-30 Gs ni, ko'pchilik ichki organlarning titrashi 6-9 Gs atrofida bo'ladi. Xuddi shunday chastotadagi titrash ta'siriga tushish katta asoratlar kelib chikishiga sabab bo'ladi, ba'zan mexanik jaroxatlarga olib kelishi mumkin.

Titrlashning doimiy ta'siri esa titrlash kasalligini kelib chikishiga sabab bo'ladi. Bunda titrlashning markaziy asab sistemalariga ta'siri natijasida organizmning fiziologik funksiyalari buziladi. Bu buzilishlar bosh o'firi, bosh aylanishi, uykuining yomonlashuvi, mexnat kobiliyatining susayishi, yurak faoliyatining buzilishi bilan ifodalanishi mumkin. Kisman titrlash kon tomirlarida spazma vujudga keltiradi. Bu xolat asosan tananing oxirgi kislari bo'lgan ko'l panjalaridan boshlanib, butun ko'lga o'tadi va yurakdan kelayotgan konning o'tishini yomonlashtiradi va bu bilan kon ta'minoti susayadi. SHuning bilan birga titrlash ta'siri tashki asab sistemalari ishini yomonlashtiradi; bu esa terining sezish kobiliyatini susaytiradi, pay kavatlarining kotib kolishiga olib keladi, bo'fimlarda tuz yiriladi va bo'fimler xarakatini susaytiradi. Bu xolatlar ayniksa sovk fasllarda kuchayadi.

Titrlash kasalligi kasb kasalliklari toifasiga kiradigan kasallik bo'lib, uni davolash asosan boshlanfich davrlaridagina natija beradi. Kasallikning orkaga kaytishi juda sekin boradi. Agar oldi olinmasa kishi ishga yaroksiz xolga kelishi xam mumkin. Bu kasallikning oldini olishning asosiy vositasi - ish joylarida titrlash me'yorlarini belgilashdir.

SHovqin va titrlashga qarshi ko'rash mashina va mexanizmlar, texnologik jarayonlarni loyixalashni dastlabki bosqichlarida boshlanishi kerak. Korxona bosh planini tuzganda albatta shovqinga qarshi ba'zi chora tadbirlar ko'rib qo'yilgan bo'lishi kerak. Bunga asosiy sershovqin sexlarni bir joyga joylashtirish, agar iloji bo'lsa, bunday sexlar ishlab chiqarish maydonining chekka tomonlariga joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Sershovqin sexlarni boshqa sexlardan tovush o'tkazmaydigan to'siqlar bilan ximoyalash kerak. Sexlarning eshik va derazalari maxsus tovush o'tkazmaydigan yoki kamroq o'tkazadigan materiallardan tayyorlangan bo'lishi zarur.

SHovqin va titrlashga qarshi ko'rashishda texnologik jarayonlarni to'g'ri tanlash, ya'ni jarayonda ishtirok etayotgan mashina va mexanizmlarni minimal kuch bilan ishlashni ta'minlash muhimahamiatga ega. Moslama va mexanizmlarni sifatli yig'ish, ko'rib turish, tuzatish ishlarini Mashgulot savollari:li bajarish shovqinni kamayishiga olib keladi. Bu maqsadda amaliy dalillar asosida tashkiliy va texnik tadbirlar ishlab chiqarilgan. Ular quyidagilardan iborat:

Texnologik jarayondan sershovqin va tebranishi kuchli bo'lgan mashina va mexanizmlarni chiqarib tashlash, shovqin manb'asi bo'lgan mashina, qurilmalarni ayrim xonalarni joylashtirish, sershovqin sexlarni aloxida ajratib joylashtirish, kuchli tebranishga ega bo'lgan sershovqin mexanizmlarni boshqarishda uzoqdan boshqarish tizimini qo'llash, shaxsiy muhofaza vositalaridan keng foydalanish va boshqalar.

Amaliyotda odamlarni shovkin ta'siridan ximoya kilishda va shovkinga karshi kurashishda kuydagi uslublar kullaniladi:

- 1.Tovush manbaining uzida;
- 2.Tovush yutuvchi materiallar yordamida;
- 3.SHovkinga karshi izolyasiya;
- 4.Me'moriy Mashgulot savollari:viy-echimlar yordamida.

Inson organizmiga salbiy ta'sir qiluvchi shovqinlar asosan shahar sharoitida ko'p uchraydi. Ularning manbasi quyidagilardan iborat:

- shaharda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish korxonalarining uskuna va asboblari;
- turli xildagi shahar transport vositalari, temir yo'l, suv yo'li transporti va havo yo'li transport vositalari;

SHahar aholisini shovqindan muhofaza qilish uchun quyidagi chora -tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

1. Aholi turar joy maskanlari hududlarini sanoat va omborxonalar mintaqalaridan yashil himoya maydonlari bilan ajratish. Unda umumshahar miqiyosiga ega bo'lgan istiroxat bog'lari va xiyobonlarni barpo etish.
2. SHahar hududidan tranzit yo'llarining o'tishini ta'qiqlash.
3. Umumiy shahar miqiyosidagi ko'chalar bilan turar joy binolari orasida yashil maydonlarni tashkil etish.

4. SHovqin tarqatuvchi shahar ko'chalarini chuqurlikdan yoki balandlikdan o'tkazish hamda ko'chalar yonidan shovqinni to'suvchi turli xildagi tirgak devorlar va landshaft me'morchiligi asosida turli xil kichik me'moriy shakllarni o'rnatish.

5. SHaharning asosiy ko'chalari bo'ylab o'rnatilgan binolarning ko'cha tomonidan savdo va maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarini barpo qilish.

6. SHovqin ta'sirini inobatga oluvchi maxsus turar joy binolaridan foydalanish. CHunki bunday binolarning Mashgulot savollari:viy echimida shovqin kelayotgan tomonida san-uzel, ovqatlanish va narsalar qo'yish xonalari bilan birgalikda zina poyalar joylashgan bo'ladi. SHovqinga teskari tomonda esa, umumiy xona va yotoqxonalar joylashtirilgan bo'ladi.

7. SHahar ko'chasidan shovqin ta'sirini kamaytirish maqsadida tunnellar, yo'l o'tkazgichlar, esdalikalar va metropolitenlar bunyod etiladi.

8. SHaharga keluvchi transport vositalari shovqinidan saqlanish maqsadida shahar atrofida transport vositalarini saqlab turuvchi mashinalar saqlash joylari hamda shahar atrofidan aylanib o'tuvchi tranzit yo'llarini tashkil etish.

Texnologik jarayonlarda shovqinni keltirib chiqaruvchi manbalar quyidagilardir, ya'ni mixlarni qalpoqlash yo'li bilan biriktirish sexlarida, metall qirqish sexlarida, shuningdek ichdan yonar dvigatellarini sinovdan o'tkazishda. SHovqinni yo'qotish, shuning bilan birga ishchilarning shovqin kasalliklariga tushmasliklarini ta'minlash birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday hollarda ishchilar uchun shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Korxonalarda shovqinga qarshi shaxsiy muxofaza aslahalari sifatida vkladish, naushniklar va shlemlardan foydalaniladi.

Vkladishlar. Bu paxtadan qilingan, quloq teshigiga o'rnatishga mo'ljallangan vositadir. Uning samaradorligini oshirish maqsadida ba'zi bir parafiga o'xshash moddalar shimdiriladi, Bundan tashqari, qattiq moddalardan, masalan rezina, ebonit kabilardan yasalgan vkladishlardan ham foydalaniladi, lekin ularning samaradorligi oz, ya'ni 5-20 dB gacha tovushni kamaytira oladi.

Naushniklar. Sanoat korxonalarida VSNIOT naushniklaridan keng foydalaniladi. Naushniklar kuloqni yaxshi bekitadi va prujinalar yordamida ushlab turiladi. Naushniklar past chastotadagi shovqinlardan yaxshi muhofaza qiladi. Uning samaradorligi 7-38 dB atrofida bo'ladi.

SHlemlar. Haddan tashqari katta shovqin sharoitida (120 dB dan ortiq) shovqindan himoyalaniish maqsadida qo'llaniladi

8- dars

Mavzu: ISHLAB CHIKARISHDA ZARARLI NURLANISHLAR.

Mashgulot savollari:

1.Ionlovchi nurlar va ularning turlari.

2.Elektromagnit nurlanish.

3.Nurlarning dozimetrik mikdorlari va ularning ulchov birliklari.

4.Radiaktiv moddalar va nurlanish manbalari bilan ishlashda ximoya usullari.

Tayanch iboralar: Ionlovchi nur, radiatsiya xavfsizligi, α -nurlanish, β -nurlanish, foton nurlanish, γ - nurlanish, rentgen nurlanish, nurlanish dozasi, eksivalent doza, radiatsiyaning ekivalent birligi (ber), tashqi nurlanish, ichki nurlanish, maxsus konteynerlar, insonni nurlanish dozasi.

1. Ionlovchi nurlar va ularning turlari.

Sanoat korxonalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, texnologik jarayonlarda, mahsulotlar, moddalar sifati va kamchiliklarini aniqlashda radiaktiv moddalar va ular bilan jihozlangan o'lchov asboblariidan foydalaniladi. SHu sababli, ulardan foydalanishda, insonlar uchun sog'lom muhit yaratishda, radiatsiya xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish talab etiladi.

Oxirgi yillarda radiatsiya xavfsizligi normalari (NRB-96) va ionlovchi nurlar manbalari bilan xavfsiz ishlash qoidalari (OSP-92) ishlab chiqildi va shu asosda ishlar tashkil etilmoqda. Bular asosida ikki yo'nalishda xavfsizlik koidalari ta'minlanmokda.

1.Loyiha, texnik, tibbiy, sanitariya va gigiena chora tadbirlarini qo'llash orqali ishlovchi xodimlar va aholini nurlanish darajasini yo'l qo'yiladigan darajagacha kamaytirish.

2.Aholi va xududlarni radiaktiv ifloslanishi, nurlanishi haqida ma'lumotlar berish, samarali nazorat tizimini yaratish,

Muhit bilan ta'sirlanib, turli sonlarda elektr razryadlarini hosil kiladigan nurlar **ionlovchi nurlar** deb ataladi.

Bu turdagi nurlarga. $\alpha\beta$ - zarrachalar, h-neytronlar, (R)-protonlar va boshqalar misol buladi.

α -**nurlanish** - geliy atomi yadrosi oqimidan iborat bo'lib, kamroq o'tish va yuqori darajada ionlash qobiliyatiga ega.

β -**nurlanishi** - elektronlar va pozitronlar oqimida iborat bo'lib - α zarrachaga nisbatan ko'proq o'tish va kamroq ionlash qobiliyatiga ega.

Foton nurlanish - 300000 km/s doimiy tezlikda tarqaladigan elektromagnit tebranish oqimidan iborat bo'ladi. Foton nurlanishga γ -nuri, reyting nuri misol bo'ladi

Nurlanish - gamma kvantlar oqimi hisoblanib, to'liq uzunligi ($10^{-9} - 10^{-12}$ sm) bo'lgan elektromagnit nurlardan iborat bo'ladi.

Rentgen nurlanish quvvati 1 kev- 1mev bo'lgan tormozlash nurlari yig'indisidan iborat bo'lib, qisqa tulqinda ($10^{-4}-10^{-5}$ sm) va chastotada ($10^{19}-10^{22}$ Gs) mavjuddir. Ionlovchi nurlarning odam organizmiga ta'siridan ham murakkab fizik va biologik jarayonlar sodir bo'ladi. Natijada ichki organlarning normal ishlash faoliyati buziladi, qattiq va saqlanuvchi turdagi «nur» kasaligi paydo bo'ladi. Bu holatda bosh og'riydi, uyqu rejimi buziladi, ishtaha kamayadi, modda almashinuvi, oshqozon va yurak faoliyati o'zgaradi. YUrak muskulida qon quyilishi va jinsiy organlarni ishdan chiqishi sodir bo'ladi. Ko'p hollarda terini qurib qolishi, mo'rtlashishi, sochning tukilishi, ko'r bo'lib qolish hollari uchraydi. SHu sababli, barcha ishlar «Nurlanish xavfsizligi maxsus xizmati» nazorati asosida amalga oshiriladi.

2. Elektromagnit nurlanish.

Elektromagnit nurlanishlar turli chastotalarda, aloqa tarmog'ida keng qo'llaniladi. Radio texnika qurilmalarida antennaga generatorlar, antenna qurilmalari, yuqori chastotali transformatorlar, fider yo'nalishlar, materiallarni termik ishlov terish uchun qurilmalarda – elektromagnitlar, kondensatorlar elektromagnit nurlanish manbai sanaladi. Ko'rsatilgan qurilmalar ishida ularni o'rab turgan hajmda ya'ni joyda elektromagnit maydonlar bunyod bo'ladi. Elektromagnit maydonlar foydali harakati bilan bir qatorda inson tanasiga kirib, unga noqulay, salbiy ta'sir qo'rsatishi va kasbiy kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin. Ular asab, endokrinologik va yurak-qon tomirlari tizimi kasallanishini chaqirishi mumkin, insonda qon bosimi pasayadi, pulsi sekinlashadi, reflekslar tormozlanadi, qon tarkibi o'zgaradi. Elektromagnit maydonlar organizmga issiqlik ta'sirida o'z aksini berishi mumkin. Inson tanasiga yutilgan elektromagnit maydonlar quvvati tanani va ayrim organlarni qizishini yuzaga keltirib, issiqlikka aylanib, kasalliklarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, miya, ko'z, ichak, buyrak va urug'donlar elektromagnit maydonlar ta'siriga yo'naladi. Elektromagnit maydonlarining ta'siri sub'ektiv bunyod bo'lishi juda toliqish, bosh og'riq, jizzakilikda, seruyqulik, nafas siqishi, ko'rish qobiliyatining yomonlashuvi, tana haroratining ko'tarilishida o'z ifodasini topadi.

Elektromagnit maydonlar ta'sirida zararlanish darajasi nurlanish sur'ati, harakat chastotasi davriga bog'liq. Elektromagnit maydonlar sur'ati, harakat chastotasi va davri qanchalik ko'p bo'lsa, inson organizmiga ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi.

Elektromagnit maydonlarning insonga zararli ta'sirlarini ogohlantirish maqsadida ish joylarida elektromagnit maydonlar energiya oqimi mustahkamligini ta'minlovchi moslamalardan foydalaniladi

Elektromagnit maydonlarni ta'siridan himoyalashning asosiy usullari va vositalariga quyidagilar kiradi:

1. Himoyalashning tashkiliy choralari.
2. Manbadan nurlanishning jadalligini kamaytirish.
3. Nurlanish manbaining ekranlashuvi.
4. Nurlanish manbaidan ishchi o'rinlarini ekranlashtirish va yoki ajratish.
5. Xabar berish vositalarini qo'llash.
6. Individual himoya vositalaridan foydalanish.

Ishning muayyan sharoitlariga bog'liq tarzda shu vositalardan biri yoki ularning ixtiyoriy kombinatsiyasidan foydalanish mumkin.

Tashkiliy choralar – uskunalarning ratsional joylashuvi, qurilmalar va xizmat ko'rsatilayotgan xodim ishi muayyan rejimini belgilashdir.

YUqori va o'ta yuqori chastotali qurilmalar ishiga tibbiy ko'rikdan o'tgan 18 yoshdan kichik bo'lmagan, texnika xavfsizligi bo'yicha o'qib, imtihon topshirgan shaxslarga ruxsat etiladi. Har yili xizmat ko'rsatayotgan xodim tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Agar ish yuqori xavfli sharoitlarda, nurlanishda, ketayotgan bo'lsa, xodimlar uchun qisqartirilgan ish kuni va qo'shimcha ta'til belgilanadi

3. Nurlarning dozametrik miqdorlari va ularning o'lchov birliklari.

Nurlanish dozasi deb - ionlash va molekulyar muhitni uyg'otishga sarf bo'ladigan massa birligidagi nurlanuvchi modda yutadigan energiya miqdoriga aytiladi.

Nurlanish miqdorlari turli ifodalanadi. Masalan, yutiladigan (jalb qilingan) doza birligini grey (Gy) dj/kg, rad, erg/g larda ifodalash qabul qilingan. $1 \text{ Gy} = 1,0 \text{ Dj/kg}$, $1 \text{ rad} = 100 \text{ erg/g} = 1,10 \text{ Dj / kg}$. ga teng. Ekspozitsion miqdor uchun birlik sifatida kulon kilogramm (Kl/kg) rentgen qabul qilingan.

Rentgen zaryad (r) yig'indisi bir elektrostatik birlikka teng elektr tashkil qiladigan (1sm. kub havoda normal sharoitda) 0,001292 g. havodagi ionlar hosil qiluvchi rentgen yoki boshqa nurni ifodalaydi.

Nurlanish kasalligidan saqlanish, ishlayotgan xodimlarni xavfsiz mehnat sharoiti bilan ta'minlash va ularni xavfli vaziyatlardan ogohlantirish maqsadida yo'l qo'yiladigan doza miqdori (YQDM) va yo'l qo'yiladigan izotopning aktivligi (YKIA), radiatsiya xavfsizligi normalariga (RXN-96) asosan belgilanadi.

Vaqt birligida nurlanish miqdori energiyasi R/soat, MkR/soat, mber/yil (biologik ekvivalent radiatsiya) birligida o'lchanadi.

Nurlanish xavfsizligi normalariga asosan (NXN-96) shaxslar kasbiga mos ravishda qo'yidagi guruhlarga bo'linadi.

A-guruh- ionlovchi nurlar manbalari bilan doimiy muloqatda ishlaydigan kasb egalari.

B- guruh- radiaktiv nurlar manbalari bilan ishlaydigan, lekin ish joyi va yashash sharoiti bo'yicha radiaktiv moddalar yoki boshqa manbalar ta'sirida bo'ladigan shaxslar.

V-guruh barcha yashaydigan aholiga mansub.

Tana a'zolarini ham nurlar ta'siri bo'yicha qo'yidagicha guruhlash mumkin.

Birinchi guruh - badan, suyak, qizil tanacha va boshqalar.

Ikkinchi guruh - qalqonsimon bez, yog'li to'qima, jigar, buyrak, taloq, oshqozon, ichak yo'llari, o'pka, ko'z qorachig'i va boshqalar.

Uchinchi guruh - teri qoplamasi, suyak to'qimachasi, qo'l barmoqlari, bilak, kaft, tovon kiradi. Bu nurlar bilan ishlovchi kasb egalari uchun tashqi nurlanish doza yig'indisi (biologik ekvivalent radiatsiya) bir yilga 5 ber va 30 yilda yig'iladigan miqdori esa 60 berdan oshmasligi kerak.

Izotoplarning yo'l qo'yiladigan aktivligi bo'yicha (kyuri/letr) radiaktiv moddalar 4 - guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga - o'ta yuqori radiaktiv izotoplar. Masalan: S, S₂, P₀, P_v va boshqalar. Bu moddalar uchun IYKA = $1,10^{-13}$ kyuri / letrni tashkil etadi.

Ikkinchi guruhga - yuqori radiaktiv izotoplar (Na, Co, S₂, Ag, va boshqalar) IYKA- $1,10^{-13}$ – $1,10^{-11}$ kyuri / letr belgilangan.

Uchinchi guruhga- o'rtacha radiaktiv izotoplar (Ba, Na, S, Mn, Zn, P va boshqalar) IYKA= $1,10^{-11}$ – $1,10^{-9}$ kyuri / letr belgilangan.

To'rtinchi guruhga - aktivligi $1,10^{-9}$ kyuri / letr bo'lgan vodorod N, karbon SO, azot, argon, indiy va boshqalar kiradi.

4. Radiaktiv moddalar va nurlanish manbalari bilan ishlashda himoya usullari

Radiaktiv moddalar bilan ishlashga mo'ljallangan korxona va tashkilotlar, muassasa va ayniqsa turli laboratoriyalar foydalanishdan oldin maxsus komissiya tomonidan qabul qilinishi talab qilinadi va 3 yil muddatga belgilangan pasportni taqdim etadi. Albatta, konteynerlar, vositalar, asboblari, binolarga radiatsiya xavfsizligiga oid tegishli belgilar o'rnatiladi.

Korxonalar ham bir yilda ishlatiladigan radiaktiv moddalar miqdoriga qarab 3 toifaga bo'linadi
1-toifa 100 kyu dan ko'p radiaktivlik mavjud korxonalar.

2-toifaga -10-100 kyu oralig'idagi korxonalar.

3-toifa esa 10 kyu gacha bo'lgan korxonalar.

Korxona rahbariyatiga ishning tartibi tuzish, shaxsiy profilaktika ishlarni amalga oshirish, ko'rsatmalar tayyorlash, dozimetrik nazorat o'rnatish, ishlarni to'g'ri tashkil etish vazifasi yuklatiladi.

Himoyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan manbaning xususiyati, moddaning turi, fizik holati, nurlanish turi va energiyasi, aktivligi, parchalanish davri, zaharli xossalari, manba bilan ishlash vaqti e'tiborga olinishi zarur.

Tashqi nurlanish- oqimidan himoyalash, nurlanish vaqtini kamaytirish, manbagacha bo'lgan masofani kamaytirish yoki ko'paytirish, himoya ekranlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Ichki nurlanishdan himoyalashda ochiq holdagi radiaktiv moddalar bilan aloqani bo'lmasligi, havoni radiaktiv moddalar bilan ifloslamaslik, ish zonasidagi havoda radiaktiv moddalarning mavjud bo'lmasligi choralari ko'riladi. 18 yoshga to'lmaganlarga bunday joylarda ishlashga ruxsat berilmaydi. Moddalar maxsus idishlarda tashiladi va shkaf-bokslarda saqlanadi. Himoya vositalari sifati rezina qo'lqop, xalatlar oyoq kiyim, oynaklar, gazniqoblar, respiratorlardan foydalaniladi.



**17 - rasm. Ionlashgan nur manbalari bilash ishlashda
qo'llaniladigan «ARK-1» tipidagi shaxsiy himoya vasitalari**

Radiaktiv chiqindilar Davlat komissiyalarining xulosasi asosida maxsus joylarga ko'miladi va doimiy Davlat nazoratida bo'ladi.

Nurlanishni o'lchash - (rengen va gamma) nurlar (RM-IM), Argun dozimetrlari (RPS-1, ID-1) tipidagi asboblardan o'lchanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Radiatsiya xavfsizligi normalari va qoidalarini aytib bering?
2. Xavfsizlik qoidalarini ta'minlash necha yo'nalishda olib boriladi?
3. Ionlovchi nurlanishning turlarini aytib bering?
4. Foton nurlanishga qaysi nurlar misol bo'ladi?
5. Ionlovchi nurlarning organizmga ta'sirini izohlab bering?
6. Nurlanishning doza miqdori qanday guruhlariga ajratiladi?
7. Radiaktiv moddalar aktivligi bo'yicha necha guruhga bo'linadi?
8. Nurlanish xavfsizligi normalariga asosan ishchilar kasbiga mos ravishda ionlovchi nurlarning doza miqdoriga ko'ra necha guruhga bo'linadi?
9. Nurlanishning ta'siriga ko'ra inson tanasi necha guruhga bo'linadi?
10. Radiaktivlik darajasiga qarab izotoplar necha guruhga bo'linadi?
11. Korxonalar bir yilda ishlatiladigan radiaktiv moddalar miqdoriga qarab necha guruhga bo'linadi?
12. Korxona rahbariyati qanday tashkiliy va konstruktiv choralar ishlab chiqishi va joriy etishi zarur?

9-Mavzu: Favqulotda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi

Reja:

1. Fuqaromuhofazasining maqsadi.
2. Favqulotd vaziyatlar haqidatushuncha.
3. Fuqaromuhofazasining vazifalari.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA FUQARO MUHOFAZASI

Bizga ma'lumki, har bir mustaqil davlat o'zining mudofaa qudratiga ega. Mudofaa siyosatining qay tarzda amalga oshirish imkoniyatlari o'sha davlatning qudratini belgilaydi. Chunki, har bir davlat boyliklarini, texnikalarini, harbiy ahamiyatga molik bo'lgan inshootlarini, xalqini himoya qilishda, saqlashda yangi turdagi omillarni yaratadi va ishlab chiqadi. Shu tariqa davlatda yangi-yangi qurollar yaratiladiki, bular nafaqat insoniyatga, balki butun jonli tabiatga, atrof muhitga juda katta ziyon etkazadi. 1990 yilgacha biz dunyoni ikki tizimga (kapitalistik va sotsialistik) bo'lib kelgan edik va har ikkalasida ham qirg'pn qurollari yaratilganligini yaxshi bilamiz. Bunday qurollarni ba'zi birlari ayrim davlatlar tomonidan sinab ko'rildi ham va hozirgi kungacha ularning asoratlari to'g'risida eshitib kelyapmiz. Masalan, 1945 yilda Yaponiyaning Nagasaka va Xerosima shaharlariga AQSHning yadro quroli tashlandi. Keyinchalik Koreaga, Vetnamga turli xildagi napalmlar (dirildoq holidagi yondiruvchi modda), oskolkali (parchali), yondiruvchan bombalar tashlandi.

Yuqoridagi qurollar er yuzida mavjud ekan, albatta, har bir davlat bunday qurollardan saqlanish vositalarini izlaydi, omillarini ishlab chiqadi. Shuning uchun har bir davlat mudofaa qudratining asosini fuqarolar muhofazasi tashkil etadi.

Fuqaro muhofazasi - umumdavlat mudofaa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, xalq xo'jaligi tarmoqlarini muhofaza qilishi, ularning muttasil ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi. Albatta, fuqaro mudofaasi oldiga qo'yilgan yuqoridagi ishlar 1945 yildan to 1990 yillargacha davom etib keldi, lekin shu davrgacha yuqoridagi ishlarni bajarish uchun ehtiyojlar bo'lmadi. Afsuski bu davrlarda (tinchlik davrlarida) tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariylari, turli xil halokatlar yuz berdiki, xalqimiz, xalq xo'jaligimiz jiddiy zararlandi. Bunday holatlarda biz bir-birimizga yordam berishga tayyor emas edik. Mustaqillik davridagina favqulodda holatlarda fuqaro muhofazasi tomonidan etarli ijobiy ishlar qilina boshlandi.

Jumladan mustaqilligimizning dastlabki davrida fuqarolarni va hududlarni tabiiy ofatlardan, turli xildagi halokatlardan muhofaza qilish, fuqarolarning mo'tadil hayot faoliyatini ta'minlash borasidagi 1991 yilda fuqaro mudofaasi tizimi fuqaro muhofaza tizimiga aylantirildi. Yangidan tashkil etilgan ushbu tizim O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi sifatida tinchlik davrlardagi tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish falokatlari va halokatlarning oldini olish va ularning, oqibatlarini tugatish vazifalarini

bajaradi. Mamlakat fuqaro muhofazasini rivojlantirishning asosiy konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 1994 yil 9 aprelda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Respublika Kengashida so'zlagan nutqida bayon etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 - martdagi farmoniga binoan aholi va xalq xo'jaligi inshootlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, Respublikada tabiiy texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tashkil qilindi.

FVVning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari asosan: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqarolar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarni kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va hakazolarga qaratilgan.

FVVning muvaffaqiyatli ish olib borishida mamlakatimizda yaratilgan kuchli huquqiy bazaning ahamiyati juda katta. Jumladan, favqulodda vaziyatlar masalasida O'zbekiston Respublikasining "Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"(1999 y.), "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi (2000 y.) Qonunlar, Respublika Prezidentining ikkita Farmoni, Vazirlar mahkamasining 30 dan ortiq qaror va farmoyishlarini aytish mumkin. Qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda Rossiya, AQSH, Germaniya, Fransiya, Ukraina va boshqa etakchi davlatlarning fuqaro muhofazasi tizimini shakllantirish borasidagi tajribalari inobatga olingan.

O'zbekiston fuqarolarini favqulodda vaziyatlarlardan muhofaza etishning qonun bilan belgilangan asosiy tamoyillari: *insonparvarlik, inson hayoti va sog'lig'ining ustuvorligi, axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchliligi, favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish choralarining ko'rilishidir.*

Respublika FVDT O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 11 dekabrda farmoniga asosan bosh vazir tomonidan boshqariladi. Hozirgi kunda FVDTning respublika, mahalliy va ob'ekt bosqichi iborat 14 ta hududiy va 40 dan ortiq funksional quyi tizimlardan iborat bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda harakat qilish davlat tizimi o'z faoliyatini ko'rsatmoqda. Bu tizim yagona konsepsiyani belgilash, bashoratlash, tahliliy ishlar, turli dasturlar yaratish va ularni amalga oshirish, fuqaro muhofazasi kuch va vositalarining doimiy tayyorgarligini ta'minlash, falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlarni bartaraf qilish hamda xalqaro hamkorlik borasida olib borilayotgan ishlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Bu tizimni yanada rivojlantirish va mustahkamlashda hukumatimiz tomonidan fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlashni tashkil etish, FVlarni tasniflash, avariya-qutqaruv tizimlarini kengaytirish va ularni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, suv osti xizmatini yaratish kabi tadbirlarda borasida katta yordam ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunga kelib FVDT tarkibida "Najotkor" Respublikada qidiruv-qutqaruv markazi, "Haloskor" maxsus harbiylashtirilgan qidiruv-qutqaruv qismi; "Qutqaruvchi", "Qamchiq", "Olmazor" qismlari tashkil etilib, ular tomonidan 8,5 ming marotaba turli favqulodda vaziyatlarda aholiga yordam berildi. Jumladan, Tojikiston Respublikasi Qayroqqum bekatidagi temir yo'l falokati, SHohimardondagi 1998 yilda sodir bo'lgan sel ofati, 1999 yilda Turkiyada bo'lgan Izmir zilzilasi, 1999 yilda Qamchiq dovonidagi qor ko'chishi, 2001 yilda yuz bergan Toshkent viloyati Qodiriya bekatidagi temir yo'l halokati va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu yo'nalishdagi ishlar saviyasini yanada oshirish maqsadida respublikaning ko'pgina shaharlarida, jumladan, Toshkent, Samarqand, Andijon, Jizzax, CHirchiq, Angren va boshqa joylarda maxsus "Qutqaruv xizmati" tizimlari tuzilgan va ularning oldiga har qanday ekstremal vaziyatlarda aholining hayotiga, salomatligiga xavf soluvchi holatlarda yordam berish yuklatilgan. Qutqaruv xizmati tizimlarining o'z telefon raqamlari mavjud (masalan, Toshkent shahrida 050; Samarqand shahrida 911 va hokazo), ular tunu-kun o'z vazifalarini bajaradilar.

SHunday qilib, fuqarolar muhofazasi har qanday favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni, moddiy resurslarni muhofaza qilish, fuqarolarni qanday xatti-harakat etishi, ularga qanday chora-tadbirlar bilan yordam berilishi, shikastlangan xududlarda qutquruv va tiklov ishlarini olib borish, ishlab chiqarish tarmoqlarini muttasil ishlashini ta'minlash vazifalarini bajaradi. Zero, er yuzida umumiy qirg'in qurollari, hujumkor qurollarning zamonaviy turlari mavjud ekan, shu bilan birga tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lishi muqarrar bo'lganligidan har bir davlatda va uning barcha hududlarida fuqarolar muhofazasi davlat tizimi tashkil etiladi va uning vazifalari aniq belgilanadi.

Favqulodda vaziyatlar, uning sababchi omillari va xususiyatlari

Favqulodda vaziyat (FV) – ma'lum hududda yuz beradigan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o'limiga, salomatligiga, tevarak atrofdagi tabiiy muhitga sezilarli moddiy zarar etkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir.

Favqulodda vaziyatlar xavfning tarqalish tezligiga ko'ra, quyidagi guruhlarga bo'linadi:

a) **tasodifiy FV** – er silkinishi, portlash, transport vositalaridagi avariya va boshqalar;

b) **shiddatli FV** – yong'inlar, zaharli gazlar otilib chiquvchi portlashlar va boshqalar;

v) **mo‘‘tadil (o‘rtacha) FV** – suv toshqinlari, vulqonlarning otilib chiqishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariylar va boshqalar;

g) **ravon FV** – sekin-asta tarqaluvchi xavflar: qurg‘oqchilik, epidemiyalarning tarqalishi, tuproqning ifloslanishi, suvni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va boshqalar.

Favqulodda vaziyatlar yana tarqalish miqyosiga (shikastlanganlar soniga hamda moddiy yo‘qotishlar miqdoriga qarab) ko‘ra 4 guruhga bo‘linadi:

1. Lokal (ob‘ekt miqyosidagi) FV;
2. Mahalliy FV;
3. Respublika (milliy) FV;
4. Transchegaraviy (global).

Lokal favqulodda vaziyat – biror ob‘ektga ta‘lluqli bo‘lib, uning miqiyosi o‘sha ob‘ekt hududi bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ortiq bo‘lmagan odam jabrlangan yoki 100 dan ortiq bo‘lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar, favqulodda vaziyat paydo bo‘lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo‘lmagan miqdorni tashkil etgan hisoblanadi. Bunday FV oqibatlari shu ob‘ekt kuchi va resurslari bilan tugatiladi.

Mahalliy tavsifdagi favqulodda vaziyat – aholi yashaydigan hudud (aholi punkti, shahar, tuman, viloyat) bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan kam bo‘lmagan odamning hayotfaoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo‘lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorni tashkil etgan hisoblanadi.

Respublika (milliy) tavsifdagi favqulodda vaziyat– favqulodda vaziyat natijasida 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar FV paydo bo‘lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortig‘ini tashkil etadigan hamda FV mintaqasi viloyat chegarasidan tashqariga chiqadigan, respublika miqyosida tarqalishi mumkin bo‘lgan FV tushuniladi.

Transchegaraviy (global) tavsifdagi favqulodda vaziyat- oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan yoxud FV chet elda yuz bergan va O‘zbekiston hududiga dahldor holat tushuniladi.

Bunday falokat oqibatlari har bir mamlakatning ichki kuchlari va mablag‘i bilan hamda xalqaro hamjamiyat tashkilotlari mablag‘lari hisobiga tugatiladi. Masalan, Orol muammosi nafaqat O‘zbekiston davlati uchun, balki unga chegaradosh bo‘lgan Trukmaniston, Qozog‘iston va boshqa davlatlar uchun ham falokat keltiruvchi vaziyatdir. SHuning uchun oxirgi vaqtda Orol muammosini hal qilishga O‘zbekiston davlatining kuch va mablag‘idan tashqari butun jahon hamjamiyati tashkilotlarining (Ekosan, YUnep va boshq.) mablag‘lari, kuchlaridan foydalanilmoqda.

Favqulodda vaziyatlar tavsifiga ko‘ra (sababi va kelib chiqish manbaiga ko‘ra):

1. Tabiiy tUSDagi FV;
2. Texnogen tUSDagi FV;
3. Ekologik tUSDagi FVlargabo'linadi.

Tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlarga 3 xil turdagi xavfli hodisalar kiradi:

1)geologik xavfli hodisalar: zilzilalar, er ko'chishlari, tog' o'pirilishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar;

2)gidrometeorologik xavfli hodisalar: suv toshqinlari, sellar, qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometerologik hodisalar;

3) favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar: alohida xavfli infeksiyalar (o'lat, vabo, sarg'ayma, isitma), yuqumli kasalliklar, rikketsiyalar-epidemik toshmalı terlama, Bril kasalligi, zoonoz infeksiyalar – Sibir yarasi, quturish, virusli infeksiyalar – SPID;

Zilzila



Ko'chki



Toshqin



Sel



Qor ko'chkisi



Bo'ron, to'fon



1 – rasm. Tabiiy ofatlarning salbiy oqibatlari.

Epidemiya – odamlarning guruh bo'lib yuqumli kasallanishi, ularning zaharlanishi (zaharli modda bilan hamda oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish);

epizootiya – hayvonlarning ommaviy kasallanishi yoki nobud bo‘lishi; **Epifitotiya** esa o‘simliklarning ommaviy nobudbo‘lishidir.

Texnologiyadagi favquloddavaziyatlarga 7 xil turdagi vaziyatlar kiradi:

1) Transportlardagi avariya va halokatlar– ekipaj a‘zolari va yo‘lovchilarning o‘limiga, havo kemalarining to‘liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan avia halokatlar;

YOng‘inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibining buzilishiga sabab bo‘lgan va temir yo‘l xodimlarining halokathududidagi temir yo‘l plat formalarida, vokzal binolarida vashaharimoratlarida bo‘lgan odamlar o‘limiga, shuningdek, tashilayotgan kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi zaharlimodda (KTZM) lar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan temir yo‘l tran spotidagi halokat va falokatlar;

Portlashlarga, yong‘inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTMZ larning zararli xossalari namoyon bo‘lishiga va odamlar o‘limi (jarohatlanishi, zaharlanishi) ga sabab bo‘ladigan avtomobil transportining halokati va avariylari, shu jumladan, yo‘l-transport hodisalari;

Odamlarning o‘limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poezdlari parchalanishiga olib keladigan metropoliten bekatlaridagi va tunnellaridagi halokatlar, avariya va yong‘inlar;

Gaz, neft mahsulotlarining otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab bo‘ladigan magistral quvurlardagi avariya va yong‘inlar.

2) Kimyoviy xavfli ob’ektlardagi avariya va yong‘inlar

Tevarak-atrof tabiiy muhitga ta’sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) odamlar, hayvonlar va o‘simliklarning ko‘plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan taqdirda, yo‘l qo‘yiladigan chegaraviy konsentratsiyalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya - himoya hududidan chetga chiqishiga sabab bo‘ladigan kimyoviy xavfli ob’ektlardagi avariya va yong‘in va portlashlar.

3) YOng‘in-portlash xavfi mavjud bo‘lgan ob’ektlardagi avariya va yong‘inlar

Texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong‘in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan ob’ektlardagi odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishlariga va o‘limiga, asosiy ishlab chiqarish zahiralarining nobud bo‘lishiga, favqulod da vaziyatlar hududlarida ishlab chiqarish maromining va odamlar hayot-faoliyatining buzilishiga olib keladigan yong‘inlar va portlashlar;

Odamlarning shikastlanishiga, zaharlanishiga va o‘limiga olib keladigan hamda qidiruv-qutqarish ishlarini o‘tkazishni, nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va vositalarini qo‘llashni talab qiluvchi ko‘mir shaxtalaridagi hamda kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog‘liq avariya va yong‘inlar va jinslarning qo‘porilishi.

4) Energetika va kommunal tizimlardagi avariya va yong‘inlar

Sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari iste'molchilarining avariya tufayli energiya ta'minotisiz qolishiga hamda aholi hayotfaoliyatining buzilishiga olib keladigan GES, GRES, IESlardagi, tuman issiqlik markazlaridagi elektr tarmoqlaridagi bug'-qozon qurilmalaridagi, kopressor, gaz taqsimlash shahobchalaridagi va boshqa energiya ta'minoti ob'ektlaridagi avariya, yong'inlar, aholi hayot-faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tug'ilishiga olib keladigan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal ob'ektlardagi avariya;

Atmosfera, tuproq, er osti va er usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug'diruvchi darajada konsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo'ladigan gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariya.

5) Bino va inshootlarning birdan qulab tushishi bilan bog'liq avariya

Odamlar o'limi bilan bog'liq bo'lgan va zudlik bilan avariya-qutqaruv o'tkazilishini hamda zarar ko'rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yo'nalishdagi ob'ektlar, shuningdek, uy-joy sektori binolari konstruksiyalarining to'satdan buzilishi, yong'inlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.

6) Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariya

Sanitariya-himoya hududi tashqariga chiqarib tashlanishi natijasida paydo bo'ladigan yuqori darajadagi radioaktivlik odamlarning yo'l qo'yiladigan ko'p miqdorda nurlanishini keltirib chiqaradigan texnologik jarayonda radioaktiv moddalardan foydalanadigan ob'ektlardagi avariya; radioaktiv materiallarni tashish vaqtidagi avariya; radioizotop buyumlarning yo'qotilishi; biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarda biologik vositalarning atrof-muhitga chiqib ketishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq vaziyatlar.

7) Gidrotexnik inshootlardagi halokatlar va avariya

Suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog'lardagi yo'llardan suv urib ketishi natijasida vujudga keladigan hamda suv bosgan hududlarda odamlar o'limiga, sanoat va qishloq xo'jaligi ob'ektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan va shoshilinch ko'chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari.

Ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlar. Ekologik tushdagi FVlar asosan 3 xil bo'ladi:

1. *Quruqlik (tuproq, er osti)ning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:* halokatli ko'chiklar – foydali qazilmalarni qazish chog'ida er ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida er yuzasining o'pirilishi, siljishi;

Tuproq va er sanoati tufayli kelib chiqadigan toksikantlar bilan ifloslanishi, og'ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog'lig'i uchun xavf soluvchi konsentratsiyalarda qo'llaniladigan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

2. Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar

Havo muhitining quyidagi ingredientlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi:

- oltingugurtli oksid, azotli oksid, uglerodli oksid, dioksid, qurum, chang va odamlar sog'lig'iga xavf soluvchi konsentratsiyalarda antropogen tushdagi boshqa zararli moddalar;

- keng ko'lamda kislotali hududlar hosil bo'lishi va ko'p miqdorda kislota chiqindilari yog'ilishi;

- radiatsiyaning yuqori darajasi.

3. Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar

Er yuzasi va er osti suvlarining sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi oqavalari;

Neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan, tarkibida og'ir metallar, har xil zaharli ximikatlar mavjud chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan eksteremal yuqori darajada ifloslanishi;

Binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning emirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan sizot suvlar miqdorining ortishi;

Suv manbalari va suv olish joylarining zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvining keskin etishmasligi.

Hozirgi vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti – BMT bo'yicha favqulodda vaziyatlarning tavsifiga yana qo'shimcha qilib: a) ijtimoiy-siyosiy tavsifdagi FV; b) harbiy tavsifdagi FVni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra biz yashab turgan mintaqada 6 xil FV turlari tasdiqlangan:

1. Zilzilalar, er surilishi.
2. Sel, suv toshqinlari va boshqalar.
3. Kimyoviy-xavfli ob'ektlarda avariylar (o'tkir zaharli moddalarning ajralib chiqishi).
4. Portlash va yong'in xavfli mavjud ob'ektlardagi avariylar.
5. Temir yo'l va boshqa transport vositalarida tashish paytidagi avariylar.
6. Radioaktiv manbalardagi avariylar.

Favqulodda vaziyatlarning tavsifi

Har qanday favqulodda vaziyatlar 8 ta ko'rsatkich bo'yicha aniqlanadi:

1. Favqulodda vaziyatning nomlanishi (FV ning ta'rifi).
2. FVning mohiyati (mazmuni).
3. FVning sabablari.
4. FVning shikastlovchi omillari.
5. FVning qaltislikni oshiruvchi omillar.
6. FVni oldindan bo'lishi mumkinligi (monitoring, bashorat, ogohlantirish, yumshatish).
7. FVni bartaraf qilish (falokatdan qutqarish va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni bajarish).

8. Moddiy zararni aniqlash (bevosita va bilvosita).

Har qanday turdagi xavf-xatarli holatlar muayyan sharoitlarda, muhitda favqulodda vaziyatlarga olib keladi. YA'ni, ma'lum sharoit va muhitda xavf-xatar (FV manbai, xavfli tabiat hodisasi, xavf bor ob'ektlar, ekologik vaziyat).

FV oqibatlari turli-tuman bo'ladi. Ular FV turiga, tusiga va tarqalish miqiyosi (masshtabiga) bog'liqdir. *FV oqibatining asosiy turlari: o'lim, odamlarni kasallanishi, inshootlarning buzilishi, radioaktiv ifloslanishlar, kimyoviy va bakteriallar zaharlanishlar.* Yana shuni alohida qayd qilish kerakki, FVning ko'pgina holatlarida boshqa zararli omillar bilan birga *ruhiy jarohatlovchi holatlarda ham mavjud bo'ladi.* Bu payt o'ta kuchli tasodifiy ta'sirlar odamning ruhiy holatini buzilishiga olib keladi. Bu ta'sirning xavfli eri shundaki, bu ruhiy holat faqatgina shu ta'sir hududidagina emas, undan chiqqandan keyin ham davom etishi mumkin. FV xavfini oldindan ma'lum aniqlikda bilish mumkin bo'lsa-da, ammo, uning ruhiy ta'sirini aytish mushkul hisoblanadi.

FVning zararli va xavfli omillari ta'siri ostida joylashgan aholi, hayvonlar, inshootlar, moddiy resurslarning barchasi - **“SHikastlanish o'chog'i”** deyiladi. Oddiy (bir turli) shikastlanish o'chog'i deb, faqat bir shikastlovchi omil ta'sirida hosil bo'ladigan o'choq tushuniladi. masalan, portlash, yong'in natijasida buzilish, kimyoviy zararlanish kuzatiladi. murakkab (ko'p turli) shikastlanish o'chog'i deganda bir necha shikastlovchi omillar ta'sirida yuzaga kelishi tushuniladi. Masalan, kimyo korxonasidagi portlash, binolarning buzilishiga, yong'in, kimyoviy zararlanish kabi oqibatlarga, er silkinishi, kuchli bo'ron, inshootlarning buzilishidan tashqari, suv toshqini, yong'inlar, elektr tarmoqlarining ishdan chiqishi, zaharli gazlarning chiqib ketishi natijasida zaharlanish va boshqa talofatlarga olib kelishi mumkin.

FVlardan himoyalanishning asosiy shart-sharoitini baholay olish, keltirib chiqargan sababini va uning mexanizmini bilishdir. Jarayonning mohiyatini bilib, uning oqibatini oldindan aytib berish mumkin. O'z vaqtida va aniq olingan ma'lumot samarali himoya uchun o'ta muhimdir.

FVlar quyidagilar natijasida paydo bo'ladi:

1. Og'irlik kuchlari, er aylanishi yoki haroratlar farqi ta'siri ostida paydo bo'ladigan, tez kechadigan jarayonlar.

2. Konstruksiyalar yoki inshootlar materiallarini zanglashiga yoki chirishiga, fizik-mexanik ko'rsatkichlarning pasayishiga olib keladigan tashqi omillar ta'siri.

3. Inshootlarning loyiha ishlab chiqarish nuqsonlari (qidiruv va loyiha ishlaridagi hatolar, qurilish materiallari, konstruksiyalar sifatining pastligi, qurilish ishlarining sifatsiz bajarilganligi, qurish va sozlash ishlarida texnika xavfsizligiga rioya qilmaslik va hakazo).

4. Ishlab chiqarish texnologik jarayonining inshoot materiallariga ta'siri (me'yordan ortiq kuchlanishlar, yuqori harorat, titrashlar, kislota va ishqorlar ta'siri, gaz-bug' va suyuq agressiv muhitlar, mineral moylar emulsiyalar ta'siri).

5. Sanoat ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining va inshootlarni eksplutatsiya qilish qoidalarining buzilishi (bug' qozonlarining, kimyoviy moddalarning, ko'mir konlarida metan gazining portlashi va hakazo).

6. Turli ko'rinishdagi xarbiy faoliyatlar.

Kelib chiqishi va turidan qat'iy nazar FVlarning rivojida to'rt tavsifdagi fazalarni ajratish mumkin:

- ▶ o'yg'onish, paydo bo'lish;
- ▶ rivojlanish, avj olish;
- ▶ eng yuqori darajasi, eng yuksak darajadagi;
- ▶ pasayish, o'tish fazasi (oqibatini tugatish).

Uyg'onish fazasida bo'lg'usi FVning zamini uchun sharoit yaratiladi: noxush jarayonlar faollashadi, inshootlarning loyiha ishlab chiqarish nuqsonlari yig'ila boshlaydi va ko'plab texnik nosozliklar yuzaga chiqadi, uskunalar ishida, injener texnolog xodimlar ishida nuqsonlar paydo bo'ladi.

Uyg'onish fazasi davomiyligini aniqlash uchun, bu ham juda katta taxmin bilan zilzilaviy, meterologik, selga qarshi va boshqa stansiyalarning kuzatuvlarini juda sinchiklab o'rganish va muntazam yozib borish orqaligina bajariladi.

Rivojlanish, avj olish fazasida inson omili asosiy o'rinni egallaydi. statistik ma'lumotlar 60% dan ortiq falokatlar inson xatosi tufayli ro'y berganligini ko'rsatadi.

Eng yuqori darajadagi fazada esa odamlar va atrof muhitga xavf solib turgan modda va energiyaning ozod bo'lishi, ya'ni FV kuzatiladi.

FVning o'ziga xosligi shundaki, u zanjirsimon xususiyatga ega. unda energiya to'la, zaharli va biologik komponentlarning qo'shib ketishi tufayli uning rivojlanishi ko'p martalab ortib ketadi.

Pasayish, o'tish fazasi vaqt bo'yicha manbasini jilovlab olish davridan boshlab, to uning oqibatini bevosita va bilvosita bartaraf qilguncha ketgan vaqtdir. Bu fazaning davomiyligi yillar, gohida 10 yillar davom etishi mumkin.

FVlarning shikastlanish sabab-oqibat zanjirini aniq bir sharoitda bilish, bunday vaziyatning oldini olish ehtimolini oshiradi va oqibatlarini tezroq tugatishga yordam beradi.

0-mavzu. Fukaro muxofazasining tashkiliy va xukukiy asoslari

Reja:

1. O'zbekistonda favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etilishi.
2. Axoli va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofazasi qilish buyicha konunlar va boshka me'riy xujjatlar moxiyati.

Q o n u n l a r:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tog'risida. 20.08.1999 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fuqaro muhofazasi tog'risida. 26.05.2000 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Mudofaa tog'risida (yangi taxriri). 11.05.2001 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining (OITS kasalligining) oldini olish tog'risida. 19.08.1999 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Gidrotexnik inshootlar xavfsizligi tog'risida. 20.08.1999 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Radiatsiyaviy xavfsizlik tog'risida. 31.08.2000 y.
7. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Terrorizmga qarshi kurash tog'risida. 15.12.2000 y.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning qarori. Yo'l harakati xavfsizligi tog'risida 19.08.1999 y.
9. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish tog'risida. 31.08.2000
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish tog'risida 04.03.1996 y.

Q a r o r l a r:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 143 - sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari tog'risida. 11.04.1996 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 558 - sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi tog'risida. 23.12.1997 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 427 - sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi tog'risida. 7.10.1998 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 455 - sonli qarori. Tabiiy, texnogen va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi tog'risida. 27.10.1998y.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 32- sonli qarori. O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. 18.01.1996 y.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 15 - sonli qarori. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida. 13.12.2003 y.

7. Fuqaro muhofazasining muxandislik-texnik tadbirlari qurilish me'yorlari va qoidalari.

MTM KM va K FA-93 1993 y.

8. O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash bo'yicha o'quv yiliga tashkiliy ko'rsatmalar.

D a v l a t s t a n d a r t l a r i:

a) "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Asosiy tushunchalarning atamaları va ta'riflari" (O'z Dst 981:2000).

b) "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar" (O'z Dst 982:2000).

v) "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar. Atamalar va ta'riflar" (O'z Dst 1014:2002).

g) "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlash. Atamalar va ta'riflar" O'z Dst 1015:2002).

d) "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlash. Asosiy qoidalar" (O'z Dst 1016:2002).

e) "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar manbalari. Shikastlovchi omillar va ular ko'rsatkichlarining tasnifi va nomenklaturasi" (O'z Dst 1017:2002).

yo) "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar manbalari. Shikastlovchi omillar. Shikastlovchi ta'sir ko'rsatkichlarining nomenklaturasi" (O'z Dst 1018:2002).

Favqulodda vaziyatlarga taalluqli huquqiy-me'yoriy hujjatlar.

№	NOMI	Qabul qilingan vaqti
A) Konunlar		
1.	Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish to'g'risida.	1999 yil 20 avgust
2.	Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida.	1999 yil 20 avgust
3.	Fuqaro muxofazasi to'g'risida.	2000 yil 26 may
4.	Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida	2000 yil 31 avgust
B) Vazirlar Mahkamasi qarorlari:		
1.	Toshqin, sel oqimlarini oqizib yuborish va ko'chki xodisalari bilan bog'lik bo'lgan haloqatli oqibatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida.	1994 yil 12 aprel 201-sonli

2.	O'zbekiston Respublikasi odamlar va hayvonlarda qutirish kasalligiga qarshi tadbirlar to'g'risida.	1996 yil 18 yanvar
3.	O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida.	1996yil 11 aprel 43-sonli
4.	O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida.	1997 yil 23 dekabr 558-sonli
5.	O'zbekiston Respublikasi aholisini Favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida.	1998 yil 7 oktyabr 427-sonli
6.	Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida. 1998 yil	27 oktyabr 55-sonli
7.	Toshqin, sel oqimlari hamda ko'chki xodisalaridan ogohlantirish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlari to'g'risida.	2001 yil 16 mart 132-sonli
V) Davtal standartlari:		
1.	Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik asosiy tushunchalarning atama va ta'riflari	2000 yil 25 oktyabr O'zDst 981: 2000
2.	Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar atamalar va ta'riflar.	2000 yil 25 oktyabr O'zDst 981: 2000

Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquq va majburiyatlari

Ma'lumki, fuqaro muhofazasi umumxalq muhafaza ishlaridan biri hisoblanadi. Hamma fuqarolarning fuqaro muhofazasi masalalarini hal qilishda faol ishtirok etishlari taqozo etiladi. SHuning uchun ham fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquqlari va burchlari O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi (2000 y.) qonunining 13 va 14-moddalarida aniq ko'rsatib o'tilgan.

Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquqlari quyidagilardan iborat:

- a) o'z hayoti, sog'lig'i va mol-mulki harbiy harakatlardan muhofazalanishi;
- b) umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan tekin foydalanish;
- v) harbiy harakatlar kechayotgan joylarda o'zlari yiqilishlari mumkin bo'lgan xavf darajasi va zarur xavfsizlik choralari to'g'risida axborot olish;
- g) harbiy harakatlardan jabrlanganlarga ularning hayot-faoliyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi, tibbiy, moddiy-moliyaviy va boshqa xil yordam ko'rsatiladi.

Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi majburiyatlari:

- a) fuqaro muhofazasi sohasidagi barcha qonun hujjatlariga rioya qilishlari;

b) fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarishda ishtirok etishlari va tegishli tayyorgarlikdan o'tishlari;

v) fuqaro muhofazasi signallarini, umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan foydalanish qoidalarini bilishlari;

g) jabrlanganlarga dastlabki tibbiy va boshqa xil yordam ko'rsatishni bilishlari;

d) davlat organlariga, shuningdek, tashkilotlarga fuqaro muhofazasi sohasidagi vazifalarni hal etishda ko'maklashishlari;

e) fuqaro muhofazasi ob'ektlari va mol-mulkini asray bilishlari shart.

YUqoridagi majburiyatlarni to'liq bajarilishi, fuqarolar muhofazasi tizimining mustahkamlanishini, jumladan, davlatning mudofaa qudratini oshirishni ta'minlaydi.

Fuqaro muhofazasining xalq xo'jaligi tarmoqlarida tashkil etilishi

Fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlarining bajarilishini ta'minlash hamda ushbu maqsadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun respublika, viloyat, tuman, shahar, shuningdek, ob'ekt miqiyosidagi fuqaro muhofazasi xizmatlari tashkil. Fuqaro muhofazasi xizmatlarining turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari fuqaro muhofazasi qo'shinlari, tizimlaridan tashkil topadi. Fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining tarkibi, ularning tarkibiy tuzilishi, shuningdek, muhofaza turlari faoliyatining boshqa jihatlari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan belgilab qo'yiladi.

Fuqaro muhofazasi vazifalarini hal etishda FVV kuchlaridan tashqari O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining qutqaruv tizimlari, qismlari ham jalb etilishi mumkin. Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasining qo'shinlari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi kuchlarining asosini tashkil etadi.

Fuqaro muhofazasi qo'shinlarining harbiy davrdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) zararlanish va zaharlanish hududlarida muhandislik, radiatsiyaviy, kimyoviy va boshqa qidiruv turlarini olib borish;

b) qutqaruv va kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish;

v) aholini va xalq xo'jaligi ob'ektlarini evakutsiya qilishda ishtirok etish;

g) aholi hayot faoliyatini ta'minlash, ob'ektlarni tiklash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish hamda fuqaro muhofazasining boshqa vazifalarini bajarishdan iborat.

Fuqaro muhofazasi tizimlari qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan tiklov ishlarini (QBTI) amalga oshirish uchun hududiy-ishlab chiqarish tamoyillariga ko'ra tashkil etiladi.

Fuqaro muhofazasi tizimlari bo'ysunishiga ko'ra - hududiy (viloyatlar, tumanlar va shaharlar miqiyosida) hamda ob'ekt (xalq xo'jaligi ob'ektlarilagi) tizimlariga bo'linadi.

Ob'ekt fuqaro muhofazasining boshlig'i etib o'sha korxonaning yoki tashkilotning boshlig'i tayinlanadi. Fuqaro muhofazasi yana belgilangan vazifasiga ko'ra – umummaqsadli hamda xizmatli tizimlarga bo'linadi. Umummaqsadli tizimlar zararlangan o'choqlarda qutqaruv ishlarini olib boradilar. Xizmatli tizimlar esa

maxsus tadbirlarni bajaruvchi xizmatlar – qidiruv ishlarini olib borish, tibbiy yordam ko'rsatish, yong'inlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va ularni o'chirish, jamoat tartibini saqlash, insonlar salomtligini tiklash, razvedka o'tkazish, falokat va texnikalarni tiklash, himoya inshootlarida xizmat ko'rsatish va boshqa maxsus vazifalarni bajaruvchi tizimlarga bo'linadi.

Fuqaro muhofazasi tizimlariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari: 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar qabul qilinadi, safarbarlik ko'rsatmasiga ega bo'lgan harbiy xizmatga mansublar, 1,2,3 – guruh nogironlari, homilador ayollar, 8 yoshga to'lmagan bolalari bor ayollar, ayni paytda 3 yoshga to'lmagan bolalari bor o'rta yoki oliy tibbiy ma'lumotli ayollar bundan mustasno.

YUqorida ta'kidlab o'tilgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollarda harakatlarni boshqarishning davlat tiziminin tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakatqilish davlat tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 558 – sonli (1998 yil.) qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT)ning asosiy vazifalarni, uning tashkil etilishini tarkibini va faoliyat ko'rsatish tartibini belgilab beradi.

FVDT ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tinchlik va harbiy davrda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida huquqiy va iqtisodiy –me'yoriy hujjatlarning yagona konsepsiyasini belgilash, ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- respublika hududiga mumkin bo'lgan texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlarni ifodalash, bashoratlash ularning oqibatlarini baholash;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish, odamlar xavfsizligini ta'minlashga, xavflitexnologiyalar va boshqa ishlab chiqarishlarning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-texnik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- boshqaruv organlari va tizimlarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun mo'ljallagan kuch va vositalarning doimiy tayyorligini ta'minlash;
- aholini, boshqaruv organlari boshliqlarini. FVDT kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;
- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uning moliyaviy va moddiy resurslar zahiralarini yaratish;
- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish;
- favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga oid tadbirlarni amalga oshirish;
- favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish sohasida, shu jumladan, ularni tugatishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish;
- aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish.

FVDT hududiy va funksional quyi tizimlardan iborat bo'lib, u respublika, mahalliy va ob'ektlar miqiyosi darajasida bo'ladi.

FVDT ning hududiy quyi tizimlari o'z ma'muriy hududlari doirasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladi hamda tegishli ravishda tumanlar, shaharlar, qishloqlar va ovullar miqiyosida tashkil topadi.

FVDT hududiy quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuch va vositalarni tarkibi, faoliyat ko'rsatish tartibi mahalliy geofizik va tabiiy, iqlim sharoitlarini, kuchli xavfli ob'ektlarning mavjudligini hisobga olib belgilanadi hamda FVV bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

FVDT ning funksional quyi tizimlari vazirliklar, davlat qo'mitalari, korporatsiyalar, konsernalar, uyushmalar va kompaniyalarda atrof muhitni, kuchli xavfli ob'ektlar holatini kuzatish va nazorat qilishni amalga oshirish, shuningdek, ularga qarashli ob'ektlarda o'zlarining ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda bartaraf etish uchun tashkil etiladi.

FVDT rahbar organlariga aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalarni hal etish vakolatiga davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat organlari va ob'ektlar ma'suldir, jumladan, respublika darajasida O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi, xavfli ob'ektlar holatini kuzatishni nazorat qilish uchun vazirliklar, idoralar, mahalliy miqiyosda hududiy hokimliklar, ob'ektlar miqiyosida korxonalarning ma'muriyati mutasaddi hisoblanadi.

Respublika darajasidagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- favqulodda vaziyatlar oqibatlarini imkoni boricha pasaytiruvchi tibbiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish, FV sharoitida xalq xo'jalik tarmoqlarining barqaror faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash;
- aholi va hududlarni FV lardan muhofaza qilish sohasida Respublika maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqishda qatnashish;
- Respublika marakzlashtirilgan xabar berish tizimini yaratish va uni doimiy tayyor holda saqlash;
- atrof – muhit hamda kuchli xavfli ob'ektlarning holatini kuzatish va nazorat qilish tizimini tashkil etish, FV larni bashoratlash;
- boshqaruv organlari, FVDT kuchlari va vositalarning FVlarda harakat qilishga tayyorgarligini ta'minlash;
- falokat –qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni, ju jumladan, evakuatsiya ishlarini o'tkazishga oid tadbirlarning bajarilishini ta'minlash, zarar ko'rgan aholi uchun hayot sharoitini yaratish;
- FVlarni bartaraf etish uchun Respublika moliyaviy va moddiy zaxirasini yaratish;

- FVlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga oid tadbirlarni amalga oshirishda qatnashish;
- FVlarda idoraga qarashli ob'ektlarning rahbarlari tarkibi, kuch va vositalarini, shuningdek, xodimlarini tayyorlashni muvofiqlashtirish va boshqa omillarni bajarish.

11-Mavzu:O'zbekistonda favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va xarakat qilishdavlat tizimi (FVDT)

FVDT Favqulodda Vaziyatlar Davlat Tizimining tuzilishi, vazifalari, kuch va vositalari, ish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 23–dekabrdagi “FVDT (Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi)” to'g'risidagi 558 sonli Qarori favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha juda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi FVDT hududiy, funksional va informatsion-boshqaruv kichik tizimlaridan iborat bo'lib, respublika mahalliy, ob'ekt miqyosida uchta darajada bo'ladi.

Hududiy kichik tizimlar - 14ta. Ular - Qoraqalpog'iston Respublikasida (1), hamma viloyatlarda (12) va Toshkent shahrida (1).

Hududiy kichik tizimlar o'zlarining ma'muriy hududlari chegarasida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni tugatishga mo'ljallangan bo'lib, tuman, shahar, shaharcha, qishloq, ovulga to'g'ri keladigan bo'g'inlardan iborat bo'ladi.

Funksional kichik tizimlar vazirliklar, davlat qo'mitalari, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar va kompaniyalarda tashkil etiladi. Bugungi kunda funksional kichik tizimlarning umumiy soni - 22ta.

Funksional kichik tizimlar atrof tabiiy muhit va potensial xavfli ob'ektlar ahvolini kuzatish va nazorat qilishga, shuningdek qaramog'idagi ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'lik ob'ektlarda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni tugatishga mo'ljallangan bo'lib, davlat nazorati organlaridan (nazorat -inspeksiya xizmatidan), kichik tizim kuchlari va vositalaridan iborat bo'ladi.

Hududiy va funksional kichik tizimlarning vazifalari, tashkil etilishi, kuch va vositalarining tarkibi, ishlash tartibi va boshqa masalalari geofizik, tabiat - iqlim, funksional va boshqa sharoitlarni, shuningdek xuddi shu kichik tizimdagi potensial xavfli ob'ektlar va hodisalarni hisobga olib, tizimlarning o'zi ishlab chiqadigan, shu kichik tizimlar haqidagi tegishli Nizomlarda belgilab ko'yiladi.

Bu Nizomlarni Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishib, tegishli kichik tizimlarning rahbarlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, vazirlar va idoralarning rahbarlari) tasdiqlaydi. Informatsion-boshqaruv kichik tizimini O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etadi va u hududiy va funksional kichik tizimlar elementlarini o'z ichiga oladi.

Kichik tizim quyidagilarga tadbirlar uchun mo'ljallangan:

1. Potensial xavfli hamma ob'ektlar va hodisalar, shuningdek hamma favqulodda vaziyatlar haqida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, almashish, saqlash va tegishli organlarga uzatish;

2. Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgani (sodir bo'lish ehtimoli) haqida, favqulodda vaziyatning tusi, ko'lami va rivojlana borishi, ehtimol bo'lgan oqibatlari to'g'risida, favqulodda vaziyatlardagi hatti-harakatlar haqida FVDT ning rahbar organlariga, kundalik boshqarish organlariga, favqulodda vaziyatni tugatish kuchlari va vositalariga hamda aholiga xabar va ma'lumot berish;

3. FVDT kichik tizimlari va bo'g'inlari o'rtasida, boshqaruv punktlari kuch va vositalari o'rtasida o'zaro ma'lumot almashish;

4. Boshqaruv punktlaridagi navbatchi-dispatcherlik xizmati harakat qilishiga doimo shay bo'lib turish.

FVDTning har qaysi darajasida quyidagilar organlar bo'ladi:

1. Rahbar organlari.

2. Kundalik boshqarish organlari.

3. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni tugatish kuch va vositalari.

4. Favqulodda vaziyatlarni tugatish uchun moliyaviy va moddiy resurslar rezervi.

5. Xabar berish va ma'lumot ta'minoti (ABT)tizimi.

6. Kimyoviy va boshqa potensial xavfli ob'ektlarda hamda ularga tutash hududlarda xabar berish va ma'lumot cheklangan tizimlari, shuningdek suv omborlari gidrotexnika inshootlaridagi signalizatsiya va xabar berish tizimlari.

7. Atrof tabiiy muhit va potensial xavfli ob'ektlar holatini kuzatish va nazorat qilish tizimini tashkil etish, favqulodda vaziyatni oldindan ta'minlash.

8.FVDT boshqaruv organlari, boshqarish punktlari, kuch va vositalari favqulodda vaziyatdagi ishlarga tayyor turishini ta'minlash.

9. Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar haqida, ularning rivojlana borishi, ehtimol bo'lgan oqibatlari va ularni tugatish yuzasidan ko'rilayotgan choralar haqida xabar berish, ma'lumot yig'ish va almashlashni ta'minlash va nazorat qilish.

10. Avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlar tadbirlari, jumladan evakuatsiya tadbirlari bajarilishini ta'minlash, shikastlangan aholi turmush kechirishini ta'minlash.

P. Favqulodda vaziyatni tugatishga jalb qilingan vazirliklar va idoralar, kuch va vositalar hamkorligini ta'minlash hamda ularning ishini moslashtirish.

12. Favqulodda vaziyatlarni tugatish moliyaviy va moddiy resurslar (idoralar) rezervini, shuningdek FVDT maxsus sug'urta fondini tashkil etishga va ulardan foydalanishga rahbarlik qilish.

13. Favqulodda vaziyatlardan shikast ko'rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etish.

14. Favqulodda vaziyatda o'ziga qarashli ob'ektlar rahbarlar tarkibini, kuch va vositalari, shuningdek xodimlarini tayyorlashni moslashtirib turish,

15. Ishlab chiqarish va texnologiya xavfsizligi, shuningdek xodimlarni favqulodda vaziyatdan muhofaza qilish tarmoq normalari va qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

16. Avariya-qutqarish tuzilmalari va qutqaruvchilarni attestatsiya qilishni tashkil etish.

FVDT mahalliy darajadagi boshqaruv organlarining asosiy vazifalari:

1. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni tugatish tashkiliy va muhandislik-texnikaviy tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni tugatish maqsadli hududiy (viloyat) dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish.

3. Viloyat ichki aloqa va xabar berish tizimi, shuningdek boshqarish va ma'lumot ta'minoti avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va doimiy shaylikda tutib turish.

4. Ma'lumotni boshqarish va uzatish uchun viloyatlar va idoralardagi davlat aloqa kanallaridan, radio, televidenie va boshqa texnik vositalardan markazlashgan foydalanishni ta'minlash.

5. Kimyoviy va boshqa potensial xavfli ob'ektlarda hamda ularga tutash hududlarda xabar berish va ma'lumot cheklangan tizimlari, shuningdek suv omborlari gidrotexnika inshootlarida signalizatsiya va xabar berish cheklangan avtomat tizimlarini manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda yaratish.

6. Atrof tabiiy muhitni potensial xavfli ob'ektlardagi sharoitni muntazam kuzatishni va nazorat qilishni ta'minlash.

7. Boshqarish organlari, boshqarish punktlari, kuch va vositalarning favqulodda vaziyatdagi ishlarga shay turishini ta'minlash.

8. Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar, ularning ko'lam va rivojlana borishi, ehtimol bo'lgan oqibatlari, ularni tugatish yuzasidan ko'rilayotgan choralar haqida xabar berish, ma'lumot yig'ish va almashishni ta'minlash va nazorat qilish.

9. Hududiy (viloyatlar) kichik tizimlar kuch va vositalari, shuningdek berkitib berilgan tuzilmalarning favqulodda vaziyatdagi avariya-qutqarish va boshqa shoshilinch ishlar o'tkazish faoliyatiga rahbarlik qilish va uni ta'minlash, mehnatga layoqatli aholini ishlarga jalb qilishni tashkil etish.

10. Aholini evakuatsiya qilishni (vaqtincha ko'chirib turishni), evakuatsiya qilingan aholini joylashtirishni, uning turmush kechirishini hamda favqulodda vaziyat tugatilgandan keyin doimiy turar joylariga qaytarilishini rejalashtirish va amalga oshirish.

11. Aholi punktlari va xo'jaliklarda yashovchilarni jiddiy xavf zonalaridan xavfsiz joylardagi doimiy yashash joyiga ko'chirish va ularning xayot faoliyatini har tomonlama ta'minlash.

12. Favqulodda vaziyatni tugatish uchun moliyaviy va moddiy resurslar rezervlarini yaratish.

13. Favqulodda vaziyatdan shikast topgan aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlari ni amalga oshirish; fuqarolar, ularning turar joylari va mulklarini maksadli sug'urta qilishni tashkil etish.

FVDT ob'ekt darajasidagi boshqarish organlarining asosiy vazifalari:

1. Favqulodda vaziyatlar oldini olish va ularni tugatish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish, ob'ektlarning favqulodda vaziyatda ishlashi ishonchliligi va barqarorligini oshirish.

2. Kimyoviy va boshqa potensial xavfli ob'ektlarda xabar berish va ma'lumot cheklangan tizimlari, shuningdek gidrotexnik inshootlaridagi signalizatsiya va xabar berish cheklangan avtomat tizimlarni yaratish ishlarini tashkil etish.

3. Boshqaruv organlari, ob'ekt kuch va vositalarining favqulodda vaziyatdagi ishlarga shay turishini ta'minlash.

4. Sodir bo'lgan favqulodda vaziyat haqida xabar berishni, ma'lumot yig'ishni ta'minlash va nazorat qilish, favqulodda vaziyatning ko'lami va rivojlana borishi, ehtimol bo'lgan oqibatlari haqida, uni tugatish uchun ko'rilayotgan choralar va qanday yordam kerakligi to'g'risida yuqori organlarga axborot uzatib turish.

5. Avariya-qutqarish va boshqa shoshilinch ishlarga, shu jumladan ob'ektlar xodimlarini evakuadiya qilishga rahbarlik qilish.

6. Favqulodda vaziyatni tugatish uchun moliyaviy va moddiy resurslar rezervlarini yaratish.

7. Ob'ektlarning rahbarlar tarkibi, kuch va vositalari, shuningdek xodimlarini favqulodda vaziyatdagi ishlarga tayyorlashni tashkil etish.

FVDTning favqulodda vaziyatni tugatish kuchlari va vositalari:

1. Fuqaro muhofazasi qo'shinlari.

2. Bevosita va bilvosita Favqulodda vaziyatlar vazirligi tezkor ixtisoslashgan respublika tuzilmalari.

3. Vazirliklar va idoralarning harbiylashgan va professional ixtisoslashgan avariya-qutqarish va avariya qayta tiklash bo'linmalari.

4. Mahalliy hokimiyat organlarining (Qoraqalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklarining) tuzilmalari, Favqulodda vaziyatlar vazirligining kutqaruv komandalari.

5. Ob'ektlarning ixtisoslashgan tuzilmalari.

6. Hududlar va ob'ektlarning harbiylashgan umumiy va maxsus tuzilmalari.

7. Qizil YArim oy jamiyatining ko'ngillilar otryadlari (komandalari, guruhleri), «Vatanparvar» MKT (mudofaaga ko'maklashuv tashkiloti).

FVDTning rahbar organlari - bu aholini va hududlarni favqulodda vaziyatdan muhofaza qilish masalalarini hal qilish vakolati doirasiga kiradigan quyidagi davlat boshqaruv organlari, mahalliy homiyat organlari va ob'ektlari ma'muriyatlari:

a) Respublika darajasida - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, atrof-muhit holatini va potensial xavfli ob'ektlar holatini kuzatish va nazorat qilishga mas'ul vazirliklar va idoralar, shuningdek tarkibida kimyoviy, portlovchi, yongin xavfi bor va boshqa xavfli ob'ektlar;

b) Mahalliy daraja - Qoraqalpogiston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari;

v) Ob'ekt darajasida-korxonalar (muassasalar, tashkilotlar) ma'muriyatlari.

FVDT, uning kichik tizimlari va bo'g'inlari ishlashini tashkil qilish uchun, favqulodda vaziyatlardan aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishga shay turish uchun mas'uliyat to'laligicha tegishli rahbar organlarga yuklatiladi.

FVDTning kundalik boshqarish organlari - bu FVDT ning tegishli hududiy va funksional kichik tizimlarini va ularning bo'g'inlarini har kuni bevosita boshqarib turadigan boshqaruv organlari bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari.

2. Shaharlar va tumanlarning favqulodda vaziyatlar bo'limlari.

3. Ob'ektlarning favqulodda vaziyatlar bo'limlari (sho'balari yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslari).

4. Vazirliklar va idoralarning davlat nazorat organlari (nazorat-inspeksiya xizmatlari).

5. Vazirliklar va idoralarning favqulodda vaziyatlar bo'limlari (sho'balari yoki maxsus tayinlangan shaxslari).

6. Favqulodda vaziyatlar vazirligining tanglik vaziyatlarini boshqarish markazi.

7. FVDT rahbar organlarining zahiradagi boshqarish punktlari (ZBP).

8. Favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining (bo'limlarining) tezkor-navbatchi xizmatlari.

9. Vazirliklar, idoralar va ob'ektlarning navbatchi-dispatcherlik xizmatlari. FVDT ning kundalik boshqarish organlari doimiy diskologiya punktlarida, shahardagi va shahar tashqarisidagi ZBP (Zahiradagi boshqarish punktlari) da joylashtirilib, tabeldagi tegishli xabar berish vositalari, birlamchi ma'lumotni qayta ishlash va uzatish vositalari bilan jihozlanadi, hamda ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishga doimiy shaylikda saqlanadi.

FVDT respublika darajasidagi boshqarish organlarining asosiy vazifalari:

1. Tabiiy turdagi favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini maksimal kamaytiradigan choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlar sharoitida iqtisodiyot tarmoqlari va potensial xavfli juda muhim ob'ektlar barqaror ishlashini ta'minlash.

2. Potensial xavfli ob'ektlar uchun texnik hujjatlar sug'urta fondi yaratish ishlarini tashkil etish.

3. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi maqsadli va ilmiy-texnikaviy respublika dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish.

4. Markazlashgan xabar berish respublika tizimini, shuningdek ma'lumot ta'minlash va boshqarish avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va doimiy shay turish.


5.Ma'lumotni boshqarish va uzatish uchun davlat idoralar aloqa kanallaridan, radio, televidenie va boshqa texnik vositalardan markazlashgan foydalanishni ta'minlash.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ular yuzaga kelganda ziyon va zararning miqdorini kamaytirish bo'yicha oldindan choralar ko'rish maqsadida harakat qilishning respublika, idora rejalari, hokimliklar va ob'ektlarning harakat qilish rejalari, shuningdek FVDTning barcha darajadagi o'zaro birgalikda harakat qilish rejalari ishlab chiqiladi.

15-mavzu. Yer silkinishi (zizila) va uning okibatlari

Reja.

1. Yer silkinishi sabablari va keltiradigan talofatlari.
2. Zilzila kuchini baxolash.
3. O'zbekiston shaharlarining seysmik faolligi.
4. Zilzilaga tayyor turish va zilzila paytida axolining xarakat kilish koidalari.



Tabiiy ofatlar ichida eng xavflisi va daxshatlisi bu yer silkinishidir. Yer silkinishi yer osti zarbasi va yer ustki qatlamining tebranishi bo'lib, tabiiy ofatlar, texnologik jarayonlar tufayli yuzaga keladi. Yer ostki zarbasining paydo bulish o'chog'i, yerning ostki qatlamidagi uzok vaqt yig'ilib qolgan energiyaning yuzaga otilib chiqish jarayoni tufayli yuzaga keladi. O'choqning ichki qismi markazi gipotsentr deyiladi, yerning ustki qismidagi markazi epitsentr deyiladi.

Yer silkinishi yuzaga kelish sabablariga ko'ra kuyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Tektonik zilzilalar;
- Vulqon zilzilalari;
- Ag'darilish, o'pirilish zilzilalari;
- Texnogen (insonning muxandislik faoliyati bilan bog'lik) zilzilalar.

Yuqorida qayd etilgan yer silkinishi turlari ichida katta maydonga tarqaladigani va eng kup talofat keltiradigani tektonik yer silkinishidir. Bunday yer silkinishlar

xaqida gap ketganda litosfera o'ramlarida buladigan xarakat (tektonik kuchlar) tushuniladi.

Qiya satxlarida tog' jinslarining katta bulaklarini ag'darilishi, yoki tog'larning o'pirilishi natijasida yuzaga keluvchi yer silkinishlar ag'darilish zilzilalari deyiladi. Bu yer silkinishining tarqalish maydoni kichik, ko'p hollarda talofatsiz bo'ladi.

Vulqon jarayoni, ya'ni yer ostidagi magmani vulqon kanali orqali yer yuzasiga chiqishi bilan bog'lik bo'lgan yer silkinishiga vulqonli yer silkinishi deyiladi. Bunday yer silkinishi vulqonning faollashishi bilan bog'lik bo'lganligi sababli aksariyat ko'p xollarda ular anik bashorat qilinadi. Shuning uchun uning keltiradigan talofati deyarli kuchli bulmaydi.

Insonning muxandislik faoliyati bilan bog'lik bo'lgan yer silkinishlar asosan oxirgi yillarda xisobga olinmoqda. Bunday yer silkinish yirik suv omborlari vujudga kelgan xududlarda, gaz, neft maxsulotlarining yer ostidan surib olinishi jarayoni amalga oshirilgan maydonlarda yuz bermoqda. Inson o'zining muxandislik faoliyati bilan yer osti komponentlariga muayyan ta'sir etishi, u yoki bu darajada uzgartirishi yer silkinishining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Daryo vodiylariga to'g'onlarning qurilishi natijasida maydoni bir necha ming km^2 , xajmi bir necha yuz km^3 dan katta bo'lgan (masalan, Chorvoq suv omborining umumiy xajmi 2,1 mld. m^3 , suv satxi maydoni 3640 ga teng) suv omborlari vujudga kelmoqda. Yer qari 4000-5000 m chuqurlikda yotgan gaz, neft yer satxiga so'rib chiqarilmoqda, yer ostida uzoq geologik davrlar mobaynida yotgan ko'mir ana shu yer qari yondirilib gazga aylantirib olinmoqda. Vaqtincha saqlash maqsadida ba'zan yer osti g'orlariga, xandaklariga va tog' jinslari g'ovaklariga gaz, neft maxsulotlari yuqori bosim ostida kiritilmoqda, juda katta miqdordagi mineral suvlar yer ostidan chiqarib olinmoqda. Yer qarining odamlar ta'sir etish joylarida yig'ilayotgan energiya miqdorining u yoki bu darajada oshishi yoki kamayishi oqibatida sodir bo'lgan yer silkinishlari Xindiston, AQSH, O'zbekistonda kuzatilganligi fandan ma'lum. Jumladan, Chorvoq suv ombori qurilib bo'lingandan keyin bu xududda bir necha marta yer silkinishlar bo'lib o'tgan. Tekshirishlarning kursatishicha, bu yer silkinishlar o'zlarining tayyorlanish, sodir bo'lish mexanizmlari bilan Chorvoq suv omboriga yig'ilgan suvning miqdori va yig'ilgan suvni suv omboridan chiqarilish tezligi bilan bog'liq xolda yuz berishi kuzatilgan. Bunga birinchidan, suv omborining 2,1 mld. m^3 . dan ortiq suv bilan to'latilishi jarayonida, ombor tubida yotuvchi tog' jinslarining siqilishi va taranglashishi oqibatida yuz beradigan mikrosiniqlar, darz ketishlar va ularning nisbiy xarakati sabab bo'lsa, ikkinchidan, suvni suv omboridan bir me'yorida chiqarilmasligi va tog' jinslariga ta'sir qiluvchi kuchlarning nomutanosib xolatda bo'shatilishi, o'zgarishi sabab bo'lgan.

Respublikamizning xarbiy hududida 1976, 1984 yillarda yuz bergan 8-10 balli Gazlidagi yer silkinishlarini ba'zi olimlar ana shu xududdagi mavjud gaz konlari va ulardan gazni surib olish jarayoni bilan bog'lashadi. 1976 yildagi Gazli yer silkinishining gipotsentri (zilzila uchogi, litosferaning ma'lum chuqurlikdagi tog' jinslari katlamlarining uzilishi, surilish joyi) yer qobig'ining 5-25 km chuqur oralig'ida, 1984 yilgi yer silkinishida esa 50-200 km oralig'ida joylashgan. Yer silkinish

xodisasini vujudga keltiruvchi energiyaning yig'ilishi, sarflanish darajasi silkinish xududlaridan surib olingan gazning mikdori, yer qa'ri tog' jinsi qatlamlarigatushayotgan tabiiy bosimning mutanosibligini ma'lum darajada buzilganligi oqibati zilzilaning sodir bo'lish vaqtini tezlashtiradi.

Zilzila turlaridan eng xavfli (talofatlisi) tektonik zilzila hisoblanadi. Ma'lumki, xar yili planetamizda 100000 dan ortiq yer silkinishlarini seysmik asboblari (seysmograflar) qayd etadi. Bulardan 100 tasi vayron qiluvchi fojia bo'lib, imorat va inshootlarning buzilishiga, yer yuzasida yoriqlarning paydo bo'lishiga, ming-minglab insonlar yostig'ining qurishiga olib keladi.

Yer silkinish o'chog'i gipotsentrning joylashgan chuqurligi bo'yicha: yuza - 70 km.gacha, o'rta - 70-300 km. va chuqur - 300 km.dan pastda "mantiya" katlamida vujudga keladigan xillarini ajratish mumkin. Respublikamizda kuzatiladigan zilzilalarning o'chog'i asosan 70 km.gacha chuqurliklarda joylashganligi qayd etilgan.

Mantiyadagi katta bosim yoki portlashlar tufayli zilzila o'chog'i vujudga keladi, natijada katta kuchlanishlar paydo bo'ladi, bular o'z navbatida yerning ustki qatlamini tebranishiga olib keladi. Gipotsentrdan xamma tarafga, qaytar seysmik to'lqinlar tarqaladi, ular asosan uzunasiga va ko'ndalang turlariga bo'lina-di. Yer ostidan uzunasiga tarqalayotgan (vertikal tarzda) to'lqinlar o'z yo'nalishi buyicha navbatma-navbat yer po'stlog'ini siqib, yer yuzasiga chiqqanda tovush chiqaradi. Bu esa yer silkinishi oldidan chiqadigan tovushning o'zginasidir. Ko'ndalang to'lqinlar (gorizontal) yer yuzasiga chiqib, zilzila to'lqinlarini vujudga keltiradi va epitsentrdan barcha taraflarga tarqaladi.

Kuchli yer silkinishi oqibatida yerning yaxlitligi, butunligi o'zgaradi, inshootlar, jixozlar buziladi, kommunal-energetik qismlar ishdan chikishi, insonlar o'limi yuz beradi. Yer silkinishi ko'pchilik xollarda ma'lum intensivlikda chiqadigan tovush bilan yuz beradi va uning past-balandligi yer kimirlashning kuchiga bog'lik yer qimirlashning asosiy ko'rsatkichlari kuyidagilardan iborat: yer silkinish o'chog'ining chuqurligi, silkinish amplitudasi va yer silkinishining intensiv energiyasi.

Yer silkinish kuchining xususiyatlari

Yer silkinish kuchiga qarab quyidagi xolatlar kuzatiladi:

1 ball - sezilarsiz, faqatgina seysmik asboblari qayd qiladi;

2 ball - juda kuchsiz, uy ichida utirgan ba'zi odamlar sezishi mumkin (deraza oynalari titraydi);

3 ball - kuchsiz, kupchilik odamlar sezmaydi, ochiq joyda tinch o'tirgan odam sezishi mumkin. Osilgan jismlar asta-sekin tebranadi;

4 ball - o'rtacha sezilarli. Ochiq joyda, bino ichida turgan odamlar sezadi. Uy devorlari qirsillaydi. Ro'zg'or anjomlari titraydi, osilgan jismlar tebranadi;

5 ball - ancha kuchli. Xamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi, ba'zi odamlar xovliga yugurib chiqadi. Idishlardagi suyuqlik chayqalib to'kiladi, osilgan uy jixozlari qattiq tebranadi;

6 ball - kuchli.Xamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi, ko'pchilik odamlar xovliga yugurib chiqadi.Uy xayvonlari betoqat bo'ladi.Ba'zi hollarda kitob javonidagi kitoblar, ro'zg'or buyumlari javonlaridagi idishlar ag'darilib tushadi;

7 ball - juda kuchli.Ko'pchilik odamlarni qo'rquv bosadi, ko'chaga yugurib chiqadi, avtomobil xaydovchilari xarakat vaqtida ham sezadi, uy devorlarida katta-katta yoriqlar paydo bo'ladi, Xovuzlardagi suv chayqaladi va loyqlanadi.

8 ball - yemiruvchi.Xom gishtdan qurilgan imoratlar butunlay vayronaga aylanadi, ancha pishiq kilib qurilgan imoratlarda ham yoriqlar paydo bo'ladi, uy tepasidagi mo'rilar yiqiladi, ba'zi daraxtlar butun tanasi bilan yiqiladi, sinadi, tog'liq joylarda qulash, surilish xodisalari yuz beradi.

9 ball - vayron qiluvchi.Yer qimirlashiga bardosh beradigan qilib qurilgan imorat va inshootlar xam qattiq shikastlanadi.Oddiy imoratlar butunlay vayron bo'ladi, yer yuzasida yoriqlar paydo bo'ladi, yer osti suvlari sizib chiqishi mumkin.

10 ball - yakson qiluvchi.Hamma imoratlar yakson bo'ladi.Temir yo'l izlari to'liqinsimon shaklga kelib bir tomonga qarab egilib qoladi, yer osti kommunal quvurlari uzilib ketadi, cho'kish xodisalari yuz beradi.Suv xavzalari tulqinlanib qirg'oqqa uriladi, qoyali yon bag'rlarda katta-katta surilish xodisalari sodir bo'ladi.

11 ball - fojiali.Hamma imoratlar deyarlik vayron bo'ladi, to'gonlar yorilib ketadi, temir yo'llar butunlay ishdan chiqadi, yerning ustki qismida katta-katta yoriqlar paydo bo'ladi, yer ostidan balchiqdar ko'tarilib chiqadi, surilish, qulash xodisalari nihoyasiga yetadi.

12 ball - kuchli fojiali.Yerning ustki qismida katta o'zgarishlar yuz beradi.Hamma imoratlar butunlay vayron bo'ladi, daryolarning o'zani o'zgarib sharsharalar paydo bo'ladi, tabiiy to'g'onlar vujudga keladi.

MDHhududining 20 foizga yaqin yeri seysmoaktiv mintaqa hisoblanib, bunday hududlarga asosan tog'li o'lkalar, Kavkaz orti, Shimoliy Kavkaz, Karpat buyi, Janubiy Qrim, Moldaviya, Primor'e, Saxalin, Kamchatka, Kuril orollari, Turkmaniston va O'rta Osiyoning torli o'lkalari kiradi.

4-jadval

Yer silkinishining ba'zi ko'rsatkichlari quyidagi jadvaldako'rsatilgan:

Rixter buyicha, (magnituda)	Dunyo buyicha 1 yilda yer silkinishning o'rtacha soni	Yerning silkinish muddati, soniya	Kuchli yer silkinishning ta'sir etgan radiusi, km
8,0-8,9	1	30-90	80-160
7,0-7,9	15	20-50	50-120
6,0-6,9	140	10-30	20-80
5,0-5,9	900	2-15	5-30
4,0-4,9	8000	0-5	0-15

Yuqorida aytilganidek, yer silkinishida katta moddiy yo'qotish hamda minglab odamlar o'limi yuz beradi.Masalan, 1990 yilda Erondagi 8 balli yer qimirlashi oqibatida 50 ming odam o'lib, 1 mln. Ga yaqin odamlar esa, qon yo'qotib,

jaroxatolganlar. Xuddi shunday holat 1988 yil 7 dekabrda Armanistondagi yer qimirlashida ham kuzatildi. U yerda juda katta kuch bilan (10,5 ball) yer silkinishining oqibatida 25 ming odam o'lgan. Bunda 8 mln. kv.m uy joy yo'q bo'lib ketgan, 514 ming kishi boshpanasiz qolgan. Yer ostida qolganlardan 15250 kishi qutqarilgan. Yer silkinish 4 takatta shaharlarni Leninakan, Kirovokan, Spitak va Stepanavan hamda 58 ta yashash punktlarini o'z ichiga olgan. Shulardan 1500 ta qishloq vayron bo'lgan, 12 ta shaxar shikastlangan, ulardan 3 tasi batamom yo'q bo'lib ketgan. Bulardan tashqari, sanoat va qishlok; xo'jaligi korxonalari deyarli izdan chiqqan, avtomobil va temiryo'llarning kup qismi, aloqa, ko'priklar yaroqsiz holga kelgan.

Butabiiy ofat munosabati bilan dunyoning turli burchaklaridan, jumladan, O'zbekistondan ham yordam kuchlari kelib, u yerdagi jabrlangan xalqqa moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilgan. Shuningdek, fuqarolar mudofaasi organlari (sobiq ittifoq, mudofaa vazirligiga qarashli) tomonidan 23000 dan ko'p kishilar safarbar etilib, ular xizmatida 3000 dan ortiq turli xildagi texnikalar ishtirok etgan. Juda katta miqyosdagi tabobat xizmati armiyasi ham yordam ko'rsatdi. Xattoki yer ostida, inshootlar tagida qolgan odamlarni chiqarish uchun chet ellar - Angliya, Fransiya, Shveysariya va boshqa davlatlardan mutahassislar kelib yordam berganlar.

Xuddi shunga o'xshash holat 1966 yildagi Toshkent zilzilasida xam kuzatilgan. Unda 8 balli silkinish sodir bulib, imorat- larga, katta kurilishlarga ziyon yetgan.

Silkinishlar bir necha kungacha vakgi-vakgi bilan takrorlanib turgan. Buning okibatida 78 ming oila boshpanasiz krlgan, 2 mln. kvadrat metr yerdagi turar joylar 7600 o'rinli maktablar, 2400 o'rinli maktabgacha tarbiya muassasalari ishdan chiqqan, 690 savdo va 84 turli korxona idoralari ziyon ko'rgan. O'sha vaqtda moddiy zarar miqdori xech qaerda yozilmagan edi.

Fuqaro mudofaalari va xorijiy tashkilotlarning ko'rilgan zararni bartaraf etish borasida ko'rsatgan sa'y xarakatlarini xalqimiz xech qachon unutmaydi.

Imoratlarga, inshootlarga yer silkinishining ta'siri vahususiyatlari

Yuqorida aytib o'tilganidek, zilzila ta'sirida imoratlar va inshootlar talafot ko'radi. O'urilgan talafot darajasi inshoot loyihasiga, ishlatilgan qurilish materiallariga bog'liq. Shuning uchun hamma inshootlar va ularning ko'radigan talofatlari davlat standarti bilan tartibga solinadi.

Inshootlar kuradigan talafotlar kuyidagicha tasniflanadi:

- 1- darajali talafot. Bunda yengil shikastlanish yuz beradi.
- 2- darajali talafot. Og'ir bo'lmagan shikastlanish sodir etiladi, devorlarda katta bo'lmagan yoriqlar paydo bo'ladi.
- 3- darajali talafot. Inshootlarning og'ir shikastlanishi yuz beradi, devorlarda katta va chuqur yoriqlar paydo bo'ladi.
- 4- darajali talafot. Imorat va inshootlar ichki devorlarining to'liq buzilishi yuz beradi.
- 5- darajali talafot. Imorat va inshootlar to'lik, buzilishi sodir bo'ladi.

Imorat va inshootlarning konstruksiyasi va qurilish materiallariga qarab tasniflanishi:

A guruh - xom g'isht, paxsa devorli imoratlar;

B guruh - pishiq g'ishtdan qurilgan inshootlar;

V guruh-temir-beton, sinchli va yoyuchdan kurilgan inshootlar.

Yuqoridagilarni xisobga olgan holda davlat standarti (GOST) tomonidan imoratlar guruhining xar bir balda ko'radigan talofat darajalari qonunlashtirib qo'yilgan.

Jumladan:

6 ball - yer silkinish jarayonida A guruhga mansub inshootlar 2-darajali talofat, B guruhi inshootlari 1-darajali talofat ko'radi.

7 ball - A guruhidagi inshootlar 3-darajali talofat ko'radi.

8 ball - A guruhidagi inshootlar 5-darajali, B guruhidagi inshootlar xam 3,4-darajali, V guruhidagi inshootlar 2-darajali talofat ko'radi.

9 ball - B guruhidagi inshootlar 4-darajali, shuningdek, V guruhidagi inshootlar xam 4-darajali talofat ko'radi.

10ball - B guruhidagi inshootlar 5-darajali, V guruhidagi inshootlar 4-darajali talofat ko'radi.

11ball - B guruhidagi inshootlar to'liqqulaydi tog' jinslariningtik va gorizontal yo'nalishdagi xarakati kuzatiladi.

12ball - amalda yer yuzasidatik inshoot krlmaydi.

Bu fikrlar u yoki bu ballarda yer silkinishi sodir bo'ladigan hududlarda ko'riladigan talofot darajasi xisobga olingan holda, faqat ma'lum guruhdagi inshoot va imoratlar qurilishi lozim, degan so'zdir.

Yer silkinishi keltiradigan talofat inshootning turiga, konstruksiyasiga bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda, qurilishmaydonlarining muhandis-geologik sharoitiga, ya'ni tog'jinsliri turlariining mustaxkamlik darajasiga, xossa vahususiyatlariga bog'liq. Masalan, 1966 yili Toshkent shaxrida bo'lgan silkinish natijasida shaxarning yer osti suvlari satxi yer yuzasiga yaqin bo'lgan pastqam joylarga joylashgan imoratlar kuchli talofat ko'rdi.Shundan keyin 1966 yili shaxar xududida qayta muhandis-geologik xaritalash ishlari o'tkazilib, shaxar markazi tuprok sharoiti nuqtai nazaridan 9 ballik mintaqaga o'tkazildi.Bu degan so'z, 9 ballik mintaqada quriladigan inshootlar konstruksiyasiga va usuliga ma'lum talablar qo'yish va ularni bajarishni talab kdladi.

Seysmoaktiv xududlarda qurilish ishlarini olib borishda davlat tomonidan tasdiqlangan qonun-qoidalarga, talablarga rioya qilinmog'i zarur.Ya'ni shaxar qurilishida imoratlarning balandligiga va shakliga katta talablar qo'yiladi, ular quyidagilardan iborat:

- shaxar xududida katta-katta ochiq maydonlarning bo'lishi, ya'ni silkinish sodir bo'lgan taqdirda va undan keyin odamlarning yashashi uchun yengil qurilmalar qurish uchun xavfsiz joy zarur;
- suv xavzalarining bo'lishi, ya'ni zilzila vaqtida chiqishi mumkin bo'lgan yong'inlarni o'chirish maqsadida foydalanish uchun suv zaxirasiga ega bo'lish;
- Inshootlar orasidagi masofa, inshoot balandligidan 1,5 marta uzoq bo'lishi, chunki imorat talofat ko'rganda bir-biriga ta'sir qilmasligi kerak.

Inshootlar yer silkinishiga bardosh berish xususiyatiga kura 3 guruxga bulinadi:

- A - 7 ballgacha chidaydigan kuchsiz seysmochidamli uylar.Bunga tuproqdan, g'ishtdan qurilgan uylar kiradi.
- B - 8 ballgacha chidaydigan uylar.Bu xildagi uylar xar hil yog'och karkaslardan tayyorlanadi (sinchli uylar).
- V - 9 ballgacha chidaydigan seysmochidamli uylar.Bu hildagi uylarga katta metall karkaslardan tayyorlanadigan, temir-beton konstruksiyalardan qurilgan inshootlar kiradi.

Yer silkinish oqibatlarini tugatish chora-tadbirlari

Yer silkinishining oqibatlarini tugatishda ishga yaroqlik har bir kishi ishtirok etishi zarur vaquyidagi ishlar birlamchixisoblanadi:

- ◆ Yer tagida, buzilgan va yonayotgan uyda qolgan odamlarni qutqarish;
- ◆ Ishlab chiqarish, kommunal-energetik tizimlarda sodir buladigan avariylarning oldini olish va to'g'rilash (chunki bular inson xayotiga xavf soladi);
- ◆ Buzilgan uylarni, inshootlarni tiklash;
- ◆ Talofat ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish shaxobchalarini tayyorlash;
- ◆ Yer silkinish o'chog'ida suv ta'minotini tiklash.

Albatta, mana shu ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan xarbir odam extiyot choralarni qurgan xolda, kerakli joylarda shaxsiy himoya vositalardan foydalanishlari zarur. Xech qanday o'zboshimchalik, belgilanmagan chora-tadbirlar va xatti-xarakatlarni amalga oshirish man etiladi.

Yer silkinishi boshqa turdagi tabiiy ofatlarni, falokatlarini: masalan, yer surilishi, suv toshqini, qor ko'chkisi, yong'in chiqishi xamda avariylarni: kommunal-energetik tizimlarining izdan chiqishi, kimyo sanoati korxonalarida avariya natijasida KTZMlarning tashkariga to'kilishi, AESlarda radioaktiv mod- dalarini atmosferaga chiqishi va boshqa xavfli ofatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ammo, xozirgacha yer silkinishining aniq vaqtini va joyini ayta oladigan uslub yo'qlekin yerning tavsifli xususiyatlari, tirik mavjudodlarning xatti-xarakatlari o'zgarishiga qarab olimlar yer silkinishi xaqida muayyan ma'lumotlarni beradilar.

Yer silkinishini belgilaydigan ayrim ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: kuchsiz tebranish chastotasining keskin o'sishi, yerni deformatsiyalanishi, tog' jinslarining elektr qarshiligi o'zgarishi, yer osti suvlari satxining ko'tarilishi, yer osti suvlarida radon miqdorining ortishi va boshqa o'zgarishlar.

Bulardan tashqari, yer silkinishi oldidan uy xayvonlarining xatti-xarakatlari xam o'zgaradi. Masalan, mushuklar tashqariga chiqib ketadilar, qushlar o'z uyalaridan uchib chiqadilar, chorva mollari juda bezovta bo'lib qoladilar va boshqalar.

Fan va texnikaning rivojlanishi so'zsiz yer silkinishini oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Jumladan, yuqorida ta'kidlanganidek yer osti suvlarida yer silkinishidan oldin radon gazi mikdorini oshish qonunini birinchi bo'lib o'zbek olimi G'.Mavlonov tomonidan aniqlangan va bu qkonuniyat Toshkent zilzilasi oqibatlarini o'rganishda o'z tasdig'ini topdi. Xozirgi kunda bu usul bilan Respublikamizda va

Markaziy Osiyo davlatlarida ro'y bergan bir necha zilzilalar bashorat qilindi va ular tasdiqlandi.

O'zbekiston olimlarining bunday kashfiyoti bilan qiziqqan Amerika olimi O.Jsms shunday degan edi: "Yaqin kunlarda o'zbek mutixasoislari zilzila xaqdsagi bashoratni xuddi iqlim sharoitini bashorat qilgandek radio orqali e'lon qilish darajasiga etib boradilar". Lekin bu yerda shuni aytib o'tish kerakki, yer silkinishning oldindan bashorat qilish muammosi hali butunlay hal etilmagan. Bunga birdan-bir sabab bu masalaning murakkabligi, ya'ni zaminda yer silkinish jarayonini vujudga keltiradigan gipotsentr-o'chokqning nixoyatda yashirinligi hamda shu "o'choqda" yig'ilgan va yer silkinishiga olib keladigan energiyaning xamda uning sodir bo'lish konuniyatlarini hali yetarlicha bilmasligimizdadir.

Yer silkinish ofatidan muxofaza qilishning bir usuli bu oldindan seysmoaktiv mintaqalarni belgilash xisoblanadi. Bunda insonlar uchun, xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun xavfli bo'lgan 7-8 balli yuqori yer silkinishi mumkin bo'lgan joylarni belgilab xarita tuziladi. Mana shunday seysmoaktiv mintaqalarda oldindan turli muxofaza omillari ko'rib, inshootlarni ko'rish, ta'minlash va ba'zi xavfli ishlab chiqarish tarmoqlarini (kimyo zavodlari, AESlar va shunga o'xshash korxonalarni) xatto to'xtatish ishlari amalga oshiriladi.

Shunday ishlar, ya'ni Uzbekistonning seysmoaktiv xududlari xaritasi 1977 yilgacha amal kilib keldi va xozirgi kunda Uzbekistan Fanlar Akademiyasining

seysmologiya instituti tomom idan 1997 yilda Uzbekistonning yangi seysmoaktiv xaritasi tuzilib, bunda xar bir xududning seysmologik xususiyatlari xisobga olingan.

Yangi xaritada ko'rsatilishicha O'zbekistonning mintaqalarida bo'lishi mumkin bo'lgan yer silkinishlari belgilangan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 6 ballgacha; Xorazm va Samarqand viloyatlarida - 7 ballgacha; Toshkent, Qarshi, Buxoro, Termez, Namangan, Farg'ona shaxarlarida - 8 ballgacha; Andijon viloyatida - 9 ballgacha belgilangan.

Shuningdek, seysmoaktiv xaritada Toshkent shaxri uchun ham 6-9 ballgacha bo'ladigan mikroseysmoaktivhududlar xam belgilab qo'yilganki, xozirgi kunda mana shu ma'lumotlar asosida Toshkent shaxrida maqsadli qurilishlar amalga oshirilmoqda.

Shu yerda ta'kidlab o'tish kerakki, respublikamizda 136 ta shaxar mavjud bulib, ulardan 13 tasi yirik shaxarlar hisoblanadi. Shaxarlarda qurilishlar 5 ta toifa bo'yicha amalga oshirilib, ular katta-kichikligidan qat'i nazar xalqa yo'li bilan belgilanishi zarur. Chunki FV da fuqarolarni faqat tranzit yullari orqali (jumladan, xalqa yo'llari orqali) xarakat qilishga yo'naltirilishi lozim.

Shuning uchun xar bir korxona raxbari yer silkinishi oqibatlarini kamaytirishning asosiy tadbirlarini bilishi zarur. Bular quyidagilardan iborat:

- Xududning seysmik xaritasi, unda zilzila bo'lish extimoli bor joylar va uning kuchi ko'rsatiladi ;
- Zilzilaga bardosh beradigan uylar va sanoat inshootlarini qurish;

- Zilzila sodir bo'lib kolgan xolda axoli o'zini qanday tutishi va xatti-xarakatlari xaqida tushuntirish;
- Seysmik stansiyalarda uzluksiz navbatchilikni tashkil qilish va olib borish;
- Zilzilalar xaqida aniq xabar va aloqa tizimini tashkil qilish;
- Qutqaruv, kuch va vositalarni tayyor xolga keltirib qo'yish;
- Axolini xavfsiz, o'z vaqtida evakuatsiya qilish tadbirlarini ishlab chiqish;
- Moddiy-texnik ta'minoti (plakatlar, oziq-ovqat, dori-darmon) zaxiralarini tashkil qilish;
- Zilzila xaqida xabar beruvchi belgilarni axoliga tushuntirish va o'z vaqtida qo'llash.

Yer silkinishini tavsiflaydigan belgilar kuyidagilardan iborat:

- ♦ yer ostki suvlarining fizik-kimiyoviy tarkibining o'zgarishi (laboratoriyada aniqlanadi);
- ♦ qushlar va uy xayvonlarining bezovtalanishi, gaz xidining kelishi, xavoda chaqmoq chaqishi va yorug'lik paydo bo'lishi;
- ♦ bir-biriga yaqin, lekin tegmayotgan elektr simlaridan uchqun chiqishi, uylarning ichki devorlarida zangori shulalar paydo bo'lishi va lyuminitsent lampalarining o'z-o'zidan yonishi.

Mana shu belgilarni bilgan xar bir fuqaro yoki zilzila xaqida xabar eshitganda, sarosimasiz va ishonchli xarakat qilishi kerak. Zilzila xaqida oldindan xabar berilsa, ayni tashlab chiqishdan avval, gaz va boshqa isitgich asboblarini o'chirish, bolalar va qariyalarga yordam berish, zarur buyumlarni, oziq-ovqat, dori-darmonlarni vahujjatlarni olib, ko'chaga chiqishlari kerak. Agar zilzila kutilmaganda boshlanib qolsa, u xolda deraza va eshik oraliqlariga yoki ko'taruvchi ustunlar tagiga turib olish zarur. Dastlabki silkinish zarbasi tinishi bilan zudlik bilan tashqariga chiqish kerak. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko'p qavatli binolarning eng nozik, ishonchsiz joylari zinapoya valift shaxtalaridir. Shuning uchun zilzila boshlangan paytda zinapoyalardan yugurish tavsiya etilmaydi va liftlardan foydalanish taqiqlanadi.

Korxona va muassasalarda zilzila paytida ish to'xtatiladi. Elektr toki suv, gaz va bug'lar to'xtatilib, fuqarolar muxofazasi qismlaridagi ishchi va xizmatchilar oldindan belgilab ko'yilgan joyga tuplanadilar, boshqalar esa xavfsiz joylarda bo'ladilar.

Zilzila vaqtida uyda bo'lmagan fuqarolar uyga shoshmasligi, chunki o'sha joy raxbarlarining ko'rsatmalarini diqqat bilan kutib, unga rioya etgan holda xarakat qilishlari kerak. Zilzila vaqtida jamoat transportining to'lato'xtatilishini kutib, olgan bolalarni, nogiron va qariyalarni tushirish kerak. Yurib ketayotganda sakrab tushib qolish yaramaydi, zilzila vaqtida jabrlanganlarga asosan yordamni fuqarolar muxofazasi qismlari beradi, lekin zarur bo'lgan xollarda axolining ham yordam berishi maqsadga muvofiqdir.

Er surilishlari

Tog' jinslari qatlamlarini qiya sath bo'ylab o'z og'irligi, girodinamik, gidrostatik, seysmik kuchlar ta'sirida surilishiga yer surilishi deyiladi. Yer surilishining vujudga kelish qonuniyatlarini, ularning dinamikasini o'rganish katta

ahamiyatga ega. Bu qurilish ishlarini olib borish sharoitini aniqlashda xalq ho'jaligi inshootlarini va inson xayotini saqlashda muhim omil hisoblanadi. Yer surilishi oqibatida xalq xujaligi katta zarar ko'radi, ba'zi yirik inshootlar, yo'llar bir necha yuz metr ga surib tashlanadi, katta-katta ekin maydonlari foydalanishga butunlay yaroqsiz bo'lib qoladi, butun-butun qishloqlar, Shaxarlar vayron bo'ladi, minglab kishilar boshpanasiz qoladi, halokatga uchraydi.

Yer surilishi –tog' jinsining surilish tezligi hamda suriluvchi tog' jinsini miqyos darajasiga ko'ra turli xilda bo'lishi mumkin. Jumladan, tog' jinslari surilish tezligining sekin, o'rtacha va kuchli xillari bo'lib, birinchisida surilish bir necha cantimetr ga, o'rtacha surilishda bir necha metr ga, kuchli bulganda esa tog' jinslari soatiga bir necha kilometr ga suriladi. Ayni kuchli yer surilishi xalokatli bo'lib, ko'plab odamlarning o'limi kuzatiladi. Yer surilishida suriluvchi tog' jinsining massasi bir necha million, ba'zan milliard kub metr ga yetadi.

Amerika mutaxassisi F. Jensning ma'lumotiga ko'ra, AQSh da tog' jinslari surilishlari va cho'kish hodisasi natijasida 1925-1971 yillar mobayinida 75 mld. dollar zarar ko'rilgan, bu esa yiliga 1,63 mld. dollar mablag'ni yo'qotish demakdir.

Markaziy Osiyo Respublikalari xududlarida ham hozirgi kungacha ko'pdan-kup yer surilishlari kuzatilgan. Jumladan, 1911 yil 18 fevral kuni Pomirning Muzko'l tog' tizmasida 9 ballik yer silkinishi natijasida Usoy yer surilishi sodir bulgan. Bu yer silkinishi ta'sirida $2,5 \text{ km}^3$ g'ovak tog' jinsi Murg'ob daryosiga surilib tushgan. Bunda surilish 2,5 km masofani bosib o'tib daryo o'zanini to'sib qo'ygan. Yer surilishi bo'lgan joyga qalinligi 450- 500 m, uzunligi 2 km, kengligi 1 km qumtosh, ohaktosh, gips va boshqa tog' jinslaridan iborat massa surilgan. Talofat natijasida Usoy qishlog'i yer surilmasi ostida qolib, 54 kishi nobud bo'lgan. Yer surilishi natijasida daryo o'zani to'silib, balandligi 703-788 m, eni 4,3-5,3 km bo'lgan tabiiy to'g'on vujudga kelgan. Hozirgi payitda bu yerda dunyoga mashxur Sorez qo'li mavjud va yig'ilgan suv miqdori taxminan Norak suv ombori suvi xajmiga to'g'ri keladi.

1973 yili Respublikamizning, Oxangaron vodiysida kuzatilgan tog' jinslarining surilishi XX asrning eng kuchli yer surilishi xisoblanib, u adabiyotlarda "ATChI" surilishi deb nomlanadi. Bu surilishda tuproqning xajmi 700 mln. m^3 .ni tashkil etgan. Bu fojيانing ro'y berishiga asosiy sabab, Oxangaron daryosining chap qirg'og'idagi 100-130 m chukurlikdagi ko'mir qatlamlarining yer qa'rida yondirilishidir. Yondirilgan ko'mir Katlamlarining kalinligi 5-15 metr bo'lib, umumiy xajmi 3.700000 m^3 .ni tashkil etgan.

1987 yil 7 dekabrda Tojikistonning Sharora qishlog'ida ro'y bergan yer surilishi natijasida, taxminan kengligi 900 m, qalinligi 70 m. ga yaqin bo'lgan tog' jinsi xarakatga kelib, 540 dan ortik insonning yostigini kuritgan. Bu surilishning yuzaga kelishiga asosiy sabab, yer qa'rida tarqalgan g'ovak tog' jinslarining suv bilan to'yinishi, yer satxi suvlarining ko'tarilishi, hamda 7 ballik yer silkinishidir. 1991 yil Oxangaron vodiysida yana bir kuchli "Jigariston" yer surilishi ro'y berdi. Ma'lumotlarga qaraganda, bu yer surilishida xajmi 30 mln. m^3 , g'ovak tuproq 7

soniya davomida surilib, 50 dan ortiq inson xayotini olib ketdi. Bu yer surilishining asosiy sababi katta qalinlikdagi serg'ovak jinslarning mavjudligi va bu tog' jinslarining uzoq yillar davomida olib borilgan portlatish ishlari natijasida silkinib turishi xamda yog'ingarchilikning ko'p bo'lganligidadir. 1994 yil 16 aprelda Oxangaron tumanining Qoraqishloqxududida xam shunday xolat kuzatilib, bu falokatda xam insonlar aziyat chekdilar. Yuqorida keltirilgan yer surilishlari yuzaga kelishining asosiy sababi tabiiy omillar bo'lib, bunday xodisalar insonlarning muxandislik faoliyati natijasida xam sodir bo'lishi mumkin.

Yer surilishlarining oldini olish usullari

Yer surilishlarining oldini olish usullariga:

- ◆ qiya satxlarda qurilish va ular bilan bog'liq bo'lgan kavlash ishlarini olib bormaslik;
- ◆ qiya satxlarda tog' jinsi to'qilmalarining yig'ilishiga yo'l qo'ymaslik;
- ◆ temir yo'l, transport vositalari xarakat tezligini belgilangandan oshishini takidlash;
- ◆ qiya satxlardagi o'simlik dunyosini muxofaza qilish;
- ◆ qiya satxlarda sug'orish, shudgorlash ishlarini olib bormaslik kabi ishlar kiradi.

Surilish xarakati va ta'sirini bartaraf etuvchi usullarni 4 guruhga bo'lish mumkin:

1. Surilish xarakati tezligini sekinlashtirish yoki to'xtatishga qaratilgan usullar: a) suv oqimini tartibga soluvchi va boshqaruvchi qurilmalar qurish; b) daryo va suv xavzalari qirg'oq lari yuvilishining oldini oluvchi kurilmalar qurish; v) yer osti suvlari satxini pasaytirish.

2. Tog' jinsi surilishlarini ushlab turuvchi tirkak devorlarini qurish;

3. Suriluvchi tog' jinsi qatlamini olib tashlash;

4. Tog' jinslari fizk-mexanikxususiyatlarini sun'iy usulda yaxshilash. Ularning namligini oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik.

Yer surilishi ofatidan saqlanishning ishonchli omili, bu halqni o'z vaqtida ogox etish xisoblanadi. 1996-1999 yillarda O'zbekistonning bir qancha xududlarida, jumladan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va boshqa viloyatlarning tog' etaklarida yashovchi fuqarolarni yer surilishi ofati to'g'risida ogox kilinshinatijasida, odamlar boshqa joylarga ko'chirildilar va hech qanday moddiy va ma'naviy yo'qotishlar bo'lmadi. Albatta, bu ishlar o'z vaqtida, yetarli faollikda o'tkazilganligi sababli odamlar falokatdan saqlab qolindi. Ammo hozirgi kunda xam respublikamizning ba'zi viloyatlarida yer surilishi ehtimoli bor hududlar mavjud bo'lib, hukumatimiz va fuqaro muxofazasining mutasaddi xodimlari tomonidan doimiy ravishda xavfli mintaqada yashovchi fuqarolar ogoxlantirib borilmoqda.

Yer surilishi: sabablari va talafotlari. Tog' jinslari qatlamlarini qiya sath bo'ylab o'z og'irligi, gidrodinamik, gidrostatik, seysmik kuchlar ta'sirida surilishiga yer surilishi (ko'chki) deyiladi.

Yer surilishining vujudga kelish qonuniyatlarini, ularning dinamikasini o'rganish katta ahamiyatga ega. Bu – qurilish ishlarini olib borish sharoitini aniqlashda,

iqtisodiyot tarmoqlarini va inson hayotini saqlashda muhim omil hisoblanadi. Yer surilishi oqibatida iqtisodiyot katta zarar ko'radi, ba'zi yirik inshootlar, yo'llar bir necha yuz metrga surilib tashlanadi, katta-katta ekin maydonlari foydalanishga butunlay yaroqsiz bo'lib qoladi, butun-butun qishloqlar, shaharlar vayron bo'ladi, minglab kishilar boshpanasiz qoladi, halokatga uchraydi.

Yer surilishi - tog' jinsining surilish tezligi hamda suriluvchi tog' jinsini miqyos darajasiga ko'ra turli xilda bo'lishi mumkin. Jumladan, tog' jinsining surilish tezligi sekin, o'rtacha va kuchli xillari bo'lib, birinchisida surilish bir necha santimetrga, o'rtacha surilishda bir necha metrga, kuchli bo'lganda esa tog' jinslari soatiga bir necha kilometrga suriladi. Ayni kuchli yer surilishi halokatli bo'lib, ko'plab odamlarning o'limi kuzatiladi. Yer surilishida suriluvchi tog' jinsi massasi bir necha million, ba'zan milliard kub metrga yetadi.

Amerika mutaxassisi F. Jensning ma'lumotiga ko'ra, AQSHda tog' jinslari surilishlari va cho'kish hodisasi natijasida 1925-1971 yillar mobayinida 75 mld. dollar zarar ko'rilgan, bu esa yiliga 1,63 mld. dollar mablag'ni yo'qotish demakdir.

Markaziy Osiyo Respublikalari hududlarida ham hozirgi kungacha ko'p yer surilishlari kuzatilgan. Masalan, 1964 yil aprel oyida Tojikistonning Ayniy qishlog'ida bo'lgan yer surilishida Zarafshon daryosi butunlay to'silib qolgan. Faqat axolining o'z vaqtida olib borgan sayi - xarakatlari natijasida falokatli oqibatlarning oldi olingan.

Eng xavfli yer ko'chkisi 1920 yilda Xitoyning Kansu viloyatida bo'lgan. Bunda kuchli yer silkinishi oqibatida shaxar va qishloqlarni tog' jinslari bosib, 200 ming insonlarning o'limiga sabab bo'lgan. Xuddi shunday falokat 2009 yilda Indoneziyaning Summatra orolida yuz bergan. Bu falokatning yuz berishiga kuchli yer silkinishi oqibatida bhalandligi 80 m, uzunligi 400m bo'lgan tuproq jinsi xarakatga kelib, minglab odamlarning tuproq ostida qolishiga olib kelgan. Shuningdek, 1911 yil 18 fevral kuni Pomirning Muzko'l tog' tizmasida 9 balli yer silkinishi natijasida Usoy yer surilishi sodir bo'lgan. Bu yer silkinish ta'sirida 2,5 km³ g'ovak tog' jinsi Murg'ab daryosiga surilib tushgan. Bunda surilish 2,5 km masofani bosib o'tib, daryo o'zanini to'sib qo'ygan. Yer surilishi bo'lgan joyga qalinligi 450-500 m, uzunligi 2 km, kengligi 1 km qumtosh, ohaktosh, gips va boshqa tog' jinslaridan iborat massa surilgan. Talofot natijasida Usoy qishlog'i yer surilmasi oqibatida qolib, 54 kishi nobud bo'lgan. Yer surilishi natijasida daryo o'zanini to'sib, balandligi 703-788 m, eni 4,3-5,3 km bo'lgan tabiiy to'g'on vujudga kelgan. Hozirgi paytda bu yerda dunyoga mashhur Sorez ko'li mavjud va yig'ilgan suv miqdori taxminan Norak suv ombori suvi hajmiga to'g'ri keladi.

1984 yil 20 dekabrda Tojikistonning Sharora qishlog'ida ro'y bergan yer surilishi natijasida, taxminan, kengligi 400 m, uzunligi 4,5 km, qalinligi 4,8 m.ga yaqin bo'lgan tog' jinsi harakatga kelib, 540 dan ortiq insonning yostig'ini quritgan. Bu surilishning yuzagi kelishiga asosiy sabab yer qa'rida tarqalgan g'ovak tog' jinslarining suv bilan to'yinishi, yer sathi suvlarining ko'tarilishi hamda 7 balli yer silkinishidir.

Yer surilish ofati O'zbekiston hududini xam chetlab o'tmadi. O'zbekiston xududida shu kungacha 12 mingdan ortiq yer ko'chkilari, xar yili 150-200, namgarchilik yuqori bo'lgan joylarda esa mingga yaqin ko'chkilar yuz bergan. Masalan keyingi 20 yil ichida Oxangaron tumaninig konchilik sanoati rivojlangan Olmaliq, Oltintopgan, Bo'stonliq tumanining Xumson, Bog'iston, Xo'jakent, Chibortog' qishloqlarida, Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarining tog' oldi va tog'li xududlarida, shuningdek Namangan, Farg'ona viloyatlarining ayrim xudidlarida yer surilish xodisalari ro'y bermoqda. Xalokatli yer surilishlari 1907 y. Qoratog', 1930, 1943 y. Fayzabod, 1940 y. Xait, 1989 y. G'uzorda yuz berganligi adabiyotlarda keltirilgan.

1973 yili Respublikamizning, Ohangaron vodiysida kuzatilgan tog' jinslarining surilishi XX asrning eng kuchli yer surilishi hisoblanib, uni adabiyotlarda «ATCHI» surilishi deb nomlanadi. Bu surilishda tuproqning hajmi 700 mln m³ ni tashkil etadi. Bu fojining ro'y berishiga asosiy sabab, Ohangaron daryosining chap qirg'og'idagi 100-130 m chuqurlikdagi ko'mir qatlamlarini yer qa'rida yondirilishidir. Yondirilgan ko'mir qatlamlarining qalinligi 5-15 metr bo'lib, umumiy hajmi 3,700000 m³. ni tashkil etgan. 1991 yil Ohangaron vodiysida yana kuchli «Jigariston» yer surilishi ro'y berdi. Ma'lumotlarga qaraganda, bu yer surilishida hajmi 30 mln. m³ g'ovak tuproq 7 sek davomida surilib, 50 dan ortiq inson hayotini olib ketdi. Bu yer surilishining asosiy sababi katta qalinlikdagi serg'ovak jinslarning mavjudligi va bu tog' jinslarini uzoq yillar davomida olib borilgan portlatish ishlari natijasida silkitib turishi hamda yog'ingarchilikning ko'p bo'lganligidadir. 1994 yil 16 aprelda Ohangaron tumanining Qoraxittoy hududida ham kuzatilib, bu falokatda ham insonlar aziyat chekdilar.

Yer surilishlar xalq xo'jaligiga ham katta moddiy zarar keltiradi. Shuningdek, imorat, inshoot, yo'l, yerosti komunikatsiyalari, to'g'on, tunel va ko'priklar mustahkamligini susayishiga yoki butunlay buzilishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan yer surilishlari yuzaga kelishining asosiy sababi tabiiy omillar bo'lib, bunday hodisalar insonning muhandislik faoliyati natijasida ham yuzaga kelishi mumkin.

Yer surilishini yuzaga kelishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- Tog' yon bag'ri etaklarining tabiiy holatini oqar suvlar, suv omborlari ta'sirida buzilishi hamda rejasiz olib borilgan qurilish ishlari;
- Qiya sathlarda tarqalgan tog' jismlarining xossa va xususiyatlari, mustahkamlik darajasining o'zgarishi, sug'orish ishlari, qor-yomg'ir suvlari ta'sirida namlikning oshishi;
- Tog' jismlariga yer osti suvlari (gidrodinamik) va yer ustki suvlari (gidrostatik) bosimining ta'siri;
- Tog' jinsining zichligini va mustahkamligining, burg'ulash hamda tog'-kovlash ishlari natijasida buzilishi;
- Tektonik va seysmik kuchlar ta'siri. Surilishlarni yuzaga kelishida hududning iqlim hamda gidrogeologik sharoitlari va boshqalar.

Tog' jinslarining qiya sath bo'ylab surilishida iqlim sharoiti eng muhim omillaridan biri bo'lib u sekin, davomli yog'ingarchiliklar kuzatiladigan yerlarda keng tarqalgan bo'ladi. Bunga sabab yomg'ir suvlari tog' jinslari qa'riga singib (shimilib) ularning zarrachalari orasidagi bog'lanishni, ishqalanishga qarshiligini kamaytiradi, og'irligini oshiradi. Qiya sathlardagi tog' jinsining og'irligi, mustahkamligi o'zgarishi bilan ularning muvozanat holati buziladi va past tomonga surilish yuzaga keladi. Shuning uchun surilishlar asosan qorlar erib, yog'ingarchilik ko'paygan mart oylarida boshlanib, may, iyunda to'xtaydi.

Yog'ingarchilik, qorlar va muzliklarning erishi natijasida daryo va suv havzalarida suv sathining ko'tarilishi qirg'oqlarning yuvilishiga, ya'ni qiya sathlardagi muvozanat holatlarining buzilishiga sabab bo'ladi. Misol sifatida Amudaryo, Zarafshon daryosi qirg'oqlarida, Chorvoq suv ombori atrofida kuzatilgan surilmalarni sanab o'tish mumkin.

Respublikamizda surilish hodisalari asosan dengiz sathidan 800-1800 m balandlikda, lyoss jinslari tarqalgan, qiyaligi $15-35^0$ bo'lgan tog' yon bag'rilarida kuzatiladi. Ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lgan hollarda (ketma-ket yer silkinishi, gilli va bo'shoq lyoss tog' jinslari suv bilan to'yinishi) bundan ham baland sathlarda kuzatilishi mumkin.

Yer surilishida 3 ta bosqich kuzatiladi:

1-bosqich. Surilishning tayyorlanish bosqichi. Bu bosqichda qiya sathlardagi tog' jinsi turg'unligi susayadi, yer sathida turli kenglikdagi yoriqlar paydo bo'ladi.

2-bosqich. Tog' jinslarining katta tezlik bilan yoki sekin-asta surilishi kuzatiladi. Surilish tezligi yuqorida qayd etilgan omillarning ta'sir darajasiga bog'liq bo'ladi.

3-bosqich. Surilishning so'nish bosqichi. Bunda tog' jinslari surilishdan to'xtaydi.

Yer surilishlarni chuqur o'rganish - ularni oldidan bashorat qilish imkonini beradi. Buning uchun kompleks muhandis-geologik qidiruv ishlari o'tkaziladi. Surilishi kuzatiladigan maydonlarning tabiiy sharoiti va geologik muhiti fizik andozalarida o'rganiladi, hisoblash ishlari bajariladi.

Yer surilishi ofati oldidan kuzatiladigan belgilar quyidagilardan iborat:

Yer yuzasida yoriqlarni paydo bo'lishi, yo'llarda uzilishlarning yuzaga kelishi, daraxtlarning to'g'ri o'smasligi (qiyshayib o'sishi), uylarning devorlari yorilishi, binolar, inshootlar tuzilishida muvozanatining buzilishi va boshqa belgilar paydo bo'ladi.

Mabodo, hududlarda yer surilishi xavfi bo'lsa yoki harakatdagi surilish kuzatilsa, ularni bartaraf qilish, oldini olish ishlari bajariladi, chora-tadbirlar belgilanadi.

Yer surilishini vujudga kelishi va harakatdagi surilishlarga qarshi olib boriladigan ishlar mazmuniga qarab ikki guruhga bo'linadi:

- Surilishlarning oldini olish usullari;
- Yer surilishni harakati va ta'sirini bartaraf etish usullari.

13-mavzu:Texnogoen tusdagi favqulotdagi vaziyatlarda fuqorolarni muxofazalash.

Suv toshkini

Suv toshqini ham tabiiy ofatlar ichida eng xavflisi xisoblanadi.Suv toshqini deb daryo, ko'l, hovuzlardagi suv satxining keskin ko'tarilishi natijasida ma'lum maydonlardagi yerlarni suv tagida qolishiga aytiladi.

Suv toshqini va uning talafotlari .

Keyingi vaqtlarda respublikamiz hududining ko'pchilik qismida gidrometerologik holatning keskin o'zgarishi tufayli, aholining hayot faoliyatini, tabiatini, moddiy resurslar sifatini izdan chiqaruvchi favqulodda vaziyatlar (seller, suv toshqinlari, qor ko'chkilari, kuchli shamollar, qurg'oqchilik va h.k.) kuzatilmoqda.

Bunday holatlarning yuzaga kelishiga biologik va meterologik o'zgarishlarni hisobga olmaslik, yangi yerlarni o'zlashtirishda qo'yilgan xatoliklar, sug'orish tizmida zamonaviy texnologik usullarni joriy etilmaganligi sabab bo'lmoqda.

1998 yilda Favqulodda vaziyatlar vazirligi ma'lumotiga ko'ra respublikamiz hududida 600 ga yaqin ko'chki, sel va suv toshqinlari bo'lgan bo'lsa, ularning zararli oqibatlari natijasida 16 ming aholi jabrlanib, ko'rilgan moddiy zarar esa 100 mln. so'mdan ortiqni tashkil etgan. Mutaxassislar xulosasiga ko'ra respublikamiz hududida 238 ta xavfli ko'llar, 46 ming kv. km hududlar suv va sel toshqinlari ro'y beradigan xavfli joylar, 1000 ga yaqin xavf sodir bo'lishiga olib keluvchi daryo va soylar mavjudligi aniqlangan.

Suv toshqini ham tabiiy ofatlar ichida eng xavflisi hisoblanadi. Suv toshqini deb daryo, ko'l, hovuzlardagi suv sathining keskin ko'tarilishi natijasida ma'lum maydonlardagi yerlarni suv tagida qolishiga aytiladi.

Suv toshqiniga turli omillar sababchi bo'ladi:

- Kuchli yomg'ir yog'ish oqibatida (jala, sel quyishi);
- Qorlarni surunkali erishi natijasida;
- Kuchli shamol esishi natijasida;
- Oqar daryolardagi muzliklarni yig'ilib, sun'iy to'g'on hosil qilishi;
- Tog' jinslarining nurashi, surilishi yoki boshqa sabablar bilan suv saqlash omborlarining buzilishi oqibatida.

Kuchli yomg'ir yog'ishi natijasida suvlarning sathi keskin ko'tarilib, daryo, ko'llarga sig'maydi va natijada ekin maydonlarni, turar-joylarni, yo'llarni suv bosadi va ularni izdan chiqaradi. Bulardan tashqari, elektr energiya, aloqa uzatgichlar, meliorativ tizimlar ishdan chiqadi, chorva mollari, qishloq xo'jalik ekinlari yo'q bo'lib ketadi, xom ashyolar, yoqilg'i, oziq-ovqatlar, mineral o'g'itlar va boshqalar yaroqsiz holga keladi yoki yo'q bo'lib ketadi. Shular natijasida juda katta moddiy zarar ko'rilib, insonlar o'limi bo'lishi mumkin.

Suv toshqini ofati turli joylarida, jumladan, O'zbekistonda ham tez-tez bo'lib turadi. Masalan, 1991-95 yillarda ko'pgina viloyatlarida Xorazm, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo va boshqa joylarda juda katta ekin maydonlari suv ostida qolib, oqibatda katta miqdorda moddiy zarar ko'rildi. Jumladan, 750 ming ga. paxta, 28 ming ga. poliz, 20 ming gektar mevazorlar, shuningdek 21 ming turar joy

binolari, 100 dan ortiq bolalar bog'chalari va maktablar, 250 km avtomobil yo'llari, 113 ta ko'priklar va 200 km dan ortiq sug'orish inshootlari yaroqsiz xolatga keldi. 2009 yil oktyabr oyida Fillipinda yomg'irning surunkali yog'ishi kuchli suv toshqinlarini yuzaga keltirib xududlarni, yashash va ish joylarini, ko'priklarni va yo'llarni vayronaga aylantirdi. Bu xam yetmaganday namgarchilikning xaddan tashqari yuqori bo'lishi oqibatida tog' oldi joylarida ko'chkilar yuz berdi. Bu ofatdan 2,5 mln odamlar zarar ko'rib, xavfli xududlardan 30 ming axoli xavfsiz xududlarga evakuatsiya qilindi va ko'rilgan moddiy zarar miqyosi bir necha 10 mln AQSH dollirini tashkil qildi. Shuningdek 2009 yilda Turkiyaning 15 mln aholisi bo'lgan Istambul shaxrida tinimsiz yoqqan yomg'ir, 2m balandlikdagi suv toshqinini yuzaga keltirib, minglab uylarni, yo'llarni vayronaga aylantirdi.

Daryolardagi suvning oqimiga teskari yo'nalishda esadigan kuchli shamol ham uni sathini ko'tarib yuboradi va natijada suv toshqini yuz beradi. Bu xildagi toshqin Sankt-Peterburgdagi Neva daryosida kuzatilgan. 1997 yil noyabrda Vyetnamda ham juda kuchli shamol oqibatida suv toshqini bo'lib, katta miqyosdagi uy joylar, moddiy resurslar suv tagida qolib, ko'plab odamlar halok bo'lishgan.

Oqar daryolarda suvlarning sathida muzliklar hosil bo'lishi va bu muzliklar yig'ilib suvning oqimiga qarshi to'siqlar (to'g'on) hosil qilishi natijasida ham suv toshqini ro'y beradi. Bu xildagi toshqin 1992 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida Amudaryo oqib o'tadigan uchta hududda kuzatilgan. Bu ofatning oldini olish uchun hamma choralar bajarila bordi va oxir-oqibatda harbiy samolyotlar yordamida to'siq bo'lib turgan muz to'g'onlari portlatish yo'li bilan yo'q qilindi. Bu ofat natijasida Bo'zatov tumanining ko'pgina yerlari vayronaga aylanib, elektr tokini o'tkazuvchi manbalar, texnikalar ishdan chiqdi. Aspartoy, Porlitov, Qiziljar va Aliovul punktlariga olib boruvchi yo'llarni suv bosishi oqibatida aloqadan uzilib qoldi. Ofat oqibatlarini bartaraf qilishda 3200 dan ortiq aholi, 3026 bosh qora mollar xavfsiz joylarga ko'chirildi va Porlitov, Qiziljar va Aliovullarga boradigan 26 km yo'llar ta'minlandi. Bu ofatdan ko'rilgan moddiy zarar yuz million so'mni tashkil qilgan. Bunday holatlardagi suv toshqinlari dunyo miqyosida juda tez-tez bo'lib turadi.

Suv toshqini kanallar va suv saqlaydigan omborlarning turli sabablarga ko'ra ishdan chiqishi oqibatida ham kuzatilishi mumkin. Umuman kanallar, suv omborxonalari - suv energiyasi, suv yo'llari hamda suvning o'zidan foydalanish maqsadida quriladi. Hozirgi kunda MDH davlatlarida suv sig'imi 1 mln. m³ dan ortiq bo'lgan suv omborlari 1 mingga yaqin bo'lib, ularning suv sathi 116000 km² ga teng. Xuddi shunga o'xshash O'zbekistonda ham 54 ta suv saqlaydigan omborxonalar qurilgan, ulardan 10 tasi qo'shni Respublikalari chegarasida joylashgan. Jumladan, Qayroqqum, Rogun, (Tojikiston), Tuyamo'yin (Turkmaniston), Taxtagul (Qirg'iziston), Chordarya (Qozoqiston) va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Respublikamizga tegishli bo'lgan suv omborxonalarida 55,5 mlrd. m³ dan ortiq suv saqlanib, ular orqali asosan qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlab, katta iqtisodiy samara olinadi. Lekin shu bilan birga bunday gidrotexnik inshootlar biror sabablarga ko'ra buzilsa, saqlanayotgan suvning ta'siri insonlarga, uy hayvonlariga, atrof-muhitga juda katta jiddiy zarar keltiradi.

Shunga o'xshash katta hajmdagi suv Tuyamo'yin suv omborida 5 km³dan ortiq, Qayroqqum suv omborida esa 4 km³dan ortiq suv saqlanib, mabodo biror sababga ko'ra ombor qismlari talofot ko'rsa, Jizzax, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarini suv bosadi. Agar Taxtagul suv ombori talofot ko'rsa (unda 19 km³ suv saqlanadi) butun Farg'ona vodiysi viloyatlarini suv bosishi ehtimoli bor. Boshqa suv saqlash omborxonalari uchun ham shunga o'xshash fikrlarni aytish mumkin. Shuning uchun suv saqlaydigan omborxonalarni har xil falokatlardan asrash uchun hamma turdagi omillar, ehtiyot choralari ko'rib qo'yilgan bo'lishi zarur. Jumladan, birlamchi va ikkilamchi saqlovchi platina qurish, har bir platinalar temir betonli qorishmalardan tayyorlanishi va boshqa saqlovchi omillar belgilanishi zarur.

Afsuski, bunday chora-tadbirlar to'liq, mukammal tarzda belgilanishiga har doim ham jiddiy e'tibor berilmaydi. Hozirda, Tojikiston xududida bahaybat Rog'un GES qurilishini davom ettirish to'g'risidagi 2009 yilda qabul qilingan hukumat qarori Markaziy Osiyo davlatlarini tashvishga solmoqda. Ma'lumki, ushbu GES qurilishi XX asrning 80-yillarida boshlanib, keyinchalik muayyan sabablarga ko'ra to'xtab qolgan edi. Chunki o'sha davrda ushbu gidroinshoot loyihasi to'laqonli ekspertizadan o'tkazilmagan bo'lgan, oradan shuncha vaqt o'tgandan so'ng, zamonaviy loyiha va konstruktorlik andozalari talablariga mos bo'lmagan eski loyiha asosida ish boshlangani, albatta tashvishli holat. Zero, ushbu GES qurilishi uchun tanlangan xudud 9-10 ballik seysmik aktivlikka egaligi va tektonik yoriq chiziqda joylashganligi nazarda tutilsa, baladligi 350 m dan iborat to'g'onda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan texnogen buzilish qanday halokatli oqibatlariga olib kelishini tasavvur qilish qiyin emas. Undan tashqari, ushbu gidroinshoot qurilishi natijasida butun Markaziy Osiyo mintaqasi xududlarida katta ekologik o'zgarishlar ro'y berishi hamda suv taqsimotidagi buzilishlar ko'lami ortishi, tabiiy.

2010 yil BMT Sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida Mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek: "Ko'plab xalqaro ekologiya tashkilotlari va nufuzli ekspertlar tavsiya qilayotganidek, ushbu daryolardan shu miqdordagi energetika quvvatlarini olish uchun nisbatan xavfsiz, ammo ancha tejamkor GES lar qurilishiga o'tish oqilona yo'l bo'lur edi".

Suv toshqini xavfida quyidagi vazifalar bajarilishi talab etiladi: suv toshqini xavfi haqida aholini ogoh etish; razvedka va kuzatuv ishlarini olib borish; FVDT kuch va vositalarini jalb etish; qutqaruv va tiklov ishlarini olib borish; kerak bo'lganda aholini va moddiy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish; suv toshqini bo'lgan xudulardagi korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonini qisman yoki butunlay to'xtatish; suv bosgan hududlarda qutqaruv tizimlari va boshqa tizimlar kerakli texnika va suzuvchi vositalar yordamida odamlarni qutqarish va evakuatsiya qilish ishlarini olib boradi. Qutqaruv ishlarida ishtirok etuvchilar odamlarni suvdan qutqarish bo'yicha tajribaga, hamda qutqarilganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tajribalariga ega bo'lishi lozim.

Sel, uning xususiyatlari va talafotlari.

Tog' hududlarida kuchli yomg'irlarning yog'ishi, muzlik va qorlarning tez erishi natijasida hosil bo'lgan daryo toshqinlarini, tog' yon-bag'irlarida nuragan tog' jinsi bo'laklarini suv oqimi bilan tekislikka tomon oqizib tushirilishi sel hodisasi deb yuritiladi. Sel oqimi massasining taxminan 50-60 foizi turli kattalikdagi tog' jinsi bo'laklaridan, o'simlik va daraxt bo'laklaridan iborat bo'ladi. Sel oqimining davomiyligi ko'pincha, 0,5-2 soatdan 12 soatgacha, tezligi 5-8 m/s dan 12 m/s gacha etishi mumkin, sel massasining zichligi esa 1,2-1,9 t/m³ ni tashkil etadi.

Sel oqimlarining tezligini 3 guruxga bo'lish mumkin: juda tez (100ming.m³ dan ko'p sel massasining xarakati, 6-10 yilda bir marta), o'rtacha (10dan 100ming * m³, 2-3 yilda bir marta) va kuchsiz (10 ming *m³ dan kam).

Bunday fizik ko'rsatkichlarga ega oqim juda katta kuch bo'lib, xalq xo'jaligiga sezilarli zarar keltiradi, oqim yo'lida uchragan suv inshootlarini, yo'llarni, qishloq va shaharlarni, bog'larni, ko'priklarni vayron qilib ketadi, ulkan maydonlarni loy, qum, tosh qatlamlari bilan ko'mib tashlaydi.

Sel - arabcha so'z bo'lib, tog'lik hududlardagi suv toshqini ma'nosini anglatadi.

Sel oqimlari o'zi bilan olib keladigan qattiq zarrachalarning o'lchamiga qarab uch guruhga bo'linadi:

- suv-toshli sellar;
- loyqa sellar;
- aralash sellar.

Yer yuzasida yuz bergan ofatli sellarga misol qilib, 1934 yilining yangi yil kechasi AQSHning Los-Anjeles shahri atrofida kuzatilgan sel oqimini ko'rsatish mumkin. Shu kuni shaharga yaqin Kordelyera tog'ida kuchli yomg'ir yog'ib, uning miqdori 538 mm.ni tashkil etgan. Yomg'ir tinishidan sal oldinroq tog'dan katta tezlikda suv toshqini pastga harakat qilgan. Bu suv toshqini 100 m masofagacha yoyilib unga yaqin bo'lgan ikki shahar - Lya Kreket va Montero shaharlariga katta talafot yetkazgan. Suv oqimi to'lqinining balandligi 6 m.gacha yetgach, o'z yo'lida 500 ta ko'prikn, bir qancha imoratlar va inshootlarni vayron qilgan, qanchadan-qancha odamlarni boshpanasiz qoldirgan.

Markaziy Osiyoda eng kuchli sel oqimlari Qozog'iston Respublikasining Olma-Ota shahridan o'tuvchi, shahar nomi bilan ataluvchi daryo vodiysida kuzatilgan. Masalan, 1921 yil 8 iyun kuni kechqurun yuz bergan sel oqimi natijasida shaharga olib kelingan tog' jinslari 100 mingta vagonga jo bo'lgan. Bu ofat natijasida 400 dan ortiq kishi halok bo'ldi. Sel oqimining vujudga kelishiga tog'lik hududlardagi qorlar va muzliklarning erishi, kuchli yomg'ir yog'ganligi sabab bo'lgan.

Olma-Ota shahri va uning atrofida juda ko'p talofotli sel oqimlari kuzatilgan. Ulardan yana biri Medeo sel to'g'oni qurilgandan keyin, 1973 yil 15 iyul kuni ro'y bergan. Shu kuni kuchli yomg'ir ta'sirida baland tog'likdagi tabiiy ko'l to'g'onlarining buzilishi natijasida kuchli sel oqimi hosil bo'lgan. Bu oqim taxminan 2 soat davom etib, uning sarfi 2000-3000 m³/s.ga etgan va Medeo to'g'oniga 400000000 m³ sel massasi olib kelib tashlangan. Ertasi kuni sel qayta takrorlanganda Medeo seli to'g'ondan oshib ketishiga atigi 6 m masofa qolgandi. Agar sel

to'g'ondan oshib harakatlansa, Olma-Ota shahriga juda katta xavf tug'dirishi mumkin edi. Shuning uchun buni oldini olish maqsadida to'g'ondagi suv asta sekin chiqarib yuborilib, to'g'onning balandligi 150 m gacha ko'tarilgan. 1988 yil 29 yanvarda Kos- Uzen qishlog'ida (Qozog'iston) 80 m balandlikdan xajmmi 200 mln m³ bo'lgan qum,tosh va loy aralash sel oqimlari xarakatga kelib, 115 m uzunlikdagi temir beton ko'prikn, ko'plab insonlarning yashash uylarini buzib insonlarning o'limiga sabab bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Qashqadaryo, Surxandaryo va Farg'ona vodiysi viloyatlarining tog'lik xududlari sel ofati bo'ladigan zonalar hisoblanadi.

Oxirgi 100 yil ichida O'zbekiston Respublikasi hududida 2500 dan ortiq sel oqimlari kuzatilgan. Bulardan 1400 dan ortig'i loyqa, 350 dan ortig'i suv-toshlik, 650 dan ortig'i aralash sellardir. Respublikamizning Farg'ona vodiysida, Toshkent oldi hududlarida sel oqimlari tez-tez kuzatilib turiladi. Sel oqimlari Respublikamiz hududida bahor mavsumida va yozning birinchi oyida yuz beradi. Bunga sabab hududimiz joylashgan mintaqaning tabiiy sharoiti bo'lib, bahor oylaridagi kuchli jala, yomg'irlar, haroratning issiq kelishi, tog'larda muzlik va qorlarning tez erishi, daryo o'zani qiyaligining 3-5⁰ dan kattaligi, suv yig'ish maydonida zarrachalari bog'lanmagan bo'shoq tog' jinslarining mavjudligi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda Farg'ona viloyatining Shohimardon qishlog'ida 1998 yil yozda bo'lgan sel falokati to'g'risidagi ma'lumotni keltirsak. Havoning birdan issib ketishi natijasida Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyati tog'laridagi qorlarni erishi tezlashib, buning oqibatida 1998 yilning 7 iyulidan 8 iyulga o'tar kechasi katta suv oqimi paydo bo'lgan. Bu oqim Shohimardon soyga qo'shilib, uning suv sig'imini 200 m³/s ga ko'paytirib yuborgan va kuchli oqim natijasida 52 ta xo'jalik, 36 ta dam olish maskanlari zarar ko'rgan. 8-9 iyul kunlari odamlarni Shoximardon qishlog'idan ko'chish ishlari boshlangan. Bu ofat oqibatida 104 ta odam jasadlari, 68 ta har-xil hayvonlarning tanalari topilgan. Kuchli sel oqimi natijasida 15 km gaz o'tkazish, 14 km avto yo'l, 4 ta yirik avtomobil ko'prigi, 3 km suv o'tkazish tizimlari, 3 km elektr uzatish tarmoqlari yaroqsiz holatga kelgan, 200 dan ortiq savdo shaxobchalari butunlay vayron bo'lgan. Bu tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishga 2000 ga yaqin fuqarolar, 438 ta texnikalar jalb qilingan.

2002 yilning iyul oyida xuddi shu yerda Vodil qishlog'ida sel ofati ro'y berdi. Ofat o'chog'i Qirg'izistonning Qadamjoy tumanidan boshlangan kuchli jala yomg'iri oqibatida Shohimardonsoy daryosidagi suv sathi keskin ko'tarilib, Vodil qishlog'iga katta sel oqimi yopirilib keldi. Bu ofat Vodio qishlog'i hududlaridagi uylarga, yo'llarga, ekinzorlarga, kommunikatsiya tizimlariga katta zarar yetkazgan.

Sel oqimlarining oldini olish, ularga qarshi kurashish, sel bo'lishi mumkin bo'lgan maydonlarni aniqlash, ularni vujudga kelish sabablarini chuqur o'rganish, atrof-muhitni muhofaza qilishning asosini tashkil etib katta xalq xo'jalik ahamiyatiga ega. Shuning uchun sel hodisasini bartaraf qilish maqsadida olib boriladigan ishlar ilmiy, amaliy xulosalarga, chora-tadbirlarga asoslangan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Bular quyidagilardan iborat:

1. Sel bo'lishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarida doimiy kuzatish ishlarini olib borish. Bunda suv yig'ish maydonida bo'shoq tog' jinslari yig'ilishining oldini olish, oqar suvlar oqimiga to'sqinlik qiluvchi tabiiy va sun'iy to'siqlardan tozalash ishlari;

2. Sel oqimi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarini muhofaza qilish, ya'ni bu maydonlarda o'simlik dunyosini saqlash, daraxtlar va butalarni kesish, maydonlarda shudgorlash va sug'orish ishlarini olib borishni chegaralash;

3. O'rmon xo'jaliklarini rivojlantirish, ya'ni tog' yon-bag'rilarda butalar va daraxtlarning ekilishini yo'lga qo'yish talab etiladi, chunki bu o'simliklar tog' jinslari qatlamlarini mustahkam ushlab turadi, qor erishini sekinlashtiradi, yer yuzasini yuvilishdan saqlaydi;

4. Tog'li hududlardagi daryolarning o'zanida suv oqimini boshqaruvchi inshootlar qurish, tabiiy, sun'iy to'g'onlarni tartibga solish, temir yo'l, avtomobil yo'llari ostiga sel o'tkazuvchi katta diametrli quvurlar yotqizish ishlarini tashkil etish.

Sel oqimiga qarshi kurashish uslubini tanlash maqsadida maxsus muhandis-geologik qidiruv ishlari olib boriladi. Olingan natijalardan (har tomonlama tahlil qilish asosida) o'rganilayotgan hudud uchun xarita tuziladi.

Bu xaritada:

- sel kuzatiladigan;
- sel kuzatilishi mumkin bo'lgan;
- sel kuzatilmaydigan maydonlar ajratiladi.

Sel kuzatiladigan va kuzatilishi mumkin bo'lgan joylarning iqlim sharoitiga, geologik o'zgarishlarga, vujudga kelishi mumkin bo'lgan sel oqimi kuchiga qarab kurashish usullari tanlanadi, tadbir choralari belgilanadi.

Tog'lik hududlarda shaxsiy imoratlarni qurish ishlari sel xavfi xaritasi bilan tanishgan holda, maxsus tashkilotlar ruxsati asosida olib borilishi kerak.

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, yuqorida aytilgan hamma ofat turlari O'zbekistonga xos xarakterlidir. Shuning uchun shu o'lkada yashovchi har bir fuqaro yuqoridagi aytilgan tabiiy ofatlardan qo'rqmasdan, esankiramasdan, yuqori tashkilotlar, fuqarolar muhofazasi organlari tomonidan beriladigan har bir ko'rsatma, yo'riqnomalarga qat'iy rioya etib, harakat qilish zarur. Bunda hech qanday o'zboshimchalik, odamlarni bezovtalantirish, xavfsirash, faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan harakatlarni qilish ta'qiqlanadi. Qayerda yuqori intizom, chuqur ishlangan omillar bo'lsagina, o'sha yerda ofat oqibatlari tugatilib, hayot tezda o'z iziga tushib ketadi.

16-mavzu. Gidrotexnik inshootlardagi favqulotdagi vaziyatlar

R E J A:

1. Gidrotexnik inshootlarning konstruktiv xususiyatlari.
2. Gidrotexnik inshootlarda yuzaga keladigan FVlar.
3. To'g'on konstruksiyalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan FVlar.

Gidrotexnik inshootlarning konstruktiv xususiyatlari

Ma'ulomotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, suv bilan bog'liq bo'lgan ofat suv oqimlari boshqarilmagan daryo o'zanlarida sodir bo'ladi. Suv omborlari yemirilgan yoki kanallarning qirg'oqlari yemirilganda ham sodir bo'ladi. Shuning uchun suv omborlari ko'p bo'lgan joylarda (O'zbekistonda 53 ta suv ombori mavjud) ham sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan Chorvoq, To'xtagul, Qayroqqum, Karkidon, Ragun,

Nurek suv omborlari xavf tug'diruvchi ob'ektlar hisoblanadi. Ayniqsa harbiy vaziyat og'irlashgan vaqtda. Shu boisdan Chorvoq suv omborlarining Chirchiq va Toshkent shaharlariga xavfli ekanligini zinhor unutmaslik kerak.

O'zbekiston respublikasining umumiy maydoni 58 ming km² va aholisi 8 mln. bo'lgan 31 ta hududda falokatli toshqin xavfi mavjud. Shundan 21 ta suv omborlari O'zbekiston respublikasi hududida va 10 tasi qo'shni respublikalarda joylashgan. Bu hududlarga 1100 km temir yo'l, 1680 km avtomobil yo'llari, 44 ta yirik shahar va 580 ta sanoat korxonalari to'g'ri keladi.

Gidrotexnik inshoot (GTI) lar bilan bog'liq halokatlar va falokatlarni sodir bo'lishini oldindan taxminlash va unga baho berishda hamma GTI va ehtimoli bo'lgan suv bosish zonalarini xaritalarga (rejalarga, sxemalarga) tushirilib, tegishli shikastlovchi omillar va ko'rsatkichlar ko'rsatiladi va parametrlari halokatli suv bosishning shikastlovchi omillari omborining o'lchamlariga, to'g'onning balandligiga, urib ketgan to'lqinning tezligi (3-100 km/soat gacha) va balandligiga (2-20 m gacha), er yuzasi qandayligiga (suv bosish zonasining chegaralarini belgilaydi) va boshqa sharoitlarga bog'liq. Suv bosish zonasi – hududning GTIga tutash va suv tagida qolishi mumkin bo'lgan qismidir.

GTIlarda sodir etiladigan FVlar tufayli quyidagi salbiy vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin:

- suv, yer yuzasini turli zararli moddalar bilan ifloslanganligi;
- odamlar va hayvonlarning ommaviy kasallanganligi;
- transport va elektromagistral tizimlardagi avariya;lar;
- ko'chkilar va o'pirilishlar;
- imorat va inshootlarning chidamliligini yo'qolganligi;
- atrof-muhitdagi ekologik buzilishlar ham hisobga olinadi.

GTIlarda sodir etiladigan FVlar ko'lamini oldindan taxminlashda quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olish zarur bo'ladi:

- aholi doirasidagi talofatga (halok bo'lganlar, bedarak yo'qolganlar, shikastlanganlar, boshpanasiz qolganlar va h.k.) qolganligi hisoblab baho beriladi;
- moddiy zararining (buzilgan, shikastlangan ishdan chiqqan ob'ekt va inshootlar) xajmi va uning miqdori hisoblab chiqiladi.

GTIlarda FVlar sodir etilgan taqdirda quyidagi bevosita va bilvosita zararlar ko'lamini yuzaga kelishi mumkinligi hisobga olinadi va ularga quyidagilar kiradi:

1. Bevosita zararlar:

- GTI imoratlar, avtomobillar, temir yo'llar, elektr uzatish, aloqa simlari, energotizimlar va boshqa ob'ektlar;
- chorva mollari, ekinzorlar, ekinlar hosili, yer suv va boshqalarni nobud bo'lishi;
- xom - ashyo, yoqilg'i, oziq-ovqat mahsulotlari, chorva ozuqalari, o'g'itlar va h.k.larning yaroqsiz holatga kelishi;
- aholini xavfsiz joylarga vaqtincha evakuatsiya qilish xarajatlari;
- yer hosildor qatlamining yuvilib ketishi va tuproq ustiga balchiq cho'kib qolishi.

2. Bilvosita zararlar:

- ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, dori-darmon, qurilish materiallari, texnika, chorva-ozuqalari va aholiga yordam ko'rsatish va moddiy zararlarni qoplash xarajatlari;
- sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlashning kamayishi hamda iqtisodiyotning rivojlanish sur'atining pasayishi;
- maxalliy aholining yashash sharoitining yomonlashuvi;
- suv bosgan hududlardagi moddiy boyliklardan ratsional foydalanishning iloji yo'qligi va h.k.lar.

GTIdan foydalanuvchi tashkilotlar zimmasiga ularning xavfsizligini ta'minlash maqsadida ob'ektni loyihalash, qurish, ishlatish davomida xavfsizligini pasayish sabablarini tahlil etish, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariyaning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va bajarish, shuningdek unday masalalar bo'yicha FV organi bilan hamkorlik qilishi zarurligi yuklatilgan.

Respublikamizda gidrotexnik xavfli ob'ektlar(GXO) juda ko'p bo'lib, ular aholi va hududlar uchun xavf-xatar manbai hisoblanadi.

GXO - bu suv oqimi bo'ylab o'zidan oldingi va o'zidan keyingi suv sathlarida farq paydo qiluvchi inshoot yoki tabiiy to'g'onlar kiradi.

GXOning asosiy elementlari.

To'g'onlar: sun'iy(GESlar, suv tortgichlar, irrigatsion tizimlar va boshqa tizim to'g'onlari) va tabiiy ofatlar tufayli yuzaga keladiganlari: ko'chkilar, sellar, o'pirilishlar, zilzilalar natijasida paydo bo'ladi bo'lishi mumkin.

GTIlarning turlari:

1. Foydalanish xarakteri va maqsadiga ko'ra:

- suv-energetika inshootlari;
- suv ta'minoti inshootlari;
- sug'orish inshootlari;
- oqava chiqindi suvlar chiqarish inshootlari;
- baliq xo'jaligi inshootlari;

- sport inshootlari.

2. Funktsional vazifasiga ko'ra:

GES va boshqa GTIning suv bug'ish inshootlari (to'g'onlar, ko'tarmalar); suv oqish (suv o'tkazish) inshootlari: kanallar, tunnellar; taribvaar, suv tashlamalar, osma quvurlar, shlyuzlar va ?okazo; tashlandiq suv inshootlari (ortiqcha suvni chiqarish uchun): o'zan inshootlari, qirg'oq inshootlar, yuza inshootlar, chuqur inshootlar va hokazo; tartiblash(to'g'rilash) inshootlari - suv oqib ketishi sharoitini hamda daryolar o'zani va qirg'oqlarini muhofza qilish sharoitini yaxshilash uchun: ko'tarmalar, navlar, qirg'oq mahkamlagichlar va h.k. baliq xo'jaligi inshootlari – baliq o'tkazish va baliq boqish uchun..

Markaziy Osiyoda quyidagi GTIlar mavjud: Qayroqum, Chordara, Toxtagul, Andijon, Tolimarjon, Nurek, Ragon, Karkidon.

O'zbekiston respublikasi hududida hozirgi paytda 18,9 mlrd 700 mln. m³ suv sig'dira oladigan 53 ta suv omborlari, 150 tadan ortiq suv to'g'onlari, 28122 km uzunlikdagi magistarl kanallar mavjud.

Gidrotexnik inshootlarda yuzaga keladigan FVlar

Texnogen favqulodda vaziyatlar quyidagi ob'ektlarda ro'y berishi mumkin:

1. Hidrotexnik ob'ektlarda (GES va GTI ni suv bo'g'ish inshootlari):

to'g'on, ko'tarma;

kanallar, tunellar, suv tashlamalar; osma quvurlar, shlyuzlar va boshqalar;

tashlandiq suv inshootlari, o'zan, qirg'oq inshootlari;

yong'in chiqishi xavfi bo'lgan ob'ektlar: davlat tashkilotlari, fuqarolarning yashash joylari;

2. Transport, havo, temiryo'l, avtotransport, energetika (GES, TETs), va kommunal (gaz tarmoqlari, suv saqlagichlar, suv tarmoqlari, kanalizatsiyalar va gaz tozalash, biologik tozalash va boshqalar) tizimlar. Kommunal xo'jalik vazirligi inshootlari (suvni tozalash) va boshqalar);

3. Kimyoviy va radiatsion xavfli ob'ektlar («o'zbekkimyosanoat» uyushmasiga qarashli korxonalar, Toshkent lak-buyoq, to'qimachilik korxonasi va boshqalar).

4. Hidrodinamik avariylar: urib ketish to'liqini va katta suv bosishiga olib keluvchi to'g'onlarni buzilishi; urib ketuvchi suv toshqinini hosil bo'lishiga olib keluvchi to'g'onlarni buzilishi; katta hududlardagi hosildor tuproqni yuvib ketilishiga olib keluvchi to'g'onlarni buzilishi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi kimyo, gidrotexnik, energetika, transport va kommunal tizimlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan texnogen tusdagi favqulodda vazitlarni sabablari, turlari va halokatini oqibatlar haqida to'la tasavvurga ega bo'lish muhim hisoblanadi.

Gidrotexnik inshootdagi FV gidrotexnika inshootning tuzilishi (avariyasi) natijasida vujudga keladi. Bunda suv bosishi, odamlarni qurbon bo'lishi, sanoat va

qishloq xo'jaligi ob'ektlarini ishdan chiqishi, suv bosgan zonadagi aholini hayotiy faoliyatini buzilishi ro'y beradi.

GTIlaridagi avaritalar quyidagi sabablarga binoan sodir etilishi mumkin:

tabiiy ofatlar yufayli(zilzila, ko'chki, yuvib ketish, jala va boshqalar);

uskunalarni tabiiy emirilishi va eskirishi;

loyihalash va qurishdagi xatolar;

ishlatish qoidalarini buzilishi;

portlashlar (urush o'choqlari, terroristik harakatlari va boshqalar).

GTIlarda uchraydigan falokatlarning o'ziga hos bo'lgan xususiyatlari:

to'g'on buzilgandagi toshqin - suvning bir qismini to'g'ondan o'tib ketishi;

suv bosishi - hududni asta-sekin suv ostida qolishi;

halokatli suv bosishi - to'g'on buzilib, uni urib ketgan suv hududni shiddat bilan tez qoplab ketishi va toshqin sodir bo'lishi.

GTIardagi FVlarning falokatli oqibatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- GTIning shikastlanishi natijasida vaqtincha yoki uzoq vaqt o'z vazifasini bajarmasligi;
- urib ketgan to'lqin aholiga moddiy zarar yetkazishi va turli ob'ektlarni buzib yuborishi;
- hududni suv bosib, mol-mulkka, yer, hosil, ekin, inshoot va boshqa infratuzilmalarga moddiy zarar yetkazadi.

Gidrotexnik inshootlardagi halokatlar tabiiy hodisa(zilzila, bo'ron, ko'chki)lar, konstruksiyasidagi kamchiliklar, foydalanish texnologiyagalariga rioya qilmaslik, yog'irng'archiliknig ko'payishi, to'g'on konstruksiyasidagi yemirilish, o'z vaqtida ortiqcha suvni chiqarib yubormaslik, urush vaqtidagi vayron keltiruvchi qurollarning qo'llanilishi tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Gidrotexnik inshootlardagi halokatlar hisobiga to'g'onning quyi oqimida joylashgan barcha hududlarni suv bosadi. Shuning uchun ham xavfli hudud deb belgilangan yerlarga uy-joy va ishlab chiqarish ob'ektlarining qurilishi man etiladi.

Gidrotexnik inshootlardagi halokat hisobiga suv oqimining daryo o'zani bo'ylab tezligi, balanligi, kengligi va boshqa ko'rsatkichlari o'zgaradi hamda uning yuksalish va pasayish davrlari hosil qilinadi. Oqimning oldingi qismi – yorib o'tuvchi front deyiladi. Frontdan so'ng suv xajmining ortib borishi va sathining ko'talishi kuzatiladi hisobiga katta hududlarni suv bosadi.

Yoruvchi frontning vayron keltirishiga – o'ta katta xajmdagi suv(suyuqlikning tosh, turli jismlar, yog'och, daraxt va h.k.lar)ning yuqori tezlikdagi harakatlaishi va zarb bilan kelib urilishi hisobiga sodir etiladi. Yoruvchi frontning balanligi va tezligi daryoning gidrologik va topografik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, tekis joylar uchun uning tezligi 3 – 25 km/sotni, tog' oldi va tog'li hududlarda esa 100 km/soatni tashkil etadi. O'rmonli hududlar yoruvchi frontning tezligi va balandligini kamaytiradi.

To'g'on konstruksiyalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan FVlar

Markaziy Osiyo va respublikamiz hududiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan suv omborlari 27 ta bo'lib, bulardan 10 ta suv omborlari qo'shni respublikalar hududiga joylashgan.

Suv omborlarida yig'ilgan suv hajmi quyidagicha:

Toshkent dengizi-250 mln m³
Jizzax suv ombori-85 mln m³
Karkidon suv ombori-218 mln m³
Kosonsoy suv ombori-165 mln m³
Kattaqo'rg'on suv ombori-900 mlb m³
Quyumozor suv ombori-300 m³
Chorvoq suv ombori -1,8 mlrd m³
Andijon suv ombori-1,75 mlrd m³
Tuyamo'yin suv ombori -5,3 mlrd m³
Chimqo'rg'on suv ombori-300 mlb m³
Uchqizil suv ombori-165 mln m³
Pachkamar suv ombori-280 mln m³

1902 - 1977 yillar mobaynida dunyo bo'yicha gidrotexnik inshootlarda jami sodir etilgan 300 ta halokatlarning 35 %i ortiqcha suvni o'z vaqtida chiqarib yubormaganlik holatlari sabab bo'lgan.

Suv toshqini kanallar va suv saqlaydigan omborlarning turli sabablarga ko'ra ishdan chiqishi oqibatida ham kuzatilishi mumkin. Umuman kanallar, suv omborlari — suv energiyasi, suv yo'llari hamda suvning o'zidan foydalanish maqsadida ko'riladi. Hozirgi kunda MDH, davlatlarida suv sig'imi 1 mln m³ dan ortiq bo'lgan suv omborlari mingtaga yaqin bo'lib, ularning suv sathi 116000 km², ga teng. Xuddi shunga o'xshash O'zbekistonda ham 53 ta suv saqlaydigan omborlar ko'rilgan, SHundaydan havzalar yuztasi ko'shni respublikalar chegarasida joylashgan. Jumladan Qayroqqum, Rogun (Tojikiston), Tuya-Muyin (Turkmaniston), Tuxtapul (Qirg'iziston), CHordaryo (Kozog'iston) va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Respublikamizga tegishli bo'lgan suv omborlarida 55,5 mld m³.dan ortiq suv saqlanib, ular orqali asosan qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlab, katta iktisodiy samara olinadi. Lekin shu bilan birga bunday gidrotexnik inshootlar biror sabablarga ko'ra buzilsa, saklanayotgan suvning ta'siri insonlarga, uy hayvonlariga, atrof-muhitga juda katta zarar keltiradi. Jumladan, CHorvoq suv omborida 2,1 km³ suv saqlanib, agar u buzilguday bo'lsa, undagi suv 8 m balandlikda 46 km/soat tezlik bilan harakatlanib, Toshkent shaxrining 3 ta: Bektemir, Xamza, Sirgali tumanlari batamom, boshqa 3 ta — Mirobod, Mirzo Ulugbek va Yakkasaroy tumanlari esa qisman suv ostida qolib, u erlarda yashayotgan fuqarolar hayoti uchun xavf tug'iladi.

SHunga o'xshash katta hajmdagi suv Tuya-Muyin suv omborda 5 km³ dan ortiq Qayroqqum suv omborida esa 4 km³ dan ortiq suv saqlanib, mabodo biror sababga ko'ra ombor qismlari talofot ko'rsa, Jizzax, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarini suv bosadi. Agar Tuxtapul suv ombori talofot ko'rsa (unda 19 km suv saqlanadi) butun Farg'ona vodiysi viloyatlarini suv bosishi ehtimoli bor. Boshqa suv

saqlash omborlari uchun xam shunga o'xshash fikrlarni aytish mumkin. SHuning uchun suv saqlaydigan omborlarni har xil falokatlardan asrash maqsadida hamma turdagi omillar, ehtiyot choralari ko'rib qo'yilgan bo'lishi zarur. Jumladan, birlamchi va ikkilamchi saqlovchi to'g'onlar ko'rish, har bir to'g'onlar temir betonli qorishmalardan tayyorlanishi va boshqa saqlovchi omillar belgilanishi shart. Gidrotexnik inshootlar quyidagi sabablarga ko'ra buzilishi mumkin:

- ◆ kuchli tabiiy hodisalar oqibatida:

- a) er silkinishi;

- b) er surilishi;

- v) kuchli sel kelishi,

- g) kuchli yomg'ir suvi yuvib ketishi;

- ◆gidrotexnik inshoot jihozlarining eskirishi va tabiiy parchalanish oqibatida;

- ◆gidrotexnik inshootlarni loyihalashda va ko'rishda yo'l qo'yiladigan xatoliklar oqibatida;

- ◆ gidrotexnik inshootlardan noto'g'ri foydalanish va qoidalarining buzilishi oqibatida.

SHaharlar asosan daryo, ko'l yoki suv havzalari bo'ylarida barpo etiladi. Bunday joylardan shaharsozlik maqsadlarida foydalanish katta istiqbollarni ochib beradi va quyidagi qator xalq xo'jaligi masalalarini ijobiy hal qiladi:

- suv bosish xavfini bartaraf qiladi;

- aholining ko'pchiligini iqlim jihatdan yaxshi va musaffo joyda joylashtirish imkoniyatini yaratadi;

- qirg'oklardan unumli foydalanish xo'jalik erlarini tejash imkoniyatini beradi;

- daryo qirg'og'ida me'moriy - rejaviy tartibni oqilona joriy qilish imkoniyatini yaratadi;

- zamonaviy shaharsozlik g'oyasi nuqtai nazaridan suvli joylardan foydalanish shaharning estetik qiyofasini ochadi;

- qirg'oqlardan sog'lomlashtirish maqsadida foydalanish imkoni yaratiladi va h.k.

Suv sathining ko'tarilishi natijasida hududning ma'lum joylarini suv bosishi shaharsozlikda noqulay holatlarni keltirib chiqaradi.

Mintaqa suv boyligining miqdoriy ko'rsatgichlari ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, suv bilan bog'liq bo'lgan ofat suv oqimlari boshqarilmagan daryo o'zanlarida sodir bo'ladi. Suv omborlari emirilgan yoki kanallarining qirg'oklari emirilganda ham sodir bo'ladi. SHuning uchun suv omborlari ko'p bo'lgan joylarda (O'zbekistonda 53 ta suv ombori mavjud) ham sodir bo'ladi. SHu nuqtai nazardan Qaynoqqum, Karkidon, Ragun, Nurek bahorlari xavf tug'diruvchi ob'ektlar hisoblanadi ayniqsa, g'arbiy vaziyat og'irlashgan vaqtda. SHu boisdan CHorvoq suv omborining CHirchiq va Toshkent shaharlariga xavfli ekanligini zinhor unutmaslik kerak.

Endi shu hududimizda qancha suv boyligi borligi haqida ma'lumot keltiramiz. Hududimizda suv serobmi yoki etishmaydimi? Jumladan matbuotda chop etilgan ma'lumotlarga ko'ra:

Amudaryoda - 72,8 km (Suv muammolari instituta);

Sirdaryoda - 36,7 km (Suv muammolari instituti); qayta ishlatiladigan suvlar suv boyligining uchdan bir qismini tashkil qiladi, taxminan 30 km³.

Mutaxassislarning ko'p yillik kuzatashiga ko'ra, Markaziy Osiyoda yil davomida o'rta hisobda 126,1 km suv hosil bo'ladi.

Agar suv omborlari qurilib, suv oqimi boshqarib turilmaganda suv toshqini doim bo'lib turar edi. Faoliyat ko'rsatib kelayotgan suv omborlari oqim kuchini jilovlab turadi. Pekin, insonlarning hayot faoliyati yomonlashishiga omil bo'lishi mumkin bo'lgan xavflar vujudga kelgan.

Suv tanqisligining natijasi - Orol fojiasi birinchi fojia bo'lsa, oqava suvlar ta'siri ostida daryolarning suv sifatining pasayishi, ichimlik suv zahiralari linzalarning ishdan chiqishi ikkinchi fojia. Buxoro, Xorazm, Qorakalpog'iston aholisining talab darajasiga javob bermaydigan suv iste'mol qilishi nihoyatda achinarli hisoblanadi. Buni bartaraf qilishning asosiy omili ichimlik suv ta'minotini yaxshilash, markazlashgan suv tarmoq va kanalizatsiyani tashkil qilishdir.

17-Mavzu: Terrorizm va axoli muxofazasi.

Reja:

1. Terrorizm tushunchasi, uning salbiy illatlari va amalga oshirish usullari.
2. Halqaro terrorizm va unga qarshi olib boriladigan harakatlar.
3. Terroristik harakatlarga qarshi O'zbekiston Respublikasida yaratilgan huquqiy baza asoslari va jahon miqyosidagi ishtiroki.

Insoniyat yangi yuz yillikka – XXI asrga qadam bosdi, lekin shuni ta'kidlash lozimki, o'tgan asrda bashariyat juda ko'p quvonchli hamda tahlikali, daxshatli voqealarni boshidan kechirdi. Qonli to'qnashuvlarni, ikkita jahon urushini, sovuq urush vahimasi va qatag'onlarni boshidan kechirgan insoniyat kelajak sari talpinib, har qanday qiyinchiliklarni yengib taraqqiyotga erishib bordi.

Afsuski, insoniyatning hayot kechirishi uchun undagi imkoniyatlarning borgan sari cheklanib borayotganligi ayon bo'lmoqda. Aholini toza ichimlik suvi, toza havo, oziq-ovqat mahsulotlari bilan bir vaqtda havfsiz hayot masalalari tobora qiyinlashib bormoqda. Biroq taraqqiyparvar kuchlar tomonidan bashariyatning gullab-yashnashi, uning sayyoramizda emin-erkin yashashi uchun yangidan-yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunda yer yuzida, insoniyat taqdiriga va kelajak istiqboliga jiddiy xavf solayotgan, xuruj qilayotgan xalqaro terrorizm o'zining manfuq maqsadlarini jahon ommasiga tobora yaqqol ko'rsatmoqda. Xalqaro terrorizm huruji oqibatida yuz minglab kishilarning yostug'I qurib, moddiy boyliklar vayron qilinmoqda. Hozirda uning hurujidan hech bir davlat, xatto hech kim mutlaqo muhofazada emas. Har daqiqada insoniyat bunday ijtimoiy ofatning qurboniga aylanishi mumkun. Shu sababdan BMTning favqulodda vaziyatlar tasnifiga qo'shimcha qilib, aynan ijtimoiy-siyosiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlarning kiritilishi bejiz emas. Chunki bunday tushdagi xavf hatarning darajasi yildan yilga

ortib bormoqda. Shuning uchun har bir inson o'z yurti, millati, muqaddas zamini va oilasi tinchlihi, hotirjamligi uchun kurashmog'i lozim.

Terrorizm haqida tushuncha. Terrorizm lotincha "terror" so'zidan olingan bo'lib, siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga havf tug'diruvchi, mol - mulk va boshqa moddiy boyliklarni yo'q qilinishi havfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shahsni biron - bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etilishidan tiyilishiga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suvernetitetini, hududiy yahlitligini buzishga, havfsizligiga putur etkazishga, qurolli muojorolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan. Terrorizimning ikki turi mavjud: A) yakka tartibdagi; B) uyushgan guruhli terrorizm.

Terrorizm o'rta asrlardan boshlab barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrab, o'z faoliyatlarini amalga oshirgan. Lekin o'tgan asrning ohirlaridan uning yangi ko'rinishlari vujudga keldi: jumladan, chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o'ldirish yoki o'g'irlash, elchihonalar, halqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, aeroportlar va vokzallarda portlash sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni garovga olishi va boshqa shunga o'xshash nomaqbul harakatlarni amalga oshirish. Bulardan ko'rinadiki, terrorizmga aniq va yakdil ta'rif berish ancha murakkabdir. Shu fazifani imkoni boricha hal qilishda O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabr "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunda keltirilgan tushunchalarning mohiyatini bilish orqaligina aniqlik kiritish mumkin. Ushba qonunning 2-moddasida terrorizmga oid tushunchalar va ularning mohiyati bayon etilgan. Jumladan, **garovda ushlab turilgan shaxs** – qo'lga olingan yoki ushlab turilgan shaxsni ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, xalqaro tashkilotlarni, shuningdek, ayrim shahslarni biron - bir harakat sodir etishga yoki bunday harakat sodir etishdan tiyilishiga majbur qilish maqsadida terrorchilar tomonidan qo'lga olingan yoki ushlab turilgan jismoniy shaxs.

Terrorchi - terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan shaxs.

Terrorchilik guruhi - oldindan til biriktirib terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko'rgan, yoki uni sodir etishga suyuqasd qilgan shaxslar guruhi.

Terrorchilik tashkiloti - ikki yoki undan ortiq shahsning yoki terrorchilik guruhlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi.

Terrorchilikka qarshi operatsiya - terrorchilik harakatiga chek qo'yish va uni oqibatlarini minimallashtirish, shuningdek, jismoniy shaxslarni havfsizligini ta'minlash hamda terrorchilarni zararsizlantirishga qaratilgan kelishilgan va o'zaro bog'liq maxsus tadbirlar majmui.

Terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazilgan zona - joyning yoki akvatoriyaning alohida uchastkalari, havo bo'shlig'i, transport vositalari, binolar, imoratlar, inshootlar, xonalar hamda terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazilgan doirada ularga tutash hududlar.

Terrorchilik faoliyati - terrochilik harakatini uyuushtirish, rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirishdan, tuzishdan, ularni moliyalashtirish va moddiy - texnika jihatdan ta'minlashdan iborat bo'lgan faoliyat.

Terrorchilik harakati - garovga ushlab turish uchun shaxslarni qo'lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamiyat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy va boshqa guruhlarini chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar vakillarini hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahamiyatiga molik ob'ektlarni bosib olish, shikastlantirish, yo'q qilish, portlatish, o't qo'yish, portlatish qurilmalarini, reaktiv, biologik, portlovchi, kimyoviy va boshqa zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish yo'li bilan qo'rqitish, er usti, suv va havo transporti vositalarini qo'lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo'q qilish aholi g'ujum joylarda va ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda vahima ko'tarish va tartibsizlik keltirib chiqarish, aholi hayotiga, sog'lig'iga, jismnoiy yoki yuridik shahslar mol - mulkiga, avariylar, texnogen xususiyatli halokatlar sodir etish yo'li bilan zarar etkazish yoki havf tug'dirish, tahdidli har qanday vositalar, usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va xalqaro huquqning umum - e'tirof etilgan normalarida belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish.

Xalqaro terrorizm - bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terroristik harakatlar majmuasi.

Terrorizmni iqtisodiyot va aholi uchun xavfli oqibatlar. XX asrning ohiri va XXI asr boshlarida terrorizm insoniyat hayotiga katta xavf sola boshladi. O'zining niyatini oshkora eta boshladi. Jumladan, Nyu-York (AQSH) shahridagi butunjahon savdo markazining ikki binosi sanoqli daqiqalar ichida er bilan yakson bo'ldi. Shuningdek, Irlandiya va Angliyadagi "UPA", Ispaniyadagi "ETA", Osiyoda jinoyatkorona faoliyat olib borayotgan "AL- Qoida", "Khamas" kabi er yuzasining turli burchaklaridagi 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari turli ko'rinishdagi qabih ishlarni amalga oshirdilar va hozirda ham olib bormoqdalar. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda 1975 yildan to bugungi kungacha dunyoning turli mamlakatlarida 10 mingga yaqin terroristik harakatlar sodir etilgan.

Ohirgi yillarda terrorchilik uslublari ancha kengayganligi ma'lum. 1970 yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko'proq qo'llanilgan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus, poezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab, tasodifiy kishilarning qurbon bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga qaratilgan.

Avvallari terrorizm, odamlarni garovga olishdan maqsad pul undirish bo'lgan bo'lsa, hozirda terrorchilar asosan, xalqaro munosabatlar sohasida va mamlakatlarda beqarorlikni keltirib chiqarish borasida mo'ljallangan siyosiy maqsadlarga erishishni ko'zlaydilar.

Bugungi kunda terroristik harakatlarning yanada faollashish jarayoni yuz bermoqda. U hozirgi kunda XXI asrning "global" muammosiga aylanib qoldi.

Terrorchilik tashkilotlar o'zlarida mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga solib, o'z maqsadiga erishish uchun qonli yurishlarni ham qilmoqdalar. Ular turli hildagi

kimyoviy va biologik qurollardan foydalanishga urinmoqdalar. Ma'lumotlarga qaraganda 200 martadan ortiq shunday qurol va vositalardan foydalanilgan. Jumladan, 1994 yil Yaponiyaning "AVM Cinrico" diniy terroristik tashkiloti tomonidan "zarin" kimyoviy vositasini ishlatish oqibatida 7 kishi vafot etgan, 114 nafar kishi turli darajadagi tan jarohatini olgan. 1995 yilda mazkur terroristik tashkilot tomonidan Tokio metrosi 16- bekatining zararlanishi oqibatida 12 yo'lovchi halok bo'lgan, 400 kishi turli darajada tan jarohati olgan. Bunday zararli moddalar Quvaytda, Iroqning Kurdiston hududlarida va boshqa davlatlarda qo'llanilib, ko'plab insonlarning o'limiga sabab bo'lgan.

Terroristik guruhlar yovuz harakatlarini amalga oshirishda kishi e'tiborini o'ziga tortmaydigan, kichik hajmli, tashqi tomoni har kuni foydalaniladigan buyumlar ko'rinishidagi narsalardan foydalanmoqdalar (masalan, jomadan, sumka, sellofon paket va boshqalar).

Terroristlar tomonidan qo'llaniladigan qurollarning foydalanish ob'ektlari - odamlar ko'p to'planadigan joylar: metro bekatlari, aeroportlar, temiryo'l va avtomobil bekatlari, katta binolar, yopiq turdagi konsert va sport zallari, kinoteatrlar, yirik shaharlardagi suv haydash tizimlari, suv omborlari va boshqa ob'ektlar.

Ular ko'proq portlovchi modda va qurilmalardan: fugas, mina, granatalardan foydalanadilar. Terrorchilarni bunday qurollardan foydalanib o'z harakatlarini amalga oshirishlari kuchli ta'sirga kiradi. Chunki, bunday portlovchi qurilmalar har kimning e'tiborini o'ziga tortmaydi va o'zi bilan birga uni olib yurish imkoniyati yuqori bo'ladi. Masalan "o'yinchoq mina", "o'yinchoq qopqonlar" va boshqalar.

Terrorchilarning qo'llayotgan turli ko'rinishdagi portlovchi moddalarning xavfli maydoni quyidagicha:

- granata parchasining tarqalishi 50-100 m;
- mina parchasining uchishi 100-300 m;
- keysning xavfli maydoni 250-300 m ;
- jomadon, sumkaga solingan portlovchi moddaning xavfli maydoni 350-400 m;
- avtomobilga qo'yilgan portlovchi moddaning xavfli maydoni 50-300 m;
- "o'lim belbog'i" ning xavfli maydoni 50-300 m.

Terrorchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan qurollardan biri tuproq ostida portlatiladigan mina va fugaslar hisoblanadi. Fugas yoki mina tipidagi portlovchi moddalarni mina izlovchi jihozlar yordamida topish mumkin emas. Chunki bunday tipdagi portlovchi qurilma plastik materiallardan yasalgan bo'lib, uni faqat saperlarning mahsus tayoqchasi yordamida aniqlash mumkin. Buni aniqlash jarayoni o'ta xavfli bo'lib, kichik bir hato ham inson hayotiga xavf solishi ehtimoli juda yuqori.

Terroristik harakatlarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) terroristik harakatlar qonun ustivor bo'lmagan, o'zaro jipslashmagan, rivojlanish darajasi ancha past bo'lgan hududlarda shakllanadi;

b) birinchi bo'lib o'zi shakllangan, birlashgan hududni o'z tasarrufiga olishga harakat qiladi;

c) o'zga rivojlangan mamlakatlarda homiy izlashga harakat qiladi va har qanday homiy yordamini rad etmaydi;

d) tarqibotni har qanday usullardan: reklamalardan, matbuot, materiallaridan, og'zaki tashviqotlardan, turli mish - mishlardan va yolg'on gaplar tarqatishdan o'z maqsadlari uchun samarali foydalanishga urinadilar.;

e) ular o'zini portlatib yuboradigan (kamekadze) lar guruhini tayyorlaydi va o'z harakatlarini bilvosita amalga oshiradi;

f) ular hozirgi kunda fan, texnika va texnologiyalar yutuqlaridan foydalanib, terrorizmni "global" muammolarga aylantirishga urinadilar;

g) ular o'zlari panoh topgan mamlakatlar boshqaruvini garovga olish yoki nazoratda ushlab turgan holatda keng jamoatchilikni qo'rqitish, vahimaga solish, bo'ysundirish maqsadida ko'proq kuchli rivojlangan mamlakatlarda terroristik harakatlarni amalga oshiradilar va bu bilan o'zlarini namoyish etishga urinadilar. Bunday tashkilot va terrorchilik harakati guruhlariga jumladan, Saudiya Arabistonning "Al - Qoida", Iordaniyaning "Xamas", Ispaniyaning "Eta", Palestin islom jihoti "Shakaki", "Abu Nidala" kabilarni ko'rsatish mumkin).

Ayni paytda, terrorizmning ham muhim jihatlari mavjud. Bu hususiyatlar hususida AQSH davlat departamentining 1999 yildagi global terrorizm to'g'risidagi ma'ruzasida ko'rsatib o'tilgan. Bular quyidagilardan iborat:

1. Yahshi tashkil qilingan terroristik guruhlardan tuzilgan halqaro jinoiy uyushmaga aylanishi. Bularni mahalliy homiy davlatlar qo'llab - quvvatlab turadilar;
2. Siyosiy terrordan diniy yoki g'oyaviy asoslari ustun bo'lgan terrorizmga aylanishi;
3. Terrorizm markazining Yaqin Sharqdan Janubiy Osiyoga, hususan, Afg'onistonga ko'chishi, terroristik tashkilotlar tomonidan ular jazosiz harakat qilishi mumkin bo'lgan mintaqalardan joy qidirishi;
4. Moliyalashtirishning hususiy homiylar, narkobiznes, uyushgan jinoyachilik va noqonuniy savdo-sotiq kabi manbaalaridan foydalanishi.

Bularning ichida halqaro terrorizmning eng asosiy va havfli hususiyatlaridan biri, "zo'rlik - davlatni qulativchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi, parokandalikka olib keladi" - degan g'oyaga asoslanib harakat qilishdir. Bunda siyosiy masalalarni zo'rlik yo'li bilan hal qilishga harakat qilinadi.

Bu haqda, amerikalik mutahassis B. Jenkins "Terrorizm eng avvalo, qurbonlardan ko'ra, guvohlarga qaratilgan va vahima uyg'otishga yo'naltirilgan zo'rlik" deb baholaydi.

Boshqa bir amerikalik siyosatshunos J. Lonsning ta'rifiga ko'ra, terrorizm bevosita qurbonlardan ko'ra ko'proq odamlar fikriga ta'sir o'tkazish uchun qilinadigan tahdid yoki kuch ishlatishdir.

Demak, har bir terrorchilik hurujining maqsadi - davlat to'ntarishini amalga oshirish, fuqarolar urushini keltirib chiqarishga asoslanadi.

Xalqaro terrorizm va uning salbiy illatlari. Xalqaro terrorizm - bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terrorizmdir. Bu odamlarning behuda halok bo'lishiga olib keluvchi, davlatlar va ularni rasmiy vakillarining osoyishta diplomatik faoliyatini buzuvchi hamda xalqaro aloqalar va uchrashuvlarni,

shuningdek, davlatlar o'rtasida transport va boshqa aloqalarni amalga oshirishni qiyinlashtiruvchi xalqaro miqyosdagi ijtimoiy xavfli harakat va qilmishlar yig'indisidir. Xalqaro terrorizm XX asrning 60-70 yillariga kelib o'zini yaqqol namoyon qildi: dastlab turli davlatlardagi jinoyatchilar, o'z davlatiga nisbatan ekstremistik ruhdagi guruhlar birlashib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda harakat ko'rsata boshladi. Xalqaro terrorchilar ayrim davlatlarning rahbarlariga, xalqaro miqyosda obro'ga ega bo'lgan siyasatchilarga chetdan turib suyuqasd uyushtirish, davlat, transport, aloqa va milliy havfsizlik tizimini ishdan chiqaruvchi portlashlar va harakatlar sodir etish, transport vositalari, jumladan samolyotlarni olib qochish bilan shug'ullana boshladilar. 80 yillarga kelib xalqaro terrorizm yanada jiddiy tus oldi.

Xalqaro terrorizm o'zining yovuz niyatlarini turli terroristik harakatlari bilan amalga oshiradi. Jumladan:

- mustaqil davlatlar chegarasini buzish orqali amalga oshirish;
- diniy ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etish;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo'poruvchilik harakatlari bo'yicha horijlik yollangan kishilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan mahsus lagerlarda tayyorgarlik ko'rish;
- qo'poruvchilik sodir etishda, horijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamida xalqaro tus olgan noqonuniy qurol - yaroq savdosi va narkobiznesdan keladigan manbalardan foydalanish.

Bulardan ko'rinadiki, xalqaro terrorchilar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi. Terrorchilar qo'lga yadroviy, kimyoviy, biologik va zamonaviy hujumkor qurollarning tushib qolish xavfi kuchaydi, bunday holat jahon jamoatchiligini qattiq tashvishlantirib qo'ydi.

1977 yilda katta "ettilik" davlatlari rahbarlarining Bonn (GFR) shahridagi uchrashuvida xalqaro terrorizmga qarshi kurash to'g'risida bayonot qabul qilindi. Xalqaro terrorizmning oshib borayotgan xavfi va unga qarshi kurash masalalari oliy darajadagi keyingi barcha uchrashuvlarning asosiy mavzusi bo'lib keldi. Chunki xalqaro terrorizm bir tizimga birlashib harakat qila boshladi.

Ular safida turli davlat, millat vakillari, diniy ekstremistik ruhdagi shahslar, narkobiznes va qurol - yaroq savdosidan foyda ko'ruvchi jinoiy to'dalar, yollanib hizmat qiluvchilar paybo bo'ldi. Xalqaro terrorchilik va ekstremistik markazida razil jinoyatchilarni tayyorlaydigan mahsus lagerlar ochildi. Xalqaro terrorchilar aholini, hususan, dindorlar va yoshlarni davlatga, davlat tashkilotlariga qarshi qo'yishga hamda hokimiyatga qarshi muqolifatni shakllantirishga harakat qildi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab terrorizm va ekstremizmning har qanday ko'rinishiga qarshi qat'iyat bilan kurashib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro terrorizm ko'rinishlariga qaratilgan ko'plab xalqaro bitimlarning: "Havo kemalarini qonunga hilof ravishda egallab olishga qarshi kurashish to'g'risida"gi 1970 yilda Gaaga konvetsiyasining; "Fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga qarshi kurash to'g'risida"gi 1971 yildagi Monreal

Konventsianing; "Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shahslar, masalan diplomatik agentlarga qarshi jinoayatlarning oldini olish va jazolash to'g'risida"gi 1973 yildagi konventsianing; "Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi va boshqa konvensiyalarning ishtirokchisi hisoblanadi. 2004 yildan Toshkentda Shanhay hamkorlik Tashkiloti (ShHT) ning mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi faoliyat ko'rsata boshladi.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurash. Xalqaro terrorizm nafaqat tashqi, balki ichki xavfsizlikka ham dahldor masaladir. Chunki terrorchilik tashkilotlari jangari usullari bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarini shakllantirish, ularni har tomonlama rag'batlantirish va qo'llab quvvatlashga intiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun xalqaro terrorizmning xavfi 1990 yilda Namangan va Andijonda, 1990 - 1996 yillarda tojikistondagi fuqarolik urushi va mojarolar davomida, 1999 yil 16 fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001 yillarda Qirg'izistonning Botken, O'zbekistonning Surxandaryo va Toshkent viloyatlarida, 2004 yilning mart - aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatlarida, 2004 yilning 11- 13 may kuni Andijon viloyatida amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari misolida o'zini namoyon etdi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro terrorizmning umumbashariy miqyosdagi xavfi ekanligidan jahon hamjamiyati bilan birgalikda unga qarshi kurashish lozimligini jahonning nufuzli minbarlarida e'lon qildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1993 yil 28 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh assambelyasining 48 sessiyasida qilgan ma'ruzasida jahon hamjamiyatining Afg'oniston muammosini izchil o'rganish va yechishga chaqirdi. Keyinchalik 1998 yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil topgan "6+2" guruhini BMT rahbarligi ostida 1998-1999 yillarda olib borilgan faoliyat Afg'oniston terrorchilikka qarshi kurashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu guruh Afg'oniston bilan chegaradosh 6 davlat: Xitoy, O'zbekiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston va mintaqa tashqarisidan ta'sir ko'rsatib turgan ikki davlat AQSH va Rossiya vakillaridan tashkil topgan edi.

Yurtboshimizning 1999 yilda Evropa Xavfsizlik va hamkorlik Tashkilotining (EHHT) Istanbul da bo'lib o'tgan sammitda 2000 yilning 7-8 sentyabr kunlari Nyu-Yo'rkda bo'lib o'tgan BMT bosh assambleyasining "Mingyillik Sammiti"da, BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tuzish taklifiga hamohang tarzda 2001 yilning 28 sentyabrda BMT doirasida terrorizmga qarshi kurash qo'mitasi tuzildi.

Shunday kelishuvlik asosida O'zbekiston- AQSH hamkorligida tashkil etilgan xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasida AQSH xarbiy havo kuchlarining transport va vertalyotlariga Afg'onistonda qidiruv-qutqaruv va insonparvarlik yordamini amalga oshirish uchun havo hududi (Xonobod tumani) ochib berilib, terrorizmga qarshi vaqtinchalik foydalanish imkoniyati yaratildi.

O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosatining maqsadi mintaqada global miqyosda tinchlik, barqarorlikni saqlash, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi, xalqning erkin farovon hayotini ta'minlashdir. Respublikamiz hukumati

tamonidan terrorizmga qarshi qaratilgan ko'plab xalqaro shartnomalardan hozirgacha BMTning 12 ta, Yevropa Kengashi doirasida esa 7 ta xalqaro shartnomalari imzolandi.

Bulardan tashqari, O'zbekiston halqaro terrorizmga qarshi kurashdagi ishtiroki mintaqaviy tashkilotlardagi faoliyatida ham namoyon bolmoqda. Jumladan, O'zbekiston Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik Tashkiloti (YeHHT), Markaziy Osiyo hamkorligi Tashkiloti (MOHT) va boshqalar. O'zbekistonning bunday tashkilotlardagi ishtiroki, tashabbusi, global havfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda davlatimizning tutgan o'rnini muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Terrorizmga qarshi kurashda 2000 yilda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari aniq korsatib berilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
 - shaxs qonunlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
 - terrorizmning oldini olish choralari ustuvorligi;
 - jazoning muqarrarliligi;
 - terrorizmga qarshi kurashning oshkora va nooshkora usullarining ustuvorligi;
 - jalb etiladigan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi otkaziladigan operatsiyasiga rahbarlik qilishda yakkaboshchilik.
- Terrorizmni oldini olishda davlat organlari, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari bilan birgalikda profilaktik choratadbirlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Bu harakatlarda quyidagilar ta'qiqlanadi:
- terrorizmni ta'qib qilish;
 - terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish hamda ularni faoliyat ko'rsatishi;
 - terrorchilik faoliyatiga dahldor bo'lgan yuridik shahslarni, ularning bo'linmalari va vakolathonalarini akkreditatsiya qilish, ro'yhatdan o'tkazish va ularning faoliyat ko'rsatishi;
 - terrorchilik faoliyatiga dahldor chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bolmagan shahslarning O'zbekiston Respublikasiga kirishi;
 - tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma'lumotlar va fikrlarni yashirish.

Ushbu qonunga binoan O'zbekiston Respublikasida quyidagi davlat organlari terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiradi: jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Hizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi, Davlat Bojhona qo'mitasi, Mudofaa va Favqulotda Faviyatlar Fazirliklari kiradi. Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatini olidini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ishtirok etadigan har bir davlat organlarining vakillari ham ko'rsatib o'tilgan.

Terrorchilik harakatlarini bartaraf etishda birinchi navbatda aholi hayoti xavf ostida qolsa hamda moddiy va ma'naviy boyliklarni saqlab qolish maqsadida kuch ishlatmaslik uchun muzokaralar olib borish mumkin. Bunda ruhsat e'tilgan shaxslarga muzokarani olib boradilar.

Muzokaralar terrorchilar harakatining ishtirokchilari tomonidan ijobiy hal bo'lmasa, ya'ni ular o'z harakatlarini to'xtatishga rozi bo'lmasalar, shuningdek fuqarolar hayotiga xavf mavjud bo'lsa hamda moddiy va ma'naviy boyliklarning yo'q bo'lishi aniq saqlanib turgan paytda, ularni qurolsizlantirish va yo'q qilish uchun zarur choralar ko'riladi.

Har qanday terrorchilik harakati muayyan hududda yuz beradi. Terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan hududning chegaralari terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazish rahbarlari tomonidan belgilnadai. Bunda hududning chegaralarini belgilashda uning sharoiti, geografik tuzilishi, inshootlar o'ta muhim ob'ektlarning mavjud va mavjud emasligi, terrorchilik harakatlarining ko'lami va xavfsizlik darajalari e'tiborga olinadi.

Terrorchilik harakatiga qarshi kurash olib borilayotgan paytda kurashayotgan shahslarga qonunga binoan quyidagi huquqlar beriladi:

- zaruriyat tug'ilganda ko'chada harakatlanuvchi transport vositalarini hamda yo'lovchilarni cheklash va ta'qiqlash;
- transport vositalarini ayrim hududlarga va ob'ektlarga kiritmaslik, hatto chet el diplomatik vakolatlarining konsultik transportlari ham;
- aholini havfli deb topilgan hududlardan, korhona, uy, bino va boshqa ob'ektlardan chiqarib yuborish;
- jismoniy shahslarning shahsini aniqlash uchun ushlab turish;
- terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazayotgan shahslarning qonuniy talabini bajarmagan, terrorchilik harakati sodir bo'layotgan hududga suqilib kirishga uringan yoki shunday harakatlar sodir etayotgan shahslarni ushlab va tegishli organlarga olib borish;
- Operatsiyani kechiktirish kishilar hayotiga havf solayotgan bo'lsa, terrorchilik harakati ishtirokchilarini ta'qib qilib istamagan paytda bino, korhona, ish joyi, uy va boshqa joylarga mone'liksiz kirish;
- terrorchilar harakatiga qarshi kurash olib borayotgan hududdan chiqayotgan yoki kirayotgan transport vositalarini, jismoniy shahslarni tekshirish;
- zaruriyat tug'ilganda, jismoniy shahslarning aloqa va transport vositalaridan foydalanish (bunga chet el diplomatik vakolathonalari hodimlarining aloqa va transport vositalari kirmaydi).

Terrorchilikka qarshi kurashda mavjud bo'lgan qurol va texnikalardan foydalanish mumkin. Terrorizmga qarshi kurash jarayonida ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikka ish olib boriladi. Shu bilan birga quyidagi ma'lumotlarning tarqalishiga yo'l qo'yilmaydi. Jumladan:

1. Terrorchilik harakatini bartaraf etish va yo'q qilish uchun mahsus texnika usullari va taktik yondashish jarayoni to'g'risidagi;

2. O'tkazilayotgan operatsiyani qiyinlashtirib qo'yadigan, jismoniy shahslar hayoti va sog'lig'iga havf tug'diradigan;

3. Terrorchilik harakatlariga hayrihohlik bildiradigan;

4. Terrorchilik harakatini bartaraf etish faoliyat ko'rsatayotgan va ularga yordamlashayotgan shahslar haqidagi ma'lumotlardir.

Mamlakat barqarorligini, aholining tinch va farovon hayotini buzilishiga qarshi ko'rsatuvchi shahslar ququqiy va ijtimoiy himoya qilinadi. Bu haqda "Terrorizmga qarshi kurash haqidagi" qonunning 25, 26, 28 bandlarida ko'rsatib o'tilgan.

Demak, terroristik harakatlar va ular olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarining olidini olish uchun sergak bo'lish, atrof-muhitga e'tibor bilan qarash muhim ahamiyat kasb etadi. Mobodo shubhali buyumlar aniqlansa ularga tegmaslik, joyidan qo'zg'atmaslik, ko'tarmaslik, ichini ochmaslik lozim. Zudlik bilan tegishli organlarga habar berish kerak.

18-mavzu. Fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish vsoslari va ularning xususiyatlari

Reja:

1. Favqulodda vaziyatlardan fuqarolarni muhofaza qilishning uslublari, ularning hususiyatlari va har bir omilga qo'yiladigan talablar.

2. Ogohlantirish, umumiy himoya inshootlarida saqlash, radiatsiyaga qarshi va kimyoviy tasirlarga qarshi (RQ va QTQ) omillar.

Harbiy davrda ham, tinchlik davrda ham favqulodda vaziyat yuz berganda fuqarolarni saqlashning asosiy uslublari muayyan tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Fuqarolarni muhofaza qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1) Davlat organlari, Vazirlik rahbariyati va iqtisodiyot tarmoqlarining rahbarlari tomonidan fuqarolarni muhofaza qilish omillarini doimiy ravishda amalga oshirish va boshqarish;

2) Mamlakatning har bir burchagida, aholi yashash joylarida, iqtisodiyot tarmoqlarida, fuqarolarni saqlashning omillarini oldindan rejalashtirish;

3) Har bir joyning iqtisodiy, siyosiy va mudofaa qudratini hisobga olgan holda fuqarolar muhofazasini rejalashtirish va amalga oshirish;

4) Fuqarolarni muhofaza qilishning omillarini har bir joyning (respublika, viloyat, shahar, hudud iqtisodiyot tarmoqlari) iqtisodiy va sotsial rivojlanish rejalari bilan birga amalga oshirish.

Fuqarolarni muhofaza qilishning uslublari quyidagilardan iborat:

1) Fuqarolarni xavfli vaziyat xususida o'z vaqtida ogohlantirish

2) Radiatsiyaga va kimyoviy ta'sirlarga qarshi (RQ va KTQ) omillari;

3) Himoya inshootlarida saqlash;

4) Evakuatsiya omillarini o'tkazish (fuqarolarni xavfli hududdan, vaqtinchalik uzoqlashtirish yoki to'liq uzoqlashtirish);

5) Shaxsiy saqlovchi vositalardan foydalanish.

Fuqarolarni favqulodda vaziyat haqida ogohlantirish . Favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni himoya qilishning omillarida alohida o‘rin tutadigan uslub - bu fuqarolarni o‘z vaqtida ogohlantirish hisoblanadi.

Ogohlantirish radio, televideniya vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda fuqarolarni ogohlantirishdan oldin sirena, ishlab chiqarish gudogi, transport vositalarining signallari va boshqa belgilar orqali ogoh etiladi. Ya’ni bu belgilar «DIQQAT HAMMAGA» degan ma’noni anglatadi. Shu belgilarni eshitgan har bir fuqaro radio, televizorlarni qo‘yishlari zarur. Har bir ofat yuz berganda, ularni fuqarolarga hamda iqtisodiyotgako‘rsatadigan ta’sir xususiyatlarini hisobga olgan holda ogohlantirish matnlari tuziladi.

Masalan: **a) Atom elektr stansiyasida yuz bergan avariya haqida fuqarolar muhofazasi quyidagi tartibda xalqni ogoh qiladi:** «DIQQAT», Fuqaro Muhofazasi shtabidan gapiramiz, Fuqarolar! Atom elektr stansiyasida avariya sodir bo‘ldi. Shu AES atrofida joylashgan «UzBAT» korxonasi, Hamza aloqa uzatish tarmog‘i, Toshkent mineral suv quyish zavodi va uy-joylar, mahallalarga radioaktiv changlarning tushishi kutilmoqda. Shu hududda yashovchi hamma fuqarolar o‘zlarining, yashovchi uylari germetikligini (zichligini) mustahkamlashlari, uy hayvonlarini pana joyga kiritishlari, oziq-ovqat mahsulotlarini, suvlarni radiaktiv chang tushishidan saqlashlari, o‘zlari esa yodli preparatdan qabul qilishlari kerak. Keyingi xatti- harakatlar fuqarolar muhofazasi shtabi yo‘riqnomalari asosida boradi».

b) Xavfli kimyo zavodidagi avariya:

«Diqqat! Fuqarolar muhofazasi shtabidan gapiramiz, Fuqarolar! Chirchiq kimyo kombinatida odamga kuchli ta’sir etuvchi zaharli modda (KTZM) - ammiakning to‘kilishi oqibatida avariya sodir bo‘ldi. Zaharlangan havo Toshkent shahri tomon tarqalmoqda. Kimyoviy zaharlanish hududiga o‘sha atrofdagi korxonalar va aholi yashash joylari (korxona, mahalla yashash joylari nomlari ko‘rsatiladi) kiradi. Kimyo korxonasiga yaqin bo‘lgan ishlab chikarish tarmoqlaridagi ishchi xizmatchilar, mahallalardagi yashovchilar o‘z uylarini, ish joylarini xavfsiz holatda qoldirilgan holda (gaz, suv, elektrni o‘chirishlari) va Toshkentga evakuatsiyaga tayyorlansinlar. Kimyo korxonasidan uzoqdagi korxonalar, mahallalardagi (nomlari ko‘rsatiladi) yashovchilar o‘z ish joylarida, uylarida qo‘shimcha germetikligini ta’minlab saqlanishlari lozim. Eshitganlaringizni qo‘ni-qo‘shnilarga yetkazing!».

v) Yer silkinishi ehtimolida:

«Diqqat! Fuqarolar muhofazasi shtabidan gapiramiz. Fuqarolar! Yer silkinishi ehtimoli bor! Gaz, suv, elektroenergiya, yonayotgan moddalarni o‘chirib, uylarni xavfsiz holatda qoldirib, eshitgan ma’lumotlarni qo‘ni-qo‘shnilarga yetkazing. Kerakli narsalarni: kiyim-kechak, hujjat, oziq-ovqat, suv olib baland qurilgan imoratlardan uzoqroq joylarda saqlaning!»

Yer silkinganda inshootlarda bo‘lsangiz, darhol eshik, oyna ustunlari tagiga turib oling. Tartib va osoyishtalik saqlansin. Fuqaro muhofazasi shtabi yo‘riqnomalariga e’tiborni qarating!

Radiatsiya va kimyoviy ta'sirlarga qarshi omillar. Radiatsiyaga qarshi (RQ) va kimyoviy tasirlarga qarshi (KTQ) omillar deyilganda ionlantiruvchi nurlar (g), zaharli kimyoviy moddalar va odamga kuchli ta'sir etuvchi moddalar (KTZM) ta'sirini kamaytirishga mo'ljallangan kompleks omillar tushuniladi. RQ va KTQ omillarida quyidagi vazifalar ko'zda tutiladi:

- a) Radiatsiyaviy - kimyoviy holatni aniqlash va baholash;
- b) Dozimetrik va kimyoviy nazoratni tashkil etish va o'tkazish;
- v) Radiatsiyaga qarshi himoyalash rejimlarini ishlab chiqish;
- g) Radioaktiv va kimyoviy shikastlanishda fuqarolarni himoyalash uslublari hamda KTQ omillari bilan ta'minlash (bunda gazniqoblar, maxsus kiyim-kechaklar va boshqa vositalarni yig'ish, saqlash, taqsimlash);

d) Radioaktiv va kimyoviy shikastlanish oqibatlarini tugatish omillari (maxsus sanitar qayta ishlash, yashash, ishlash joylarini, inshootlarni zararsizlantirish va boshqa omillar).

Radiatsiyaviy - kimyoviy holatni baholash - RQ va KTQ omillarining asosini tashkil etib, uni o'tkazishdan maqsad:

- fuqaro muhofazasi tizimlariga kiruvchi fuqarolarning ishlash qobiliyatlarini baholash;
- ishchi xizmatchilarning ish faoliyatlarini baholash va ulardan foydalanish chegaralari;
- evakuatsiya davrida tibbiy yordam ko'rsatish hajmi;
- fuqarolarni sanitar - qayta ishlodan o'tkazish hajmi;
- jihozlarni, transport vositalarini, shaxsiy saqlovchi vositalarni, kiyim-kechaklarni, ish joylarini dezaktivatsiya va degazatsiya qilish;
- radiatsiyaviy-kimyoviy zararlangan hududlarda qolgan suv, yem, oziq-ovqat va boshqalarni qayta ishlab foydalanish.

Dozimetrik va kimyoviy holatni baholash - obyektning fuqarolar muhofazasi shtabi, uning tizimlari, jumladan razvedka bo'limlari amalga oshiradi (ya'ni radiatsiyaviy, kimyoviy va umumiy razvedka bo'limlari).

Oziq-ovqatlar, suv va yemlarning zararlanish darajasi radiometrik va kimyoviy laboratoriyalarda aniqlanadi. Dozimetrik baholashda odamlarni va yer usti jinslarini radiatsiya nurlari bilan nurlanganligi hamda zararlangan joylarda odamlarning olgan nur dozalari aniqlanadi. Nurlanganlik darajasi guruh holda hamda yakka tartibda tekshiriladi. Guruhni tekshirishda, tizimlar, sexlar bo'yicha odamlarning olgan nur dozalarini hamda ularning ishlash qobiliyatlari aniqlanadi.

Dozani aniqlovchi ID-1 va DKP-50A (5-rasm) dozimetrlar odatda, 10-12 odami bo'lgan guruhlariga taqsimlanadi. Yakka tartibda esa ID-11 markali shaxsiy nur dozasi o'lchovchi jihoz ishlatiladi. Mana shu ikki usul bilan (guruh va yakka tartibda) sexlardagi, guruhlardagi, tizimlardagi odamlarning olgan nur dozalari o'lchanib, jurnalga yozib boriladi. Fuqarolarning umuman olgan nur dozalari qiymatiga qarab tizim boshlig'i, o'sha fuqarolarning ishlash qobiliyatlari, zararlangan hududlarda bo'lish vaqtlarini aniqlab beradilar.

Odamlar, texnika, jihozlar va boshqa kiyim-kechaklarning radiaktiv changlardan zararlanishi DP-5 jihozi bilan aniqlanadi va mR/soat bilan o'lchanadi. Oziq-ovqat, suv va emlarni radiaktiv changlardan zararlanish darajasi radiometrik usulda aniqlanadi va Ki/kg yoki Ki/l da o'lchanadi. Shaxsiy saqlovchi vositalar, texnika, oziq-ovqat, suv, yashash joylari va obyektlarning zaharli moddalar, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar (KTZM) bilan zaharlanishni kimyoviy jihatdan baholanadi. Kimyoviy baholash natijalariga qarab odamlarni shaxsiy saqlovchi vositalarisiz yurish-turishi, texnikalarni, inshootlarning degazatsiyalash darajasi, oziq-ovqatlarni, suvlarni va boshqa vositalarni zararsizlantirish aniqlanadi. Kimyoviy nazoratda kimyoviy razvedka jihozlari: VPXR, PXR-MV yordamida o'tkaziladi (6-7 rasmlar). Demak, dozimetrik va kimyoviy nazoratni o'z vaqtida, to'g'ri o'tkazilsa, odamlarning ish qobiliyatlarini va turmush darajalarini bir muncha saqlash imkoniyatlariga ega bo'lamiz.

Radioaktiv va kimyoviy zararlangan joylarda fuqarolarni saqlash. Radioaktiv va kimyoviy zararlangan hududlarda fuqarolar muayyan tartib va qoidalar asosida himoyalana-dilar. Bunda radioaktiv va kimyoviy zararlangan hududlardagi fuqarolarga alohida-alohida talablar qo'yiladi:

Radioaktiv zararlangan hududda fuqarolarni saqlash. Radioaktiv zararlangan hududlarda xalqni saqlashning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- Radioaktiv zararlanish xususida ogohlantirish;
 - Himoya inshootlarida saqlash (boshpana, radiatsiyadan saqlovchi boshpana - RSB);
 - Shaxsiy saqlovchi vositalardan foydalanish;
- Radiatsiyadan saqlovchi preparatlardan (ShD-2) foydalanish;
- Zararlangan suv va emishlardan saqlanish;
- Zararlingan joylarda fuqarolarni saqlash rejimlariga rioya qilish;
- Zararlangan joylardan fuqarolarni evakuatsiya qilish;
- Zararlangan hududlarga odamlarni kiritmaslik;
- Fuqarolarni sanitar qayta ishlovdan o'tkazish, kiyim-kechak, texnika, inshootlarni dezaktivatsiya qilish.

Radioaktiv moddalar bilan zararlangan joylarda odamlarni hatti-harakatlari, radiatsiyaviy holatdan kelib chiqib aniqlanadi, bunda:

a) muayyan zararlangan joylarda, odamlar, RSBda bir necha soatdangacha saqlanishlari va so'ngra oddiy inshootlarda bo'lishlari tavsiya etiladi. Ammo korxonalar va yashash maskanlar ishlarini oddiy rejim asosida amalga oshiradilar.

b) kuchli zararlangan joylardagi fuqarolar himoya inshootlarda uch kungacha saqlanishlari va keyingi to'rtinchi kunda oddiy inshootlarda bo'lishlari mumkin. Bunday holatlarda korxona va maskanlar alohida rejimda ishlashlari, ochiq joyda ishlovchilar esa bir necha soatdan, bir necha kungacha ishni to'xtatishlari zarur.

v) xavfli va juda xavfli shikastlanishda fuqarolar himoya inshootlarida uch kundan kam bo'lmasliklari hamda oddiy inshootlarda ham tashqariga chiqmasdan saqlashlari kerak. Bunday korxonalarda hamma oziq-ovqat mahsulotlari germetik idishlarda

saqlanishi (shkaflarda, shishali yoki emalli idishlarda, polietilen qopchalarda) hamda ovqat tayyorlashda faqat zararanmagan suvlardan foydalanish lozim.

Kimyoviy zararlanishda fuqarolarni saqlash. Xavfli kimyoviy korxonalarda fuqarolarni saqlashning asosiy uslublari quyidagilardan iborat:

- kimyoviy shikastlanish xavfi haqida ogohlantirish;
- himoya inshootlarida (boshpanada) saqlanish;
- shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish;
- antidod va SHXP-8 ni qo'llash;
- shikastlangan joylarda yurish-turish rejimlariga rioya qilish;
- zararlangan hududlardagi odamlarni evakuatsiya qilish;
- fuqarolarni sanitar-qayta ishlash, kiyim-kechak, inshootlarni, transport va texnikalarni degazatsiya qilish.

Kimyoviy zararlanishda birinchi navbatda razvedka o'tkaziladi: bunda avariyaning aniq joyini, KTZM turi, hududning shikastlanish darajasi, odamlarning zararlangan o'choqdan yaqin-uzoqligi, shamolning kuchi va yo'nalishini va boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Zaharlangan fuqarolarga birinchi yordam berilib, tibbiy yordam ko'rsatish shaxobchalariga yotqiziladi. Zararlangan oziq-ovqatlar, suv tekshirilib, degazatsiya qilinadi yoki yo'q qilib yuboriladi. Zararlangan hududda chekish, ichish, himoya vositalarisiz yurish ta'qiqlanadi. Zararlangan hududdan chiqqanda, ochiq qolgan terilar, shaxsiy himoya vositalari, kiyim kechaklar SHXP-8 bilan zararsizlantiriladi, so'ngra o'zlari to'liq sanitar ishlovdan o'tkazilib, kiyim-kechaklar almashtiriladi.

Fuqarolarni va fuqaro muhofazasi tizimlarini RQ va KTO omillari bilan ta'minlash. Har bir obyektning fuqaro muhofazasi shtabi va uning xizmatli bo'limlari shaxsiy saqlovchi (terini hamda nafas organlarini saqlovchi) va tibbiy vositalar bilan ta'minlashni, saqlashni hamda ularni doimiy texnik tayyor holda bo'lishligini tashkil etadi.

Shaxsiy saqlovchi vositalarning saqlanishi ish joylariga yaqin bo'lgan yerlarda (sex, bo'lim va boshqalarda) tashkillashtiriladi, agar sharoit bo'lmasa, u holda ish joylarining zaxiradagi binolarida, xonalarida saqlanadi. Tinchlik davrlarida ushbu vositalar vaqti-vaqti bilan laboratoriya ko'rigidan o'tkazilib turiladi.

Shaxsiy saqlovchi va tibbiy vositalar birinchi navbatda favqulodda vaziyatlarda ish bilan mashg'ul bo'ladigan fuqarolarga beriladi. Bulardan tashqari FM tizimlariga kiruvchi fuqarolar resperatorlar bilan ham ta'minlanadilar. Ishlamaydigan fuqarolar, nafas organlarini saqlovchi oddiy vositalar - paxta dokali taqqichlar va changdan saqlovchi matoli niqoblar bilan ta'minlanadilar. Terini saqlovchi vositalar bilan faqat zararlangan o'choqlarda (radiaktiv moddalar, zaharli birikmalar, biologik ta'sirlar va odamga kuchli ta'sir etuvchi moddalar, KTZM bilan shikastlangan hududlar) xizmat ko'rsatuvchi fuqarolar muhofazasi tizimlari ta'minlanadi.

Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlarida xizmat qiladigan fuqarolar shaxsiy saqlovchi vositalarini o'z ish joylaridan, ish bilan mashg'ul bo'lmaganlar ro'yhatdagi turar-joylaridan oladilar.

Fuqarolarni himoya inshootlarida saqlash. Respublikamizda qabul qilingan «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasida «Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlar»da muhofaza inshootlarini zaruratga qarab oldindan barpo etilishini ta'minlashlari hamda ularni doimo shay holatda saqlab turishlari lozim, deb ta'kidlangan.

Himoya inshootlari fuqarolarni tabiiy ofatlar, avariya va halokat oqibatlaridan hamda qirg'in qurollar ta'sir omillaridan va ularning ikkilamchi ta'sir omillaridan saqlaydigan boshpanalar hisoblanadi.

Himoya inshootlari quyidagilarga bo'linadi:

- a) Yo'nalishiga ko'ra: fuqarolarni saqlashga, boshqaruv tizimlarini joylashtirishga mo'ljallangan;
- b) Joylashgan o'rniga ko'ra; alohida joylashgan (metropolitanlar va tog'-kon qurilishlari);
- v) Qurilish muddatiga ko'ra: - oldindan qurilgan va tez quriladigan;
- g) Himoyalash darajasiga ko'ra: - boshpana, RSB va oddiy boshpana (ochiq yoki yopiq yerto'lalar).

Boshpana - odamlarni hamma ta'sir omillaridan (yuqori harorat, radiativ, portlovchi va kuchli zaharli moddalar), inshootlar buzilganda ularni qismlaridan hamda qirg'in qurollar va oddiy hujumkor qurollar ta'siridan saqlaydi.

Boshpanalar odamlarni qabul qilish soniga ko'ra 5 sinfga bo'linadi: kichik (150-300 kishi), o'rtacha (300-600 kishi), katta (600 dan ko'p) va boshqalar.

Boshpanani qurishda quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) 3 sutkadan kam bo'lmagan muddatda saqlash;
- 2) Suv bosmaydigan joylarda qurish;
- 3) Oqar suvlardan, kanalizatsiya kommunikatsiyalaridan hamda qurilish kommunikatsiyalaridan uzoqroq joylarda qurish;
- 4) Chiqish va kirish eshiklarining bo'lishi.

Boshpana ma'lum jihozlar bilan jihozlanishi shart, jumladan: shamollatgich, sanitar-texnik jihozlar, havodagi zaharli moddalarni, radiativ birikmalarni va biologik vositalarni tozalovchi uskunalardan iborat bo'lishi kerak. U asosiy va qo'shimcha xonalardan tashkil topadi: Asosiy xonalarga - odamlar, boshqaruv tizimlari, tibbiy xizmat tizimlari joylashtiriladi, qo'shimcha xonalarda jihozlar, asbob-uskunalar, oziq-ovqatlar, suv va boshqa kerakli vositalar joylashtiriladi. Bu boshpanalar juda mustahkam qurilganligi, germetikligi yuqoriligi va sanitar-gigiyena sharoiti bo'lganligidan xalqni bir necha kun davomida betalofot saqlashi mumkin. Boshpanalar odamlar yotadigan va turib saqlanadigan holda bo'ladi. Turib saqlanadigan boshpanalar sifatida ishlab chiqarish, ma'muriy va xalq yashaydigan baland uylarning yerto'lalaridan foydalaniladi. Bunda butun qirg'in qurollari omillaridan saqlovchi qismlar va boshqa zarur jihozlar o'rnatilib, boshpanaga qo'yilgan talablar bajariladi.

Boshpana bir necha bo'limlardan tashkil topib, har biriga 50-75 odam sig'ishi kerak. Ular yarusli qilib jihozlanadi va har bir odamga $0,5 \text{ m}^2$ joy to'g'ri kelishi ko'zda tutiladi. U juda yaxshi germetik ravishda qurilishi, ya'ni devorlari, xona bo'limlari juda zich qilib ishlanishi zarur. Aks holda tashqaridan radioaktiv, kimyoviy va biologik zaharlovchilar havo bilan birga kirishi mumkin.

Boshpanada kamida ikkita qarama-qarshi tomondan kiradigan eshik va ehtiyot eshigi bo'lishi kerak. Eshiklar tambur tipida ikki qavatli qilib germetik ravishda yopiladigan bo'lishi lozim. Eshikning tashqi tomoni juda mustahkam materialdan yasaladi, sababi, u yadro portlaganda chiqadigan to'lqin zarbidan saqlaydi.

Boshpanalar filtrlaydigan, havo almashtiradigan asbob-uskunalar bilan jihozlanadi. Ularda elektr, aloqa, suv hamda kanalizatsiya va isitish tarmoqlari ham bo'lishi kerak. Boshpanada dozimetr, kimyoviy razvedka jihozlari, himoyalovchi vositalar, o't o'chirish qurollari, oziq-ovqatlar, suv zaxirasi va dori-darmonlar bo'lishi shart.

Agar favqulodda vaziyatda alohida qurilgan boshpanalar bo'lmaganda tez jihozlanib foydalanadigan boshpanalar quriladi. Bunday boshpanalarni metropolitenlar, yerosti yo'llari, inshootlarning yerto'lalarini kerakli jihozlar bilan jihozlab tayyorlanadi.

Radiatsiyadan saqlovchi boshpana (RSB). Radiatsiyadan saqlovchi boshpana (RSB) - germetik bo'lmagan himoya inshootlari bo'lib, favqulodda vaziyatlarda fuqarolar o'sha yerda saqlanadilar. RSB larga alohida qurilgan, tez jihozlab quriladigan xillaridan tashqari, xo'jalik maqsadlarida foydalaniladigan chuqurliklar, sabzavot saqlanadigan qurilmalar va oddiy yashovchi qurilmalar kiradi.

RSBlarning saqlash xususiyati - radiatsiya nurini (γ) susaytirish koeffitsienti (K_γ) bilan aniqlanadi va u qanday materialdan qurilganligiga va uning qalinligiga bog'liq (19-jadval).

Masalan, yog'ochdan tayyorlangan uylarning yerto'lalari radiatsiya nurini 7-12 marta, g'ishtli uylar esa 200-300 marta kamaytiradi. 50 nafar odamdan ko'p bo'lgan RSB lada kamida ikkita qarama-qarshi tomonda eshiklar bo'lishi kerak, RSBlarda havo ta'minoti jihozlari bo'lmasligidan o'sha joylarda fuqarolar uzoq vaqt saqlana olmaydilar va uzog'i bilan 4-6 soat bo'lishlari mumkin. RSBlarga odamlar kirishdan avval, eshik, romlar yaxshilab o'rnatiladi. Oziq-ovqatlar, suvlar iloji boricha germetik idishlarda saqlanadi. RSBda ham ikkita vazifali xonalar bo'ladi. Asosiy xonada odamlar saqlanadi, qo'shimcha xonada esa sanitar-gigiyenik jihozlari va havo almashtirgich joylashgan bo'ladi. RSBning saqlash xonasida ham bir odamga $0,4-0,5 \text{ m}^2$ hajmda joy to'g'ri kelishi kerak.

Shaharlar tashqarisidagi RSBlar, uylarning yerto'lalari, sabzavot saqlanadigan omborlar, yerto'lalar, g'ishtli, betonli, tuproqli, yog'ochli uylar va boshqa chuqurliklar moslashtiriladi. RSBlarning saqlash xususiyatni oshirish uchun ularning devorlarini qalin qilish, eshik, oynalar germetikligini oshirish va ularning yon berini tuproq bilan to'ldirish orqali erishiladi.

Radioaktiv shikastlangan hududlardan kelgan odamlar RSB larga kirishlardan oldin tamburda kiyim-kechaklardagi, oyoq-kiyimlardagi radioaktiv changlarni yo'q qilib (silkitish orqali, tozalovchi vositalar orqali), so'ngra ehtiyotlik bilan kiyim-kechaklarni (himoya kiyimlari, oyoq kiyimi) yechib, keyin boshpana ichiga kirishlari

kerak.

Radioaktiv zararlanishning boshlang'ich 3-5 soatlarida, boshpananing chiqish eshiklarini va havo almashtirish teshiklari yaxshilab berkitiladi. Bu vaqt oralig'ida radiatsiya darajasi tezda kamayib, radioaktiv changlar esa asosan yerga tushib bo'ladi. 4-6 soatlardan keyin boshpana (RSB) shamollatiladi. Himoyalanuvchi odamlar tashqariga chiqqanda, albatta, himoya vositalarini kiyib 15-20 minut RSB dan tashqarida bo'lishlari mumkin. Agar tashqarida radiatsiya darajasi juda yuqori bo'lsa, u holda boshpana shamollatilayotganda odamlar nafas organlariga himoyalovchi vositalarni kiyib o'tirishlari zarur.

Oddiy saqlovchi boshpana - bu yerto'ladir. Fuqarolarni muhofaza qilishda oddiy saqlovchi boshpanalar, (yerto'lalar) alohida o'rin tutadi. Yerto'lalar qurilish konstruksiyasiga ko'ra oddiy himoya inshootlari qatoriga kiradi, chunki uni qurish juda qisqa vaqtda amalga oshiriladi. Ular ochiq va yopiq ko'rinishda bo'ladi. Ochiq yerto'lalarda odamlar radiaktiv shikastlanishdan ikki-uch marta kam zararlanadi (agar yerto'la dezaktivatsiya qilinmasa) va 20 barobarigacha (agar yerto'la dezaktivatsiya qilinsa) kam nurlanish dozasini oladi. Yopiq yerto'lalar esa radioaktiv zararlanishni 40-50 marta kamaytiradi. Yerto'lalar chuqurligi 200 sm, kengligi 120 sm, pastki qismi esa 80 sm, uzunligi esa odamlar soniga qarab tayyorlanadi.

Ochiq yerto'lada fuqarolar himoya vositalaridan foydalangan holda saqlanadilar. Tuproq, poxol yoki qamish bilan yopilgan yopiq yerto'lalar radioaktiv changlarni, biologik tumanlarni, kimyoviy qurollarni kiyim-kechaklarga, terilarga tushishidan saqlovchi boshpana hisoblanadi.

Fuqarolarni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish.

Qirg'in qurollari ta'siridan saqlash usullaridan yana biri - bu fuqarolarni falokat yuz bergan joydan vaqtinchalik uzoqlashtirish yoki butkul evakuatsiya qilish hisoblanadi. Ish bilan mashg'ul bo'lgan odamlarni harbiy vaqtda vaqtinchalik shahardan tashqari hududga yoki boshqa qishloqqa ko'chirishni biz uzoqlashtirish deb bilamiz. Lekin bunda ishchi xizmatchilar vaqtincha zararlangan hududdan chiqib turadilar. Qaytadan yana ishga kelganlarida hamma ehtiyot choralarini ko'rib, o'z faoliyatlarini boshlaydilar. Demak, vaqtinchalik ko'chirishda ishlovchi odamlar ma'lum bir vaqt dam olib keladilar.

Aloqa va xabar berishning tizimi

Har qanday favqulodda vaziyat yuz berganda aholi e'tiborini tortish uchun elektrosirenalardan foydalaniladi, uning ovozi fuqaro muhofazasida **«Diqqat hammaga» (Diqqat barchaga)** degan signalni bildiradi.

Xabar berish tizimi markazlashgan va xabar berish cheklangan quyi tizimlarga bo'linadi.

Aloqa va xabar berishning markazlashgan tizimi.

Fuqaro muxofazasining markazlashgan xabar berish tizimi deganda tinchlik va xarbiy harakatlar davrida fuqaro muxofazasiga mas'ul xodimlarga va Respublika aholisiga signal va kerakli axborotlarni tezlikda etkazib berishga mo'ljallangan texnik vositalar, aloqa kanali, radio va televideniemajmuasi tushiniladi.

O'z vazifalariga qarab markazlashgan xabar berish tizimi Respublika, viloyat, tuman, shahar, inshoot miqiyosida tuziladi.

Respublika, viloyat, rayon va shahar aholisiga markazlashgan holda xabar berish tizimining maxsus jihozlangan texnik vositalari Favqulodda vaziyatlar vazirligining xududiy boshqarmalari tasarrufida bo'ladi.

O'z vazifalariga qarab markazlashgan xabar berish tizimi Respublika, viloyat, tuman, shahar, inshoot miqiyosida tuziladi.

Respublika, viloyat, rayon va shahar aholisiga markazlashgan holda xabar berish tizimining maxsus jihozlangan texnik vositalari Favqulodda vaziyatlar vazirligining xududiy boshqarmalari ta'sarrufida bo'ladi. Bu texnik vositalar qoida bo'yicha O'zbekiston pochta va telekommunikatsiya agentligi korxonalarida joylashtiriladi. Xabar berish apparatlari favqulodda vaziyat buyicha shahar (tuman) bulimlarida urnatiladi, agarda bunday bulimlar mavjud bulmasa kechayu-kunduz tezkor navbatchilik tashkil qilingan joylarga o'rnatiladi.

Markazlashgan xabar berish tizimi o'ziga yarasha qulayliklarga ega.

Birinchidan, sirenani ovozi shahar, tuman, viloyatning barcha aholisini e'tiborini jalb qilish imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, uni ham tinchlik davrida - tabiiy ofat, avariya sodir bo'lganda, ham harbiy davrda qo'llash mumkin. Bulardan tashqari aholi markazlashgan xabar berish tizimidan aloqa va radio tarmoqlari orqali ogzaki axborotlar oladi.

Shaharlarda, qishloqlarda, tumanlarda va xalq xo'jaligi bo'ektlarida ovozli signallarni va og'zaki xabarlarni etkazuvchi barcha xabar beruvchi vositalarni yagona markazlashgan xabar berish tizimiga birlashtiruvchi maxsus apparatlar mavjud. Ular yordamida elektrosirenalarni boshqarish, raxbar xodimlarga uy va xizmat telefonlari orqali xabar berish mumkin va boshqa xabar berish vositalarini ulash mumkin.

Xabar berishning markazlashgan tizimi:

- shaharlarda, tumanlarda, xalq xo'jaligi ob'ektlarida va qishloq joylarda yirik aholi punktlarida markazlashgan va markazlashmagan tarzda «**Diqqat hammaga**» signali berish;

- simli eshittirish tarmoqlari va mahalliy radio eshittirish stantsiyalarida og'zaki axborot berish yo'li bilan aholini xabarlash:

- signallarni va axborotlarni Respublika, viloyat, shahar, tuman, vazirlik va idoralarning shaharlardagi va shahardan tashqari zonalaridagi boshqaruv punktlariga, ichki ishlar shahar, tuman bo'limlariga etkazish;

- xonadon va xizmat telefonlarida mansabdor shaxslarga doimiy xabar berish;

- fuqaro muxofazasi xabar berish signallarini xalq xo'jaligi ob'ektlari ishchilari, xizmatchilariga, fuqaro muxofazasi tuzilmalariga va O'zbekiston Respublikasining barcha aholisiga berishni ta'minlashi kerak.

Xabar berishning cheklangan tizimlari.

Halokatli suv osish ehtimoli bor zonalarda, atom energetikasi bo'ektlari va kimyoviy xavfli ob'ektlar turgan joylarda aholiga tezroq xabar berishning cheklangan tizimlarini yaratish masalasiga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Bunday tizimlar yordamida avariya sodir bo'lgan o'bektdagi ishchi va xizmatchilargagina emas, balki zaxarlanish, vayron bo'lish yoki halokatli suv bosish ehtimoli bor zonaga tushib qoladigan aholiga ham vaqtida xabar berish mumkin bo'ladi.

Operativlik - cheklangan tizimlarni asosiy avfzalligi bo'lib, tezlik bilan xabar berishdan iborat. Masalan: navbatchi nozim (dispetcher) tang kelib qolgan paytlarda bir qarorga kelib, darhol signal berish mumkin.

Cheklangan tizimlar odatda, signal beruvchi qurilmalardan (datchiklardan) boshlanadi. Ular kimyo inshootlariga yoki to'gonlar korpusiga o'rnatilib quyiladi. Signal datchiklardan navbatchi nozimga tushadi, nozim inshootda ro'y bergan favqulodda vaziyat haqida boshqarish pulti elektron qurilmalari va o'zatkich (peredatchik) orqali, telefonlar va radiokarnaylar orqali e'lon qilinadi.

Aloqa va xabar berishning markazlashtirilgan va cheklangan tizimlarini tuzish va doimiy holda shay holda saqlab turish aholiga favqulodda vaziyat xavfi borligi yoki xavfni yuzaga kelishi haqidagi signal va axborotlarni o'z vaqtida etkazish imkoniyatini beradi hamda boshqaruv punktlari va barqaror aloqaning borligi rahbarlikni muvaffaqiyatli olib borish, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha o'zaro hamkorlikni tashkil qilishga sharoit yaratib beradi.

Aloqa va xabar berishni tashkil etish.

Fuqaro muxofazasi xavf-xatar haqida yoki uning yuz berishi mumkinligi tugrisida uz vaqtida xabar va ma'lumot berishdan boshlanadi.

Aholiga xabar berish - bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, zilzila, suv bosishi yoki boshka tabiiy ofatlar xakida ogoxlantirish bo'lib, bo'lib o'tgan avariya, katastroflar ha'qda xabar berishdir.

Xabar berish aholiga tushunarli, avvaldan belgilangan shartli signallardan (sirena ovozi, korxona va muassasalarda beriladigan signallar) boshlanadi. Maqsad aholi e'tiborini insonlar hayoti va salomatligiga xavf soluvchi qandaydir vaziyatlarda harakat tartibini tushuntirishdan iborat.

Aloqa vositalari va xabar berish usullari avvaldan rejalashtirilgan va tashkil qilingan bo'lishi kerak. Fuqaro muxofazasi tadbirlari o'tkazishning barcha rejimlarida aloqa va xabar berish vositalari asosiy o'rinni egallaydi.

Har qanday xavf-xatar holatida elektr sirenalar ishga tushiriladi. Ularning hayqirig'iga korxonalarning uzuq-uzuq gudoklari jo'r bo'ladi, ya'ni «**Hamma diqqat qilsin**» degan signal beriladi.

Sirena ovozi eshitilgan zahoti televizor, radiopriyomnik, radiokarnaylarni ishlatib quyib, markaziy hokimiyat organlari yoki favqulodda vaziyat boshqarmasining xabarlarini tinglash kerak.

Bu tabiiy ofat avariya oqibatlarini tugatguncha davom etishi lozim. Aholi punktlarining va xalq xo'jalagi ob'ektlarining radiotranslyatsiya uzellari kechayu-kunduz ishlashga o'tkazilishi kerak.

Favqulodda vaziyat yuz bergan joyda aholiga xabar berish tartibi.

Radioeshittirish va televideniya (jo'r bo'ladigan radiouzatkichlarni ham qo'shib) Respublika aholisiga xabar berish va ommaviy axborotni etkazishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Fuqaro muxoazasi xabar berish signallari orqali, zaxarlanish va xalokatli suv bosish xavfi xaqidagi axborotni Respublika (maxalliy) eshittirishlarida ovozli xabar tarzida aholiga etkaziladi.

Fuqaro muxofazasi xabar berish signallari va tegishli axborot butun xududga ham, shuningdek xududlarni tanlab olib (viloyat tumanini) ham berilishi mumkin.

Ovozli xabarlarni aloqa vazirligining yoki davlat teleradiosining eshittirish studiyalaridagi malakali suxandonlar (diktorlar) yoki viloyat, shahar qishloq tumanlari ma'muriy markazlardagi studiyalarning va xalq xo'jaligi inshootlari nozimlik (dispetcher) punktlarining malakali suxandonlari eshittiradilar.

Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari asoslangan ovozli xabarlar matnini davlat va rus tillarida iqlab chiqishlari, ularni magnit tasmaiga (videokassetalar) yozib quyishlari kerak. Magnit plenkasidagi yozuvlar (videokassetalar) favqulodda vaziyatlar boshkarmasida (tezkor navbatchida) va inshootlarda hamda Aloqa vazirligining va Davlat teleradiosining studiyalarida belgilangan taritbda uyushqoqlik bilan saqlanishi kerak. Kechiktirib bo'lmaydigan favqulotda hollarda ovozli qisqa xabarlarni favqulotda vaziyatlar boshqarmasi tezkor navbatchisining bevosita ish urnidan magnit tasmaidan yoki to'g'ridan-to'g'ri eshittirish tarzida eshittirishga tegishli fuqaro muxofazasi boshliqlarining ruxsati bilangina yo'l qo'yiladi.

Xabar berish signallari televideniya ham, efirga bevosita uzatib yoki videomagnit tasmaiga yozib olib etkaziladi. Bu maqsadda Respublika eshittirish dasturlari ishga solinadi.

Respublika aloqa va xabar berish xizmati kuchlari va vositalarining tarkibi. Aloqa va xabar berish tizimiga qo'yiladigan talablar. Aloqaning asosiy texnik vositalari.

Aloqa boshqarishni ta'minlashdagi asosiy vosita hisoblanadi. Vaqtida barqaror aloqa tashkil etish va barqrorligini ta'minlab turish barcha bo'g'inlardagi fuqaro muhofazasi raxbarlarining, qo'mondon va boshliqlar tarkibining, fuqaro muxofazasi bo'limlarining, boshqarmalarining, xabar berish va aloqa xizmatining eng muhim vazifasidir.

Respublikada, viloyatda, shaharda, tumanda, vazirliklarda davlat qo'mitalarida, idora yoki xalq xojalik inshootlarida fuqaro muxofazasi aloqasini va xabar berishni tashkil etishga tegishli fuqaro muxofazasi boshliqlari mas'uldirlar.

O'zbekiston Respublikasining «Aholini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish tugrisida»gi qonunda «Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, shuningdek, tashkilot va korxona raxbarlari aholining va xududlarning favqulodda vaziyatlardan muxofazalanish holati hamda ularning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan ko'rilgan choralar haqida, oldindan bashorat qilinayotgan va ro'y bergan favqulodda vaziyatlar to'g'risida aholini muxofaza qilishning usul va yo'llari haqida

ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kanallar orqali aholini o'z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shart» deb bayon etilgan.

Axborotlarning o'z vaqtida berilishini va ishonchli bo'lishi printsiplari juda muhim ahamiyatga ega. Bu printsiplarning bajarilishi favqulodda vaziyatlarni oldini olish va talofatlarni kamaytirish, uning oqibatlarini tugatish borasida olib boriladigan tadbirlarni muvvaqiyatli amalga oshirishini ta'minlaydi.

Aloqa va xabar berish tizimining asosiy vazifalari:

- O'zbekiston Respublikasi FVDTni ishlash rejimlarini o'rnatish signallarini (komandalarini) vaqtida berish (uzatish) va qabul qilish;
- fuqaro muxofazasi bo'limlari boshliqlari, xizmatlari va kuchlari signallarini qabul qilish va berish;
- fuqaro muxofazasi boshqarish organlari o'rtasida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga axborot almashinishining ishonchli bo'lishi;
- fuqaro muxofazasi boshqaruv organlarining xabar berish signallarini berishi, shuningdek, bu signallarni fuqaro muxofazasi organlari va aholiga etkazishdan iborat.

Aloqa va xabar berish tizimiga quyiladigan talablar

Talablar	Mazmuni
Barqarorlik	Aloqa tizimining favqulodda vaziyatlar yuz berganda zararlantiruvchi omillarni ta'sir etish sharoitida ham ishonchligini yuqotmasligi va yashovchanligi, tashqi ta'sirga bardoshlilik, mustahkamliligi.
Harakatchanlik	Aloqa tizimining vujudga kelgan sharoitga mos ravishda o'z vaqtida yoyish, kengaytirish va uning strukturasi o'zgartirish qobiliyati.
O'z vaqtida bo'lishi	Aloqa tizimini fuqaro muxofazasi signallarini, axborotlarini ko'rsatilgan vaqtda uzatish qobiliyatidir.
Ishonchlilik	Aloqa tizimini uzatuvchi xabarlarini o'rnatilgan aniqlikda yetib borishini ta'minlash qobiliyatidir.
Yashirin	Aloqa tizimini uzalayotgan axborotlarini, ma'lumotlarini va ularni uzatish joyini dushmanlardan yashirish qobiliyatidir.

Aloqa tizimida barqarorlikka:

- bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni zararlantiruvchi omillarini ta'sir etishini e'tiborga olib tashkilotlar tomonidan tuzilgan aloqa tizimini tashkil etish bilan;
- aloqa uzellari qismlarini ximoya inshootlariga joylashtirish bilan;
- turli aloqa vositalarini birgalikda qo'llash yo'li bilan;
- aylanib utish va rezerv aloqa kanallari (yunalishlari) tashkil qilish bilan;

- aloqani rezerv kuch va vositalarini tuzish, ularni to'g'ri joylashtirish va o'z vaqtida qo'llash bilan;
- aloqa vositalari va kanallar bilan tezda mo'ljalga o'tish orqali;
- aloqa shaxobchalari va yo'llari, uzellarni qo'riqlash va mudofa qilish bilan;
- aloqa bo'limlari va tuzilmalarini texnika va materiallar bilan o'z vaqtida ta'minlash orqali erishiladi.

Harakatchanlikka:

- aloqa tizimini yoyish va qismlarini yig'ish vaqtini kamaytirish bilan;
- aloqa kuch va vositalarini to'g'ri joylashtirish va rezervlaridan to'g'ri foydalanish bilan;
- aloqa kanallari, kuchlari va vositalari bilan tezlikda harakat qilish bilan;
- aloqa tizimini tez va barqaror boshqarish bilan erishiladi.

Aloqa tizimini ishonchligiga:

- aloqa kanallariva vositalarining texnik tavsifini o'rnatilgan (qabul qilingan) parametrlarda saqlab turish bilan;
- o'ta muhim axborotlarni uzatish uchun yuqori sifatli kanallarni qo'llash bilan;
- bir paytning o'zida bitta kanal orqali xabarlarini qaytadan uzatish bilan;
- orqaga tekshirish va o'ta ishonchli apparatlarni qo'llash bilan erishiladi.

Aloqa tizimining yashirinligiga:

- maxfiylashtirish, shifrlash, kodlashtirish apparatlarni va yashirin boshqaruv xujjatlarini qo'llash bilan;
- o'zaro gaplashish, ma'lumotlarni uzatish bo'yicha qabul qilingan koida va tartiblarni saqlash bilan;
- aloqani ishlatishga iloji boricha kamroq odamlarni jalb qilish bilan;
- aloqa vositalarini to'g'ri joylashtirish, ularni ishlash tartibiga qat'iy rioya qilish bilan erishiladi.

Aholini radiatsiyadan muhofaza qilish maqsadida turli xildagi inshootlar mavjud. Muhofaza inshootlari aholini muhafazalovchi ishonchli vositadir. Bu inshootlar aholini turli tusdagi favqulodda vaziyatlardan hamda ommaviy qirg'in qurollarning ta'sir etish omillaridan saqlaydigan boshpana hisoblanadi. Muhafazalovchi inshootlar muhofazalash xususiyatiga ko'ra, pana va radiatsiyaga qarshi pana joylarga bo'linadi. Bunday inshootlar quyidagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda:

-yo'nalishga ko'ra: fuqarolarni saqlashga, boshqaruv tizimlarini joylashtirishga mo'ljallangan;

-joylashgan o'rniga ko'ra: alohida joylashgan (metropolitanlar va tog'-kon qurilishlari, shaxtalari);

Qurilish muddatiga ko'ra: boshpana RSB (radiatsiyadan saqlovchi boshpana) va oddiy boshpanalar quriladi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda aholini fuqaro muhofazasi himoya inshootlarida yashirish kelib chiqishi mumkin bo'lgan ko'plab yo'qotishlarni olidini oluvchi eng samarali usulidir. Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganida fuqaro muhofazasining "Havo trevogasi", "Radiatsiyaviy xavf" va "Kimyoviy trevoga" komandalari beriladi.

"Kimyoviy trevoga" komandasi berilganida panajoylarga yashiruvchilarga ob'ektning fuqaro muhofazasi xodimlari, fuqaro muhofazasi shtabi xodimlari tomonidan shaxsiy himoya vositalarini tarqatishni tashkil etishlari kerak. Panajoylarga kirish to'g'risida buyruqni ob'ekt rahbari-fuqaro muhofazasi boshlig'i berishi kerak. Agarda favqulodda vaziyat sodir bo'lgan vaqtda aholining panajoylarga o'z vaqtida etib kela olmagan qismi panajoylarga kirishdan oldin ularga panajoyning maxsus joyida qisman dezinfeksiya qilinadi. Panajoylarda aholi joylashishi uchun strelkalar o'rnatilgan bo'ladi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan hududlardan jabrlanganlarni yoki jabrlanish ehtimoli tug'ilganda aholini panajoylarga joylashtirish tadbirlarini qoniqarli va samarali olib borish maqsadida ob'ekt fuqaro muhofazasi va fuqaro muhofazasi shtabi xodimlaridan iborat bo'lgan zvenolar tuziladi. Panajoylarga aholini tartib bilan, kolonnalarga ajratgan holda olib kiriladi. Kolonna boshlig'ida hududning va panajoylarning chizmasi (sxema) bo'lishi kerak. Ko'chirilayotganlar tarkibida agarda bemorlar bo'lsa, ularga birinchi tibbiy yordami ko'rsatilib, ularga sog'lom kishilar birkirib qo'yiladi.

Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududda komandasiz shaxsiy himoya vositalarini echish, yakka holda yurish, osmonda osilib turgan xavfli uskunalar ostida turish, erda yotgan elektr simlariga yaqinlashish yoki tegish, tutun chiqqan joylarga komandasiz bormaslik lozim.

Panajoylarga yashiringan aholining majburiyatlari:

-tez va chaqqonlik bilan ko'rsatilgan joylarni tartibni saqlagan holada egallashlari;

-ichki tartib-qoidalariga qat'iy rioya etishlari;

-vahimaga tushmaslik, o'zlarini erkin his qilishlari;

-qariyalarga, ayollarga va yosh bolalarga yordam ko'rsatishlari;

-shaxsiy himoya vositalarini tayyor holatda saqlashlari;

-panajoylarda bo'lgan vaqtlarida texnika xavfsizligi qoidalariga (elektr tarmoqlaridan o'zboshimcha foydalanish, kislorod solingan balonlarga va boshqa asbob-uskunalariga yaqinlashmaslik) qat'iy rioya qilishlari;

-xavf tugaganidan keyin faqat fuqaro muhofazasi yoki fuqaro muhofazasi shtabi xodimlarining komandasi bilan tashqariga tartibni saqlagan holda chiqishlari.

Panajoylardan aholini majburiy chiqishlarini taqozo etadigan sabablar:

-panajoylardagi asbob uskunalar yashiringanlarning hayotiga xavf tug'diradigan darajada buzilishi;

-panajoylarni suv bosganda;

-panajoylarda yong'in chiqqanda;

-panajoylardagi havo miqdorida xavfli gazlarning tarqalishida, kislorod miqdorining keskin kamayib ketishida.

YUqorida ko'rsatilgan salbiy holatlar sodir bo'lganida, yashiringan aholi panajoydan uzoq bo'lmagan boshqa himoya inshootlariga o'tkaziladi. Bu tadbirlarni amalga oshirish paytida yashiringanlar albatta shaxsiy himoya vositalari bilan to'liq ta'minlangan bo'lishlari zarur.

Fuqaro muhofazasi himoya inshootlarida radiaktiv zaharlovchi moddalar va bakterial vositalar hamda oddiy qurollar ta'siridan himoya qilishga, ommaviy zarar etkazuvchi qurollar ta'siridan to'liq saqlaydi.

Himoya inshootlari uch xil turga bo'linadi:

1.Boshpanalar. Ular germetik holda qurilgan bo'lib, ommaviy zarar etkazuvchi qurol-yadro zaryadi portlashidan hosil bo'lgan shikastlovchi omillardan hamda zaharlovchi moddalar va bakterial vosita aerozollaridan to'liq himoya qiladi.

2.Radatsiyaga qarshi pana joylar radiaktiv zararlanish paydo bo'lgan joylarda aholini radatsion zararlanishdan himoya qiladi.

Z. Eng oddiy pana joylar - urush vaqtida jang maydonlarida ushbu inshootlar hamisha yo'l ostidagi vositalar yordamida quriladi. Fuqaro muhofazasi boshpanalari, yashirin joylar ishlash yoki yashash joylari yaqinida joylashadi.

Boshpanalar, ularning tasnifi, ichki jihozlanishi va tinchlik davrida ulardan foydalanish:

Aholini yadro portlashining hamma omillaridan, shuningdek kiyoviy va bakterial qurollaridan saqlash uchun mo'ljallangan germetik turdagi himoyalangan binolar boshpanalar deyiladi. Boshpanalar betondan yoki temir betondan er ostiga quriladi. Boshpanalarning himoya qilish xususiyati 100% gacha bo'ladi.

Zarba to'liqini ta'siridan himoya qilish xususiyatiga qarab boshpanalar quyidagi sinflarga bo'linadi:

1-sinf -5kg/kv sm gacha.

2-sinf - Z kg/kv sm gacha.

3-sinf - 2kg/kv sm gacha.

4-sinf - 1kg/kv sm gacha.

Boshpanalar sig'imiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

a) kichik boshpana-150 nafar kishilarga mo'ljallangan;

b) o'rtacha boshpana-150-450 nafar kishilarga mo'ljallangan;

v) katta boshpana-450 va undan ortiq miqdordagi kishilarga mo'ljallangan..

Boshpanalar joylashishiga qarab 2 xil ko'rinishda bo'ladi:

a) qurilmalar tarkibida (er to'lada);

b) ayrim qurilmalar (mustaqil qurilgan).

Boshpanalar qurilish muddatiga ko'ra 2 turga bo'ladi:

a) tinchlik davrida qurilgan boshpanalar;

b) dushman hujumi xavfi tug'ilganda qurilgan boshpanalar.

Jihozlanishi jihatidan boshpanalar:

-filtr-ventilyasion qurilmasi bor boshpanalar;

-filtr-ventilyasion qurilmasiz boshpanalarga bo'linadi.

Boshpana binolarining tagida yoki er ostiga alohida quriladi. Boshpanalarning tepasi juda pishiq va mustaxkam, devorlari zarb to'liqligiga va singuvchi radiatsiyaga chidamli bo'lishi kerak. Tashqaridan zaharlangan havo kirmasligi uchun germetik ravishda ishlangan bo'lishi zarur. Boshpanaga kirish uchun 2 ta eshik quriladi. Birinchi eshik metaldan pishiq ishlanadi, qolgan 2 tasi gaz o'tkazmaydigan materiallardan ishlangan bo'lishi kerak. Eshiklar zich yopilishi uchun chetiga rezina yopishtiriladi. Bu eshiklar orasida 2 ta dahliz hosil qilinadi. Kirish eshiklaridan tashqari, kirish joylari imoratlar qulashi natijasida bekilib qolgan hollarda foydalanish uchun er tagidan g'isht, temir-beton teshik quvurlar qurilishi kerak. Boshpanada havo etarli bo'lishi uchun filtr-ventilyasiya qurilma o'rnatiladi (FVA-49, FVK-1, FVK-2). Bu qurilmalar ikki rejimda ishlashi mumkin: sof va filtr-ventilyasiya.

1-rejimda havo changga qarshi to'rsimon filtr bilan tozalanadi. To'rlar maxsus moy bilan moylanadi. Havo filtrdan o'tayotgan chang va radiaktiv moddalar to'ring moy qatlamiga yopishib qoladi. Moy filtrning bitta yacheykasining unumdorligi soatiga 1000-1300 m.kub.

2-rejimda havo zaharli moddalar va bakterologik zaharli moddalar o'tkazmaydigan niqoblar (protivogaz) bo'yicha ishlaydigan filtr bilan tozalanadi. Havo miqdori sof ventilyasiya rejimi bo'yicha boshqaruv punktida ishlayotgan bir odam uchun 5m Fsoat bo'lishi kerak. Kuchli yong'in ehtimoli bo'lgan hududda joylashgan panajoy atmosferasida kislorodning miqdori pastligi, SO₂ miqdori yuqoriligi yoki kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda (KTZM) ning miqdorining oshganligi pana joylarning to'la izolyasiyasi va ulardan havoni rengeratsiya rejimidan foydalanishni ko'zda tutiladi. (RP-100 rengerativ moslamalardan foydalanish) RP-100 rengerativ patronning ishlash tamoyili havo patronidan o'tayotgan tarkibida kalsiy oksidi bor kimyoviy yutgich bilan reaksiyaga kiruvchi SO₂ gazidan tozalanadi. Reaksiya suv va issiqlik ajralishi bilan kechadi. Rengerativ patronlardan foydalanishda kislorod etishmasligini oldini olish uchun pana joyga reduktor orqali uzatiladigan kislorod balonlardan to'ldiriladi.

Boshpana xonalari bir nechtaga bo'ladi. Asosiy xona - odamlarni joylashtirish xonasi, yordamchi xona - filtr-ventilyasion kamera xonasi. Bundan tashqari oziq-ovqat, suv zahirasi xonasi, kislorodli balonlar uchun mo'ljallangan xona, bufet, dizel elektro-stansiyalar uchun mo'ljallangan xonalar kiradi.

Boshpanalarda ichimlik suvi quvurlari, kanalizatsiya, telefon, radio, elektr toki, ayrim asboblari va yong'in qarshi asboblari bo'lishi shart. Bundan tashqari DP-5 turidagi dozimetr asbobi va kimyoviy razvetka asboblari ham bo'lishi kerak. Boshpanaga yashirinuvchilar uchun 0,5-1,8 m. o'lchamdagi 2 yoki 3 qavatli so'rilar va o'tirish uchun 45-55 sm o'lchamdagi o'rindiqlar o'rnatilishi lozim. Bir nafar yashirinuvchi uchun joy me'yori 0,5m.kv. ni tashkil qiladi.

Aholi boshpanaga fuqaro muhofazasi signallari berilganidan so'ng kirishlari lozim. Boshpanada chekish, shovqin ko'tarish, hamda lampa yoqish, uy hayvonlarini, qo'pol buyumlarni olib kirish ma'n etiladi. SHaxsiy himoya vositalarini tayyor holda tutish kerak. Panajoylardan tashqariga radiatsiya darajasi

pasayib, hudud to'la zararsizlantirilgandan keyin signal bo'yicha chiqishga ruxsat etiladi. Panajoylarda jabrlanganlarga tibbiyot xonasida tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Boshpananing sanitar holatini ana shu post uchun mas'ul shaxslar nazorat qiladi. Boshpanada quyidagi sanitariya gigiena talablari qo'yiladi:

- panajoylar toza va yaxshi sanitariya holatida bo'lishi shart.

- panajoylarni har kuni 1% xloramin eritmasi bilan tozalash, vaqti-vaqtida to'la dezinfeksiya qilish zarur.

Boshpanalarda havo tarkibidagi korbonat angdirid miqdori 1% (35 gacha) -havo harorati – 23 gradus (maksimum 31), nisbiy namlik-70% (maksimum 80%) bo'lishi kerak. Suv me'yori: 1 kishi uchun 1 sutkaga 10 l., shundan ichish uchun 6 l., sanuzel uchun 4l. Panajoylarda xizmat ko'rsatish himoya qurilmalarining mas'ul xodimlari zimmasiga tushadi. Har bir pana joyga etti kishidan iborat xizmat ko'rsatish zonasi ajratiladi. Zveno boshlig'i pana joy komendanti hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatning oqibatlarini barham topgandan so'ng, aholi panajoylarni tark etishadi. Panajoy xonalari shamollatilib, u erda yig'ishtirish ishlari olib boriladi.

Tinchlik davrida panajoylarni madaniy-maishiy inshootlar (kichik ustaxonalar, ishchilar aholi bilan shug'illanadigan sinflar, fuqaro muhofazasi o'quv punktlari, har xil to'garaklar ishlashi uchun joy, engil avtomashinalar uchun garaj, savdo va ovqatlanish punktlari omborlari) sifatida foydalanish mumkin. Tinchlik davrida panajoylardan ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanish, ularni himoya xususiyatlari va yashirinuvchilarni qabul qilishga tayyorgarligini buzmaslik kerak.

Er osti qurilmalaridan boshpana sifatida foydalanish.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda panajoy sifatida metropolitenlardan foydalanish mumkin. Bu alohida uchastkalarda joylashgan chuqurlashtirilgan temir-beton germetik qurilmalardir. Metropoliten ham er osti muhofaza inshootlariga kirishi mumkin. Bulardan tashqari er to'lalar, alohida turdagi chuqurliklar, binolarning pastki ratlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun mo'ljallangan omborlar va boshqa qurilmalarni er osti muhofaza qurilmalari sifatida ishlatish mumkin.

Oddiy turdagi boshpana yoki pana joylarga erto'lalar, alohida turdagi chuqurliklar, binolarning pastki ratlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash uchun qurilgan omborlar va boshqa qurilmalar moslashtiriladi. Ular qurilish konstruksiyasiga ko'ra, oddiy himoya inshootlariga kiradi. Chunki, uni qurish uchun qisqa vaqt sarf etiladi.

Oddiy pana joylar ochiq va yopiq ko'rinishda bo'ladi. Tirqishlar (teshiklar)ni aholi qo'lda bor vositalar bilan mahalliy materiallardan tayyorlaydi. Ochiq tirqish to'liq zarbasini 1,5-2 marotaba, yorug'lik nurlari va oqib kiruvchi radiatsiyani 1,5-2 marta, radioaktiv zaharlanish hududida nurlanish darajasini 2-3 marta kamaytiradi.

Yopiq tirqish yorug'lik nurlaridan to'la, to'liq zarbasidan 2,5-3 marta, oqib kiruvchi radiatsiya va radioaktiv nurlanishdan 200-300 marta muhofazalaydi. U teri va kiyimga radioaktiv, zaharlovchi modda va bakteriyali vositalar tushishidan saqlaydi. U ochiq joyda ustiga hech narsa qulamaydigan, yomg'ir suvi, suv

bosmaydigan joyga quriladi. Oldin ochiq holda tayyorlanadi. U ilon izi kabi to'g'ri chiziqli 15 metrdan ortiq bo'lmagan bir nechta qismlardan (bo'lak) iborat. CHuqirligi 1,8-2 metr, yuqori qismining kengligi 1,1-1,2 metr, tubi 0,8 metr. Tirqish uzunligi har birodamga 0,5-0,6 metr hisobida aniqlanadi.

Tirqishlarining sig'im miqdori 10-15 odamdan ko'pi bilan 50 odamgacha. Tirqishlar ochiq erto'laday qaziladi, taxta, yog'och bilan mahkamlanadi, ostidan uzunasiga kichik ariqcha qaziladi. O'tirishga so'ri tayyorlanadi. Ustini yog'och bo'laklari, taxta yoki boshqa materiallar bilan yopib, qalinligi 20 sm. Qilib suvab, ustidan yana chetlarining qalinligi 20 sm., o'rtasi 40 sm. qilib tuproq tortib mahkamlanadi. CHetlariga ikki tarafdin ariqchalar qaziladi. YOmng'ir suvi oqib ketishi uchun tomining umumiy qalinligi 50-60 sm. bo'ladi.

Kichik-kichik eshiklar zich yopilgan dahlizdan ichkariga kiriladigan eshikka qalin matodan parda yopiladi.

Panajoy tarkibiga kiruvchi joylarni (germetizatsiya), ya'ni havo o'tmaydigan qilish uchun sinchkovlik bilan hamma teshiklarini, tirqishlar, yoriqlar, tepadagi ochiq oynalarni, deraza teshiklarini, isitadigan va suv o'tkazadigan quvurlarda hosil bo'lgan teshik joylar yopib chiqiladi. Eshiklarni ruberoid, linoleum va boshqa qalin materiallar bilan, ularning chetlarini esa rezina bilan o'rab (yopishtirib) chiqiladi. Maxsus joylarning himoya xususiyatini oshirish uchun devorlar, eshiklarning qalinligini oshirish, panajoylarning himoya qilish xususiyatini oshirish uchun yog'och yoki temir tirgaklar, balonlar o'rnatishni kuchaytirish kerak. Erning ustki qatlamidan yuqorida joylashgan devorlarning tashqi tomonidan chiqish uchun deraza va qo'shimcha eshiklar quriladi. Zaruriyatga qarab, uni pana qilish kuchaytiriladi, so'ngra uning ustiga 60-70 sm qalinlikda tuproq sepiladi, havo tortib oluvchi moslama qo'yiladi, eshikdan gamma nurlarining kirishidan himoyalash uchun kirish qarshisida 1,5 metr masofada 40-50 sm qalinlikda g'ishtdan devor quriladi. Panajoy ostidagi binolarning birinchi qavatlarini maxsuslashtirishda himoya xususiyatini oshirish, hamma joylarni berkitish ishlari olib boriladi, ochiq joylarni g'isht, qum solingan, qop bilan berkitib chegaralanadi va h.k. Sabzavot saqlanadigan ichki kurilmalarning devorlaridagi barcha teshik va yoriq joylar sinchkovlik bilan berkitilib chiqilishi kerak. Panajoyning tuproq katlami 60-70 sm gacha oshirib boriladi va devorni er ustidan baland qilish uchun tuproq sepiladi. Sabzavot saqlanadigan panajoy ichiga faqat bitta kiradigan eshik qoldiriladi, qolganlari esa ko'rinmaydiga qilib tuproq bilan yopib tashlanadi.

Tog'-kon sanoati va ko'mir sanoati bor rayonlardagi aholi panajoy sifatida shaxtalardan ham foydalanishlari mumkin, qora va rangli metallurgiya zavodi ishchilari, qurilish materiallari ishlab chiqaradigan zavoddagilar va boshqalar er osti yullaridai foydalanishi mumkin. Kirish joylarning qurilishi va avariya holatlarida chiqib ketish joylari, avariya holatlarda odamlarni tepaga ko'tarilishi uchun vertikal zinapoyalar tayer holatda turishi, panajoylarni toza havo bilan ta'minlash, ichimlik suvi etkazib beradigan quvurlar tayyor holda turishi va boshqalar kiradi.

Jihozlanishning asosiy shartlari:

-kimyoviy va germetik to'siqlarni o'rnatish;

- kirish yo'llarini odamlarni tez o'tkazish uchun ta'minlash;
- odam ko'tarish uchun mexanizmlarni tayyorgarlik holatiga keltirish;
- yashirinuvchilarni hayot faoliyati uchun kerakli hamma narsalar bilan ta'minlash;
- yashirinuvchilarni shaxta suvlaridan foydalangan holda suv manbaalarini tashkil qilish;
- boshqaruv va sanitar punktlarini, oziq-ovqat omborlarini, aloqa uzatishni va qabul qilishni ta'minlash;
- iloji boricha ikki qavatli so'rilar va o'rindiqlarni o'rnatish;
- yong'inga qarshi vositalar bilan kerakli miqdorda ta'minlash kerak.

Er osti qurilmalarida havo oqib keladigan kanalning ichiga changni ushlab qoladigan ramka ko'rinishidagi filtr, ustiga doka tortilgan teshikli material o'rnatiladi.

Turli xil ratsiatsiya va boshqa shu kabi ofatlardan aholini himoya qilish uchun er osti qurilmalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- uch sutkadan kam bo'lmagan muddatda saqlash;
- suv bosmaydigan joylarga qurish;
- oqar suvlardan, kanalizatsiya kommunikatsiyalardan hamda qurilish kommunikatsiyalardan uzoqroq joylarda qurish;
- chiqish va kirish eshiklari bo'lishi.

